

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

INNOVATION AND PROGRESS

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

***Scientific-methodological, social, spiritual-educational
JOURNAL***

**2026-yil, 3-son
2026, Issue 3**

Bosh muharrir v.v.b.:

Sh.Ismoilov – Fizika matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas'ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tahrir hay'ati:

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.

F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.

G'.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent.

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.

D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

X.X.Matyaqubov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

N.Matyaqubov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.

M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

M.R.Xo'jamov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Z.Do'simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug'bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Qo'chqorova – Filologiya fanlari doktori, professor.

Q.Ergashev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O'razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G'ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, professor.

I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O'.X.Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

F. Kenjayev – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Sh.Alimova – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

M.K.Yuldasheva – Filologiya fanlari nomzodi.

Qozoqboy Yo'ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.

F.R.Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.

I.A.Ishonxanova – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

G.Sharipova – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.M.Sodikov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
S.S.Zokirov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.A.Urinov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
U.A.Otajonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.T.Bayxonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.B.Mullaboyev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.
M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.
M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.
O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).
L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).
V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).
H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog'iston).

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Xorazm viloyat bo'limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko'ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
 № 3 (38), Urganch innovatsion universiteti, 2026-yil

MUNDARIJA:
FILOLOGIYA

X.XASHIMOVA. Sun'iy intellekt asosida texnik terminlarni standartlashtirish modeli.	6
G.KAZAKOVA Askiya janrining poetik tabiati va ijtimoiy-funksional xususiyatlari....	14
M.MATNAZAROV Urbanonim va u bilan bog'liq terminlar tizimi.	18
R.MAXMUDOV, I.SAIDOVA Ogahiyning tarixiy asarlarida davlat tushunchasining ifodalanishi.	22
L.IKANOVA Masofaviy ta'limda ingliz tili kurslarini tashkil etishda CLT yondashuvi technology-enhanced communication va opinion-sharing metodlarining amaliy samaradorligi.	33
N.ATAJANOVA Ingliz va o'zbek tilidagi "Fashion blog" leksikasining milliy-madaniy o'ziga xosligi.	38
J.ASQAROVA Sehrli ertaklarda Zoomorf va Antromorf homiy obrazlari.	42
D.YULDASHEVA Britan va amerikan ingliz tilida modal fe'llarning funksional xususiyatlarining nazariy-qiyosiy tahlili.	48
M.ATAYEVA Onomastik birliklar tadqiqida gidronimlarning o'rni.	54
D.NIYAZMETOVA, B.PO'LOTOVA Ingliz va o'zbek tilidagi antroposentrik nutq akti frazeologizmlarining stilistik va kommunikativ funksiyalaril.	59
S.NORMETOVA Gender stereotiplarining ingliz media matnlarida baholovchi birliklar orqali ifodalanishi.	68
H.SHOKIROVA Nutqiy faollik nazariyasi.	73
A.TO'RAYEV Ingliz va o'zbek tillarida musiqiy lug'atning qatlamlari.	82
D.ESHANQULOV Xatak va Laylagon qishloqlaridagi o'simlik va gilyohlarining nomlari va ularning shifobaxsh xususiyatlari.	86
N.SHERMAMATOVA bo'Ston shahri urbonimlarining tarixiy-davriy tasnifi (istiqlol mahallasi ko'chalari misolida).	90
G.SATTOROVA Istiqlol davri hikoyalari syujetida an'ana, yangilik va o'ziga xosliklar.	96
D.NIYAZMETOVA, SH.ATABAYEVA Frazeologizmlarning amaliy kuchi va ularning kommunikativ funksiyalari.	102
M.NURUTDINOVA Meta tahlil hamda seo tadqiqot usullarining vizual mediaga integratsiyasi.	109
A.JUMABOYEVA Ijobiy istak bildiruvchi birliklarning struktural xususiyatlari haqida.	116
F.NAZAROVA Oltin o'rtaliq: "Muvozanat" romanidagi obrazlar tahlili.	122
N.NE'MATULLAYEVA Istiqlol davri adabiyotida "ayol" obrazi tasviri.	128
G.XUSANOVA O'zbek, ingliz va koreys tillaridagi o'yin nomlarida transonimizatsiya hodisasi.	133
B.KURBANBAYEVA O'zbek toponimlarini leksikografik tasvirlashning nazariy-metodologik asoslari.	139
O.BERDIEVA Onlayn kollaborativ hamkorlik: integrativ loyihalar tahlili.	147
M.ISMOILOVA Xokku an'analarining badiiy talqini.	153
I.ABDURAYIMOVA O'zbek va rus lirikasida she'riy maktub va uning ko'rinishlari. ...	158
Z.SAYFULLAYEVA "Temurnoma"lar syujetining qiyosiy tahlili.	165
S.TULIYEVA Tabobatga oid terminlarning tadqiqi va dolzarb vazifalari.	171
M.JABBOROVA Tasavvufiy qarashlarda ayol fenomeni talqini.	177
T.NAJMIDDINOV Xorxe Luis Borxes ijodiga jahon falsafiy madaniyatining ta'siri.	185

A.ABDULLAYEVA Ulug‘bek hamdam olim va munaqqid.	197
Y.BAXTIYAROVNA Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limotining shakllanishi va uning ijtimoiy-ma’naviy hayotga ta’siri (X–XIV asrlar).	201
M.QO‘CHQOROVA Bir she’r tarixi (Botuning “Kichkina armug‘onim” she’ri haqida).	207
G.RAXIMOVA Ogahiy lirikasida vaqt falsafasining raqamlardagi ifodasi.	212
D.SADIKOVA Ahmad Yassaviy ijodida til, poetika va matnshunoslik masalalari.	216
D.BAXRIDDINOVA “Elning dard-u g‘amlariga bir malham bo‘lib...”.	221

FILOLOGIYA**SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TEXNIK TERMINLARNI
STANDARTLASHTIRISH MODELI****UO'K 95(575.171)**

Xashimova Xurshida,
University of
Business and Science
Til va adabiyot
ta'limi kafedrası
dotsenti,
filologiya fanlari
bo'yicha falsafa
doktori
Namangan.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek texnik terminologiyasini sun'iy intellekt asosida standartlashtirishni ta'lim tizimiga joriy etishning konseptual modeli taklif etiladi. Hozirgi bosqichda mazkur model amaliyotga to'liq tatbiq etilmagan bo'lib, u nazariy-metodologik asoslar, xalqaro tajriba va terminologiya nazariyasi tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Maqolada modelning algoritmik tuzilishi, ta'lim jarayoniga integratsiya mexanizmlari hamda kutilayotgan pedagogik va lingvistik samaradorlik tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье предлагается концептуальная модель внедрения стандартизации узбекской технической терминологии на основе искусственного интеллекта в систему образования. На данном этапе модель носит теоретико-методологический характер и разработана с опорой на международный опыт и принципы терминологической теории. Анализируются алгоритмическая структура модели, механизмы её интеграции в образовательный процесс и предполагаемые педагогические и лингвистические результаты.

Annotation: This article proposes a conceptual model for implementing AI-based standardization of Uzbek technical terminology into the education system. At the current stage, the model remains theoretical and methodological in nature and has not yet been fully implemented in practice. The study outlines the algorithmic structure of the model, mechanisms for its integration into educational processes, and the expected pedagogical and linguistic outcomes.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, texnik terminologiya, ta'lim tizimi, standartlashtirish, terminologik model, normativ mezon, terminologik kompetensiya.

Ключевые слова: искусственный интеллект, техническая терминология, система образования, стандартизация, терминологическая модель,

нормативные критерии, терминологическая компетенция.

Key words: *artificial intelligence, technical terminology, education system, standardization, terminological model, normative criteria, terminological competence.*

Zamonaviy ta'lim tizimi ilmiy-texnik taraqqiyot sur'atlari bilan bevosita bog'liq holda rivojlanmoqda. Fan va texnologiyalar jadal yangilanayotgan sharoitda o'quv jarayonida qo'llanilayotgan terminologiyaning aniqligi va barqarorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Terminologiya nafaqat maxsus leksik qatlam, balki ilmiy bilimlarni kodlash, tizimlashtirish va uzatish mexanizmi sifatida qaraladi [3].

Texnik fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarida kuzatilayotgan ko'p variantlilik, sinonimik parallelizm va o'zlashma birliklarning tartibsiz qo'llanishi talabalarning tushuncha hosil qilish jarayonida qiyinchilik tug'diradi. Terminologiya nazariyasida qayd etilganidek, "bir tushuncha – bir termin" tamoyili ilmiy muloqot aniqligining asosiy sharti hisoblanadi [4].

ISO 704 standartida terminologik ishning markaziy vazifasi tushunchaviy aniqlikni ta'minlash ekani ta'kidlanadi [6]. Biroq o'zbek texnik terminologiyasida bu tamoyil hali to'liq tizimli ravishda ta'lim jarayoniga integratsiya qilinmagan.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi terminologik jarayonni avtomatlashtirish va normativ mezonlar asosida boshqarish imkonini yaratmoqda. M.T. Cabré terminologiyani dinamik va kommunikativ jarayon sifatida talqin qilib, uni real kontekstda boshqarish zarurligini asoslaydi [5]. Mazkur nazariy qarashlar o'zbek texnik terminologiyasini ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv asosida joriy etish zaruratini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada sun'iy intellekt asosida texnik terminlarni standartlashtirishni ta'lim tizimiga joriy etishning konseptual modeli ishlab chiqiladi. Hozirgi bosqichda mazkur model amaliyotga to'liq tatbiq etilmagan bo'lib, u ilmiy asoslangan taklif sifatida taqdim etiladi. Model terminologiya nazariyasining asosiy prinsiplari [1;2], xalqaro standartlar [6;7] hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlariga tayangan holda ishlab chiqilgan. O'zbek texnik terminologiyasini sun'iy intellekt asosida standartlashtirishni ta'lim tizimiga integratsiyalashning nazariy asoslari va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda uning kutilayotgan pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdir.

Mazkur tadqiqot o'zbek texnik terminologiyasini sun'iy intellekt asosida standartlashtirishning nazariy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga

qaratilgan bo‘lib, kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshiriladi. Tadqiqot metodologiyasi terminologiya nazariyasi, tizimli lingvistika, kognitiv yondashuv hamda axborot texnologiyalari integratsiyasiga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqotning nazariy poydevorini terminologiya nazariyasining konseptual-tizimiy va leksik-lingvistik yondashuvlari tashkil etadi. Konseptual yondashuv E.Vuster tomonidan asoslangan bo‘lib, terminlarni tushunchalar tizimining lingvistik ifodasi sifatida talqin qiladi va “bir tushuncha – bir termin” prinsipini ilgari suradi [4]. Ushbu tamoyil texnik terminlarni standartlashtirish jarayonida markaziy mezon sifatida qabul qilindi. Leksik-lingvistik yondashuv esa D.S. Lotte va boshqa terminolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, terminologiyani umumtil leksikasining maxsus qatlami sifatida izohlaydi [3]. Mazkur yondashuv terminlarning morfologik, semantik va funksional xususiyatlarini tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, M.T. Cabré tomonidan ilgari surilgan kommunikativ-kognitiv nazariya terminlarni ijtimoiy kontekstda shakllanuvchi dinamik birlik sifatida talqin qilishga xizmat qildi [5]. Bu esa sun‘iy intellekt modelini ishlab chiqishda real qo‘llanish omilini hisobga olish zaruratini asoslab berdi.

Texnik terminologiya tizim sifatida qaralib, terminlar o‘rtasidagi paradigmatic va syntagmatic munosabatlar o‘rganildi. Terminologik maydon doirasida gorizontalar (sinonimik, variantlilik) va vertikal (umumiylik–xususiylik) munosabatlar aniqlanib, ular standartlashtirish mezonlari bilan bog‘landi [1].

Mazkur tahlil sun‘iy intellekt modulida termin variantlarini qiyosiy baholash algoritmini ishlab chiqishga asos bo‘ldi. Mazkur algoritmi ISO 30042 (TBX) standarti talablariga mos ma‘lumotlar tuzilmasi asosida ishlab chiqildi [7].

Model inson ekspertizasini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Taklif etilgan model terminologiyani avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish imkonini beradi. Model quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Termin nomzodlarini avtomatik aniqlash** – sohaviy korpusdan statistik ko‘rsatkichlar asosida ajratish;
2. **Semantik muvofiqlikni aniqlash** – tushuncha-termin munosabatini baholash;
3. **Variantlarni qiyosiy tahlil qilish** – sinonimik yoki dublet birliklarni solishtirish;
4. **Normativ tavsiya shakllantirish** – mezonlar asosida optimal variantni belgilash;
5. **Elektron bazaga integratsiya** – tasdiqlangan terminni TBX strukturasida saqlash [7].

Mazkur yondashuv terminologik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkonini beradi hamda subyektivlik darajasini kamaytiradi.

Ta'lim tizimiga joriy etish natijalari

Sun'iy intellekt asosida standartlashtirilgan texnik terminologiyani ta'lim tizimiga joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Mazkur integratsiya terminologik barqarorlikni ta'minlash, talabalarning kasbiy-lisoniy kompetensiyasini shakllantirish hamda ilmiy matn madaniyatini yuksaltirishga qaratiladi. Bu jarayon o'quv materiallarida konseptual aniqlikni oshirdi hamda tushuncha-termin muvofiqligini mustahkamlaydi. Sun'iy intellekt asosidagi terminologik platforma ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali talabalar uchun interaktiv terminologik muhit yaratiladi. Sun'iy intellekt moduli bilan bog'langan elektron terminologik baza o'quv jarayonida raqamli manba sifatida qo'llaniladi.

Texnik terminologiyaning standartlashtirilishi turli sohalar o'rtasidagi ilmiy muloqotni ham osonlashtirdi. Muhandislik, axborot texnologiyalari, energetika va boshqa texnik yo'nalishlar bo'yicha ta'lim jarayonida yagona terminologik asos shakllanadi. Bu fanlararo integratsiyani kuchaytirib, terminlarning turlicha talqin qilinishining oldini oladi. Standartlashtirilgan terminologiya ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan tushunchalarning aniqligi ortadi, nazariy bilimlarning amaliy qo'llanish darajasi kuchayadi. Terminologik barqarorlik ta'lim mazmunining uzluksizligi va tizimlilikini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimiga joriy etish natijalarining xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlili

Sun'iy intellekt asosida texnik terminlarni standartlashtirish va uni ta'lim tizimiga integratsiyalash jarayoni xalqaro terminologiya maktablarida shakllangan metodologik yondashuvlar bilan uyg'un holda amalga oshiriladi. Xususan, terminologiyani konseptual tizim sifatida talqin qilish va "bir tushuncha – bir termin" tamoyiliga qat'iy amal qilish Vena maktabi asoschisi E. Vuster tomonidan asoslab berilgan [4]. Mazkur prinsip o'quv adabiyotlarida terminologik izchillikni ta'minlashning nazariy poydevori sifatida qabul qilindi.

1. Konseptual aniqlik va normativlik: Yevropa tajribasi bilan qiyos

Yevropa terminologiya maktablarida, xususan Germaniya va Avstriya ilmiy an'alarida, texnik terminlar o'quv jarayonida tushunchalar iyerarxiyasi asosida beriladi va ularning semantik chegaralari aniq belgilab qo'yiladi [4]. ISO 704 standartida ham terminologik ishning asosiy vazifasi tushunchaviy aniqlikni ta'minlash ekani ta'kidlanadi [6].

O'zbek ta'lim tizimida sun'iy intellekt moduli orqali aynan shu yondashuv joriy qilinadi: har bir termin tushunchaviy model bilan bog'landi, sinonimik

variantlar kamaytiriladi va normativ variant ustuvor etib belgilanadi. Natijada konseptual aniqlik darajasi oshadi va talabalarda termin-tushuncha munosabati tizimli shakllanadi.

2. Kommunikativ-kognitiv yondashuv: Ispaniya va Kanada tajribasi bilan qiyos

M.T. Cabre terminologiyani ijtimoiy-kommunikativ jarayon sifatida talqin qilib, terminlar real nutqiy muhitda faoliyat ko'rsatishini ta'kidlaydi [5]. Kanada va Ispaniya terminologiya maktablarida terminologik platformalar o'quv jarayoniga integratsiya qilinib, talabalar uchun interaktiv muhit yaratilgan. Mazkur tajribaga muvofiq, sun'iy intellekt asosidagi terminologik baza ta'lim jarayonida qo'llanildi. Talabalar termin variantlarini qiyoslash, normativ mezon asosida baholash va elektron bazadan foydalanish ko'nikmasini egallaydilar. Bu esa terminologiyani passiv o'zlashtirishdan faol qo'llash bosqichiga olib chiqadi.

3. Raqamli terminologik platformalar: TBX va korpusli yondashuv

ISO 30042 (TBX) standarti terminologik ma'lumotlarni raqamli formatda saqlash va almashishning universal mexanizmini belgilaydi [7]. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida terminologik bazalar (masalan, IATE) ta'lim jarayonida faol qo'llanadi.

O'zbek modelida ham TBX tamoyillariga mos elektron terminologik baza ishlab chiqiladi va o'quv jarayoniga integratsiya qilinadi. Bu talabalarning terminologik ma'lumotlarga tezkor murojaat qilishini, variantlarni solishtirishini va normativ shaklni aniqlashini ta'minlaydi.

4. Akademik yozuv madaniyati: AQSh tajribasi bilan qiyos

AQSh oliy ta'lim tizimida ilmiy yozuv standartlari terminologik aniqlikka asoslanadi. Terminlarning izchil qo'llanishi akademik matn sifatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi [5]. Sun'iy intellekt asosida standartlashtirilgan terminologiyani qo'llash natijasida o'zbek oliy ta'lim muassasalarida ham kurs ishlari, magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy maqolalarda terminologik izchillik oshadi. Bu ilmiy nutq madaniyatini xalqaro talablar darajasiga yaqinlashtiradi.

5. Fanlararo integratsiya: Global ilmiy muhit bilan uyg'unlik

Zamonaviy terminologiya nazariyasida fanlararo integratsiya muhim omil sifatida qaraladi [6]. Texnik, axborot texnologiyalari va muhandislik yo'nalishlarida bir xil terminlarning turlicha talqin qilinishi xalqaro miqyosda muammoli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Sun'iy intellekt moduli yordamida terminologik platforma fanlararo yagona muhit yaratadi. Bu esa o'zbek ta'lim tizimini xalqaro ilmiy-kommunikativ makon bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil natijalari

Xalqaro tajriba bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki:

- 1) konseptual aniqlik (Vena maktabi) [4];
- 2) kommunikativ-kognitiv yondashuv (Cabré) [5];
- 3) ISO standartlariga mos normativlik [6;7];
- 4) raqamli terminologik platformalardan foydalanish – sun’iy intellekt asosidagi o‘zbek modelida muvaffaqiyatli integratsiya qilindi.

Shu tariqa, ta’lim tizimiga joriy etilgan terminologik model milliy xususiyatlarni saqlagan holda xalqaro metodologik talablarga mos ravishda shakllantirildi.

Sun’iy intellekt asosidagi terminologik modelning xalqaro tajriba bilan qiyosiy jadvali

№	Mezoni	Vena maktabi (E. Vuster) [4]	ISO 704 / ISO 30042 [6;7]	Cabre (kommunikativ yondashuv) [5]	O‘zbek AI modeli (joriy etilgan)
1	Konseptual asos	“Bir tushuncha – bir termin” tamoyili	Tushunchaviy aniqlik va normativlik	Termin kontekstda ma’no hosil qiladi	Normativ variant AI orqali aniqlanadi
2	Tizimlilik	Tushunchalar iyerarxiyasi asosida	Terminlar tizimli tasniflanadi	Semantik maydon doirasida tahlil	Paradigmatik va sintagmatik tahlil integratsiyalangan
3	Variantlilikka munosabat	Variantlar maqbul emas	Variantlar monitoring qilinadi	Variantlar kontekstda o‘rganiladi	AI variantlarni qiyoslab optimalini tavsiya qiladi
4	Raqamlashtirish	Nazariy asos	TBX format, elektron bazalar	Terminologik platformalar	Elektron baza + avtomatik monitoring
5	Ta’limga integratsiya	Nazariy model	Tavsiya etiladi	Interaktiv terminologik muhit	O‘quv dasturlari va darsliklarga integratsiya qilingan
6	Akademik yozuvga ta’siri	Konseptual aniqlik	Normativ termin qo‘llash talabi	Kommunikativ aniqlik	Ilmiy matn sifati va izchilligi oshgan
7	Fanlararo integratsiya	Tushunchaviy umumlashma	Xalqaro standartlash	Diskursiv moslashuv	Yagona milliy-terminologik platforma
8	Avtomatlashtirish darajasi	Mavjud emas	Ma’lumotlar formati	Cheklangan	AI asosida avtomatik saralash va tavsiya

Qiyosiy jadvaldan ko‘rinadiki, taklif etilgan sun‘iy intellekt modeli klassik terminologiya nazariyasining konseptual asoslarini [4], ISO standartlari talab qiladigan normativ tizimni [6;7] hamda kommunikativ-kognitiv yondashuvning dinamik xususiyatlarini [5] integratsiyalashgan holda qo‘llaydi.

Xalqaro tajribadan farqli ravishda, o‘zbek modeli terminologik qarorlarni avtomatlashtirilgan algoritmik tizim orqali qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa terminologiyani boshqarish jarayonini tezlashtirish, variantlilikni kamaytirish va ta‘lim tizimida barqaror terminologik muhit yaratish imkonini beradi.

Ilmiy-amaliy ahamiyati

Taklif etilgan model terminologiyani statik lug‘at shaklidan dinamik boshqariladigan raqamli platformaga aylantiradi. M.T. Cabre terminologiyani ijtimoiy-kognitiv jarayon sifatida talqin qiladi [5]. Sun‘iy intellekt moduli aynan shu dinamik jarayonni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Natijada:

- 1) termin variantlari monitoring qilinadi;
- 2) normativlik ta‘minlanadi;
- 3) ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasida yagona terminologik muhit yaratiladi.

Xulosa

Zamonaviy ta‘lim tizimida texnik terminologiyaning aniqligi va izchilligi ilmiy-kommunikativ samaradorlikning muhim sharti hisoblanadi. O‘zbek texnik terminologiyasida kuzatilayotgan variantlilik, sinonimik parallelizm hamda normativ bir xillikning yetarli darajada shakllanmaganligi ta‘lim jarayonida tushunchaviy noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa talabalar tomonidan kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Maqolada taklif etilgan sun‘iy intellekt asosidagi terminologik standartlashtirish modeli aynan shu muammoni tizimli ravishda hal etishga qaratilgan. Model terminologiya nazariyasining konseptual tamoyillari, xalqaro ISO standartlari hamda kommunikativ-kognitiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ta‘lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslandi.

Shu bilan birga, maqolada tavsiya etilgan model hozirgi bosqichda konseptual xarakterga ega bo‘lib, u o‘zbek ta‘lim tizimida to‘liq amaliy joriy etilmagan. Mazkur modelni tajriba-sinov asosida tatbiq etish, uning pedagogik samaradorligini empirik ko‘rsatkichlar orqali baholash hamda raqamli platformalar bilan integratsiyalash keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida qoraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Daniyarov R. O‘zbek terminologiyasi tizimida shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari. – Toshkent, 1988.
2. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent, 2017.
3. Lotte D.S. Основы построения научно-технической терминологии. – Москва, 1961.
4. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre. – Wien, 1979.
5. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam, 1999.
6. ISO 704:2009. Terminology work — Principles and methods.
7. ISO 30042:2019. TermBase eXchange (TBX).
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:roLk4NB Rz8UC
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:qjMakFH Dy7sC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:2osO gNQ5qMEC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:UeH Wp8X0CEIC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Se3iq nhoufwC

FILOLOGIYA**ASKIYA JANRINING POETIK TABIATI VA IJTIMOYIY-FUNKTSIONAL XUSUSIYATLARI****UO‘K 95(575.171)**

**Kazakova Gulasal,
Urganch innovatsion
universiteti “O‘zbek
va xorijiy filologiya”
kafedrasi dots.v.v.b.,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri bo‘lgan askiyaning tarixiy shakllanish bosqichlari, poetik mexanizmlari hamda ijtimoiy-kommunikativ vazifalari keng tahlil qilingan. Askiyaning dialogik tuzilishi, improvizatsiyaga asoslangan tabiati, so‘z o‘yini va kulgi madaniyati bilan bog‘liq jihatlari lingvopoetik nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, janrning nomoddiy madaniy meros sifatidagi maqomi ham ilmiy asosda sharhlanadi.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются исторические этапы формирования аскии — своеобразного жанра узбекского устного народного творчества, его поэтические механизмы и социально-коммуникативные функции. С лингвопоэтической точки зрения освещаются диалогическая структура аскии, её импровизационная природа, особенности словесной игры и феномен культуры смеха. Также научно обосновывается статус жанра как объекта нематериального культурного наследия.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the historical stages in the formation of askiya, a distinctive genre of Uzbek oral folk tradition, as well as its poetic mechanisms and socio-communicative functions. From a linguopoetic perspective, the study examines the dialogic structure of askiya, its improvisational nature, verbal wordplay, and its connection with the culture of humor. Furthermore, the article offers a scholarly interpretation of the genre’s status as an element of intangible cultural heritage.

Kalit so‘zlar: askiya, folklor, og‘zaki ijod, improvizatsiya, payrov, kulgi madaniyati, dialog, lingvopoetika, nomoddiy meros.

Ключевые слова: аския, фольклор, устное творчество, импровизация, пайров, культура смеха, диалог, лингвопоэтика, нематериальное наследие.

Key words: *askiya, folklore, oral tradition, improvisation, payrov, humor culture, dialogue, linguopoetics, intangible heritage.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘p qatlamli va serqirra tizim bo‘lib, unda xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va ijtimoiy tajribasi mujassamdir. Ushbu tizimda kulgi va hozirjavoblikka asoslangan janrlar alohida o‘rin egallaydi. Ana shunday janrlardan biri – askiyadir. Askiya – bu ikki yoki undan ortiq ijrochi o‘rtasida so‘z orqali kechadigan badiiy bellashuv bo‘lib, unda topqirlik, tezkor fikrlash, til boyligi va obrazli tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. U ko‘pincha xalq yig‘inlari, sayillar, to‘y marosimlari va bayramlarda ijro etilgan.

UNESCO Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasi 2014-yil Parijda “*Askiya – the art of wit*”[3.1] nomi bilan askiya san‘atini “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxati”ga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Qarorda askiya folklor san‘ati sifatida tasvirlangan va uning mezonlarga muvofiqligi qayd etilgan. Bu holat askiyaning nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyat sifatida e‘tirof etilganini ko‘rsatadi.

Respublikamizda milliy qadriyatlarimizni, shu jumladan, milliy askiya va qiziqchilik san‘atini asrab-avaylash, keng targ‘ib etish va kelgusi avlod uchun nomoddiy madaniy meros sifatida yetkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-son qarori qabul qilingan[1.1]. Unga muvofiq Marg‘ilon shahrida davlat muassasasi shaklida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san‘ati markazi tashkil etilishi, askiya va qiziqchilik san‘ati sohasida taniqli ijodkorlarning mahorat maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilangan.

Askiyaning aniq paydo bo‘lish davrini belgilash qiyin bo‘lsa-da, uning ildizlari xalq og‘zaki ijodi an‘analari bilan bog‘liq ekanligini qayd etish lozim. Qadim turkiy xalqlarda so‘zga chechanlik, hozirjavoblik va bahs-munozara madaniyati qadrlangan. Janr og‘zaki va yozma adabiyotda keng uchraydi. Jumladan, “Alpomish” va “Kuntug‘mish” dostonlarida askiyaga xos qochirimlar, so‘z o‘yinlariga boy parchalar keltirilgan. O‘rta asr manbalarida ham so‘z o‘yini va latifago‘ylik unsurlari uchraydi. Masalan, Alisher Navoiy ijodida tajnis va kinoyaga asoslangan o‘tkir mulohazalar mavjud. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da davra suhbatlari va hazil-mutoyibalar haqida qayd etadi. Bu faktlar askiya tipidagi og‘zaki bahs an‘analari o‘rta asrlarda ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. XX asrda askiya sahnada ham o‘z aksini ko‘rsata boshlagan. Radio va televideniye orqali namoyish etilishi natijasida janr ommalashdi. 1960-yillarda Toshkent davlat universiteti va San‘atshunoslik

instituti folklor ekspeditsiyalari ko‘plab askiya aytishuvlarini yozib olgan. Rejissor Malik Qayumov rahbarligida “Askiya” hujjatli filmi yaratildi.

Askiya janrini ilmiy jihatdan tahlil qilishda Rasul Muhammadiyevning “Askiya” to‘plami (1970), B.Jo‘rayevning *“O‘zbek xalq askiyasi va uning janr xususiyatlari”* (1980), Hasanboy Sultonovning *“Askiya”* (1998), filologiya fanlari doktori Hikmatillo Do‘smatov *“Askiya matnining lingvostilistikasi”* (2015) monografiyasi, professor Sultonali Mannopovning *“Askiya va qiziqchilik san’ati”* (2020), professor Abdumutal Qambarovning *“Askiya san’ati tarixi va nazariyasi”* (2023) kabi o‘quv qo‘llanma va darsliklari o‘zbek milliy askiya san’atini o‘rganish, janr sifatida o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi ajralmas qismi askiya faqat o‘zbek xalqi ilmiy merosida bor. Bu janr boshqa xalqlar folklorida uchramaydi. Askiya ayniqsa Farg‘ona vodiysida keng rivojlangan. Marg‘ilon, Qo‘qon va Andijon hududlarida askiya maktablari shakllangan. Bu maktablar o‘zining mavzu tanlovi, uslubiy xususiyatlari va payrov tizimi bilan farqlangan. Askiya mohiyatan dialogik janrdir. Unda ikki subyektning fikriy to‘qnashuvi yuz beradi. Har bir replika oldingi fikrni inkor etish, kuchaytirish yoki burish orqali yangi semantik qatlam hosil qiladi. Shu jihatdan askiya ko‘p ovozli (polifonik) nutq shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Askiyaning asosiy belgilaridan biri – improvizatsiyadir. Matn oldindan tayyorlanmaydi; vaziyat va raqibning fikriga qarab shakllanadi. Bu esa ijrochidan keng *lug‘at boyligi, tezkor tafakkur, mantiqiy izchillik, obrazli fikrlashni* talab qiladi. Improvizatsiya askiyani jonli va so‘z o‘yinlariga boy janrga aylantiradi.

Askiyada quyidagi badiiy vositalar faol qo‘llanadi: tajnis (bir xil shakldagi so‘zlarning turli ma’noda ishlatilishi), kinoya, mubolag‘a, istehzo, qochiriq, metafora. So‘zning ko‘p ma’noliligi kulgi effektini yuzaga keltiradi. Askiyada kulgi bevosita emas, balki semantik siljish orqali hosil qilinadi.

Payrov – askiyaning muayyan shart asosida olib borilishidir. Masalan, ma’lum bir so‘z yoki mavzu doirasida bahs yuritish talab qilinadi. Bu ijrochining mahoratini yanada sinovdan o‘tkazadi. Payrov askiyada kompozitsion yaxlitlikni ta’minlaydi.

Askiyaning ijtimoiy-funksional vazifalari quyidagilardan iborat:

kulgi orqali ijtimoiy tanqid – askiya jamiyatdagi ayrim nuqsonlarni yumor vositasida ko‘rsatadi. Tanqid ochiq haqorat emas, balki nozik istehzo shaklida namoyon bo‘ladi. Bu esa tinglovchini o‘ylashga undaydi;

kommunikativ birlikni mustahkamlash – askiya jamoaviy hodisa bo‘lib, auditoriya ishtirokini talab qiladi. Kulgi umumiy psixologik muhitni yumshatadi va ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi.

v) Estetik va tarbiyaviy ahamiyat – Askiya yosh avlodda nutq madaniyatini, tezkor fikrlashni va topqirlikni rivojlantiradi. U milliy til boyligini saqlash va targ‘ib etishda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda askiya sahna ko‘rinishlarida, teleloyihalarda va madaniy tadbirlarda namoyish etilmoqda. Janrning yangi shakllari yuzaga kelmoqda, biroq uning asosiy belgisi – improvizatsion dialog – saqlanib qolmoqda. Askiyaning UNESCO ro‘yxatiga kiritilishi uning asrash va rivojlantirish zaruratini kuchaytirdi. Hozirgi kunda respublika miqyosida askiya festivallari o‘tkazilib, yosh ijrochilarni tayyorlashga e‘tibor qaratilmoqda.

Askiya: folklorshunoslikda – og‘zaki dramatik janr, tilshunoslikda – dialogik diskurs namunasi, madaniyatshunoslikda – kulgi fenomenining milliy ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Uning matni barqaror emas, har gal ijro jarayonida yangidan yaratiladi. Shu bois askiya “jonli matn” xususiyatiga ega. Askiyaning “O‘xshatdim”, “Gulmisiz, rayhonmisiz”, “Bo‘lasizmi?”, “Qofiya”, “Bedana”, “Bilganlar, bilmaganlar”, zamonaviy mavzular bo‘lgan “Oila”, “Dorbozlik”, “Futbol”, “Paxta” kabi payrovlarini yozib olib shu asosda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

Askiya o‘zbek xalq og‘zaki ijodining murakkab va ko‘p qatlamli janridir. U so‘z san‘ati, tafakkur tezkorligi va estetik didning uyg‘unlashuvi asosida shakllangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida askiya xalqning madaniy xotirasini saqlovchi va ijtimoiy fikrni ifodalovchi vositaga aylangan. Bugungi kunda askiya an‘anaviy shaklini saqlagan holda yangi kommunikativ maydonlarga moslashmoqda. Uni lingvopoetik, diskursiv va madaniy-antropologik yo‘nalishlarda chuqur o‘rganish milliy merosni yanada boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.2023-yildagi PQ-222-sonli “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
3. UNESCO Intangible Cultural Heritage. Askiya – the art of wit. (unesco.org, 2014).
4. Jo‘rayev O. Qiziqchilik san‘ati va xalq kulgisi. – Samarqand: Zarafshon, 2008.
5. Abdullayev H. Askiya va qiziqchilik san‘ati rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2019.

FILOLOGIYA**URBANONIM VA U BILAN BOG‘LIQ TERMINLAR TIZIMI**

**Murodbek
Matnazarov,
Urganch innovatsion
universiteti “O‘zbek
va xorijiy filologiya”
kafedrasi dotsent v-b,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori**

UO‘K 95(575.171)

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida urbanonimlarning nomlanish xususiyatlari, hududda tarqalgan urbanonimlarning tiplari va alohida semantik guruhlarga mansub nomlarning shakllanish motivlari, hudud urbanonimlarining o‘zaro munosabati kabi masalalar yoritib berilgan.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы развития топонимии в узбекском языкознании, особенности номинации urbanonimov, виды urbanonimov в регионе и мотивы образования названий, принадлежащих к конкретным семантическим группам, взаимосвязь региональных urbanonimov.

Annotation: This article discusses the development of toponymy in Uzbek linguistics, the naming features of urbanonyms, types of urbanonyms in the region and the motives for the formation of names belonging to specific semantic groups, the relationship of regional urbanonyms.

Kalit so‘zlar: onomastika, urbanonim, oronim, fitonim, gidronim, antroponim, oykonim, mikrotoponim, nekronim.

Ключевые слова: ономастика, урбаноним, ороним, фитоним, гидроним, антропоним, ойконим, микротопоним, некроним.

Key words: onomastics, urbanonym, oronym, phytonym, hydronym, anthroponym, oykonim, microtoponym, necronym.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ilmiy tadqiqotlarning globallashuvi va xalqarolashuvi so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda ilmiy bilimlarning jadal to‘planishiga olib keldi. Agar bir necha o‘n yillar oldin nashr qilingan lug‘atlar ma‘lum bir ilmiy sohadagi mavjud terminologiyaning to‘g‘ri tasavvurini taqdim eta olgan bo‘lsa, hozir bunday vaziyatni amalga oshirish deyarli mumkin emas. Mavjud muammolar nafaqat mavjud ilmiy maktablar va yo‘nalishlar o‘rtasida bir xil hodisani tushunishga turli xil yondashuvlar

mavjudligi, balki ba'zan mahalliy va xorijiy terminologiya o'rtasidagi obyektiv tafovutlar bilan ham yuzaga keladi. Shubhasiz, xalqaro ilmiy aloqalarning rivojlanishi o'zbek tilshunosligini jahon ilm-faniga integratsiya qilish vazifasini amalga oshirish bilan birga, mavjud terminologiyani, ayniqsa, gumanitar fanlar doirasida birlashtirish va optimallashtirish zaruratini tug'diradi.

Ma'lumki, onomastikaning rivojlanishi uzoq vaqt davomida muhim terminologik muammolarsiz davom etdi. Mamlakatimizda ushbu fan rivojining dastlabki bosqichlaridayoq turli davrda o'tkazilgan ko'plab anjuman va seminarlarda olimlar mavjud va yangi atamalarni muhokama qilish, ularni optimallashtirish ustida ishlash imkoniga ega bo'ldilar. Bu ish alohida-alohida emas, balki boshqa mamlakatlar olimlari bilan aloqada olib borilganligini ta'kidlaymiz. A.V.Superanskaya ta'kidlaganidek, "Rus onomastik terminologiyasi boshidanoq yevropaliklar foydalanishini hisobga olgan holda umumiy slavyan amaliyotiga asoslangan edi". Ingliz tilidagi onomastikada so'z birikmalari bilan u yoki bu qator tegishli nomlarni belgilash odat tusiga kiradi: shaxsiy ism (antroponim), kompaniya nomi (ergonim) va boshqalar. Rus onomastikasi, shu jumladan boshqa slavyan tillariga oid onomastik tizimda yunoncha, lotincha qo'shma so'zlar, asosan, oxiri -onim bilan tugaydigan so'zlar kitila boshlandi. V.I.Suprun bu haqda, taxminan, bir xil so'zlar bilan gapirgan edi: "Har yili onomastik lug'atning bo'limlari yoki bo'limlari uchun emas, balki tegishli nomlar yoki ularga o'xshash so'zlarning kichik guruhlar uchun, nomlash uchun ko'proq va ko'proq yangi atamalar paydo bo'ladi". Terminologik ishlarning muhim natijasi N.V.Podolskayaning "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati" ning ikkita nashri bo'ldi. Biroq, 1980-yillarda va ayniqsa, 1990-2000-yillarda, rus onomastikasining jadal rivojlanishi boshlanganda hamma narsa o'zgardi va bu yangi atamalarning tasavvur qilib bo'lmaydigan to'lqiniga olib keldi. O'zbek tilida ham shu tarzda rus onomastikasidan andoza olingan terminlar paydo bo'ldi. Terminlar ixtiro qilinishining yana bir sababi oddiy tilshunoslarning mavjud fan terminologiyasi bilan yaxshi tanish emasligi edi, bu neonomastik adabiyotlarda chop etilgan ko'plab nashrlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xorazm viloyatidagi joy nomlarini o'rganish misolida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ilm-fanni yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni ulug'lash va kelajak avlodlarga yetkazish to'g'risidagi g'amxo'rlikni alohida ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, atoqli otlarga qiziqish o'tmishda ham bo'lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi, ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud. Ammo atoqli ot materiallarini tizimli va izchil ravishda to'plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko'lamda tahlil qilish o'zbek filologiyasida 1960-yillardan boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar H.Hasanov(1), T.Nafasov (2), E.Begmatovlarning(3) tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o'zbek onomastikasi, ayniqsa, uning toponimika, antroponimika, etnonimika sohalari jadal rivojlandi. Endilikda o'zbek antroponimlarining materiallari qoniqarli ravishda to'plangani va tadqiq qilingani, deyarli barcha viloyatlar, bir qator tumanlar toponimiyasi monografik tarzda o'rganilganini qayd etish mumkin. O'zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko'lamining kengaya borishi bu ilmiy sohaning rivoji, shakllanishi va ravnaq topishiga olib keldi. O'tgan davr davomida o'zbek ismlari va toponimlarini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o'nlab monografiya, to'plam va risolalar, ko'pgina maqolalar e'lon qilindi. Bularning barchasi o'zbek onomastikasi hozirda rivoj topgan mustaqil ilmiy soha ekanidan dalolat beradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, kishi atoqli otlari, toponimlari va etnonimiyasiga munosabat tubdan o'zgardi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining nodir merosi sifatida ham e'zozlanadigan va o'rganiladigan bo'ldi. Bular bir butun holda o'zbek tilining onomastik boyligini tashkil qiladi. Binobarin, onomastika so'zi asli yunoncha bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi hamda u tilshunoslikning atoqli otlarini o'rganuvchi soha nomidir. Atoqli otlar doirasiga kiruvchi nomlar orasida toponimlar salmoqli o'rinni egallaydi. Toponim so'zi asli yunoncha bo'lib, topos – joy, onoma – nom so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, joy nomi ma'nosini anglatadi. Toponimlar geografik nomlar, joy nomlari deb ham yuritiladi. Tilshunoslik fanining joy nomlarini o'rganuvchi sohasi toponimika deb yuritiladi. (Masalan, Farg'ona vodiysi toponimiyasi, Xorazm viloyati toponimiyasi kabi).

Ko'cha arabcha so'z bo'lib, termin ma'nosida "shahar yoki qishloq ichidagi yo'l" ma'nosini anglatadi. Aholi yashaydigan joylarda yo'lovchilar o'tib turadigan, transport qatnaydigan yo'l. Navoiy ko'chasi. Sobir Rahimov ko'chasi. Urganch shahrida hali o'z nomiga ega bo'lmagan ko'chalar ham mavjud.

Urganch shahrida bugungi kunda jami 501 ta ko‘cha mavjud bo‘lib, ularning nomlanishiga asos bo‘lgan leksemalar bo‘yicha mazkur turdagi obyekt nomlari tadqiq qilindi.

Antroponimlar asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Al-Xorazmiy, Abulg‘ozi Bahodirxon, Pahlavon Mahmud, Amir Temur, Mahtumquli, Nizomiy Sakkokiy, Ibn-Sino, V.Fayazov, Oybek, Yo‘ldosh Bobojonov kabi.

Suv va suv obyektlarini ifodalovchi so‘zlar asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Shalola, Obi hayot, Jayhun, Amudaryo kabi.

Toponimlar asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Buxoro, Andijon

Xonqa, Samarqand, Xiva, Toshhovuz, Jizzax, Navoiy, Turkiston, Jambul, Termiz, Ashxobod, Sug‘diyona, Mash‘al, Xorazm kabi.

Bayram nomi asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomi: 8-Mart.

Vaqtli matbuot nashri nomi asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomi: Xalq so‘zi.

Hayvon nomlari asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Tulpor, Lochin.

Mavhum otlar asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Do‘stlik, Tinchlik, Orzu, Istiqlol, Mustaqillik, G‘alaba kabi.

O‘simlik nomlari asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Majnuntol.

Faoliyat ifodalovchi so‘zlar asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari:

Quruvchilar, Ishchilar, Shifokorlar, Paxtakor, Bunyodkor kabi.

Savdo yo‘li asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomi: Buyuk ipak yo‘li.

Dunyo qutblari asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomi: Sharq.

Hududning obod qilinganini ifodalovchi so‘zlar asosida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlari: Obod, Bo‘ston, Mevazor, Nurli hayot, Navro‘zobod, Yangiobod kabi.

Urganch shahri urbanonimlari alohida nomlanish va motivlanish tizimining mavjudligi, ham tarixiy, ham bugungi davrga xos bo‘lgan xususiyatlarga egaligi, shuningdek, turli toponimik hududlarga bo‘linganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E., Jumayev A., Sattorov G. O‘zbek onomastik termino–logiyasi va uni normalash problemalari // O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. T., Fan, 1986. B.8-10.

2. Begmatov E. Joy nomlari - ma’naviyat ko‘zgusi.T.,Ma’naviyat,1998.64 b.

3. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. N.,2006. 103 b.

FILOLOGIYA**OGAHINYING TARIXIY ASARLARIDA DAVLAT
TUSHUNCHASINING IFODALANISHI****UO‘K 821.512.133(092)****Raufjon Maxmudov
filologiya fanlari
doktori (DSc), katta
ilmiy xodim****Inobat Saidova
Urganch innovatsion
universiteti
magistranti,
Ogahiy ijod maktabi
ona tili va adabiyot
fani o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ogahiyning tarixiy asarlarida davlat tushunchasining ifodalanish xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda “davlat”, “mamlakat”, “xitta” kabi asosiy davlatchilik terminlari hamda ular asosida hosil qilingan forsiy va arabiy izofiy birikmalar semantik, etimologik va areal jihatdan o‘rganiladi.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности выражения понятия государства в исторических произведениях Ogahiy с лингвистической точки зрения. В исследовании рассматриваются основные термины государственности — «davlat», «mamlakat», «xitta», а также персидские и арабские изафетные конструкции, образованные на их основе, в семантическом, этимологическом и ареальном аспектах.

Annotation: This article examines the linguistic features of expressing the concept of the state in the historical works of Ogahiy. The study analyzes key terms of statehood such as “davlat,” “mamlakat,” and “xitta,” as well as Persian and Arabic izafet constructions formed on their basis from semantic, etymological, and areal linguistic perspectives.

Kalit so‘zlar: Davlat tushunchasi, davlatchilik terminologiyasi, Ogahiy, tarixiy asarlar, izofiy birikmalar, semantik tahlil, etimologiya, areal lingvistika, mamlakat, xitta.

Ключевые слова: Понятие государства, терминология государственности, Ogahiy, исторические произведения, изафетные конструкции, семантический анализ, этимология, ареальная лингвистика, mamlakat, xitta.

Key words: Concept of the state, statehood terminology, Ogahiy, historical works, izafet constructions, semantic analysis, etymology, areal linguistics, mamlakat, xitta.

Ogahiyning tarixiy asarlarida davlat tushunchasini ifodalash uchun turli tillardan olingan o‘zlashmalar, turkiy tilga oid birliklardan foydalanilgan. Ayrim hollarda arab va fors yoki mo‘g‘ul tillaridan o‘zlashgan *viloyat, nohiya, tuman* kabi o‘zlashmalar ham kichik hudud, ham ma’lum bir mamlakat ma’nosini ham ifodalagan holatlarni uchratamiz. Mazkur holatlarni ma’no kengayishi va ma’no torayishi kabi semantik hodisalarning matnga bog‘liq o‘rinlari deyishimiz mumkin. Tadqiqotning ushbu faslida Xorazm turkiy tarixnavisligidagi ayni davlat tushunchasini ifodalovchi so‘z va birliklarning semantik, etimologik, areal lingvistik tadqiqotlarini amalga oshiramiz.

Avvalo, davlatchilik terminologiyasidagi asosiy atamalardan biri bo‘lgan **davlat** atamasining o‘ziga to‘xtalamiz. Ushbu arabiy o‘zlashmaning turli ma’nolari mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida ham omonimiga, ham bir necha ko‘chma ma’nolariga ega so‘z sifatida hozirgi o‘zbek adabiy tilida istifoda etilmoqda. Xususan, davlatchilik terminologiyasiga oid birlik sifatida ushbu o‘zlashma o‘z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo‘lgan mustaqil mamlakat¹ ma’nosini anglatadi. Xorazm tarixnavisligiga oid manbalarda ham ushbu o‘zlashma ayni ma’noda ko‘p istifoda etiladi: **Davlati** qudum, maymanat luzum, mamlakat nuzumunki hashmat kozum, azumat ozim, hukumat nozimlig‘ bila sariri saltanatda komyobi ishratmaoblig‘ ila qo‘ygoli zamoni mas’uda va oboni mahmuda va avqoti sootda hukumroni komron o‘lg‘oli ketti².

Albatta, davlatchilik terminologiyasiga oid bo‘lgan **davlat** o‘zlashmasining omonimi ham, ko‘chma ma’nolari ham davlatchilik terminologiyasi birligi ekanligini nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur. Ya’ni, arabiy o‘zlashmalardan biri bo‘lgan davlat so‘zining omonimi bo‘lgan, boylik, mol-dunyo, mol-mulk ma’nosidagi so‘z ham leksema sifatida ham, ayrim so‘zlar bilan birikkan holda ham davlatchilik terminologiyasi birligi sifatida mumtoz adabiyotimizda, eski o‘zbek tili, ayni damda hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham yashab kelmoqda. Xususan, Munisning “Firdavs ul-iqbol” asarida o‘qiymiz: *Xon bu jihatdin aning*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси нашриёти. Том I. Т.: 2006. –Б.537.

² Комѳ. Таворих ал-хавонин. 98^a вар.

irtiqo‘i marotib va izdiyodi vazoifig‘a ko‘shishi qildi va nusratu davlat bila Xivaqg‘a nuzul qildi¹.

Shuningdek, **davlat** atamasi quyidagi ayrim birikmalarda ham faol ishtirok qilib, davlatchilikka oid bo‘lgan forsiy izofalar, frazeologik birliklar hosil qiladi. **Arkoni davlat** – davlat ulug‘lari, davlat boshqaruvidagi asosiy shaxslar (ularga shoh, vazirlar, beklar, boylar, davlatmand shaxslar, hokimiyatga ta’sir o‘tkaza oluvchi kimsalar va boshqalar kiradi), davlatning tayanchlari kiradi: Bas, **arkoni davlat**ning mashavaratlari bila nizomi umuri mamlakatga qiyom ko‘rguzdilar, tokim, tarixi hijriyning ming uch yuz yigirma to‘qquzlanchisi va jumod ul-avvalning yigirma ikkilanchi kuni bo‘ldi². **Taxti davlat** – davlat hukmronligi, podshohlik.

Bukim, kufr ahlining tadmiri azmin iltizom etmish,
Bu azm ichra aning yory madadkori O‘g‘on o‘lg‘ay.
Borib musta’sal aylab hayli a’doni murodicha,
Kelib solim, maqomi **taxti davlat** jovidon o‘lg‘ay³.

Davlati sultoniy – sulton davlati, mamlakat podshohining xazinasi ma’nosida ham qo‘llanadi: Hazrat podshohi sohibqiron va sultoni garduntavonning vilodati humoyunidin bu risolayi saodatmaqola itmomig‘acha har vaqoe’ va futuhotikim, asari **davlati sultoni**y va iqboli sohibqironiydin vuqu’ topmish va vuqu’ topg‘usidur, zikr qilinur⁴.

Davlati sarmad(iy) – abadiy, mangu, zavol topmas davlat. Alisher Navoiyda ham biz ushbu izofiy birikmani uchratishimiz mumkin.

Jodaye shar’ bila kimki, o‘zin tuz qildi,
Davlati sarmad anga har soridin yuz qildi⁵.

Ushbu forsiy izofa tahlillarimizga ko‘ra, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid bo‘lgan manbalar orasidan faqat “Firdavs ul-iqbol” asari leksikasidagina ikki xil shaklda – **davlati sarmad** va **davlati sarmadiy** shaklida uchradi. Bundan xulosa chiqadiki, ushbu izofa keyingi davrlarda sekin-astalik bilan iste’moldan chiqqan.

Davlati sarmadg‘a ulkim istadi yetgay zavol,
Ne ajab o‘z davlatig‘a yetsa aning ixtilol.

¹ Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988. –P. 151.

² Баёний. Шажараи хоразмшоҳий. –Б.13^a

³ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 3-жилд. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси). Нашрга тайёрловчи Нурбой Жабборов. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019. – Б. 59.

⁴ Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988. –P. 376.

⁵ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Том ХИБ. – Тошкент. Фан. 1998. –Б. 101.

Sham'i iqboliq'a ravshan bo'ldi Haq taididin,
Ani idbor ahli puf aylab uchurmakdur mahol¹.

Ammo ta'kidlash zarurki, garchi asarda ikki shaklda qo'llangan bo'lsa-da, har ikki holatda ham izofiy birikmaning ma'nosi ayni *zavol topmas, mangu, tunganmas davlat* ma'nosini ifodalashini ta'kidlash joiz.

Jahon kishvarin ravon olg'uchi,
Aduv lashkarig'a qiron solg'uchi.
Furuzandayi millati ahmadiy,
Farozandayi **davlati sarmadiy**².

Shuningdek, ayni ma'noni ifodalash uchun Ogahiy tarixiy asarlarida **davlati poydor** izofiy birikmasi ham qo'llanadi:

Tong ermas bo'lub **davlati poydor**,
Mute' o'lsa shahlar anga bandavor³.

Davlati uzmo – Ogahiy tarixiy asarlarida nisbatan kam uchraydigan **davlat** o'zlashmasi qo'llangan yana bir forsiy izofalardan biri bo'lib, **uzmo** so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib *eng buyuk, eng ulug'* ma'nolarini ifodalaydi. Ya'ni *azim* so'zining orttirma darajadagi shakli *uzmo* dir. Navoiy asarlarida ham biz ushbu o'zlashmani ayni eng buyuk, eng ulug' ma'nosida Ibrohim (a.s.) ayollari nisbasida uchratamiz.

Qaysi Bilqis, Sorayi Uzmo,
Qaysi Sora, Xadichayi Kubro⁴.

Ogahiy tarixiy asarlarida davlat va uzmo o'zlashmalarining birikishidan hosil bo'lgan ushbu forsiy izofa katta, buyuk davlat ma'nosida qo'llangan: ul hazrat bu **davlati uzmo** va atiyayi kubro shukronasi uchun raoyo va baroyokim, va'diyati ilohiydurlar, boshlarig'a ehson va atoyo chatrining soyasin solib, farog'at va rafohiyatlari izdiyodi va jame'i kom-u murodi tahsilida sa'yi mashkur va jahdi mavfur taqdimg'a yetkurdi⁵.

Davlati iqbol – iqbol davlati, xon yoki podshoh huzuriga kirishga musharraf bo'lish baxti muarrix va adiblar tomonidan *davlati iqbolig'a musharraf*

¹ Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988. –P. 249.

² Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988. –P. 377.

³ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-иқбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. –Б. 33^b

⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Том X. – Тошкент. Фан. 1992. –Б. 69.

⁵ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 264^b.

bo'ldi deya ta'riflanadi: Hamul fursatda bu sir inkishofi uchun bir mahrami xosini arzi ixlos qilib, hazrati shahanshohi falakjohning dargohi olampanohig'a yibormish erdikim, "Qizilbosh ahlining din va oyinin tark etib, musulmonlig' davlati iqbolig'a yetkumdir¹". Ayni ma'noda ba'zan davlati diydor izofiy birikmasi ham qo'llanganini kuzatamiz: Xivaq dorussaltanasig'a vorid qilib, atabayi osmonmartaba mulozamatig'a yetib, hazrati a'lo xoqoni gitisitoniyni muloqoti sharafig'a musharraf bo'lib, davlati diydoridin diydoyi umidlarin bahramand qildilar².

Taqbili davlat – davlat darajasidagi qabul, shohning ma'lum bir shaxsni qabul qilish marosimi. Taqbil hamda davlat arabiy o'zlashmalarining forsiy izofa orqali birikishidan hosil bo'lgan. Ogahiy tarixiy asarlarida nisbatan kam uchraydigan izofiy birikma: Va yana ulkim, ramazon oyining yigirma beshida, panjshanba kuni Buxoro voliysi Amir Muzaffarning Shahrisabzni musaxxar qilib, (68^b) hamul voqe'a axbori uchun suyunchilatib yiborgan elchisi dargohi gardundatsgohi taqbili davlatig'a musharraf bo'lub, mazkur Amirning payg'omin masome'yi a'log'a e'lom qildi³.

Keltirilganlardan tashqari Munis, Ogahiy, Komyob, Alaviy, Bayoniy kabi muarrixlarning tarixiy asarlarida *davlat* o'zlashmasi bevosita qatnashgan: *davlati abadiy, sham'i davlat, tig'i davlat, davlati qoyimmaqom, davlati irtifo'i oftob, davlati qohira, davlati azaliy, charog'i davlat, davlati jovid, davlati vusul, davlati abadmuddat, davlati benazir, davlati saodatfuyuzot, davlati xudodod, davlati nuzul, davlati huzur, davlati baqo, davlati maymun, chehrai davlat, nosiyayi davlat, zuhuri davlat, ayyomi davlat* kabi ko'plab forsiy izofalar; *mu'izu-d-davlati va-d-din, zahiru-d-davlati va-d-din, jamolu-d-davlati va-d-din, azud-d-davlati va-d-din, jalolu-d-davlati va-d-din, qutbu-d-davlati va-d-din, nizomu-d-davlati va-d-din, samsomu-d-davlati va-d-din* kabi o'nlab arabiy izofalar hosil qilinishida ham *davlat* o'zlashmasi faol ishitirok qilganini alohida ta'kidlash joiz. Aytish kerakki, ularning barchasi bevosida davlatchilik bilan bog'liq bo'lgan izofiy birikmalar. Ta'kidlash zarurki, biz *davlat* o'zlashma terminini Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid bo'lgan boshqa manbalardan farqli ravishda Abulg'oz Bahodirxonning "Shahajarayi turk" hamda "Shajarayi tarokima" asarlarida faqat *-li, -mand* kabi so'z yasovchi qo'shimchalar yoki grammatik shakllar qo'shilgan holda

¹ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 262^a.

² Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. V жилд. Жомеъу-л-воқеоти султоний. Нашрга тайёрловчи И.Исмоилов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 36.

³ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. –Б. 68^b, 69^a

qo‘llanganini kuzatamiz. Qolaversa, mazkur asarlarga yuqori poetik ruh hamda ohangdoshlik, qofiyadoshlik kabi estetik vositalar nisbatan ozroq kiritilgani bois, murakkab jumlar, xos kishilarga bag‘ishlangan maxsus qismlar mavjud emasligi ham diqqatimizni tortadi. Shu sabab podshoh, xon va beklarning bitmas-tuganmas davlatlari, sarhadsiz saltanati haqida maqtov qismlari yo‘qligi uchun ham davlat o‘zlashmasi bilan bog‘liq biror izofiy birikma yoki qo‘shma so‘zlar uchramaydi. Demak, Abulg‘ozi Bahodirxon, salaflari singari tilning sofligiga alohida e‘tibor qaratgan: *Anga Qutlar (Kurdlar) derlar, anlar hizr churaning naslindin tururlar. Emdi Xizrning inisi Alini aytaling, Ali cho‘ra taqi aqasiteg Amu suvining yoqasinda yurt tutib o‘lturdi va davlatli bo‘ldi*¹. Ushbu o‘rinda ularning barchasini ma’nolari hamda illyustrativ misollarini keltirib o‘tish ishning hajmi nuqtayi nazaridan cheklanadi. Biz davlat tushunchasini ifodalovchi boshqa terminlarning tahlili bilan tadqiqotni davom qildiramiz.

Mamlakat – davlat, saltanat, podshohlik. O‘z mustaqilligiga ega bo‘lgan, muayyan chegaralari mavjud bo‘lgan hudud. Ushbu so‘zning ma’lum geografik holati, tabiiy sharoitlari, iqlimi bilan farqlanadigan joy, hudud, o‘lka ma’nolari ham mavjud. Mumtoz adabiyotimizda ham, Ogahiy tarixiy asarlarida ham ushbu arabiy o‘zlashma asosan, podshohlik, xonlik, yurt, saltanat ma’nolarida qo‘llanadi²:

Ey Navoiy, yor za’fi buzdi ko‘nglim, o‘ylakim,

Mamlakat bo‘lg‘ay xarob, o‘lg‘an zamon sultong‘a za’f³.

Emdi mundin so‘ng Chingiz avlodidin Urganchi Arab Muhammadxonning o‘g‘li Abulg‘oziyxon aytatururkim, ko‘p emgaklar ko‘rgandin so‘ng yoshimiz o‘ttuz to‘qquzg‘a yetganda tarix ming taqi ellik birda yilon yilinda Xorazm **mamlakat**inda otamiz taxtinda o‘lturub, yurt ishiga mashg‘ul bo‘lduq⁴.

Ba‘zan ushbu o‘zlashmani viloyat, kichik hudud, beklik ma’nosida ham Ogahiy tarixiy asarlarida uchratamiz: Anga kamoli karam va g‘oyati shafqatdin inoqiyat mansabi oliysin arzoniy tutub, Hazorasb **mamlakati** hukumatini aning royi olamoroyi uqdakushoyig‘a tafviz etdi⁵.

¹ Абулғози Баҳодирхон. Шажараи тарокима. Нашрга тайёрловчи Қ.Йўлдошев. Т.: Фан. 1995. –Б. 27.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. Т. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006. –Б. 534.

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. VI Том. Т. Фан. 1990. –Б. 218.

⁴ Абулғози Баҳодирхон. Шажараи тарокима. Нашрга тайёрловчи Қ.Йўлдошев. Т.: Фан. 1995. –Б. 3.

⁵ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси). Нашрга тайёрловчи Нурбой Жабборов. – Тошкент: «Шарк» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳрирати, 2019. – Б. 98.

Mamlakat o‘zlashmasi garchi davlat termini kabi forsiy va arabiy izofalarni hosil qilish, turli yasalmalar uchun asos vazifasini o‘tashda faol bo‘lmasa-da, bir necha izofiy birikmalarda turli ma’nolarda istifoda etiladi hamda bir necha sodda yasama so‘z yoxud qo‘shma so‘zlar yasalishi uchun asos bo‘la oladi. Bu holat, ayniqsa, Munis va Ogahiyning Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Mamlakati muxtasar – muxtasar, kichik mamlakat, hududi nisbatan kichik bo‘lgan davlat: Sharm qilurmankim, bu nav’ **mamlakati muxtasar** uchun otlang‘ayman?¹

Nizomi mamlakat – mamlakat nizomi, davlat boshqaruvidagi qonun-qoidalar tizimi: Chun ul hazratning sunnati sanniya va odati marziyasi ul erdikim, har kun saloti xamsa adosi va faroyiz-u sunan iqtizosi va mahomi saltanat tanzimi va **nizomi mamlakat** tasmimi va ahvoli sipoh oroyishi va xotiri fuqaro osoyishi umuridin forig‘ bo‘lg‘andin so‘ng ba’zi tavorixi oliyshamorixkim...²

Xittayi mamlakat – mamlakat chegarasi, atrofi, mamlakat hududi ma’nolarini ifodalaydi: Siposi vofir tuhfası ul sultoni azimatnıshon ostonig‘a nisordurkim, ma’murayi kavnu makon aning xittayi mamlakatig‘a doxil va sitoyishi mutakosir hadyasi ul podshohi vahdatdastgoh dargohig‘a iysordurkim...³

Muhomi mamlakat – mamlakat boshqaruvidagi muhim ishlar, qonun-qoidalar, tartib-intizomi, ba’zan u **mahomi mamlakat** tarzida ham istifoda etiladi: Chun ul hazrat sariri saltanatda mutamakkin bo‘lg‘ondin so‘ng **muhomi mamlakat** va umuri xilofat intizomig‘a itmomi tamom bila qiyom ko‘rguzub...⁴

Musolihi mamlakat – mamlakatning solih kishilari – olim-u ulamosi, din va ilm peshvolari: ...ishtig‘oli umuri saltanat va tasdiqi musolihi mamlakatdin xotiri saodatmaosarig‘akim, davlat yuzining oyinasidur, andak g‘ubori malolat yetib...⁵

A’yoni mamlakat – mamlakatning arkoni davlati, ya’ni yuqori lavozimdagi shaxslar. Ba’zan arkoni davlat deganda mamlakat boshqaruvidagi

¹ Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. –P. 59.

² Мухаммад Ризо Огахий. Риёзу-д-давла. 249 а саҳифа.

³ Мухаммад Ризо Эрнийёзбек ўғли Огахий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси). Нашрга тайёрловчи Нурбой Жабборов. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019. – Б. 28.

⁴ Мухаммад Ризо Эрнийёзбек ўғли Огахий. Асарлар. V жилд. Жомеъу-л-воқеоти султоний. Нашрга тайёрловчи И.Исмоилов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 26.

⁵ Мухаммад Ризо Эрнийёзбек ўғли Огахий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат (Давлат гулшани). – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2020. – Б. 101.

asosiy shaxslar tilga olinsa, a'yoni mamlakat deganda davlat boshqaruvidagi ikkinchi darajadagi shaxslar tushuniladi. Ayrim hollarda ushbu ikki forsiy izofa (*arkoni davlat, a'yoni mamlakat*) sinonim holda ham qo'llanish holatlari kuzatiladi: Shahzodayi mukarram Sayyid Mahmud To'ra boshlig' ulamoyi izom va vuzaroyi zu-l-ehtirom va umanoyi oliymaqom va jame'yi arkoni davlatu **a'yoni mamlakat** ark ichinda Ko'runushxonayi oliyning saroyi davlatnishonasida jam' bo'lub...¹

Arsayi mamlakat – mamlakatda, mamlakat ichida, mamlakat o'rtasi, markazida, hududida: Bu davlat va mamlakatnikim, aning istihlosida umrlar mashaqqati bisyor va suubati beshumorni o'zimg'a tutub, **arsayi mamlakat**da a'doyi davlat istisolida qilichlar chekib, taidoti rabboniy va tavfiqoti yazdoniy bila muyassar qilibmen².

Zimomi mamlakat – mamlakatni boshqarish mas'uliyati, davlatni boshqaruv burchi: Chun ul hazrat nigini saltanatni angushti iqtidorig'a soldi va **zimomi mamlakat**ni qabzayi ixtiyorig'a oldi, fuzaloyi zamon va shuaroyi davron bahjat va tahniyat yuzidin qasoyidi g'arro va tavorixi balog'atafzo nazm silkiga chekibdurlar.

Mamlakati mahrusa – dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalq, hudud: darhol g'azot asbobining tahiyasi va safar saranjomining raviyasig'a ishtig'ol ko'rguzub, g'azot irodasi e'lomi va safar tadoriki ehtimomi uchun **mamlakati mahrusa** lashkarig'a tavochilar irsol qildi.

Umuri mamlakat – mamlakat ishlari, mamlakatda sodir bo'layotgan hodisalar, mamlakat ishida mavjud narsalar: ...gardunehtishom Fozilxo'ja shayxulislomni zoti humoyunining saltanat taxtida istiqror va istihkom topg'anining e'lomi va ba'zi **umuri mamlakat** va mahomi fuqaro va raiyat masolihining payg'omi uchun O'rus viloyatining siforatig'a nomzad qildi³.

Tahlil qilingan forsiy izofalardan tashqari, Ogahiy tarixiy asarlarida mamlakat o'zlashmasi *mamlakatdor, mamlakatoro, mamlakatgir, mamlakatkusho* kabi sodda yasama va qo'shma so'zlarning yasalishi uchun asos vazifasini o'taydi. Ba'zan mamlakat so'zi *rahmat, jannat, oxirat* kabi so'zlar bilan

¹ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-иқбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. –Б. 12^a

² Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. –P. 255.

³ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат (Давлат гулшани). – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2020. – Б. 97.

birikkan holda narigi dunyo, jannat yoki vafot etmoq ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi: Mundin to'rt oy muddati o'tgondin so'ng Afzalxon vabo ofati bila **oxirat mamlakatig'a** azimat ko'rguzdi¹

Xitta – mamlakat, viloyat, shahar ma'nolarida qo'llanuvchi davlatchilik terminologiyasi birligi. Navoiy asarlarida mamlakat, uning atrofi, mamlakat chegarasi, o'lka ma'nolarida, *xittayi pok*, *xittayi ma'mur* kabi izofiy birikmalarda nisbatan faol qo'llanadi:

Kishvar anga nuri safo **xittasi**,
Insho etib hamdu sano xutbasi².

Yana Ardasherki, ani Gavosher derlar, Kirmonda va Ahvoz, Xuzistonda va Mo'sil jaziradin **xittayi** Bahrayndin...³

Chiqdi bir kun mulki Nishoburdin,
Sayr uchun ul **xittayi ma'murdin**⁴.

Ul oydin yorumish ul **xittayi pok**,
Quyosh o'ylakim bu markazi xok⁵.

Mazkur termin Ogahiy tarixiy asarlarida juda kam uchraydi. Xususan, mazkur so'z Ogahiyning "Riyoziy ud-davla" asarida faqat bir o'rinda qo'llangan:

Qayu shahkim, bahori adli birla **xittayi** Xorazm,
Safo-u ziynat ichra g'ayrati firdavsi a'lodur.
Shahanshaheki, kasbi e'tibor aylab shahanshahlar,
Janobi tufraqig'a kecha-yu kunduz jabinsodur⁶.

Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asarida ham uchbu atama faqat bir o'rinda chegara ma'nosida: ...dorussaltanayi Xivaqdin rukub qilib, Xonqoh **xittasida** ul mamlakat voliysi Ollohnazar boy valadi Eshniyoz boyning davlatxonasin nuzuli masarratvusuli bila rashki behisht qildi⁷. "Zubdat ut-tavorix"da ham ushbu davlatchilik atamasi faqat bir o'rinda hudud ma'nosida uchraydi: Siposi vofir tuhfası ul sultoni azamatnishon ostonig'a nisordurkim,

¹ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. –Б. 198^a

² Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. VIII Том. Т. Фан. 1991. –Б. 89.

³ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XVI Том. Т. Фан. 2000. –Б. 222.

⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XII Том. Т. Фан. 1996. –Б. 221.

⁵ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. VIII Том. Т. Фан. 1991. –Б. 313.

⁶ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 355^b.

⁷ Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. –P. 268.

ma'murayi kavnu makon aning xittayi mamlakatig'a doxil...¹ “Gulshani davlat”da ushbu davlatchilik atamasi ikki o'rinda *tasarrufi ostida, qo'l ostida* ma'nosida qo'llanadi: “...qal'a kalidin yasovulbishining kafi ixtiyorig'a topshurg'ay, tokim, mundoq mutoba'at yumnidin qal'a ahlining ashho va amvoli g'orat ma'raziga tushmay, **xittayi** tasarruflarida omon turgay”²; yoki ushbu parchaga ham e'tibor qaratsak: “...Faridun xazoyini va Qorun dafoyini aning zakoti hisobig'a kira olmas erdi, jam' etib **xittayi** tasarrufig'a soldi va solg'utdin jam' bo'lg'an tillolarni ham borlab oldi”³ unda ham *tasarrufi ostiga* ma'nosi ustunlik qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy tarixiy asarlarida davlat tushunchasi bilan bog'liq bir nechta atamalar mavjud bo'lib, ular ko'plab izofalarni hosil bo'lishida faol qatnashgan. Ularni tahlil qilish muarrixning so'z va izofa yasash imkoniyatlarida qanchalik darajada unumli foydalanganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988. –P. 377.
2. Абулғози Баҳодирхон. Шажараи тарокима. Нашрга тайёрловчи Қ.Йўлдошев. Т.: Фан. 1995. –Б. 27.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. VI Том. Т. Фан. 1990. – Б. 218.
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. VIII Том. Т. Фан. 1991. –Б. 89.
5. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XII Том. Т. Фан. 1996. –Б. 221.
6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XVI Том. Т. Фан. 2000. –Б. 222.
7. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Том X. – Тошкент. Фан. 1992. –Б. 69.
8. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Том XIV. – Тошкент. Фан. 1998. –Б. 101.
9. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. –Б.13^a
10. Комёб. Таворих ал-хавонин. 98^a вар.
11. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Риёзу-д-давла. 249 а саҳифа.

¹ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси). Нашрга тайёрловчи Нурбой Жабборов. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019. – Б. 28.

² Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат (Давлат гулшани). – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2020. – Б. 56.

³ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат (Давлат гулшани). – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2020. – Б. 146.

12. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси). Нашрга тайёрловчи Нурбой Жабборов. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019. – Б. 28.

13. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 355^b.

14. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Жомеъул-воқеоти султоний. Нашрга тайёрловчи И.Исмоилов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 26.

15. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат (Давлат гулшани). – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2020. – Б. 146.

16. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 12^a

17. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Жомеъул-воқеоти султоний. Нашрга тайёрловчи И.Исмоилов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 36.

18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. Т. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006. –Б. 534.

19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси нашриёти. Том I. Т.: 2006. –Б.537.

FILOLOGIYA

MASOFAVIY TA'LIMDA INGLIZ TILI KURSLARINI TASHKIL ETISHDA CLT YONDASHUVI TECHNOLOGY-ENHANCED COMMUNICATION VA OPINION-SHARING METODLARINING AMALIY SAMARADORLIGI

Ikanova Lazokat
O'zbekiston
Respublikasi Jamoat
xavfsizligi
universiteti

UO'K 378.147:811.111+37.018.43

Annotatsiya: Mazkur maqolada masofaviy ta'lim sharoitida ingliz tili kurslarini tashkil etishda Communicative Language Teaching (CLT) yondashuvidan foydalanishning amaliy jihatlari yoritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются практические аспекты применения подхода Communicative Language Teaching (CLT) при организации курсов английского языка в условиях дистанционного обучения.

Annotation: This article examines the practical aspects of applying the Communicative Language Teaching (CLT) approach in organizing English language courses in a distance learning environment.

Kalit so'zlar: CLT, masofaviy ta'lim, kommunikativ kompetensiya, interaktiv platformalar, onlayn muloqot, ingliz tilini o'qitish.

Ключевые слова: CLT, дистанционное обучение, коммуникативная компетенция, интерактивные платформы, онлайн-коммуникация, преподавание английского языка.

Key words: CLT, distance learning, communicative competence, interactive platforms, online communication, English language teaching.

Masofaviy ta'lim zamonaviy pedagogikaning ajralmas qismiga aylandi. Ingliz tilini onlayn formatda o'qitishda asosiy muammo – o'quvchilarning real muloqotga jalb etilishi va tilni kommunikativ maqsadda qo'llashidir. An'anaviy grammatika-markazli yondashuvlar masofaviy muhitda ko'pincha passiv o'rganishga olib keladi. Shu bois, tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatishga asoslangan Communicative Language Teaching (CLT) yondashuvi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

CLT nazariyasiga ko'ra, til kompetensiyasi nafaqat grammatik bilimni, balki sotsiolin-g-vistik, diskursiv va strategik ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Masofaviy ta'limda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalar bilan uyg'unlashgan metodlar orqali samarali amalga oshiriladi. Ayniqsa, technology-enhanced communication hamda opinion-sharing metodlari interaktivlikni ta'minlaydi va o'quvchilarni faol nutqiy jarayonga jalb etadi.

Masofaviy ta'lim sharoitida ingliz tilini samarali o'qitish masalasi so'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Communicative Language Teaching (CLT) yondashuvi aynan tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatishga qaratilgani sababli onlayn muhitda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Dell Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini ijtimoiy kontekst bilan bog'lab, tilni real vaziyatlarda qo'llash zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, Michael Canale va Merrill Swain ushbu kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlarini ilmiy asoslab bergan. Keyingi tadqiqotlarda texnologiyaning roli alohida e'tirof etiladi: Carol A. Chapelle raqamli vositalar til o'rganish jarayonini individuallashtirish va interaktivlashtirish imkonini berishini ko'rsatadi, Glenn Stockwell esa texnologiya o'quvchilar motivatsiyasini oshirishini empirik ma'lumotlar bilan tasdiqlaydi. Jack C. Richards CLTni zamonaviy, moslashuvchan va kontekstga yo'naltirilgan metod sifatida talqin qilib, uni turli ta'lim formatlariga, jumladan, masofaviy o'qitishga integratsiya qilish mumkinligini ta'kidlaydi. Ikanovanning masofaviy ingliz tili kurslarida interaktiv platformalar asosida olib borgan amaliy ishlari ham aynan shu nazariy qarashlarni tasdiqlaydi: technology-enhanced communication va opinion-sharing metodlari o'quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi hamda ijtimoiy-muloqot ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shunday qilib, mazkur maqola mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg'un holda, CLTning masofaviy muhitdagi amaliy samaradorligini ochib beradi.

Mazkur maqolada konseptual-amaliy tahlil asosida CLT yondashuvini masofaviy ta'limda qo'llash mexanizmlari ishlab chiqildi. Metodik asos sifatida technology-enhanced communication va opinion-sharing metodlari tanlandi hamda ular quyidagi platformalar bilan integratsiya qilindi: Kahoot, Quizizz, JeopardyLabs va Padlet.

Technology-enhanced communication doirasida real vaqtli so'rovlar, situatsion topshiriqlar, jamoaviy o'yinlar va muammoli vaziyatlar asosida muloqot tashkil etildi. Masalan, Kahoot platformasida "Agree/Disagree" formatidagi savollar yordamida bahs-munozara boshlab beriladi. So'rov natijalari

ko'rsatilgach, o'quvchilar o'z pozitsiyasini og'zaki asoslaydi. Bu jarayonda grammatika emas, ma'no yetkazish ustuvor bo'ladi.

Quizizz platformasida esa scenario-based topshiriqlar qo'llaniladi. Masalan, "You are at a job interview. How would you introduce yourself?" kabi vaziyat beriladi. Talabalar avval variant tanlaydi, so'ng o'z javobini kengaytirib, erkin nutq shaklida ifodalaydi.

JeopardyLabs jamoaviy o'yin formati orqali hamkorlik kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi. "Role-play", "Problem-solving" va "Everyday communication" kabi bo'limlar asosida guruhlar o'zaro muloqotga kirishadi.

Opinion-sharing metodlari Padlet orqali amalga oshiriladi. Talabalar ma'lum mavzu bo'yicha fikr yozadi, bir-birining postlariga izoh qoldiradi va keyinchalik sinxron muhokama tashkil etiladi. Masalan, "Should university education be free?" mavzusida yozma fikr almashishdan so'ng og'zaki bahs o'tkaziladi.

CLT metodlarini onlayn platformalar bilan integratsiya qilish quyidagi natijalarga olib keladi. Avvalo, o'quvchilarning nutqiy faolligi oshadi, chunki har bir topshiriq muloqotga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkinchidan, autentik kommunikativ vaziyatlar yaratiladi, bu esa tilni real hayotga yaqin kontekstda qo'llash imkonini beradi. Uchinchidan, hamkorlik asosida o'rganish muhiti shakllanadi, natijada ijtimoiy va strategik kompetensiyalar rivojlanadi.

Padlet orqali yozma fikr bildirish imkoniyati introvert o'quvchilar uchun qulay sharoit yaratadi, Kahoot va Quizizz esa tezkor feedback orqali motivatsiyani oshiradi. JeopardyLabs jamoaviy raqobat muhiti orqali nutq ravonligini kuchaytiradi. Natijada kommunikativ kompetensiyaning barcha komponentlari – grammatik, sotsiolin-g-vistik, diskursiv va strategik – kompleks ravishda rivojlanadi.

Masofaviy ta'limda CLT yondashuvi texnologiya bilan uyg'unlashganda o'quv jarayoni interaktiv va maqsadga yo'naltirilgan tus oladi. Texnologiya bu jarayonda maqsad emas, balki kommunikativ faoliyatni kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Opinion-sharing metodlari tanqidiy fikrlash va argumentatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi, technology-enhanced communication esa real vaqtli muloqot va tezkor refleksiya imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu metodlar o'quvchini passiv tinglovchidan faol kommunikatsiya subyektiga aylantiradi. Masofaviy muhitda yuzaga keladigan "kommunikativ izolyatsiya" muammosi interaktiv platformalar yordamida

kamayadi. O'quvchilar tilni o'rganish jarayonini ijtimoiy tajriba sifatida qabul qila boshlaydi.

Masofaviy ta'limda ingliz tili kurslarini tashkil etishda CLT yondashuvini technology-enhanced communication va opinion-sharing metodlari bilan integratsiya qilish yuqori samaradorlik beradi. Kahoot, Quizizz, JeopardyLabs va Padlet platformalari orqali interaktiv, autentik va hamkorlikka asoslangan o'quv muhiti yaratiladi. Natijada o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi kompleks ravishda rivojlanadi, nutqiy faollik va motivatsiya ortadi hamda til real hayotga yaqin vaziyatlarda qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Canale, M., & Swain, M. 1980. "Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing." *Applied Linguistics* 1(1): 1–47.
2. Chapelle, C. A. 2003. *English Language Learning and Technology*. Amsterdam: John Benjamins.
3. Hymes, D. 1972. "On Communicative Competence." In *Sociolinguistics*, edited by J. Pride and J. Holmes.
4. Richards, J. C. 2006. *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Stockwell, G. 2013. "Technology and Motivation in English-Language Teaching and Learning." London: Palgrave Macmillan.
6. Lazokat, I. (2022). Enhancing listening skills with the help of digital tools. *Thematics Journal of English Language Teaching*, 6(1), 136-139.
7. Khasanova, D., Ulmasbaeva, M., & Ikanova, L. (2019). IT IS TIME TO CHANGE THE SUBJECT MATTER OF ENGLISH AT VOCATIONAL COLLEGE. *EPRAInternational Journal of Multidisciplinary Research*, 48-52.
8. Ikanova, L. (2020). Analysis Of Two Tasks from The Point of Pragmatics. *Modern trends in linguistics: problem and solutions*, 25-26.
9. Ikanova, L. (2019). THE IMPACT OF THE MATERIALS DEVELOPMENT TO THE IMPLEMENTATION OF THE LANGUAGE PLANNING AND POLICY. *Electronic journal of actual problems of modern science, education and training*, 7-13.
10. Abduazizovna, P. Z., & Lazokat, I. (2025). Strategies For Providing Effective Feedback in Teaching English. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 226-232).

11. Abduazizovna, P. Z., & Ikanova, L. (2025). FEEDBACK AS A TOOL FOR MOTIVATION IN LANGUAGE LEARNING. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 233-240).

12. Ikanova, L. S. Q. (2024). SUDLANGAN SHAXSLAR VA MAHKUMLARNING XULQ ATVORI VA QAYTA JINOYAT SODIR ETISHINI BARTARAF QILISHDA TA'LIMNING TA'SIRI (AQSH TAJRIBASI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(1), 433-439.

13. Ikanova, L. (2019). THE IMPACT OF MATERIALS DEVELOPMENT, CRITICAL PEDAGOGY AND LGBT'S ISSUE ON THE LANGUAGE PLANNING AND POLICY. SCIENCE. RESEARCH, DEVELOPMENT, 59-62.

14. Ikanova, L. S., & Karimova, B. A. (2025). THE 2023 CONSTITUTIONAL REFORM: WHAT CHANGED AND WHY IT MATTERS FOR EDUCATION. GLOBAL TRENDS IN SCIENCE AND INNOVATION, 1(1), 180-185.

FILOLOGIYA**INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI “FASHION BLOG”
LEKSIKASINING MILLIY-MADANIY O‘ZIGA XOSLIGI****UO‘K 81'373:811.111+811.512.133**

Atajanova Nazokat,
Urganch innovatsion
universiteti, “Ozbek
va xorijiy
filologiya” kafedrası
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi fashion blog (feyshn-blog) diskursida qo‘llaniladigan leksik birliklarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi lingvomadaniy, pragmatik va diskursiv yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматриваются национально-культурные особенности лексики английских и узбекских fashion blog (фейшн-блогов) с позиций лингвокультурологии, прагматики и дискурс-анализа.

Annotation: This article examines the national and cultural specificity of lexical units used in English and Uzbek fashion blogs from a linguocultural, pragmatic, and discourse-analytical perspective.

Kalit so‘zlar: fashion blog, feyshn-blog, lingvomadaniyat, diskurs, milliy mentalitet, moda leksikasi.

Ключевые слова: fashion blog, фейшн-блог, лингвокультура, дискурс, национальная ментальность, модная лексика.

Key words: fashion blog, linguoculture, discourse, national identity, fashion lexicon.

So‘nggi o‘n yilliklarda raqamli kommunikatsiya makonining keskin kengayishi, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar va shaxsiy blog platformalarining ommalashuvi natijasida fashion blog fenomeni mustaqil diskurs turi sifatida shakllandi. Avvallari moda asosan jurnalistika, podium namoyishlari yoki professional moda jurnallari orqali targ‘ib qilingan bo‘lsa, bugungi kunda u shaxsiy bloglar, Instagram sahifalari va boshqa vizual platformalar orqali interaktiv shakl kasb etdi. Natijada moda nafaqat estetik hodisa, balki kommunikativ va ijtimoiy identifikatsiya vositasiga aylandi.

Moda bloglari shaxsiy tajriba, vizual obraz, baholovchi nutq va ijtimoiy pozitsiyaning uyg‘unlashgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday matnlarda muallif o‘zining kundalik kiyinish tajribasini, estetik qarashlarini, brendlar haqidagi fikrini va auditoriyaga bo‘lgan munosabatini bir vaqtning o‘zida

ifodalaydi. Bu jihatdan fashion bloglar polikodli (verbal va vizual unsurlar uyg'unlashgan) matn turiga kiradi. Fotosuratlar, rang tanlovi, hashtaglar, emotsional baholovchi sifatlar va murojaat shakllari yagona kommunikativ strategiya doirasida ishlaydi.

Ushbu platformalarda qo'llaniladigan leksika oddiy nomlash vositasi bo'lib qolmaydi. U kiyim-kechakni tasvirlashdan tashqari, ijtimoiy maqom, gender stereotiplari, go'zallik me'yorlari va milliy mentalitet haqida ham axborot beradi. Masalan, "trend", "must-have", "iconic" kabi birliklar iste'molchilik va yangilikka intilish diskursini ifodalasa, "kamtarona", "milliy", "hayo" kabi birliklar ijtimoiy maqbullik va axloqiy me'yorlarni anglatadi. Demak, moda leksikasi lingvistik indikator sifatida madaniy kodlarni tashiydi.

Shunday qilib, fashion blog fenomeni nafaqat moda sanoatining bir ko'rinishi, balki til va madaniyat o'zaro aloqasini o'rganish uchun samarali maydon hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi moda leksikasini lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilish milliy o'ziga xoslik, qadriyatlar tizimi va global ta'sir mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Fashion blog - bu shaxsiy pozitsiyaga asoslangan, baholovchi va ta'sirchan diskurs turi bo'lib, unda muallif o'z didi, tanlovi va estetik qarashlarini auditoriyaga taqdim etadi. Diskurs nazariyasiga ko'ra, bunday matnlar ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Xususan, Norman Fairclough diskursni ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qilib, til orqali hokimiyat va ideologiya uzatilishini ta'kidlaydi.

Fashion bloglarda leksik tanlov muallifning nafaqat didini, balki madaniy identifikatsiyasini ham ochib beradi. Ingliz tilida "statement piece", "effortless look", "bold choice" kabi birliklar individualizm va o'zini namoyon qilish g'oyasini ifodalaydi. O'zbek tilida esa "kamtarona libos", "milliy uslub", "nafis bezak" kabi birikmalar jamoaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi.

Ingliz tilidagi fashion blog leksikasining madaniy xususiyatlari. Ingliz tilidagi fashion bloglar asosan G'arb madaniyatiga xos bo'lgan iste'molchilik va trend markazlashuvi bilan ajralib turadi. Bu bloglarda "trend", "must-have", "seasonal essential", "iconic" kabi leksik birliklar yuqori chastotada uchraydi. Ushbu birliklar moda obyektini funksional emas, balki status belgisi sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

Roland Barthes ta'kidlaganidek, moda tili belgilar tizimi bo'lib, u ijtimoiy ma'nolarni konnotativ darajada ishlab chiqaradi. Ingliz fashion bloglarida kiyim

“freedom”, “confidence”, “power” kabi abstrakt tushunchalar bilan bog‘lanadi. Natijada leksika shaxsiy muvaffaqiyat va o‘ziga ishonch diskursini kuchaytiradi.

O‘zbek tilidagi feyshn-blog leksikasining milliy-madaniy o‘ziga xosligi. O‘zbek tilidagi feyshn-bloglarda moda tushunchasi milliy qadriyatlar bilan muvofiqlashtiriladi. Bu bloglarda “hayo”, “or-nomus”, “latofat”, “milliylik” kabi leksik birliklar estetik baholashning markaziy komponentiga aylanadi. Kiyim tanlash jarayoni nafaqat shaxsiy did, balki ijtimoiy maqbullik mezonlari bilan ham belgilanadi.

Bu holat Yuri Lotmanning semiosfera konsepsiyasi orqali izohlanadi. Global moda belgilar tizimi mahalliy madaniy chegaradan o‘tayotganda transformatsiyaga uchraydi. Masalan, “modest fashion” tushunchasi ingliz tilida trend sifatida talqin qilinsa, o‘zbek tilida u axloqiy norma sifatida qabul qilinadi.

Qiyosiy leksik-semantik tahlil. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek fashion bloglarida bir xil referentlar turli semantik yuklamaga ega. Ingliz tilidagi “simple look” minimalizm va zamonaviylikni bildirsa, o‘zbek tilidagi “sodda kiyim” kamtarlik va ijtimoiy moslikni anglatadi.

Shuningdek, ingliz bloglarida baholovchi sifatlar ko‘proq intensivlikni bildiradi (“absolutely stunning”, “incredibly chic”), o‘zbek bloglarida esa muvozanat va me‘yor ustuvor (“juda chiroyli”, “ko‘rkam va oddiy”).

Pragmatik va kommunikativ omillar. Fashion blog leksikasining shakllanishida auditoriya omili muhim rol o‘ynaydi. Ken Hylandning metadiskurs nazariyasiga ko‘ra, muallif o‘quvchi bilan yaqinlik o‘rnatish uchun til vositalarini ongli ravishda tanlaydi. Ingliz fashion bloglarda bevosita murojaat (“you need this”, “trust me”) keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek bloglarda bilvosita maslahat (“mos tushadi”, “ma‘qul keladi”) afzal ko‘riladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tilidagi fashion blog leksikasi milliy-madaniy tafovutlarni yaqqol va tizimli tarzda aks ettiradi. Ingliz fashion bloglarida individualizm, shaxsiy erkinlik, trendga tez moslashish va iste‘molchilik ideologiyasi yetakchi semantik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat baholovchi sifatlarning yuqori intensivligi, o‘ziga ishonchni kuchaytiruvchi leksik birliklar hamda bevosita auditoriyaga murojaat qilishga asoslangan pragmatik strategiyalar orqali ifodalanadi. Natijada ingliz fashion blog diskursida moda shaxsiy muvaffaqiyat, o‘zini namoyon qilish va ijtimoiy kapital vositasi sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek tilidagi feyshn-bloglarda esa moda tushunchasi ko‘proq axloqiy me‘yorlar, milliy identitet va estetik muvozanat bilan uyg‘unlashgan holda

ifodalanadi. Bu bloglarda kiyim nafaqat tashqi ko‘rinish elementi, balki ijtimoiy maqbullik, madaniy moslik va jamoaviy qadriyatlarga hurmat ramzi sifatida talqin qilinadi. “Hayo”, “kamtarona”, “orasta”, “milliy uslub” kabi leksik birliklarning faol qo‘llanilishi moda diskursining mahalliy madaniy kodlar asosida shakllanishidan dalolat beradi. Shuningdek, pragmatik jihatdan o‘zbek feyshn-bloglarida bilvosita maslahat berish, yumshoq baholash va me’yoriylikka urg‘u berish ustuvor strategiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu farqlar leksik tanlov, baholovchi birliklarning intensivligi, metaforik ifoda vositalari hamda muallif–o‘quvchi munosabatini qurish usullarida aniq ko‘zga tashlanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, global moda terminlari va trend tushunchalari har ikki tilga kirib kelgan bo‘lsa-da, ular mahalliy madaniyat ta’sirida semantik va pragmatik transformatsiyaga uchraydi. Bu jarayon moda diskursining biryoqlama globallashuv emas, balki “global va mahalliy” omillar o‘zaro ta’sirida shakllanishini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, fashion blog diskursi globallashuv sharoitida ham milliy madaniyatning faol tashuvchisi ekanligi isbotlanadi. Moda bloglari til orqali milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi va estetik qarashlarni uzatish imkoniyatiga ega bo‘lgan zamonaviy kommunikativ maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tilidagi fashion bloglar leksikasini chuqur lingvomadaniy tahlil qilish nafaqat moda diskursini, balki zamonaviy jamiyatda til va madaniyat o‘zaro munosabatlarini anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barthes, R. The Fashion System. London: Cape, 1983.
2. Blumer, H. Fashion: From Class Differentiation to Collective Selection. The Sociological Quarterly, 1969.
3. Fairclough, N. Discourse and Social Change. Cambridge: Polity Press, 1992.
4. Hyland, K. Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. London: Continuum, 2005.
5. Lotman, Y. Universe of the Mind. London: I.B. Tauris, 1990.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.

FILOLOGIYA**SEHRLI ERTAKLARDA ZOOMORF VA ANTROMORF HOMIY
OBRAZLARI****UO‘K 398.21+398.3+82.0**

**Jamila Asqarova,
O‘zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti
yetakchi ilmiy
xodimi, Xalqaro
Nordik universiteti
dotsenti, filologiya
fanlari doktori**

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq sehrli ertaklarida bosh qahramon –yigitga homiylik qilgan mifologik personajlar va ularning turlari haqida so‘z yuritiladi.

Аннотация: В статье говорится о мифологических персонажах и их типах, покровительствовавших главному герою – юноше узбекских народных волшебных сказок.

Annotation: The article talks about mythological characters and their types who patronized the main character - the young man of Uzbek folk fairy tales.

Kalit so‘zlar: qahramon, homiy, ota, bo‘ri, pari, ilon, baliq.

Ключевые слова: герой, покровитель, отец, волк, фея, змея, рыба.

Key words: hero, patron, father, wolf, fairy, snake, fish.

Sehrli ertaklarda homiyilar zoomorf va antromorf shaklida kelib, ularda ikki xil – sinash va tortiq qilish funksiyasi kuzatiladi. Xizr, chol, sehrgar kampir, pari antromorf qiyofali bo‘lsa, ot, bo‘ri, maymun zoomorf shaklidagi homiydir. Zoomorf va antromorf ko‘rinishidagi obrazlar qanday tasvirlanishidan qat’iy nazar, ular doimo insonga xos bo‘lgan ong va irodaga ega bo‘lib, sezilarli o‘zgarishlarga uchrasa ham, ulardagi mifologik asos saqlanadi.

Sirlardan voqiflik homiyning asosiy belgilaridan biri bo‘lib, sehrli-sarguzasht tipidagi kenja botir ertaklaridagi homiyilar – cho‘loq bo‘ri va maymun ham qahramonga qizning ro‘moli, qushning chakkasiga tekinsa qo‘lga tushishini, yalmog‘izning otiga qanday munosabatda bo‘lishi kerakligini, ot esa yigitga oltin pat boshiga ko‘p sinovlar solishi, shu sababli uni olmaslikni, parilar qora otga qo‘li tegsa, tagi zaminga tushib ketishinidan ogohlantiradilar. Bir so‘z bilan aytganda, homiyning bilish funksiyasi yetakchi o‘rinni egallaydi.

Sehrli ertaklarda yigit qahramonga hayvon yoki qush shakliga evrila oladigan homiy – pari obrazi uchraydiki, uning genetik asoslari haqida ko‘plab folklorshunos olimlar fikr bildirishgan. Xususan K.Imomov parini “suv kulti, suv

ma'budasi Anaxita ta'siriga borib taqaladi. Binobarin u suv stixiyasining obrazli ifodasi. Uning qadimgi manbai O'rta Osiyodagi dastlabki dinning urug' e'tiqodi shakli, suv stixiyasining antromorf qiyofali ma'budasi (Anaxita) paydo bo'lmasdan avvalgi ibtidoiy qatlamga borib taqaladi. Uning epik namunasi esa pari yoki suv parisi shaklida faoliyat ko'rsatadi" deya ta'kidlasa, O.Qayumov "pari O'rta Osiyo xalqlarining zardo'shtiylikdan burungi e'tiqodiy qarashlari, hosildorlik kultlari, go'zallik va muhabbat ilohasi bilan bog'liq tasavvurlar asosida kelib chiqqan sof mifologik obrazdir" [3,129] degan fikrni bildiradi.

Maqolada sehrli ertaklardagi homiy obrazining genezisi va poetikasi muhokama qilinadi. Uning zoomorf va antromorf turlari tavsiflanadi. Bosh qahramon bilan munosabati o'rganiladi hamda bu boradagi olimlar yondashuvlari o'rganiladi.

Pari obrazini bosh qahramon yigit bo'lgan ertaklarda homiy bo'lib kelishi masalasiga to'xtalsak. "Bulbuligo'yo" ertagida maymunning aslida pariligi sarguzashtlar oxirida aytiladi: "Haliyam mening kim ekanimini bilmas ekansan... Maymun bir yumalab bir malika bo'libdiki, olamda bunday chiroyli qiz onadan tug'ilgan emas. Shahzoda ko'rgan hamon hushidan ketib yiqilibdi. Bir zamondan keyin ko'zini ochib qarasa, maymun pari (ta'kid bizniki – J.A.) ning tizzasiga bosh qo'yib, taxtning uzasida yotibdi". O'zbek folklorida pari obrazini maxsus tadqiq etgan O.Qayumov qahramonga o'zga olamda yo'ldoshlik qiluvchi parining yo'llovchilik vazifasi haqida shunday ta'kidlaydi: "O'zbek sehrli ertaklarida parilar bajaradigan badiiy kompozitsion vazifalardan biri uning qahramonni epik safarga yo'llovchi personaj funksiyasida kelishidir. Sehrli ertak qahramonining muayyan yoki epik shartni bajarish maqsadida o'zga olamga safarga chiqishi bevosita pari bilan bog'liqdir"[3].

Ertakda parilar podshosining qizi bo'lgan maymun pariga yigit uylanish taklifini berganda "men er qilmayman, bo'lmasa meni o'ldirishadi" degan gapidan xalqda parilar odamzodga tegmasligi, aks holda parilar olamiga dog'tegishi haqidagi qarashlar qadimiy inonch-e'tiqodlar bilan bog'liq. Fikrimizni ushbu afsona tasdiqlaydi: "Gulbuloq ota katta g'or, toshi (oldida) xuddi ayvondek. Ustida katta tug'dona daraxti bor. Hovuzi qozonning og'zicha. Hovuzining suvi kamaymaydiyam, toshmaydiyam. Suviga odam qonmaydi. Suviga ovqatni ko'p yegizadi. Gulbuloq ota g'orining uch-to'rt quloq joyigacha odam siqilib kira oladi. Keyin (davomiga) kirolmaydi. Bir odam kiraman deb qisilib qolgan ekan. Bundan yuz yilcha burun bir qiz shu g'orning ichiga kirib chiqar ekan. Olma,

uzum olib chiqar ekan. G'orning ichi bog', bir daryo oqayapti, tashqaridagi buloq shu daryoning suvidan, xurjunlarda oltin to'la osig'lik turibdi, deb aytarkan. Bu g'orning bir uchi hazrati Langar otadan chiqadi. Bir tomoni Yakka pistadan chiqadi, deyishadi odamlar. Odamlar qizni Bibiqiz deyishar ekan. Shu qiz voyaga yetib, nikoh o'qilayotgan vaqti o'z-o'zidan yonib ketgan ekan. Bu – yolg'on gap emas. Shu qizni ko'rgan odamlardan biz eshitganmiz". Ushbu afsonani yozib oluvchi olim Sh.Turdimov bu holatni quyidagicha izohlaydi: "Chiltanlar makoni – Gulbuloq otaga kirib-chiquvchi Bibiqizning nikoh vaqti yonib ketishi, ularning taqiqini buzganligi sababli yuz bergan" [6,24].

"Bir tola soch" evaziga homiy bilan ramziy bog'lanish, parining ruhiga egalik qilish huquqi yigitni raqib – akalar zulmidan omon saqlaydi. Bizningcha, maymun parida homiy (marosimni o'tkazuvchi va boshqaruvchi) ruh va zoomorfik shakl birlashib ketgan.

"Kallasi katta boyvachcha"ning homiysi bo'lgan cho'loq bo'ri obrazining jezdan yasalgan haykali haqida tarixchi olim A.Muhammadjonov quyidagilarni qayd etadi: "O'zRFA tarix muzeyi esponatlar xazinasida urug' totemi – bo'ri, uning ustida urug'ning bosh rahnamosi ayol, so'ngra uning orqasida katta boshli o'g'lonning haykali saqlanadi. Arxeolog L.M.Rutkovskaya olib borgan tadqiqotlarga asoslangan folklorshunos olim Hodi Zarif topilmani islomgacha bo'lgan davrga oid ekanini qayd etadi. O'zbek xalq ertaklari orasida keng tarqalgan "cho'loq bo'ri" hikoyasi mazmunini haykalning umumtasviri bilan taqqoslab, ushbu ikki turdagi ma'naviy qadriyatlar o'tmishimizning bir necha ming yilliklar qa'ridan to hozirgi kunlargacha haykal va tarixiy ertak shakllarida yetib kelganini ta'kidlaydi" [4,70]. 1951 yilda Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidan topilgan bu topilma va uning tarixiy asoslarini H.Zarif "Folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o'rganish masalasiga doir" [2,30] maqolasida tahlil qiladi. Olim bronza haykalda va ertakda tasvirlangan qahramonning tashqi qiyofasiga e'tibor qaratadi. Kallasi katta boyvachcha "cho'loq bo'rining ustiga minib yuradi va shundagina muvaffaqiyat qozonadi. Bronza haykalda qahramon qizni cho'loq bo'ri yordami bilan olib kelayotir. Ertakda aytilishicha ham, bo'ri – cho'loq. Qahramonning ko'zini ko'r qiladilar. Haykalda ham kallasi katta ahramonning bir ko'zi ko'r".

Iqtiboslardagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, haykal va ertak asosi bir-biriga juda uyg'un. Bir so'z bilan aytganda, haykal sifatida ishlanib saqlangan ushbu topilma oddiy san'at asari emas, balki xalqning tafakkur tushunchasini ham anglatib, davrlar o'tishi bilan ertak shaklida ma'naviy ongda yashab qolgan.

“Xolmirzajon” va “Ota vasiyati” ertaklarida kenja o‘g‘ilga o‘z otasi homiy vazifasida kelib, uni vasiyatlarini bajarish orqali qahramon murod-maqsadiga yetadi. Otaning qabrini qo‘riqlash, uning vasiyatlarini bajarish kenja o‘g‘ilga bitmas-tuganmas boylik va kuch-qudrat ato etadi. Bu ertaklarda otalar oddiy odam emas, mifologik sub’yekt ekanligi, o‘lgandan keyin bu vazifalar vasiyatni bajargan o‘g‘liga o‘tishida ko‘rinadi. Qabr ruhlar olami bilan aloqador makon bo‘lib, ota qabrga qo‘yilgach, birinchi kun “oq ot osmondan yaroq-aslaha, kiyim-kechak bilan tushib, go‘rni uch marta aylanadi”. Ikkinchi kun qora ot, uchinchi kun saman otlar ham xuddi shunday qilib, ular yigitga otasi tirikligida uning xizmatida bo‘lganliklarini aytib, nishona sifatida unga yollaridan bir tola beradilar. Shu o‘rinda otaning homiyligi bevosita ot bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Uch o‘g‘il, uch kecha va uch ot sarguzashti uchlik – ota – ot – kenja o‘g‘il tizimida rivojlanadi.

“Xolmirzajon” ertagi boyning uch xotini va ulardan bir o‘g‘il, bir qizi borligi hamda otaning o‘limi yaqinlashib qolgani xabari bilan boshlanadi: “...boy o‘g‘illarini chaqirib, nasihat qildi. Katta o‘g‘liga: ey o‘g‘lim, men ertaga juma kuni erta bilan olamdan o‘taman. Shu payt bir gado keladi, sen singlingni shu gadoga chiqarib ber, senga ikki xazina tillani bag‘ishldim, - dedi. Ikkinchi o‘g‘liga: - Ey o‘g‘lim, meni taxtaga olganda, bir gadoy keladi, shu vaqtda sen ham singlingni unga chiqarib ber, senga ham ikki xazina tilla berdim, - dedi. Uchinchi o‘g‘li Xolmirzajonni chaqirib: - Ey o‘g‘lim, meni tobutga solish paytida bir gadoy keladi, sen ham singlingni chiqarib bergin, senga ham ikki xaina tilla berdim. So‘ngra o‘zing go‘rimga borib, uch kun posbonlik qilgin” deya vasiyat qiladi. Bu ertak ham uch o‘g‘il, uch qiz, uch gado (dev), uch sinov (xafrang qush, bulbuligo‘yo, ming bir xolli ot) doirasida rivojlanib, voqealar ota – ot – kenja o‘g‘il chizig‘i bo‘ylab sodir bo‘ladi.

Ushbu ertaklardagi qabr qo‘riqlash qadimda ajdodlar ruhiga sig‘inish, ulardan madad olish kabi marosim bilan bog‘liq bo‘lib, an’anani bajaruvchi kenja o‘g‘ilning murodga yetishuvida otlar va devlar (opalarining erlari) ko‘makka keladilar. Ikkala ertakda ham ot to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki otasi orqali homiylik qilishi kuzatiladi. Bu esa epik homiy qahramonga hech qanday shartlarsiz yordam beradi degan qarashlarga mos tushmaydi. Ertakda otning yigitga yordami otasining qabrini qo‘riqlagani evaziga sodir bo‘ladi. Shu sababdan otni o‘lgan otaning ruhi timsoli, qahramon ko‘makchisi deyish o‘rinli deb o‘ylaymiz. Ota-bobolar oldidagi burchni halol ado etuvchi kenja o‘g‘il

marosim o'tkazuvchi va an'analar davomchisi sifatida gavdalanadi. Ertakdagi obrazlar mifologik xususiyat kasb etsa-da, uning syujeti hayotiy munosabatlarni ko'rsatish asosida rivojlangan.

Sehrli uzuk yoki toshga ega bo'lgan ertak ("Mehrigiyo", "To'ti labbay o'ti", "Oq ilonning amri bilan", "Nigini shohi moron", "Erinaman kal", "Negiz uzuk") qahramonlari bu predmetlarni ilondan uning bolasini qutqargani evaziga oladilar. "Mehrigiyo" qahramoni ilonlar podshosidan "tilingizning tagidagi mehrigiyoyingizni bering" deb so'raydi, chunki unda sir ko'p bo'lib, yigitni mushkul ishlardan qutqaradi. Uning tilsim so'zi "Labbay tosh, men senga yo'ldosh" bo'lib, bundan mehrigiyoning kichkina sehrli toshligi ayon bo'ladi. "To'ti labbay o'ti" ertagi qahramoni qushlar podshosi bo'lmish laylakning o'g'lini tuzoqdan qutqargani evaziga to'tining labbay o'tiga erishadi. Qushlar podshosi "o'zi mayizdek keladigan narsa"ni qahramonning tilini tagiga solib qo'yadi. "Oq ilonning amri bilan" va "Erinaman kal" ertaklari qahramonlari oq ilonni qutqargani evaziga oq toshchaga ega bo'ladi. "Erinaman kal" ertagida tosh predmeti tushib qolsa-da, ammo tilsimli so'zda o'xshashlik mavjud: "Xudoning amri bilan, oq ilonning zamri bilan" ("Oq ilonning amri bilan"), "Bir xudoning amri bilan, oq ilonning dami bilan" ("Erinaman kal"). Ushbu ertaklarda sehrli buyum tosh bo'lsa, "Negiz uzuk" va "Nigini shohi moron" ertaklarida qahramonga sehrli uzuk taqdim etiladi. Bu xil ertaklarda predmetlar turlicha bo'lsa-da, syujet rivoji, ko'makchilar turi va tilsim so'zlar bir xillik kasb etadi va oq ilon qahramonga sehrli buyum taqdim etuvchi homiy ko'rinishida keladi. Sehrli ertaklarda oq ilon yer osti boyliklari egasi va ilonlar podshosi sifatida gavdalanadi. O'zbek folklorida ilon obrazining genezisi va poetikasini o'rgangan olim D.Fayziyeva turli janrlar kesimida ilonni ajdar bilan sinkretik tarzda tadqiq etgan [7,128]. Bizningcha, sehrli ertak matnidagi ajdar hamda ilon alohida-alohida obraz bo'lib, qahramonga munosabati va funksiyalari ham ikki xillik kasb etadi. Ilon obrazida qahramonga homiylik qilish ustuvor bo'lsa, ajdarda raqiblik xususiyati ko'zga tashlanadi. Oq ilonning homiyligi qahramonni kuchli, polvon qilmaydi yoki ajdar bilan olishuvga boshlamaydi. Asosan, yigitning farovon turmushini ta'minlagani sababli ilon homiyligini oila, uy, o'choq bilan bog'liq degan fikrdamiz.

Ko'rsatilgan yordam evaziga homiylik qilish funksiyasi nafaqat ilon, balki baliq bilan bog'liq ertaklarda ham ko'zga tashlanadi. "Oltin baliq", "Ahmadjon va Sohibjon", "Kungurador baliq" ertaklarida qutqarilgan oltin baliqlar odam qiyofasiga kirib, qahramonga yordam beradilar. Baliqning suv osti dunyosida

yashashi qadimda u bilan bog‘liq mifik qarashlar keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Baliq kultining qadimdan keng tarqalgani haqida G.Snesarov tadqiqotlarida uchratish mumkin [5,82]. Yigitni baliqni yemay, uni daryoga tashlab yuborishi motivi mohiyatida baliqni iste‘mol qilishga qo‘yilgan taqiq izlarini ko‘rish mumkin. J.Frezer “Har bir baliqda bir odamning joni mavjud bo‘ladi, agar baliq tutilsa, bir odam o‘ladi” degan tushunchaning tarqalganligi haqida aytib o‘tgan [8,761]. Baliqqa ajdodlar kulti sifatida qarash, muqaddas joylardagi baliqlarni tutmaslik va ularni iste‘mol qilmaslik haqidagi xalq qarashlari bugun ham saqlanib qolgan: “Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumanidagi Satkak ota ziyoratgohi buloqlaridagi baliqlarga mahalliy aholi baliq qiyofasidagi avliyo sifatida munosabat bildiradi. Shu sababga ko‘ra bu baliqlarni o‘ldirish yoki ushlash og‘ir oqibatlariga olib keladi deb qaralgan”[1,30].

Ertakda qahramonning makoni ham daryo bo‘yida joylashishi muhim ma‘lumot hisoblanadi. Suv havzasi bo‘yida yashovchi odamlar tomonidan yuqorida keltirilgan iqtibosdagi fikrlar kabi baliqlarni muqaddaslashtirish va ulardan ruhiy ko‘mak olish an‘analari shakllangan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari. T., 2007. B. 30
2. Zarifov H. Folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o‘rganish masalasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. 1958. - №1. – B. 25-30
3. Qayumov O.S. O‘zbek folklorida pari obrazi: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 1999. – B. 129.
4. Muhammadjonov A. Tarix falsafasi - ma‘naviyat ko‘zgusi. Toshkent, O‘zbekiston. 2015. - B.70
5. Г.П. Снесарева «Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии» – С.82
6. Turdimov Sh. Qirq chiltan pirlar bor // Maktabgacha tarbiya. Toshkent, 1992. – № 5-6. – B.22-24.
7. Fayziyeva D. O‘zbek folklorida ilon obrazi. – Toshkent, 2004. 128 b.
8. Джеймса Фрэзера. «Золотая ветвь»... – с.761

FILOLOGIYA**BRITAN VA AMERIKAN INGLIZ TILIDA MODAL FE'LLARNING
FUNKSIONAL XUSUSIYATLARINING NAZARIY-QIYOSIY
TAHLILI****UO'K 81'366.5**

**Yuldasheva Durdona,
Alfraganus
universiteti 1-kurs
magistranti,
Toshkent shahri
26-maktab ingliz tili
o'qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Britaniya ingliz tili (British English) va Amerika ingliz tili (American English)da modal fe'llarning qo'llanish xususiyatlari, ularning uchrash chastotasi hamda funksional-taqsimiy farqlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируются особенности употребления модальных глаголов в британском и американском английском языках, частота их встречаемости и функционально-дистрибутивные различия.

Annotation: This article theoretically analyzes the features of modal verb usage in British English and American English, their frequency of occurrence, and their functional-distributive differences.

Kalit so'zlar: modal fe'llar, Britaniya ingliz tili, Amerika ingliz tili, uchrash chastotasi, funksional grammatika, qiyosiy tahlil.

Ключевые слова: Модальные глаголы, британский английский, американский английский, частота употребления, функциональная грамматика, сравнительный анализ.

Key words: modal verbs, British English, American English, frequency of occurrence, functional grammar, comparative analysis.

Ingliz tili dunyo miqyosida keng tarqalgan bo'lib, uning hududiy variantlari orasida Britaniya va Amerika ingliz tillari yetakchi o'rin egallaydi. Ushbu variantlar o'rtasidagi farqlar fonetika, leksika va grammatika sathlarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, modal fe'llarning qo'llanishi mazkur farqlarning muhim grammatik ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Modal fe'llar nutq egasining voqelikka bo'lgan munosabatini, bahosini va subyektiv pozitsiyasini ifodalovchi asosiy vositalardan sanaladi [1, 99]. Shuning uchun ularning qiyosiy tahlili ingliz tilining variantologik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda modal fe'llar tilning muhim funksional-grammatik kategoriyalaridan biri sifatida qaraladi. Ular nutq egasining bayon etilayotgan voqea-hodisaga bo'lgan munosabatini ifodalab, subyektiv baholash,

ehtimollik darajasi, majburiyat yoki ruxsat kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Modal fe'llar grammatik shakl bo'lishi bilan birga semantik va pragmatik yuklama ham tashiydi, shu bois ularning tadqiqi ko'p qatlamli yondashuvni talab etadi [1, 99].

An'anaviy grammatika doirasida modal fe'llar *can, may, must, shall, will, could, might, should, would* kabi yordamchi fe'llar guruhi sifatida talqin qilinadi. Ular mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmasdan, asosiy fe'l bilan birgalikda kelib, gapning umumiy modal mazmunini belgilaydi [2, 54]. Ushbu yondashuvda modal fe'llar odatda to'rt asosiy semantik guruhga ajratiladi: majburiyat, imkoniyat, ehtimollik va ruxsat.

Funksional grammatika nazariyasida esa modal fe'llar nutqning kommunikativ maqsadi va pragmatik konteksti bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilinadi. Bu yondashuvga ko'ra, modal fe'llar gapning formal tuzilishidan tashqari, nutq vaziyati, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar hamda madaniy omillar bilan belgilanadi [3, 78]. Aynan shu jihat Britaniya va Amerika ingliz tillarida modal fe'llarning turlicha qo'llanishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunos olim M.A.K.Halliday modalitetni tilning interpersonal funksiyasi doirasida izohlaydi. Uning fikricha, modal fe'llar so'zlovchining bayon qilinayotgan axborotga bo'lgan ishonch darajasi, majburiylik yoki ehtimollikni bildiradi va shu orqali shaxslararo munosabatlarni tartibga soladi [4, 112]. Halliday nazariyasida modal fe'llar nutqdagi ijtimoiy rollar va kommunikativ strategiyalarni ochib beruvchi markaziy birliklar sifatida baholanadi.

Shuningdek, Frank Palmer tomonidan ishlab chiqilgan modalitet nazariyasida modal fe'llar epistemik va deontik modalitet turlariga ajratiladi. Epistemik modalitet ehtimollik va taxminni, deontik modalitet esa majburiyat va ruxsatni ifodalaydi [5, 63]. Ushbu tasnif Britaniya va Amerika ingliz tillarida *must, have to, might, can* kabi modal fe'llarning semantik farqlarini aniqlashda samarali nazariy asos hisoblanadi.

Zamonaviy korpus lingvistika tadqiqotlari esa modal fe'llarning nazariy talqinini statistik ma'lumotlar bilan boyitadi. Korpus yondashuvi modal fe'llarning real nutqdagi uchrash chastotasi, uslubiy qatlamlar bo'yicha taqsimlanishi va kontekstga bog'liq o'zgarishlarini aniqlash imkonini beradi [6, 91]. Bu yondashuv nazariy xulosalarni empirik dalillar bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, modal fe'llarning nazariy talqini an'anaviy grammatik yondashuv, funksional grammatika, pragmatika va korpus lingvistika kesishmasida shakllanadi. Ushbu kompleks yondashuv Britaniya va Amerika

ingliz tillarida modal fe'llarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq va tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda sinxron va diakron tahlil metodlari uyg'unligidan foydalanildi. Asosiy ma'lumotlar bazasi sifatida ingliz tilining standartlashtirilgan korpuslari olindi:

Diakronik tahlil uchun Brown korpuslari oilasi (1960-yillardagi Amerika va Britaniya ingliz tili uchun Brown va LOB; 1990-yillar uchun Frown va FLOB) tahlilga tortildi.

Sinxron tahlil uchun Zamonaviy Amerika Ingliz Tili Korpusi (COCA) va Britaniya Milliy Korpusi (BNC) tahlil qilindi.

Tahlil davomida 9 ta markaziy modal fe'l hamda ularga muqobil sifatida ishlatiluvchi yarim modallar (have to, be going to, want to/wanna, need to) qiyoslandi. Chastota ko'rsatkichlari har bir million so'zga nisbatan (pmw - per million words) hisoblab chiqildi.

Korpus ma'lumotlari tahlili modal fe'llar chastotasida sezilarli tafovutlarni yuzaga chiqardi. AmE va BrE da modal fe'llarning o'rtacha ishlatilish chastotasi (har 1 million so'zga) quyidagi jadvalda aks ettirilgan (Leech, 2003 va Biber, 2004 ma'lumotlari asosida umumlashtirilgan):

1-jadval

Modal Fe'l	AmE Chastotasi (pmw)	BrE Chastotasi (pmw)	O'zgarish tendensiyasi (so'nggi 50 yilda)
Will	3,100	2,950	Nisbatan barqaror, AmE da biroz yuqori
Would	2,750	2,600	Qisman pasayish
Can	2,300	2,150	Barqaror o'sish (ayniqsa og'zaki nutqda)
Could	1,550	1,450	Barqaror
May	600	850	Ikkala variantda ham keskin pasayish
Should	800	1,100	BrE da faolroq saqlanib qolgan
Must	450	650	Juda keskin pasayish (deontik ma'noda)
Might	400	550	Pasayish
Shall	100	250	AmE da deyarli yo'qolib bormoqda

Jadvaldagi asosiy farqlarni quyidagicha izohlanadi:

Deontik modallikning tanazzuli sifatida *Must* va *shall* fe'llari Amerika ingliz tilida o'z o'rnini to'liq *have to* va *be going to* tuzilmalariga bo'shatib

bermoqda. Britaniya variantida esa bu fe'llar, garchi kamaygan bo'lsa-da, rasmiy yozishmalar va akademik matnlarda o'z o'rnini saqlab turibdi.

Epistemik modallikning ustunligi asnosida har ikki dildagi saqlanib qolayotgan modal *fe'llar* (*may, might, must*) ko'proq majburiyat yoki ruxsatni emas, balki xulosa va ehtimollikni (epistemic modality) bildirish uchun ishlatilmoqda.

Keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, Amerika va Britaniya ingliz tili o'rtasidagi grammatik farqlar leksik farqlarga qaraganda chuqurroq tizimli siljishlarni boshidan kechirmoqda. C. Mair (2006) ta'kidlaganidek, bu o'zgarishlar quyidagi sotsiolingvistik jarayonlar mahsulidir:

Demokratlashtirish ya'ni jamiyatdagi ierarxik munosabatlarning yumshashi tilga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Buyruq va qat'iy ruxsatni bildiruvchi *must* va *may* o'rniga, tarmoqli va maslahat ohangiga ega bo'lgan *should* yoki leksik muqobillar tanlanmoqda. AQSh jamiyati bu borada tezkorroq bo'lgani uchun chastota farqi yaqqol seziladi.

Og'zakilashuv asosida yozma nutqning og'zaki nutqqa yaqinlashishi. Yarim modallar (*have to, be supposed to*) og'zaki nutqda qulayroq grammatik xususiyatlarga ega (zamon va shaxsga ko'ra o'zgarishi).

Grammatikalizatsiya jarayonida ingliz tili analitik til sifatida yangi yarim modal tuzilmalarni to'liq grammatik vositalarga aylantirmoqda. Bu ayniqsa ingliz tilini qiyosiy o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki talabalar an'anaviy grammatika kitoblaridagi qoidalardan ko'ra, real korpus ma'lumotlariga asoslangan tilni o'rganishlari zarur (masalan, *shall I? o'rniga should I?*).

Britaniya va Amerika ingliz tillarida modal fe'llarning taqsimlanishi ularning grammatik me'yorlari, pragmatik strategiyalari hamda nutq madaniyati bilan bevosita bog'liq. Korpus lingvistika tadqiqotlari ushbu ikki variantda ayrim modal fe'llarning qo'llanish chastotasi va funksional yuklamasi sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi [1, 99]. Xususan, Britaniya ingliz tilida an'anaviy va rasmiy modal shakllar nisbatan barqaror saqlanib qolgan bo'lsa, Amerika ingliz tilida soddalashgan va pragmatik jihatdan aniqroq shakllar ustunlik qiladi.

Britaniya ingliz tiliga xos xususiyatlardan biri *shall* modal fe'lining rasmiy va normativ nutqda faol qo'llanishidir. Ushbu fe'l ko'pincha qonuniy hujjatlar, rasmiy ko'rsatmalar va takliflarni ifodalashda ishlatiladi.

Masalan:

The applicant shall submit all required documents before the deadline.

Bu jumlada shall majburiyat va normativ talabni aniq ifodalaydi. Amerika ingliz tilida esa mazkur vazifani asosan will yoki must bajaradi:

The applicant will submit all required documents before the deadline.

Bu holat Amerika variantida rasmiy nutqning nisbatan soddalashtirilganini ko'rsatadi [2, 84]. Shuningdek, Britaniya ingliz tilida ehtiyotkorlik va bilvosita munosabatni ifodalovchi might va ought to modal fe'llari keng qo'llanadi.

Masalan:

You might consider revising the proposal.

Bu jumlada so'zlovchi o'z fikrini yumshoq va maslahat tarzida bildiradi. Amerika ingliz tilida esa ko'pincha aniqroq va bevosita shakl tanlanadi:

You should revise the proposal.

Bu yerda nutq pragmatik jihatdan qat'iyroq tus oladi [3, 41].

Amerika ingliz tilining muhim xususiyatlaridan biri have to modal konstruktsiyasining yuqori chastotada ishlatilishidir. Ushbu shakl majburiyatni kundalik va norasmiy nutqda ham aniq ifodalash imkonini beradi:

I have to finish this report today.

Britaniya ingliz tilida esa bunday vaziyatlarda ko'proq must yoki should ishlatiladi:

I must finish this report today.

Bu farq Amerika ingliz tilida pragmatik aniqlik va nutqning soddalashuvi kuchli ekanligini ko'rsatadi [4, 129].

Imkoniyatni ifodalovchi can modal fe'li ham Amerika ingliz tilida nisbatan faolroq qo'llanadi:

Can you help me with this task?

Britaniya ingliz tilida esa xushmuomalalik va ijtimoiy masofa saqlanishi uchun ko'pincha could tanlanadi:

Could you help me with this task?

Bu misollar Britaniya nutqida yumshatuvchi pragmatik strategiyalar ustuvor ekanini tasdiqlaydi [5, 67].

Korpus ma'lumotlariga asoslangan tadqiqotlar (jumladan, British National Corpus va Corpus of Contemporary American English) shuni ko'rsatadiki, Britaniya ingliz tilida epistemik modalitetni ifodalovchi shakllar ko'proq uchrasa, Amerika ingliz tilida deontik va dinamik modal shakllar ustunlik qiladi [6, 91]. Bu esa ikki variant o'rtasidagi kommunikativ ustuvorliklar farqini ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Britaniya ingliz tilida modal fe'llarning taqsimlanishi ehtiyotkorlik, bilvositalik va rasmiylikka yo'naltirilgan bo'lsa, Amerika ingliz tilida aniqlik, soddalik va pragmatik bevositalik ustuvor hisoblanadi. Ushbu farqlar modal fe'llarning real nutqdagi funksional yuklamasini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Britaniya va Amerika ingliz tillarida modal fe'llarning uchrash chastotasi va taqsimlanishi ularning funksional va pragmatik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Modal fe'llar orqali ikki variantning

kommunikativ strategiyalari va madaniy nutq modellari namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tili grammatikasini qiyosiy o'rganishda hamda xorijiy tilni o'qitish jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, ingliz tilidagi modal fe'llar tizimi turg'un emas va u doimiy evolyutsiya holatidadir. Britaniya va Amerika ingliz tilida yadroviy modal fe'llar chastotasi pasayib borayotgan bo'lsa-da, AmE bu grammatik siljishda yetakchilik qilmoqda (innovatsion markaz sifatida), BrE esa nisbatan konservativ xususiyat namoyon etmoqda. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu o'zgarishlarning akademik va badiiy diskurslardagi taqsimlanishini mikrodarajada tahlil qilish, shuningdek, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasiga qanday ta'sir qilishini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). *Longman grammar of spoken and written English*. Pearson Education.
- 2.Coates, J. (1983). *The semantics of the modal auxiliaries*. Croom Helm.
- 3.Collins, P. (2009). *Modals and quasi-modals in English*. Rodopi.
- 4.Davies, M. (2008). *The Corpus of Contemporary American English (COCA)*. <https://www.english-corpora.org/coca/>
- 5.Leech, G. (2003). Modality on the move: The English modal auxiliaries 1961-1992. In R. Facchinetti, M. Krug, & F. Palmer (Eds.), *Modality in contemporary English* (pp. 223–240). Mouton de Gruyter.
- 6.Leech, G., Hundt, M., Mair, C., & Smith, N. (2009). *Change in contemporary English: A grammatical study*. Cambridge University Press.
- 7.Mair, C. (2006). *Twentieth-century English: History, variation and standardization*. Cambridge University Press.
- 8.Palmer, F. R. (1990). *Modality and the English modals* (2nd ed.). Longman.

FILOLOGIYA**ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQIDA
GIDRONIMLARNING O'RNI****UO'K 81'373.21**

**Atayeva Muqaddas
Isakovna,
Urganch innovatsiya
universiteti
“Lingvistik”
yo‘nalishi magistri**

Annotatsiya: Maqolada onomastik birliklar tizimida gidronimlarning (suv nomlari) o'rni, turlari va tadqiqot usullari tahlil qilinadi. Gidronimlar hududiy, tarixiy va madaniy kontekstni aks ettiruvchi muhim lingvistik element sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, maqolada ular onomastik tadqiqotlarda qo'llanadigan metodlar va ilmiy ahamiyati yoritiladi.

Аннотация: В статье анализируется роль, виды и методы исследования гидронимов (названий водных объектов) в системе ономастических единиц. Гидронимы рассматриваются как важные лингвистические элементы, отражающие региональный, исторический и культурный контекст. Кроме того, в статье освещаются методы, применяемые в ономастических исследованиях, и их научное значение.

Annotation: The article analyzes the role, types, and research methods of hydronyms (names of water bodies) within the system of onomastic units. Hydronyms are considered important linguistic elements reflecting regional, historical, and cultural contexts. In addition, the article highlights the methods used in onomastic studies and their scientific significance.

Kalit so'zlar: onomastika, gidronim, toponim, lingvistik tadqiqot, hududiy nomlar

Ключевые слова: ономастика, гидроним, топоним, лингвистическое исследование, региональные названия

Key words: onomastics, hydronym, toponym, linguistic research, regional names

Onomastika lug'aviy birliklarning, shaxs, joy va ob'ekt nomlarining kelib chiqishi, shakllanishi va tarqalishini o'rganadigan ilmiy soha hisoblanadi. Bu fan hududiy nomotvorlik, tarixiy manbalar va lingvistik tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liq.

Gidronimlar (suv nomlari) onomastik birliklar tarkibida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu maqolada gidronimlarni tadqiq qilishning quyidagi jihatlari ko'rib chiqiladi:

- 1) geografik ahamiyat: suv ob'ektlarini aniqlash va hududiy xaritalashda qo'llanilishi;
- 2) tarixiy ahamiyat: hududning o'tgan tarixini, migratsiya va madaniy merosini o'rganishi;
- 3) Lingvistik ahamiyat: morfologik va semantik tahlil orqali nomotvorlik qoidalarini aniqlash;
- 4) Ilmiy-metodik ahamiyat: lug'at va onomastik to'plamlarni yaratishda manba bo'lishi.

Maqola asosiy masalalarni yoritadi: gidronimlarning tasnifi, hududiy va tarixiy kontekstda ularning o'rni, shuningdek, metodologiya va amaliy tadqiqotlar. Gidronimlar suv obyektlari nomlarini ifodalaydi: daryolar, ko'llar, buloqlar, quduqlar va sun'iy suv havzalari. Ular lingvistik jihatdan onomastik birlik bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq identifikatsiya: suv ob'ektini boshqa obyektlardan ajratib ko'rsatadi;
- tarixiy ma'lumot: hududning qadimiy xotirasi, migratsiya va madaniy merosini aks ettiradi;
- lingvistik manba: morfologik va semantik tahlil orqali tilshunoslik tadqiqotlariga xizmat qiladi;
- hududiy xaritalash: suv nomlari hududni xaritalash va hududiy chegaralarni aniqlashda asos bo'ladi.

Gidronimlar tabiiy (daryo, ko'l, buloq va quduq nomlari), etno-lingvistik (o'zbek, qozoq, turkman va boshqa etnik guruhlar), hududiy va etnolingvistik (mahalliy va tarixiy), semantic (tabiiy belgini aks ettiruvchi, insonga yoki voqeaga bog'liq, madaniy yoki diniy belgili) xususiyatlari asosida tasniflanadi. Masalan, Gidronimlarni semantik xususiyatga ko'ra o'rganadigan bo'lsak, ular asosan tabiiy belgini aks ettiruvchi, insonga yoki voqeaga bog'liq va madaniy yoki diniy belgili gidronimlarga ajratiladi:

1. Tabiiy belgini aks ettiruvchi: Qizilsoy ("qizil suv"), Oqsuv ("oq suv");
2. Insonga yoki voqeaga bog'liq: Bobosoy ("bobo daryosi"), Shohsuv ("shohning daryosi").
3. Madaniy yoki diniy belgili: Nurbuloq ("yorug' buloq"), Quddussoy ("muqaddas daryo").

Gidronimlar:

1. Hududni xaritalash va topografik tahlil qilishda asos bo'ladi;
2. Tarixiy manbalarni tekshirish va qadimiy madaniyatni o'rganishda yordam beradi;
3. Morfologik va semantik tahlil ob'ekti sifatida lingvistik tadqiqotlarda ishlatiladi;
4. Onomastik lug'at va to'plamlar yaratishda manba bo'ladi;
5. Etno-lingvistik va tarixiy tadqiqotlarda hududiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston gidronimlari mamlakatning geografik, tarixiy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Bunga quyidagilarni keltiramiz: Amudaryo va Sirdaryo — hududiy chegaralarni belgilovchi asosiy daryolar; Aydar ko'l — tarixiy va ekologik ahamiyatga ega suv havzasi; Ko'kbuloq va Qorquduq — mahalliy aholi yashash joylari bilan bog'liq suv manbalari; Tuzkan ko'li — tuzli suv resurslarini aks ettiruvchi gidronim; Chorvoq va Charvak suv havzalari — sun'iy gidronimlar va ekologik muhim ob'ektlar; Farg'ona vodiysi gidronimlari: Iskandarkul, Marg'ilonsoy, Rishtonbuloq; Buxoro va Xorazm viloyatlari: Zeravshan, Amudaryo filiallari, Mahallabuloq, Shovotquduq.

Gidronimlar orqali hududning qadimiy aholisi, migratsiya yo'llari va madaniy merosi o'rganiladi. Misol: "Suvsoy", "Oqsuv", "Nurbuloq" nomlari hududdagi tabiiy belgilar va inson faoliyatini aks ettiradi. Gidronimlar qadimiy manbalar va xaritalar bilan solishtirilganda hududning qadimgi nomotvorlik tizimini aks ettiradi. Shu orqali onomastik tadqiqotchilar hududiy o'zgarishlar, madaniy va etnik migratsiyalar, shuningdek, tarixiy voqealarni aniqlay oladi. Tarixiy manbalarda gidronimlarning nomlanishi qadimiy davlatlar, buyuk yo'llar va savdo tarmoqlari bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Masalan: „Amudaryo“ qadimgi Xorazm va Buxoro hududlarini bog'lovchi asosiy suv yo'li sifatida tarixiy xaritalarda ko'rsatilgan.

Gidronimlar onomastik birliklarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular hududning tabiiy sharoiti, tarixiy taraqqiyoti va lingvistik xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumot beradi. Shu sababli gidronimlarni tadqiq qilish tilshunoslik, tarix, geografiya va etnografiya fanlari kesishgan nuqtada alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Gidronimlarni o'rganishda bir qator ilmiy metodlar qo'llaniladi. Jumladan, tarixiy-lingvistik tahlil orqali qadimiy yozma manbalar va xaritalarda qayd etilgan suv obyektlari nomlari o'rganilib, ularning kelib chiqishi aniqlanadi.

Hududiy tahlil suv obyektlarining joylashuvi hamda ularning semantik xususiyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Korpusli tahlil gidronimlarni lug'atlar, arxiv hujjatlari va yozma manbalar bilan solishtirish imkonini beradi. Statistik va diagrammatik tahlil yordamida gidronimlarning hududiy tarqalishi va takrorlanish chastotasi aniqlanadi. Shuningdek, geografik axborot tizimlari (GIS) asosida suv obyektlarini xaritalash va vizual tahlil qilish metodologiyaning

muhim qismi hisoblanadi. Ushbu metodlar majmui gidronimlarning lingvistik va tarixiy kontekstini mukammal o'rganish imkonini yaratadi.

Semantik jihatdan gidronimlar turli toifalarga ajraladi. Diagrammatik tahlil natijalariga ko'ra, gidronimlarning 55 foizi tabiiy belgilarni aks ettiruvchi nomlardan iborat bo'lib, ular suvning rangi, hajmi, oqimi yoki geografik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Insonga bog'liq gidronimlar 25 foizni tashkil etib, asosan aholi faoliyati, xo'jalik yuritish yoki shaxs nomlari bilan aloqador. Tarixiy voqealarga bog'liq gidronimlar esa 20 foizni tashkil etib, muayyan tarixiy hodisa yoki shaxs xotirasini aks ettiradi.

Gidronimlar obyekt turiga ko'ra ham tasniflanadi. Daryo nomlariga Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon kabi yirik suv obyektlari kirib, ular ko'pincha hududiy chegaralarni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Ko'l nomlari, jumladan Aydar, Charvak va Tuzkan, tarixiy va ekologik ahamiyatga ega. Buloq va quduq nomlari (Ko'kbuloq, Qorquduq, Shirinbuloq) esa asosan mahalliy aholi yashash joylari va ularning ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq. Tarixiy voqealarga aloqador gidronimlar, masalan Bobosoy va Nurbuloq, hududning tarixiy xotirasini aks ettiradi.

Hududiy misollar ham gidronimlarning xilma-xilligini yaqqol ko'rsatadi. Samarqand viloyatida Siyob, Kattabuloq va Ahrobuloq kabi gidronimlar uchrasa, Toshkent viloyatida Chirchiq, Bo'stonbuloq va Yangiyo'l suvlari keng tarqalgan.

Surxondaryo viloyatida esa Surxon, Boysunbuloq va Qorasuv kabi nomlar hududning tabiiy va etnik xususiyatlarini aks ettiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, daryo va ko'l nomlarining aksariyati tabiiy belgilar asosida yaratilgan bo'lsa, buloq va quduq nomlari ko'proq mahalliy aholi tomonidan shakllantirilgan. Tarixiy voqealarga bog'liq gidronimlar esa hududning madaniy va tarixiy xotirasini saqlovchi muhim manba hisoblanadi. Umuman olganda, gidronimlar hududiy va tarixiy manba sifatida yuqori ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy-lingvistik tadqiqotlar hamda hududiy xaritalash ishlarida muhim asos vazifasini bajaradi. Ular orqali hududning madaniy va etnik merosini tahlil qilish imkoniyati kengayadi.

Kelajakda gidronimlarni tadqiq qilish bir necha istiqbolli yo'nalishlarda rivojlanishi kutiladi. Jumladan, gidronimlarning semantik evolyutsiyasini o'rganish, hududiy va xalqaro miqyosda solishtirma tahlillar olib borish, elektron onomastik korpuslar va ma'lumotlar bazalarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, GIS texnologiyalari orqali suv resurslari va gidronimlarning vizual xaritalarini tayyorlash hamda etno-lingvistik tadqiqotlarda gidronimlarni madaniy va etnik kontekstda tahlil qilish ilmiy izlanishlarni yanada boyitadi.



Gidronimlar (suv nomlari) onomastik birliklar tarkibida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu maqolada gidronimlarni tadqiq qilishning quyidagi jihatlari yoritildi: geografik ahamiyati, tarixiy ahamiyati, lingvistik ahamiyati va ilmiy-metodik ahamiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров А.М. “Ономастика и топонимика” Москва, 2018.
2. Саидов, Ш. “Гидронимы Узбекистана: история и современность”. Ташкент, 2020.
3. Трофимова Л.В. “Лингвистический анализ гидронимов”. Санкт-Петербург, 2017.
4. Кузнецова И. “Основы ономастики”. Москва, 2016.
5. Алимов Ф. “Топонимика Средней Азии”. Ташкент, 2019.

FILOLOGIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI ANTROPOSENTRIK NUTQ AKTI FRAZEOLOGIZMLARINING STILISTIK VA KOMMUNIKATIV FUNKSIYALARI

UO‘K 81’373.7



Niyazmetova Dildora,
Urganch innovatsion
universiteti
dotsenti. PhD.



Po‘lotova Barno,
Urganch innovatsion
universiteti
magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida qayd etilgan fors taqvimiga oid oy nomlari onomastik va etimologik jihatdan tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье проводится ономастический и этимологический анализ персидских названий месяцев, упомянутых в труде Абу Райхана Беруни “Памятники древних народов”.

Annotation: This article analyzes the names of the months in the Persian calendar, as recorded in Abu Rayhan Beruni's work “Monuments of Ancient Peoples”, from onomastic and etymological perspectives.

Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, fors taqvimi, atoqli ot, vaqt birliklari nomi, Avesto, zardushtiylik, teonim.

Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, персидский календарь, имя собственное, название единиц времени, Авеста, зороастризм, теоним.

Key words: Abu Rayhan Beruni, Persian calendar, proper name, names of time units, Avesta, Zoroastrianism, theonym.

XXI asr tilshunosligining eng yorqin va eng navqiron yo‘nalishlaridan biri hisoblangan antroposentrik yondashuv tilni inson tafakkuri, idroki, madaniyati va hissiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab, jonli hodisa sifatida talqin qiladi.[1] Bu yondashuv bizga tilni nafaqat qoidalar va qurilmalar to‘plami, balki



insoniy tajribaning aks etishi, ongimizning tafakkurini ifodalovchi “ko‘zgu” ya’ni oyna sifatida namoyon bo‘lishida yordam beradi.[2]

Ushbu yondashuv doirasida til nafaqat kommunikativ vosita, balki insonning dunyoni idrok qilishi va uni tartibga solish mexanizmi sifatida ham izohlanadi.[3] Har bir inson til orqali nafaqat o‘z fikrini bildiradi, balki o‘z dunyoqarashini, qadriyatlarini, qo‘rquv va umidlarini ham ifodalaydi. Til bizning atrofimizdagi dunyoni tizimlashtirish, tasniflash va baholashning eng kuchli quroliga aylanadi. Shu bois antroposentrik paradigma nutq jarayonida til birliklarining, xususan, frazeologik birliklarning inson ongiga, hissiyotiga va baholovchi pozitsiyasiga ta’sirini o‘rganishga keng imkon yaratadi. Frazeologizmlar – bu nafaqat so‘zlar birikmasi, balki butun bir madaniy, tarixiy va psixologik tajribaning kristallashgan shaklidir. Ularning har biri o‘zida ma’lum bir davrning, ma’lum bir xalqning, ma’lum bir jamiyatning his-tuyg‘ulari, qadriyatlari va hayotiy tajribasini donoligini saqlaydi. Aynan shu jarayonda antroposentrik nutq aktida qo‘llaniladigan frazeologizmlarning stilistik va kommunikativ vazifalarini ilmiy jihatdan ochib berish zaruriyati yuzaga keladi va mazkur tadqiqotning asosiy obyektiga aylanadi.

Mazkur tadqiqot antroposentrik paradigma doirasida olib borilib, ingliz va o‘zbek tillarida nutq akti kontekstida qo‘llaniladigan frazeologik birliklarning stilistik hamda kommunikativ vazifalarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida antroposentrik tilshunoslik, lingvopragmatika, nutq akti nazariyasi (J. Austin, J. Searle), semiotik yondashuv (Ch. Morris) hamda frazeologiya bo‘yicha A.V. Kunin, E. Qilichev, N. Alefirenko, A. Ko‘chiboyev, Sh. Safarov qarashlari tayanch sifatida olindi.

Tavsifiy metod – frazeologik birliklarning shakliy va semantik xususiyatlarini aniqlash uchun; Kontekstual tahlil – frazeologizmlarning real nutq jarayonida qanday ma’no va ta’sir hosil qilishini ochish uchun; Lingvopragmatik tahlil – frazeologik birliklarning illokutiv kuchni oshirish va perlokutiv ta’sir yaratishdagi rolini aniqlash uchun; Qiyosiy metod – ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida;

Interpretativ metod – tinglovchi (o‘quvchi) ongida frazeologizmlar qanday talqin qilinishini tushuntirish uchun. Empirik material sifatida ingliz adabiy matnlari (xususan, Jojo Moyes asari) hamda o‘zbek tilidagi badiiy va og‘zaki nutq namunalaridan olingan frazeologik birliklar tanlandi. Har bir birlik nutqiy vaziyatda bajaradigan funksiyasi, emotsional-ekspressiv yuklamasi va madaniy kod sifatidagi ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Antroposentrik paradigma XXI asr tilshunosligida fundamental ahamiyat kasb etib, til hodisalarini insonning kognitiv, hissiy, madaniy va kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga yo‘naltiradi. Tilshunoslik insoniyatni anglashning yangi yo‘llarini ochadi. Ushbu yondashuv nuqtai nazaridan til nafaqat vosita, balki insonning dunyoni idrok qilish, tizimlashtirish va baholashning murakkab mexanizmi sifatida talqin etiladi. Har bir til o‘ziga xos dunyoqarashni, o‘ziga xos kognitiv modellarni, o‘ziga xos tafakkur strukturasi yaratadi. O‘zbek tilida "ko‘ngil" haqida gapirayotganda, biz nafaqat anatomik a‘zo haqida emas, balki insonning ichki dunyosi, uning hissiy holati, ma‘naviy shtati haqida gapiramiz. Bu – ingliz yoki rus tillarida to‘liq ekvivalenti bo‘lmagan, o‘ziga xos mental konseptdir. Shu bois, antroposentrik paradigma nutq jarayonida frazeologik birliklarning inson ongiga, hissiyotiga va baholash pozitsiyasiga ta‘sirini o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratadi. "Qo‘li ochiq" deganda biz nafaqat biror kishining moliyaviy qobiliyati haqida, balki uning saxovatli, mehribon, boshqalarga yordam berishga tayyor inson ekanligi haqida ham gapiramiz. Bu ibora ijobiy insoniy fazilatlarni ifodalaydi. Har bir frazeologik ibora – bu insoniy tajribaning kichik bir portlashi, madaniy xotiraning tiklanishi, tarixiy donolikning hozirgi zamonga ovozi demakdir. Nutqning tabiatiga nisbatan murakkab qarashlar mavjud bo‘lib, uning shunchaki ma‘lumot uzatish jarayoni emas, balki ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirli kommunikativ faoliyat ekanligi ta‘kidlanadi. Bu jarayonning samaradorligi ko‘pincha so‘zlovchining tinglovchi ustida ma‘lum bir ta‘sir o‘tkazish, uning his-tuyg‘ularini yo‘naltirish, baholovchi pozitsiyani aniq ifodalash yoki vaziyatni

jonli va obrazli tarzda tasvirlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Bunday jarayon so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi antroposentrik nutq akti tamoyiliga asoslangan holda o'rganiladi, chunki so'zlovchi ko'p hollarda faqat axborot yetkazish bilangina cheklanmay, balki tinglovchiga ta'sir ko'rsatish, o'z munosabatini ifodalash, emotsional holatini namoyon etish, baholash yoki voqea-hodisani jonli, obrazli tarzda tasvirlashga intiladi. Antroposentrik paradigmada frazeologik birliklarning o'rni alohida bo'lib, ular quyidagi funksiyalarni bajaradi:[5]

- madaniy kod sifatida milliy dunyoqarashni saqlaydi;
- kognitiv model sifatida murakkab tushunchalarni strukturalashtiradi;
- emotsional ifoda vositasi sifatida hissiyotlarni nozik jihatlari bilan yetkazadi.

Bir so'z bilan aytganda, frazeologizmlar nutq aktida bo'yoqdorlikni kuchaytirish, muayyan vaziyatda qanday ma'no ifodalanayotganini aniqlash imkonini beruvchi vosita sifatida stilistik va kommunikativ vazifalari bilan birgalikda chuqur tahlil qilinadi. Frazeologizmlar haqida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ulardan biri ularni "tayyor holda qo'llaniladigan, tarkiban barqaror, ko'pincha semantik jihatdan qayta shakllangan va obrazlilik xususiyatiga ega bo'lgan birliklar bo'lib, nutqning ta'sirchanligini sezilarli darajada oshiradi"[6] deb talqin qiladi. Ushbu fikrni quyidagicha izohlash mumkin: frazeologizmlar tilda tayyor holda mavjud bo'lib, ular barqaror tuzilishga ega, semantik jihatdan bo'yoqdor va kommunikativ vazifani bajarishga yo'naltirilgan birliklar hisoblanadi. A.V. Kuninning izlanishlari frazeologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirishga xizmat qildi. U ingliz tilidagi "ready-made word combinations"ni nafaqat lug'at birliklari, balki madaniy meros va milliy mentalitetning aks etish sifatida ko'rdi. Kuninning har bir ishi tilning insoniy o'lchovini anglab yetishga chaqiradi - uning frazeologik lug'ati nafaqat so'zlar to'plami, balki ingliz xalqining tarixiy xotirasi, hayotiy donoligi va hissiy tajribasining lingvistik ifodasidir.

Ingliz va o‘zbek tili materiallari asosida antroposentrik nutq akti kontekstida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning stilistik hamda kommunikativ vazifalarini izohlash antroposentrik yondashuv markazida turuvchi “**inson omili**” tushunchasini ochib berishni taqozo etadi. Bu tushuncha, avvalo, quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

- nutq egasining niyati, qadriyatlari va hissiy holati;
- tinglovchining idrok etish mexanizmi;
- kontekstual sharoiti;

Mazkur omillar frazeologik birliklarning muloqot jarayonida qanday qabul qilinishi va qanday ta’sir ko‘rsatishini belgilaydi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda frazeologik birliklar nafaqat “semantik tarkib” sifatida, balki og‘zaki muloqot jarayonida ta’sirchanlikni shakllantiruvchi faol vosita sifatida talqin qilinadi.

Frazeologizmlarning stilistik tabiati ularning obrazlilik, ekspressivlik va baholovchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi. Obrazlilik voqelikni “yaqqol ko‘rinarli” holga keltiradi, ya’ni nutqda tasvirlanayotgan holatni qisqa, ammo kuchli ta’sir bilan ifodalash imkonini beradi. Shu jarayonda frazeologik birliklar uch asosiy qatlamni faollashtiradi:

ekspressivlik – nutqning ta’sirchanligini kuchaytiradi;

emotivlik – so‘zlovchining hissiy holatini yetkazishga xizmat qiladi;

baholovchanlik – ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalovchi qiymatlashni ta’minlaydi. Tilning jonli tabiatini tushunish uchun biz uning nafaqat qanday ishlashini, balki *kim uchun* va *nimaga* xizmat qilishini ham anglashimiz kerak. Bu yerda semantika va pragmatikaning kesishish nuqtasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi – bir tomondan so‘zning o‘z ma’nosi, ikkinchi tomondan u qanday maqsadda, kim tomonidan va qanday sharoitda ishlatilishi hisobga olinadi.

Madaniy kod sifatida frazeologizmlar: “Oti tilida yurmoq”[9] frazeologik birikmasi nomi el orasida mashhur degan ma’noni anglatadi va o‘zbek frazeologiyasining antropotsentrik xususiyatlari klassik asarlar tahlilida yorqin namoyon bo‘ladi. Masalan, Sayfi Saroyi asarlarida uchraydigan insonning

ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi uning ismi orqali nutqiy muloqotda abadiylashishini anglatadi. Bu ingliz tilidagi 'to leave a mark' (iz qoldirmoq) iborasi bilan funksional jihatdan yaqin bo'lsa-da, turkiy tildagi 'til' va 'yurmoq' komponentlari muloqotning dinamik jarayon ekanligini, inson nomi doimiy harakatda (muloqotda) yashashini ko'rsatadi. Har bir o'zbek bu iborani eshitganda, nafaqat lug'aviy ma'noni, balki butun bir madaniy qadriyatlar tizimini, ajdodlardan qolgan ma'naviy merosni idrok etadi. "Terisi qalin". [10] Insonning xarakter xususiyatlarini tana a'zolari orqali ifodalash o'zbek tilida keng tarqalgan bo'lib, buni "terisi qalin" iborasida ko'rish mumkin. Bu frazeologizmni tahlil qilganimizda insonning tanbehga befarqligini bildiradi va bu frazeologizm insonning ruhiy sensorlarini fizik qobiq (teri) orqali metaforizatsiya qiladi. Qizig'i shundaki, ushbu madaniy kod ingliz tilidagi "thick-skinned" iborasi bilan konseptual jihatdan to'la mos keladi, bu insonning umuminsoniy jismoniy idroki turli madaniyatlarda o'xshash lisoniy shakllarga ega ekanligini isbotlaydi.

Frazeologizmlarni oddiy nutqda oddiy so'zlar orqali yetkazib bo'lmaydigan energiyani beradi. Ularning haqiqiy qudrati ham shunda: ular nafaqat ma'noni yetkazadi, balki munosabatni ham shakllantiradi.

Illokutiv kuch – so'zlovchining *niyati* frazeologizm orqali qanchalik kuchayadi. "Bu ishni qilishing kerak" deganda biz faqat talabni bildirsak, "Bu ishni qo'lingga olishing kerak" degan frazeologik iborada esa *majburiyat*, *mas'uliyat* va *shaxsiy anglashuv* ohanglari qo'shiladi.

Perlokutiv ta'sir – tinglovchi *qanday his qiladi*. "Xavfli" so'zi ogohlantiradi, "oyoq ostida" frazeologizmi haqiqiy *daxshat* hissini uyg'otadi. Frazeologizmlar hissiyotlarga bevosita yo'l topadi. "Yuzni saqlash" san'ati – o'zbekcha "ozor bermaslik", inglizcha "face-saving". "Siz noto'g'ri ish qildingiz" o'rniga "Qo'lingizdan kelganini qildingiz" deyish – tanqidni yumshatib, inson qadr-qimmatini saqlab qolishdir.

A.Ko'chiboyev va N.Alefrenko kabi olimlar ta'kidlaganidek, har bir frazeologizm nafaqat ma'lumot, balki *baholash*, *his-tuyg'u* va *madaniy kod* ham olib keladi. U "ma'no + ta'sir"ning yagona birligidir.

1. "Lose one's train of thought" - Fikr uzilishi. Bu frazeologizmning kuchi uning chuqur metaforik asosidadir. "Fikr poyezdi" konseptsiyasi bizga fikrlashning yo'nalishli, ketma-ket va dinamik jarayon ekanligini his qildiradi. Kontekstdagi ahamiyati hissiy ta'sirning kuchini ko'rsatishda yotadi: "he inhales the scent from the back of her hair, loses his train of thought..." – bu yerda sevgi hissi aqliy jarayonni to'xtatib qo'yadigan darajada kuchli ekanligi ifodalanadi. Kommunikativ jihatdan bu ibora o'quvchini hissiy jihatdan jalb qiladi va personajning ichki holatiga chuqurroq kirib borishiga yordam beradi.

2. "Get a bit sticky" - Murakkablashish, qiyinlashish. "Sticky" so'zining metaforik qo'llanilishi muammoning tabiatini aniq tasvirlaydi – chiqish qiyin, yopishqoq holat. Bu eufemistik yondashuv keskin "problem" yoki "crisis" so'zlaridan farqli o'laroq, vaziyatni yumshatadi. Kommunikativ jihatdan "It is only natural things get a bit sticky every now and then" iborasi hayotiy donolikni aks ettiradi va o'quvchida tushunish va qabul qilish hissini uyg'otadi. Terapevtik ta'sir esa kelajakdagi qiyinchiliklarga psixologik tayyorgarlikni shakllantiradi.

3. "Back on your feet" - O'ziga kelish, tiklanish. Tana metaforasi orqali sog'lig'iga qaytish kabi mavhum tushuncha aniq, sezilarli darajaga olib chiqiladi. Optimistik konnotatsiya salbiy vaziyatdan ijobiy natijaga o'tish umidini ifodalaydi. Kommunikativ jihatdan "You can pay me back when you are back on your feet" degan iborada nafaqat moliyaviy masala hal qilinadi, balki ruhiy qo'llab-quvvatlash ham ko'rsatiladi. Bu frazeologizm hozirgi muammoni kelajakdagi yechim bilan bog'lab, muammoning vaqtinchalik ekanligini ta'kidlaydi.

Jojo Moyesning asaridagi frazeologik birliklar nutqning obrazlilikini, emotsional ta'sirchanligini va ekspressivligini kuchaytirib, o'quvchini qahramonlarning ichki dunyosiga yaqinlashtiradi. Ular orqali muallif murakkab psixologik holatlarni ixcham, lekin kuchli ta'sir bilan ifodalashga erishadi. Bu frazeologizmlarning antroposentrik mohiyatini – ya'ni inson ongiga, hissiyotiga va bahosiga yo'naltirilganligini yaqqol namoyon etadi. Antroposentrik nutq

aktida frazeologizmlar murakkab funksiyalarni bajaradi. Ular nafaqat ma'noni yetkazadi, balki gapiruvchi yoki tinglovchida hissiy ta'sir uyg'otadi, madaniy kodlarni faollashtiradi va kommunikativ maqsadlarni kuchaytiradi.

Mazkur tadqiqot antroposentrik paradigma doirasida frazeologik birliklarning nutq aktidagi o'rnini yangi rakursdan yoritib berdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar tilning bezak unsuri emas, balki muloqotning markaziy mexanizmlaridan biridir. Ular orqali inson nafaqat axborot yetkazadi, balki o'z hissiyotini, munosabatini, bahosini, madaniy tajribasini ham ifodalaydi. Ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida o'tkazilgan qiyosiy tahlil frazeologizmlarning umuminsoniy kognitiv ildizlarga ega ekanini, biroq har bir tilda milliy mentalitetga mos ravishda shakllanganini ko'rsatdi. Bu holat tilni faqat belgilar tizimi emas, balki insoniy tajriba va madaniyatning tirik aks ettiruvchisi sifatida talqin qilish zaruratini tasdiqlaydi. Demak, frazeologik birliklar antroposentrik nutq aktida illokutiv kuchni oshiruvchi, perlokutiv ta'sir yaratuvchi, madaniy kodlarni uzatuvchi va nutqni obrazli qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularni lingvopragmatik nuqtai nazardan tadqiq etish tilning insoniy mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Nurmonov A. Zamonaviy tilshunoslik nazariyalari. – Toshkent: Fan, 2015.
2. Nurmonov A. Zamonaviy tilshunoslik nazariyalari. – Toshkent: Fan, 2015. 8-9 betlar
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Akademnashr, 2008
4. Wray A. Formulaic Language and the Lexicon. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
5. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
6. Niyazmetova D. "Ingliz va o'zbek tillardagi oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyati" Toshkent 2021. 22 bet

7. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро: “Бухоро университети”, 2005. – Б.84.
8. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2008. – B. 226–229.
9. Rahmatullayev Sh. va boshq. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 357
10. Rahmatullayev Sh. va boshq. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 486

FILOLOGIYA**GENDER STEREOTIPLARINING INGLIZ MEDIA MATNLARIDA
BAHOLOVCHI BIRLIKLAR ORQALI IFODALANISHI****UO‘K 81'27**

**Normetova Sharifa,
Urganch innovatsion
universiteti
Lingvistika ingliz tili
1-kurs magistranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz media diskursida gender stereotiplarining baholovchi leksik birliklar orqali lingvistik ifodalanishi tadqiq etiladi. Tadqiqot tanqidiy diskurs tahlili hamda baholovchi til nazariyasiga tayangan holda, implitsit va eksplitsit baholovchi markerlarning genderga oid tasvirlarni shakllantirish va mustahkamlashdagi rolini tahlil qiladi.

Аннотация: В данной статье исследуется лингвистическое выражение гендерных стереотипов в англоязычном медиа-дискурсе посредством оценочных лексических единиц. Опираясь на методы критического дискурс-анализа и теорию оценочной лексики, в исследовании анализируется роль имплицитных и эксплицитных оценочных маркеров в формировании и закреплении гендерно обусловленных репрезентаций.

Annotation: This article investigates the linguistic expression of gender stereotypes in English media discourse through evaluative lexical units. Drawing on critical discourse analysis and evaluative language theory, the study examines how implicit and explicit evaluative markers contribute to the construction and reinforcement of gendered representations.

Kalit so‘zlar: gender stereotiplari, media diskurs, baholovchi birliklar, tanqidiy diskurs tahlili, ingliz tili

Ключевые слова: гендерные стереотипы, медиа-дискурс, оценочные единицы, критический дискурс-анализ, английский язык

Key words: gender stereotypes, media discourse, evaluative units, critical discourse analysis, English language

So‘nggi yillarda gender masalasi media diskurs tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Media nafaqat axborot uzatuvchi, balki ijtimoiy qadriyatlar va stereotiplarni shakllantiruvchi kuchli ideologik institut sifatida

namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ingliz media matnlarida genderga oid stereotiplar ko‘pincha baholovchi birliklar orqali bilvosita ifodalanadi. Baholovchi birliklar (evaluative units) subyektning hodisaga munosabatini bildiruvchi leksik-semantik vositalar bo‘lib, ular gender obrazlarini ijobiy yoki salbiy jihatdan talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, gender stereotiplarining ochiq emas, balki yashirin baholash mexanizmlari orqali uzatilishi keng auditoriyaga sezilmas ideologik ta’sir ko‘rsatadi. Maqolaning maqsadi — ingliz media matnlarida gender stereotiplarining baholovchi birliklar orqali qanday lingvistik vositalar yordamida ifodalanishini aniqlash.

Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlar qo‘llanildi. Jumladan, media matnlarda gender ideologiyasining yashirin va ochiq shakllarini aniqlash maqsadida tanqidiy diskurs tahlili (CDA) usulidan foydalanildi.[5] Baholovchi birliklarning kommunikativ-pragmatik vazifalarini ochib berish uchun lingvopragmatik tahlil amalga oshirildi, kontekstual tahlil esa leksik birliklarning muayyan diskurs doirasidagi funksional yukini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidagi nufuzli ommaviy axborot vositalari — BBC News, *The Guardian* va *The New York Times* nashrlarida e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar tanlab olindi. Tahlil jarayonida baholovchi sifatlar (masalan, *emotional, strong, ambitious, soft*), modal birliklar hamda metaforik ifodalar asosiy tahlil obyektlari sifatida ko‘rib chiqildi. Tadqiqotning nazariy asosini gender va til munosabatlari, ayollar nutqining ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari hamda diskurs va hokimiyat o‘rtasidagi aloqalarni yorituvchi konseptual qarashlar tashkil etdi.[7]

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi media diskursda ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan baholovchi leksik birliklar asosan emotsional va subyektiv semantik maydonga mansub bo‘lib, *emotional, caring, sensitive* kabi sifatlar orqali ayol obrazi affektiv holatlarga moyil, muloyim va parvarishkor subyekt sifatida konseptuallashtiriladi.[11] Bunday leksik tanlovlar ayollarning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini ratsionallikdan ko‘ra hissiylik bilan bog‘lashga



xizmat qilib, ularning professional va yetakchilik salohiyatini ikkilamchi darajaga tushiruvchi diskursiv ta'sirni yuzaga keltiradi.

Mazkur baholovchi birliklar ayollarning ijtimoiy rollarini g'amxo'rlik, parvarish va emotsional qo'llab-quvvatlash funksiyalari bilan uzviy bog'lab, genderga xos stereotipik tasavvurlarni diskursiv darajada qayta ishlab chiqaradi. Natijada ayol obrazi ko'proq xususiy va shaxslararo munosabatlar doirasiga yo'naltirilgan subyekt sifatida tasvirlanib, uning ijtimoiy faolligi va jamoat hayotidagi ishtiroki cheklangan semantik ramkada ifodalanadi. Shu tariqa, mazkur leksik strategiyalar gender rollarining normativ model sifatida mustahkamlanishiga xizmat qilib, media diskurs orqali mavjud ijtimoiy tengsizliklarning davomiyligini ta'minlaydi.

Aksincha, erkaklarga oid baholovchi birliklar asosan kuch, yetakchilik va ratsionallik bilan bog'lanib, *strong, decisive, powerful* kabi leksik vositalar orqali ularning faol, qat'iyatli va hukmron ijtimoiy pozitsiyasi ta'kidlanadi. Tadqiqot shuningdek, gender stereotiplarining ko'pincha implitsit baholash mexanizmlari orqali uzatilishini aniqladi: bu jarayonda ochiq diskriminatsiya shakllaridan ko'ra, konnotativ ma'noga ega birliklar yordamida ideologik yuklama beriladi. Metaforalar va epitetlar esa gender rollarini normallashtiruvchi va mustahkamlovchi asosiy lingvistik vositalardan biri sifatida namoyon bo'lib, media matnlarda an'anaviy gender tasavvurlarining davomiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Olingan natijalar ingliz tilidagi media diskursda gender stereotiplari ko'pincha bevosita va ochiq shaklda emas, balki baholovchi leksik birliklar orqali yashirin (implitsit) tarzda kodlanishini ko'rsatadi. Ushbu diskursiv strategiya o'quvchi ongida genderga oid ijtimoiy tasavvurlarni tabiiy, o'zgarmas va muqarrar hol sifatida qabul qilishga olib kelib, gender rollarining tanqidiy qayta baholanishini cheklaydi hamda ularni normativ model sifatida mustahkamlaydi. Natijada media matnlar ijtimoiy ongni shakllantiruvchi ideologik maydon sifatida faoliyat yuritib, mavjud gender ierarxiyalarining davomiyligini ta'minlaydi.

Teun A. van Dijk ta’kidlaganidek, media diskursda baholash ideologiyaning asosiy tashuvchilaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy kuch va hokimiyat munosabatlarini bilvosita tarzda legitimlashtiradi.[6] Mazkur tadqiqot natijalari ayollarning emotsionallik va g‘amxo‘rlik bilan, erkaklarning esa kuch, ratsionallik va yetakchilik bilan bog‘lanishi patriarxal ijtimoiy modelning lingvistik darajada qayta ishlab chiqarilishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bu holat baholovchi birliklarning neytral tavsiflovchi vosita emas, balki ideologik yuklama tashuvchi diskursiv mexanizm ekanini tasdiqlaydi.

Shu ma’noda, baholovchi leksik birliklar gender tengsizligini yashirin tarzda qo‘llab-quvvatlovchi va mustahkamlovchi semantik-pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni tanqidiy diskurs tahlili asosida o‘rganish nafaqat gender stereotiplarining lingvistik mexanizmlarini ochib berish, balki media diskursda tenglik va inklyuzivlikni targ‘ib etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.[1]

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi media matnlarda gender stereotiplari asosan baholovchi leksik birliklar orqali diskursiv jihatdan shakllantiriladi va bu birliklar ijtimoiy ongda gender rollarining barqarorlashuvi hamda normativlashuviga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur baholovchi vositalar ochiq va bevosita diskriminatsiyadan ko‘ra, implitsit ideologik ta’sir mexanizmlariga ega bo‘lib, o‘quvchi tomonidan ko‘pincha tanqidiy anglanmagan holda qabul qilinadi. Natijada genderga oid ijtimoiy tasavvurlar tabiiy va o‘zgarmas model sifatida idrok etilib, mavjud ijtimoiy tengsizliklar diskursiv darajada qayta ishlab chiqariladi.

Shu nuqtai nazardan, media diskursni gender jihatdan sezgir va tanqidiy tahlil qilish zarurati yanada dolzarb bo‘lib, bu jarayonda lingvistik baholash kategoriyasi muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot natijalari gender va media diskursi o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishda baholovchi birliklarning markaziy rolini tasdiqlaydi hamda

kelgusida gender tengligi, ideologiya va diskurs masalalarini tadqiq etishga qaratilgan lingvistik izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Lakoff R.** *Language and Woman's Place*. — New York: Harper & Row, 1975. — 328 p.
2. **Cameron D.** *Gender and Language*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2005. — 214 p.
3. **van Dijk T. A.** *Discourse and Power*. — London: Palgrave Macmillan, 2008. — 308 p.
4. **Charteris-Black J.** *Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor*. — London: Palgrave Macmillan, 2011. — 356 p.
5. **Fairclough N.** *Media Discourse*. — London: Edward Arnold, 1995. — 214 p.
6. **Wodak R.** *The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual*. — London: Palgrave Macmillan, 2009. — 252 p.
7. **Entman R. M.** Framing: Toward Clarification of a Fractured Paradigm // *Journal of Communication*. — 1993. — Vol. 43, №4. — P. 51–58.
8. **Kövecses Z.** *Metaphor: A Practical Introduction*. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — 375 p.
9. **The Guardian.** Gender and media representation. — Elektron resurs. — URL: <https://www.theguardian.com> (murojaat sanasi: 10.01.2026).
10. **BBC News.** Gender stereotypes in media discourse. — Elektron resurs. — URL: <https://www.bbc.com/news> (murojaat sanasi: 10.01.2026).
11. **The New York Times.** Language and gender in journalism. — Elektron resurs. — URL: <https://www.nytimes.com> (murojaat sanasi: 10.01.2026).
12. **Holmes J., Meyerhoff M.** *The Handbook of Language and Gender*. — Oxford: Blackwell Publishing, 2003. — 552 p.

FILOLOGIYA

NUTQIY FAOLLIK NAZARIYASI

UO‘K 81'23

Havaxon Shokirova
University of
Business and Science
v.b. professori,
filologiya fanlari
doktori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqiy faollik nazariyasi bo‘lgan pragmatika, pragmatikaning predmeti va unga bog‘liq tadqiqotlar haqida ma‘lumotlar beriladi. Juda ko‘p olimlar pragmatikani tahlil etsalar ham uning predmeti haqida so‘z ochmaydilar yoki bundan chetlashadilar.

Аннотация: В статье представлена информация о теории речевой активности, а именно о прагматике, её предметной области и связанных исследованиях. Несмотря на то, что многие ученые изучали прагматику, но редкoзатрагивают её предмет.

Annotation: This article provides information about pragmatics, the theory of speech activity, the subject of pragmatics, and related research. Many scholars, even when analyzing pragmatics, do not mention its subject or avoid it.

Kalit so‘zlar: til, semiotika, pragmatika, predmet, lisoniy belgilar, pragmatik nazariyalar, gap belgisi va propozitsiya, matn, nutqiy ijro, deysis xususiyatlari, presuppozitsiya, rechevoy akt, grammaticheskiye osobennosti, illokutivnaya sila, pragmaticheskiye implikatsi

Ключевые слова: язык, семиотика, прагматика, предмет, языковые знаки, прагматические теории, назариялар, языковые знаки и пропозиция, текст, речевая активность, дейксис, пресуппозиция, речевой акт, грамматические особенностихусусият, иллокуция кучи, прагматик импликациялар.

Key words: language, semiotics, pragmatics, subject, linguistic signs, pragmatic theories, nazariyalar, linguistic signs and proposition, text, speech activity, deixis, presupposition, speech act, grammatical featureskhususiyat, illocution kuchi, pragmatic implicationlar.

Tilshunoslar pragmatika predmeti haqida turlicha fikr-mulohaza yuritadilar. Bunga pragmatikaning alohida tabiati sabab bo'lishi mumkin. Turli manbalarda turlicha talqin etilishi, albatta, uning o'rganilish doirasiga ham bog'liq. Ammo juda ko'p olimlar pragmatikani tahlil etsalar ham uning predmeti haqida so'z ochmaydilar yoki bundan chetlashadilar. Faqat kam sonli tilshunoslarninggina izlanishlaridan pragmatika predmetiga ishorani sezib qolish mumkin. Mana shunday tahlillardan pragmatikaning predmeti haqidagi aniq tasavvurni hosil qilishga urinamiz.

Pragmatika predmetini aniqlashga jiddiy kirishgan olimlardan biri G.Klaus edi. U o'z asarida pragmatikani “belgilar (Z) va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar (M) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi” fan sifatida ta'riflaydi [1967.215]. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar kabi belgi va uni idrok etuvchi – interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi. Hatto uning “pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o'rganuvchi nazariyadir” degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor mazmunda tavsiflashni ko'rsatadi [2008. 57].

Nutqiy harakatlar ijrosi negizidagi propozitsiya mazmuni va kommunikativ maqsadni namoyon qilish (illokusiya) munosabatini o'rgangan J.Kats pragmatika predmetini Chomskiy ta'limotidagi lisoniy qobiliyat (competence) va nutqiy ijro, faollik (performance) qarama-qarshiligida ko'radi [1962.2.1981]. Uningcha, pragmatik nazariya gaplarning ma'nosini ma'lum muhitda- kontekstda talaffuziga binoan chegaralash imkonini yaratadi. “Grammatika gap turlari strukturasi haqidagi ta'limotdir, pragmatika esa aksincha, lisoniy tuzilmalarning qurilishi, ularning grammatik xususiyat va munosabatlarini yoritish bilan shug'ullanmaydi. Pragmatik nazariyalar gap belgisi va propozitsiyaning matndagi muvofiqligini so'zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona ta'minlanishini o'rganadi. Shunga nisbatan, pragmatik nazariya nutqiy faollik (performatsiya) nazariyasining ma'lum bir qismidir”[2008. 57.69].

Pragmatika predmeti bilan shug'ullanish rus tilshunosligida Moskva semiotik maktabidan boshlandi, deyilsa xato bo'lmas. “Moskva semiotika maktabi – bu Y.D.Apresyan demakdir”, deb belgilaydi I.P.Susov.1963 yili Dj.Dj.Kats va Djerri Fodor ongli tarzda semantikani shunday tavsifladilar: “Semantika –ingvistik tasvirda grammatikaning aksidir”. U paytda Xomskiyning deskriptiv lingvistikasi va generativ grammatikasi tilning immanent sistemasiga ko'tarilmagan edi [1962.2.192]. Pragmatika tilni qo'llashda o'rganiladi, deya yozardi qisqa shaklda ko'pchilik tilshunoslar.

S.K.Levinson ham dastlab pragmatikaning predmetini an'anaviy anglosakson mazmun rejasida, tilning foydalanishida deb o'rgandi [2013.438].

Lekin undagi tavsifning noto'liqligi ko'p o'quvchilar uchun ochiq qalbmamasligini tushundi. Levinson pragmatika predmeti sifatida quyidagilarni aniqladi:

1. Til va kontekst o'rtasidagi grammatikallashtirilgan munosabat, ya'ni unga quyidagilar kiradi: deysis xususiyatlari, presuppozitsiya, nutq akti, so'zlashuv implikaturasi, sotsiolingvistika va psixolingvistika muammolari.

2. Ma'no aspekti, qaysiki semantik qonuniyatlar bilan qamrab olingan, ya'ni konvensional implikatura, presuppozitsiya, nutqiy implikatura, nutqiy interpretatsiya, ironik, metaforik nutqni so'zlovchining kommunikativ nutq mazmunini o'rganadi.

3. Tilni tushunish intellektning qiziqishlari, presuppozitsiya va implikaturaning aqliy xulosalarini yoritadi. Illokusiya kuchi va boshqa pragmatik implikatsiyalarni, shuningdek, faqat til yuzasidan emas, ensiklopedik tushunchalar orqali ham xulosa yasaladi.

4. Til tashuvchilarining gapni kontekst bilan ongli va samarali aloqa o'rnatishi, ya'ni, kommunikativ kompetensiya, tilning madaniy xususiyligi.

5. Deyksis, implikatura, presuppozitsiya, nutqiy akt, konversatsion struktura aspekti.

Tahlilar natijasida, albatta, S.Levinson tilning kommunikativ obyekti kontekstning shartli diskursiv pragmatik mazmuniga e'tibor qaratdi.

Pragmatikaning o'zi semantika va sotsiolingvistika, psixolingvistika sohalariga yaqin keladi, lekin ular bilan birlashmaydi. U lingvistik qonuniyatlar doirasida til qoidalariga amal qiladi [2006.29]. Dj. N. Lich pragmatikaning predmeti haqida o'z mulohazalarini bayon etar ekan, uni lingvistika tarkibiga kiritadi. Pragmatik vaziyatlarda gap bayonini o'rganishini ifodalaydi. Til kommunikativ sistema sifatida o'z tarkibida formal sistema va uning pragmatikaga munosabatini qamrab oladi. Pragmatika nutqiy vaziyatlar tushunchasini o'rganadi. Pragmatik tamoyillar tarkibini ikki guruhdagi munosabatlar tashkil etadi:

1. O'zaro shaxsiy ritorika: kooperativ tamoyil, hurmat tamoyili va kinoya tamoyili. Bu tamoyillar nutqiy kommunikantlar munosabatini boshqaradi.

2. Matn ritorikasi: protsessual tamoyil, ochiqlik tamoyili, ekspressiv tamoyil. Berilgan tamoyillar matnning keng rivojlanishini boshqaradi.

Olim pragmatik yondashuvning kuchli ta'siridan shakllangan Dj.L.Ostin va Dj.R.Serlning "illokusiya kuchi" tushunchasini va G.P.Graysning "so'zlashuv implikaturasi" atamalarini tan oldi. Dj.Lich o'zining "Formal-funksional paradigma"sida postulatlar to'plamini yig'adi, formal va funksional tuzilmalar o'rtasidagi farqni shakllantiradi. Dastlab gapning semantik reprezentatsiyasi yoki mantiqiy shaklni uning pragmatik interpretatsiyasidan

farqlab ko‘rib chiqadi. U semantikaning an‘anaviy – belgi-obyekt tarzida ish yuritishini va ayni paytda pragmatikaning “belgi- obyekt-so‘zlovchi” – ya’ni uch mohiyati bilan munosabat o‘rnatishi va uning o‘rganish predmeti shundaligini ko‘rsatadi. Umumiy pragmatikada grammatika, sotsiopragmatika, sotsiologiyadan ham yaqin bo‘lgan pragmalingsvistikani ajratadi. Olimning tadqiqotlariga e’tibor bersak, tilni ikki tarkibga bo‘ladi: struktur va aksional pragmatika. Pragmatikani pragmalingsvistika va sotsiopragmatika tashkil etishini belgilaydi [2006.30].

V.V.Bogdanov pragmatikaning predmeti sifatida til kommunikantlari va nutqiy akt munosabatini ko‘radi [2007.58]. Bunga ko‘ra u quyidagilarni ifodalaydi:

- a) suhbatdoshning kommunikativ maqsadi;
- b) nutqiy akt vaqti va makoni;
- v) kommunikantlarning bilim darajasi;
- g) ularning sotsial o‘rni;
- d) psixologik va biologik xususiyatlari;

ye) jamiyatda qabul qilingan nutqiy yondashuvlarning qoida va konvensiyasi. Ular kontekst atamasida birlashadilar va ba’zida quyidagicha bo‘linadilar ham:

- 1) lingvistik shart -kontekst;
- 2) ekstralingvistik shart -vaziyat;
- 3) kommunikantlarning lingvistik va ensiklopedik tushunchalari.

V.Bogdanov lingvistik pragmatikada uch asosiy yo‘nalishni belgiladi:

1. Nutqiy akt ishtirokchilari – gapning performativ tushunchalari va lokutiv, illokutiv va perlokutiv akti.

2. Nutqiy munosabatning qoida va konvensiyasining o‘rganilishi.

Olim bunda quyidagilarni nazarda tutadi:

a) nutqiy birgalikdagi faoliyatning dialogda to‘g‘ri tashkillanishi, ya’ni tomonlarning verbal ishtiroki, replikaning almashinishi;

b) diskursning to‘g‘ri tashkillanishi - matnning to‘liq bog‘liqligi;

v) axborot almashinuvining to‘g‘ri tashkil etilganligi: hurmat, qiziqish, e’tiroz, xayrixohlik;

g) kommunikantlarning statusli o‘rni, munosabatlar qoidasi, ya’ni kommunikantlarning o‘zaro iyerarxik va noiyerarxik munosabatlari; yoshga ko‘ra iyerarxik o‘lish qoidasi, jinsi, xizmat doirasiga ko‘ra sharti;

3. Kommunikantlarning axborotga talabi va fe‘l-atvor, xulqni o‘rganish.

V.V.Bogdanov pragmatika aniq nutqiy munosabat jarayonini boshqarishini ta’kidlab o‘tadi [2006.31].

N.D.Arutyunova ham mazkur masalaga bir qadar keng qamrovda e'tibor qaratadi. Tilshunos muammo atrofida pragmatikani o'rganish so'zlovchining subyekt bilan, uning adresati bilan, so'zlovchi va adresatning o'zaro birgalikdagi faoliyati va vaziyat munosabati bilan qamrab olishini tushuntiradi [1985.342].

1. Tadqiqotchilar e'tiborini subyektga murojaat etishda nutqiy munosabat o'ziga tortadi: a) gapning ochiq va yashirin maqsadi (illokutiv kuchi); b) xabarning nuqtai nazar, savol, buyruq, iltimos, maslahat, va'da, kechirim, salomlashish, shikoyat va hokazolar; v) so'zlashuv qoidasi, tamoyilga bo'ysunuvchilarning va hamkorlik soni, sifati, relevantlik, ya'ni mavzuga munosabati, nutq uslubi; g) so'zlovchining tuzilishi- pragmatik tushuncha gapning bevosita mazmuni, ishora va boshqalar; d) so'zlovchi referensiyasi; ye) pragmatik presuppozitsiya – so'zlovchining umumiy ko'rinishdagi tushunchasi, suhbatdoshning xabar darajasi, uning qiziqishi, qarashlari, psixik holatlari, asosiy xarakteri va intellektual, shaxsiy layoqati; yo) so'zlovchining xabar berishga munosabati; rostlik yoki yolg'onni baholashi; kinoya, ko'pma'nolilik, jiddiy bo'lmaslik va boshqalar; shaxsning empatiyasi- ayni so'zlanayotgan paytdagi qiziqish, ustalikka kirishish, yanada ko'proq tushuncha anglatuvchi gap bayonining tashkil topishi.

2. Adresatga bo'lgan munosabat uni e'tibor markaziga tortadi:

a) nutq interpretatsiyasi; b) adresatga qaratilgan faoliyat – perlokutiv effekt: xabar va hissiyotli vaziyatning o'zgarishi, estetik ta'sir etish.

3. Kommunikantlarning o'zaro munosabatida ularni quyidagilar qiziqtiradi:

a) nutq shakli; b) nutqning sotsial-etiket tomoni: murojaat shakli, suhbat turi; v) kommunikantlarning o'zaro ishtiroki.

4. Suhbat vaziyati tahlilida quyidagilar o'rganiladi: a) interpretatsiyaning deytik belgisi va so'z tushunchasida indeksal komponentlar; b) nutqiy vaziyat mavzusiga va kommunikatsiyaning shakliga ta'sir etish: rasmiy tadbirlarda, mehmonda, ko'ngilochar marosimlardagi suhbat, shifoxonada, kabinetda, shifokor qabulida, advokat qabulida va boshqalar.

N.D.Arutyunova umumiy pragmatik faoliyat qonuniyatlarini psixolingvistik, mantiqiy baho, yangiliklar qoidasi, ritorika va stilistika va diskurs qonuniyatlari qamrovida, matnning avtomatik tekshiruvida ularning yaqinligini belgilaydi. Kommunikatsiya jarayonida voqelanadigan lisoniy belgi va uning xususiyatlari lingvopragmatik tahlil obyektida o'z ifodasini topadi.

N.M.Vaxtel pragmemani pragmlingvistikaning birligi sifatida tushunadi [2008.15]: “Shunday so'zlar borki, deb yozadi u, so'zlovchining munosabatida hech qanday alohidalik bildirilmaydi, masalan: *uy, osmon, ko'rmoq*. Qat'iy bog'liq bo'lgan yaxlit bir narsa va tushuncha bahosini beruvchi yana shunday so'zlar mavjud, masalan: *buyuk, kelishish, badnom qilmoq* kabi. Oxirgi qatordagi

soʻz asosiy belgiga egalik qiladi, yaʼni yuqoridagi soʻzlardan ajratib koʻrsatadi. Bunday belgilar: a) kommunikativ rejada katta mustaqillikni; b) leksik tushunchalar yadrosi vaziyatning bir butun bahosini anglatishini; v) ularning oʻzi belgidir va ular tugallangan qonuniy tuzilma sifatida qoʻllanishni yuzaga keltiradi”. Bunday soʻzlar “pragmema” nomini oladi. Pragmema – bu tilning turli bosqichida eng kichik til birligi boʻlib, pragmatik yoʻnalishga egalik qiladi va inson yondashuvini boshqaradi. Pragmema negativ pragmatik faoliyatni beruvchidir: *U ichyapti – U ichuvchi*; negativ pragmatik faoliyatni yumshatuvchi ham: *U firibgar – U ayyor*; yoki salbiy va ijobiy bahoni belgilovchi ham boʻlishi mumkin: *U muttaham. – Axir u – ablah-ku!* [2008.15].

Koʻrinadiki, olim pragmalingsvistika va uning oʻrganish obyekti-pragmema bilan shugʻullanadi. Pragmatik faoliyat pragmalingsvistikada aks etadi, deb hisoblaydi. Kommunikativ sistemada soʻz va tushunchaga beriladigan baho shaxs munosabatini ifodalaydi. Shu sabab tilshunos pragmalingsvistika xususida soʻz yuritib, eʼtiborini pragmalingsvistik faoliyatga jalb etadi.

E.S.Aznaurovaning ham bu boradagi fikr- mulohazalari shunday shakllandi:

- kommunikativ faoliyat tavsifining tayanch nuqtasi faoliyat tushunchasidir;
- lison muloqot ishtirokchilarining oʻzaro munosabatini harakatga keltiruvchi vositadir;
- lisoniy faoliyat voqelanishi bevosita muloqot muhiti bilan bogʻliq hodisadir [2008.78].

Lingvopragmatika taʼrifi, uning predmetining tavsifi borasidagi fikrlar qanchalik turli-tuman boʻlishiga qaramay, tadqiqotchilarning asosiy gʻoyalarda hamfikir ekanliklari ravshan boʻldi.

A.Y.Maslova ham oʻzining “Pragmalingsvistikaga kirish” nomli darsligida pragmalingsvistikaning predmeti sifatida kommunikativ vaziyat, adresant-soʻzlovchi, adresat – tinglovchi, intensiya – maqsad, nutqiy akt kabilarni belgilashi bejiz emas [2014.33]. Pragmatikaning predmeti mavjud boʻlgan muammoni tashkil etadi.

Oʻzbek tilshunosligida professor A.Nurmonovning tadqiqotlari asos vazifasini oʻtamoqda. Olimning quyidagi fikri bu boradagi izlanishlarining xulosasi deb hisoblashimizga imkon beradi: “Presuppozitsiya gap semantikasi bilan uzviy bogʻliq boʻlgan pragmatikaning oʻrganish obyektidir. Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham sintaktik qurilma ifodalagan propozitsiyaning soʻzlashuvchilarga tushunarli boʻlishi uchun nutq vaziyati yoki kontekst zarur boʻlgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi [2007.100].

M.Hakimov ham ushbu xulosaga monand holda lingvistik pragmatikaga bo'lgan qiziqishning kuchayishi kontekst masalalari xususidagi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga va ularning oydinlashuviga yo'l ochishi hamda pragmatik presuppozitsiyani o'rganish uchun imkoniyat yaratishini ta'kidlaydi [2013.200].

Olim Sh.Safarov o'z taqiqotlarida pragmatika predmeti muammosi atrofida keng izlanishlar olib boradi. U pragmatikaning predmeti o'rganish obyekti faqatgina muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat, ya'ni belgi-interpretator sifatida qaralishiga e'tiroz bildiradi. Unda pragmatikaning ta'rifi faqat formal ko'rinishga ega bo'lishini, lisoniy belgining vazifasi ma'lumot yetkazish vositasidan iborat emasligini aytib o'tadi va quyidagi xulosaga keladi: "Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo'nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o'rtasida mavjud bo'lib turgan uzilishlarni bir oz toraytiradi. Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o'zining ichki sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi, o'rganilishida namoyon bo'ladi"[2008.76]. Olim Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" qo'llanmasidagi ushbu xulosasi pragmatikaning pragmalingvistika sohasi yuzasidan berilgan fikr bo'lib, bu ham ayni pragmatikaning predmeti masalasini ochib berolmaydi.

Tadqiqotchi Abdumurod Ko'chiboyevning "Matn pragmatikasi" mavzusidagi qo'llanmasida ham pragmatika tushunchasining hozirgi zamon tadqiqotlaridagi talqini, pragmatik atamalar va tushunchalar haqidagi ma'lumotlar, nutq akti nazariyasi, pragmatik munosabatlarning ifodalanish turlari va gender belgilari kabi masalalar ko'rib o'tiladi: "Pragmatikaning predmetini keng ko'lamda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy

etishiga olib keldi. Natijada, pragmatikaning umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, leksikologiya, stilistika fanlari bilan aloqasi aniqlandi. Ayni paytda matn pragmatikasining nutqiy akt, deysis, diskurs nazariyalaridagi o'rni alohida tadqiq qilina boshlandi"[2016.9]. Olim yuqoridagi fikrlarga tayangan holda pragmatikaning nutq akti nazariyasi masalalariga kirishar ekan, aynan pragmatikaning predmetini keng ko'lamli ekanligini ta'kidlaydi xolos.

Yuqorida faoliyat yurituvchi tilshunoslarning turli davlatlarda ishga to'liq yondashuvi muammo atrofidagi to'liq ma'lumotlarni bera oladi va lingvistik pragmatika olamiga olib kiradi. Keltirilgan iqtibos va tahlillardan ma'lum bo'lishicha, tilshunoslar aynan pragmatikaning predmeti masalasida keng qamrovli tushunchalarni nazarda tutdilar va nutq faoliyatining u yoki bu ko'rinishida ifodalanishiga e'tibor qaratdilar. Til belgilar sistemasi ekan, pragmatika predmeti sifatida har qanday gap qolipida ishtirok etuvchi va nutqda voqelangan aktantlarni, ya'ni nutq jarayoni ishtirokchilari munosabatlarini e'tiborga olmoq joizdir. Shu sabab, yuqoridagi fikrlarni xulosalab aytish mumkinki, pragmatikaning predmeti belgi, obyekt, so'zlovchi va nutqiy faoliyat ekanligini qayd etmoq maqsadga muvofiqdir. Modomiki, ularning har biri nutq va kontekstda o'z o'rniga ega va ularning ishtirokisiz nutqiy jarayon tuzilmas ekan, demak, nomi zikr etilganlarni pragmatikaning predmeti etib belgilash haqqoniydir. Ko'rinadiki, olim Sh.Safarov aytganidek, pragmatik tadqiqotlar predmeti o'z dolzarbligini hanuz saqlab kelmoqda. V.G.Gak shunday yozgandi: "Pragmatik yondashuv an'anaviy grammatika ochib berolmagan, e'tibor qaratilmagan jihatlarni yoritishi bilan til xususiyatlarining tahlilida porloq istiqbolga erishadi". Semiotika tarkibini, aynan, pragmatika asosini to'la-to'kis tasavvur qilish uchun yuqoridagi bobda keltirilgan jadvalga e'tibor qaratish yetarli ekanligiga shubha bo'lmasa kerak. Semiotikani to'rt yo'nalishsiz tasvirlash mumkin bo'lmaganidek, pragmatikani ham pragmalingvistikasiz va uning tarkibiy qismlarisiz: nutqiy aksiz, ya'ni nutqiy jarayon va nutqiy faoliyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азнаурова Э. Прагматика художественного слова. – Т: Фан, 1988. – 119.
2. Вахтель Н.М. Основы прагмалингвистики. Воронеж. Изд.во Воронежского гос-ного ун-та, 2008. – С.15.
3. Гак В.Г Прагматика и языковое варьирование. В кн.: Гак В.Г. Языковые преобразования. – М., 1998. – С.554. – 586.
4. Ko'chiboyev A. Matn pragmatikasi. Samarqand.: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2016. – B.9.

5. Levinson Stephen C. Pragmatics. New York:Cambridge University Press, 2013. – 438 p.
6. Маслова А.Ю.Введение прагмалингвистику. – М.: Флинта, 2014.– С.33.
7. Nurmonov A. Mahmudov N. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Т.,
8. Маслова А.Ю. Введение прагмалингвистику. – М.: Флинта, 2014. С.33.
9. Сусов И.П.Лингвистическая прагматика. – М.,Восток-Запад, 2006. – С. 33.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Т.: Fan, 2008. –В.76.
11. Хомский Н. Синтаксические структуры// Новое в лингвистике. –М., 1962. Вып.2. – С.192.
12. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2013. – 200-b.
13. Shokirova X. Savodxonlik asoslari. – Farg‘ona, Classic. 2023. – 186 b.
14. Shokirova X. O‘zbek tilida kesimlik kategoriyasi: shaxs aktanti va uning nutqiy voqelanishi. Filol.fan. nomz. diss. – Toshkent, 2009. – 127 b.
15. Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Filol.fan. doktori diss. – Farg‘ona, 2022. – 240 b.
16. Shokirova X. SEMIOTIK MODEL KONSEPSIYASI. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024, 4-son. – 1840 b.

FILOLOGIYA**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUSIQIY LUG‘ATNING
QATLAMLARI**

**To‘rayev Alisher,
Ingliz tili
o‘qituvchisi,
Renessans ta’lim
universiteti**

UO‘K 113:4578:1614

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi musiqiy lug‘atning ko‘p qatlamli tuzilishini o‘rganadi, ularning rivojlanishiga tarixiy, madaniy va lingvistik qatlamlar qanday hissa qo‘shganini tahlil qiladi.

Аннотация: Эта статья исследует многослойную структуру музыкального словаря в английском и узбекском языках, анализируя, как исторические, культурные и лингвистические слои способствовали их развитию.

Annotation: This article investigates the multilayered structure of musical vocabulary in English and Uzbek languages, analyzing how historical, cultural, and linguistic layers have contributed to their development. From historical and comparative linguistic viewpoints, it examines the etymology, semantic evolution, and stratified borrowings of key terms.

Kalit so‘zlar: Musiqiy lug‘at, lingvistik qatlamlar, yevropa o‘zlashtirilishi, sharqiy ta’sirlar, ingliz terminlari, o‘zbek terminlari, qiyosiy etimologiya, semantik evolyutsiya, maqom, shashmaqom, temp terminlari, madaniy qatlamlash, gibrizatsiya, etnomusiqashunoslik, fors-arab-turk ildizlari, italyan-fransuz-nemis qatlamlari.

Ключевые слова: Музыкальный словарь, лингвистические слои, европейские заимствования, восточные влияния, английские термины, узбекские термины, сравнительная этимология, семантическая эволюция, маком, шаашмаком, темповые термины, культурная стратификация, гибридизация, этномузыкология, персидско-арабско-тюркские корни, итальянско-французско-немецкие страты.

Key words: Musical vocabulary, linguistic layers, European borrowings, Eastern influences, English terms, Uzbek terms, comparative etymology, semantic evolution, maqom, shashmaqam, tempo terms, cultural

stratification, hybridization, ethnomusicology, Persian-Arabic-Turkic roots, Italian-French-German strata.

Musiqiy so'z boyligi madaniy tarixlarning til oynasi bo'lib, asrlar davomida ko'chib yurishlar, bosqinlar va san'at almashinuvlari natijasida to'plangan ta'sir qatlamlarini ko'rsatadi.[1]¹ Ingliz tilida bu qatlamlar asosan Yevropa klassik an'analariga asoslangan bo'lib, romance va german tillaridan olingan so'zlar qadimgi anglo-sakson asoslari ustiga joylashgan.[2]² O'zbek musiqiy atamalari esa Markaziy Osiyo merosiga asoslangan Sharqiy qatlamlarni saqlab qolgan, ustiga mustamlakachilik va zamonaviy ta'sirlar qo'shilgan. Ushbu maqola shu qatlamlarni o'rganadi va musiqiy so'z boyligi qayta-qayta ustiga yozilgan, ammo avvalgi davr izlarini saqlab qolgan matn (palimpsest) kabi rivojlanishini ta'kidlaydi. Ingliz tilida Renessans davridan boshlab italyan tilidan olingan qatlamlar asosiy o'rinni egallaydi – bu standart nota yozuv tizimlarida yaqqol ko'rinadi. O'zbek so'z boyligi Ipak yo'li orqali kelgan fors-arab asoslarini saqlagan, 19–20-asrlarda rus va yevropa qo'shimchalari bilan boyitilgan. Bu qatlamlarni tahlil qilish orqali tilning qatlamlanish jarayonlari va ularning madaniy o'ziga xoslikdagi o'rnini yoritamiz.[3]³

Qatlamli qiyosiy tilshunoslik yondashuvidan foydalanib, ushbu tadqiqot so'zlarning kelib chiqishini izlash, ma'no tahlili va tarixiy kontekstni birlashtiradi.[4]⁴ Manbalar ilmiy maqolalar, ensiklopediyalar va etnomuzikologiya (xalq musiqasi tadqiqi) ishlarini o'z ichiga oladi, shu jumladan ingliz va o'zbek musiqiy atamalarini solishtirgan tadqiqotlar.[5]⁵ Adabiyot sharhi ingliz qatlamlari uchun Vikipediya musiqiy lug'atidan va o'zbek qatlamlari uchun O'zbekiston musiqasi bo'limlaridan foydalandi.[6] So'zlarning kelib chiqishi ajratildi: ingliz uchun asosan yevropacha (italyan-fransuz ildizlari), o'zbek uchun sharqiy (fors-arab-turk tillari bilan rus qo'shimchalari). Atamalar vazifasi bo'yicha (ladlar/modes, cholg'ular, dinamika) va qatlamlari bo'yicha (asosiy, olingan, aralash) guruhlandi. Ma'no xaritalash korpus (katta matnlar bazasi) ma'lumotlaridan foydalanib o'zgarishlarni kuzatdi, to'g'ridan-to'g'ri

¹ Exploring the Intersection of Language and Melody: A Comparative Analysis of Music-Related Lexicon in English and Uzbek.

² The Influence of Musical Terms on the Composition of Language: The Example of World Linguistics.

³ The Influence of Musical Terms on the Composition of Language: The Example of World Linguistics

⁴ Linguistic Features: Music Terminology in Uzbek and English Languages.

⁵ The Classification Culturally Marked Words in Uzbek Language. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/27914/28739>

solishtirishdagi bo'shliqlarni Markaziy Osiyo va G'arb musiqasi bo'yicha keng tadqiqotlarni birlashtirish orqali to'ldirdi.[7] Bu usul tilshunoslik tipologiyasiga mos keladigan qatlamli va dalillar asosidagi tahlilni ta'minlaydi.

Ingliz musiqiy so'z boyligi: Yevropa qatlamlari Ingliz musiqiy so'zlari bir necha qatlamdan iborat: asosiy anglo-sakson qatlami ("song" – qo'shiq, "tune" – kuy) ustiga Renessansdan boshlab yevropa tillaridan olingan so'zlar qo'shilgan. Italiya qatlami eng qalin – Italiya operasi va cholg'u innovatsiyalari tufayli "adagio" (sekin, italyancha "qulaylikda"), "legato" (bog'langan, silliq ijro) kabi atamalar paydo bo'lgan. Fransuz tili balet ta'siridagi qatlam qo'shgan, masalan "crescendo" (hajm asta-sekin oshishi). Nemis qatlami orkestr aniqligini beradi: "lebhaft" (jonli), "sforzando" (kuchli urg'u). Bu qatlamlar ingliz tilida aralashib, "ff" (fortissimo – juda kuchli) kabi qisqartmalar hosil qilgan. Zamonaviy qatlamlar jazz kabi janrlarda amerika ta'sirini ko'rsatadi ("blues", "riff").

O'zbek musiqiy so'z boyligi: Sharqiy va yevropa qatlamlari O'zbek musiqiy atamalari Ipak yo'li orqali shakllangan qadimiy sharqiy qatlamlarga ega: fors-arab-turk ildizlari. Asosiy qatlamlarda "maqom" (arabcha "maqam" – lad, ohang tizimi) va "shashmaqom" (olti maqom – sufiy unsurlari bilan murakkab suite shakli) bor. Cholg'ular: "dutor" (ikki torli, forscha kelib chiqishi), "surnay" (baland ovozli puflama cholg'u, forscha "surna"dan). Ritm atamalari: "usul" (naqsh, turk-forscha). Mustamlakachilik davrida (19-asr rus hukmronligi) "orkestr" va nota tizimlari qo'shilgan. Sovet davrida xalq atamalari bostirilgan, ammo "vals" (vals) kabi aralash so'zlar paydo bo'lgan, mustaqillikdan keyin an'anaviy ildizlar bilan qayta birlashgan.

Qiyosiy tahlil Ingliz va o'zbek so'z boyliklari begona ta'sirlarni o'zlashtirish orqali qatlamlanadi, lekin manbalar va maqsadlar farq qiladi. Ingliz yevropa aniqligini (masalan, "presto" – juda tez), o'zbek sharqiy ma'naviyatni (masalan, "maqom" sufiy ruhiyati bilan) afzal ko'radi. Shakl jihatidan ingliz qisqartma va murakkab so'zlarni (mezzo-forte), o'zbek tavsifiy ildizlarni (doira – doira shaklidagi baraban) saqlaydi. Ma'no jihatidan ingliz ifodaga (rubato – moslashuvchan temp), o'zbek marosim va cho'qqiga chiqishga (shashmaqomdagi avj) urg'u beradi. Aralashuv keng: ingliz global, o'zbek fors-rus aralashmasini yaratadi. Tarjima qiyinliklari bor, masalan "crescendo" o'zbekchada "kuchayish" deb moslashtiriladi.

Ingliz va o'zbek musiqiy so'z boyligidagi qatlamlar madaniy o'zgarishlarga qaramay tilning chidamliligini ko'rsatadi. Inglizning yevropa qatlamlari universal bo'lishga yordam beradi, lekin yevropamarkazchilik xavfini tug'dirib, boshqa

madaniyat qatlamlarini soya qilishi mumkin. O'zbekning sharqiy asoslari mustamlakachilik qatlamlari bilan mustahkamlangan va moslashuvchan: masalan, sovetdan keyin maqomni orkestr bilan birlashtirish. Ta'limda bunday qiyosiy o'rganish turli madaniyatlarni tushunish va qadrlashni oshiradi. Globalizatsiya aralashuvni tezlashtiradi, lekin kuchli madaniyat zaiflarini "o'zlashtirib yuborish" (appropriation) xavfini keltirib chiqaradi. Kelgusida raqamli davr qatlamlarini o'rganish va qadimiy so'z boyligini saqlash muhim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Exploring the Intersection of Language and Melody: A Comparative Analysis of Music-Related Lexicon in English and Uzbek.
<https://conference.uzswlu.uz/conf/article/download/413/469/529>
2. The Influence of Musical Terms on the Composition of Language: The Example of World Linguistics.
https://www.researchgate.net/publication/384243286_The_influence_of_musical_terms_on_the_composition_of_language_the_example_of_world_linguistics
3. Comparative Analysis of the Music Terms in English and Uzbek Languages. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/3498>
4. Linguistic Features: Music Terminology in Uzbek and English Languages.
https://www.researchgate.net/publication/392712067_LINGUISTIC_FEATURES_OF_MUSIC_TERMINOLOGY_IN_UZBEK_AND_ENGLISH_LANGUAGES_LINGVISTICESKIE_OSOBENNOSTI_MUZYKALNAYI_TERMINOLOGII_V_UZBEKSKOM_I_ANGLIJSKOM_AZYKAHTIL_XUSUSIYATLARI_OZBEK_VA_INGLIZ_TILIDAGI_MUSIKA_TERMINOLOGII
5. The Classification Culturally Marked Words in Uzbek Language.
<https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/27914/28739>
6. Comparative Analysis of Homonyms of English and Uzbek Languages for Methodological Purposes.
https://www.academia.edu/106261489/Comparative_Analysis_of_Homonyms_of_English_and_Uzbek_Languages_for_Methodological_Purposes
7. Comparative Typology of English, Russian, and Uzbek.
<https://www.scribd.com/document/692242422/Phonetics>

FILOLOGIYA**XATAK VA LAYLAGON QISHLOQLARIDAGI O‘SIMLIK VA GIYOHLARINING NOMLARI VA ULARNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI****UO‘K 95(575.171)**

**Eshanqulov
Dilmurod,
O‘zbekiston davlat
jahon tillari
universiteti, O‘zbek
tili va adabiyoti
kafedrasi, Toshkent
davlat tibbiyot
universiteti, O‘zbek
va xorijiy tillar
kafedrasi o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqola Xatak va Laylagon qishloqlarida mavjud bo‘lgan o‘simliklar va giyohlarning nomlari hamda ularning shifobaxsh xususiyatlari, qishloq odamlari nutqida qo‘llanishi haqida ma‘lumot beradi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о названиях растений и трав, произрастающих в деревнях Хатак и Лайлагон, об их лечебных свойствах и использовании в речи жителей деревень. Статья охватывает местные природные ресурсы, их применение в медицине и значение в народной медицине.

Annotation: This article provides information about the names of plants and herbs found in the villages of Khatak and Laylagon, their medicinal properties, and their use in the speech of villagers. The article covers local natural resources, their use in medicine, and their importance in folk medicine.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simliklar, shifobaxsh giyoh nomlari, fitonimlar, Xatak qishlog‘i, Laylagon qishlog‘i, shifobaxshlik xususiyatlari.

Ключевые слова: лекарственные растения, названия лекарственных трав, фитонимы, деревня Хатак, деревня Лейлагон, лечебные свойства.

Key words: medicinal plants, names of medicinal herbs, phytonyms, Khatak village, Laylagon village, medicinal properties.

Xatak va Laylagon qishloqlari respublikamizning janubi bo‘lgan Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan. Bu qishloqlar aholisi qarluq shevasida gaplashadilar. Shevaning asosiy fonetik xususiyatlari “y” lovchi shevalardan bo‘lib shahar shevasiga yaqin sheva hisoblanadi. Aholi, asosan, “o” unlisi o‘rnida “a” unlisini ishlatadilar. Qishloqlar aholisi, asosan, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanishadi. Shevada chorvachilik hamda dehqonchilikka oid tushunchalarni ifodalovchi leksemalar boshqa shevalarga

qaraganda fonetik va leksik jihatdan ajralib turadi. Chorvador aholi erta bahorda chorva mollarini boqish uchun tog‘ yaqinidagi adirlarga ko‘chib chiqishadi. O‘zlariga qora uy (o‘tov) tikib yashaydilar. Qora uy (o‘tovning tuzilishi) quyidagi jihozlardan tashkil topadi. 1. Keraga – tol yog‘ochidan panjara usulida tayyorlangan aylana shaklidagi poydevor qismi. Devol (devor) aylana qanot-keraga 4 ta bo‘ladi. Har bir qanot panjaralardan teshilib, bir-biriga teridan yasalgan tasma (ip) bilan bog‘lanadi. Keraga qurilgandan keyin jundan sarkash to‘qiladi. 2. O‘q – yog‘ochning egilgan qismi keragaga jundan yoki paxtadan to‘qilgan bandi bilan bog‘lanadi. Qolgan to‘g‘ri shakldagi uch metrlik uchli qismi chang‘aroq teshiklariga kiritiladi. 3. Chang‘aroq – gumbaz shakldagi uyning eng baland qismida joylashtiriladi, uning aylanasida 60 ta o‘q kirib turadigan teshikchalar bor. 4. Eshik ikki tabaqali, 4 ta turumi bo‘ladi (ergana). 5. Chig‘ – keraga tashqarisidan yopiladi. U qamishdan to‘qiladi, parda vazifasini o‘taydi. 6. Tug‘ullig‘ – kigiz, o‘qning ustiga yopiladi, u bir necha metrli bo‘lib, 4 qismdan iborat. 7. Tag‘apcha – enli tasmaga o‘xshash oq rangli bo‘lib u kigizlarni birlashtiradi. 8. Tuynuk – chang‘aroq ustiga yopiladi. 9. Yog‘och ustun yerga qoqilib, keraga bog‘lanadi. 10. Uzuk – katta kigiz 5, 6 metrli 2 ta bo‘ladi. 11. Uvog‘i – o‘qlarni bir-biriga bog‘laydi. 12. Eshikning tepa qismida 4 ta o‘qbog‘ o‘rnatiladi. Qora uy, o‘tovlar kechalari qora chiroq yordamida yoritiladi. Qora chiroqqa kerosin quyilib, unga paxtadan eshilgan pilik solinadi. Kerosinga botirilga pilik sekin yonib, qora uyni yoritadi. Bundan tashqari aholi shu qishloqlarda o‘sadigan turli xil shifobaxsh o‘simlik va giyohlarni ham turlicha nomlashadi. Quyida ularning ba’zilarini tahlilga tortdik.

Arpabodiyon (qar.), orpabodiyon (qip.) – yashil ukropga o‘xshagan o‘simlik bo‘lib, astma xurujini yengillashtiradi, balg‘am ko‘chiruvchi xususiyatga ega.

Achchiq bodom (yovvoyi bodom) – jigar, taloq, medani tozalovchi vosita sifatida odamlar foydalanadi.

Bangidevona - uxlatuvchi, og‘riqni qoldiruvchi, tinchlantiruvchi xususiyatga ega.

Bo‘yimodaron – qon to‘xtatuvchi, jarohatlarni bitiruvchi, isitma tushiruvchi xususiyatga ega.

Dasht pudinasi – asabni tinchlantiruvchi, o‘t haydovchi giyoh.

Dasht piyoz – yeyiladi, taomga ishlatiladi.

Zira – buyrak va qovuqdagi toshlarni tushiradi.

Zubtutum – surunkali ich ketishiga davo sifatida foydalaniladi, xavfli o'smalarga qarshi shifo bo'ladi.

Isiriq – qo'tir va teri kasalliklariga ishlatilgan. Bundan tashqari isiriqning tutunidan grippning oldini olishda foydalanishadi.

Isfarak - gripp va ko'k yo'talga qarshi, isitmani tushiradi.

Ituzum – isitma, sariq kasalga ishlatiladi.

Kavrak – asab kasalliklarida, ko'k yo'tal, silga qarshi ishlatilgan.

Kampirchopon (shevada) – zaharli o'simlik bo'lib hayvonlar yesa o'ldiradi.

Mingdevona – quloq og'rig'iga qarshi, yiringni tozalovchi, qon to'g'tatuvchi dorivor giyoh. Bargidan tayyorlangan malham yara va chipqonlarni pishiradi va yiringni tortib oladi.

Mingbosh – og'riqni sezdirmaslik uchun shifo.

Moychechak, (qipchoq shevasida boychechak) – o't va siydik haydaydi, surgi sifatida ishlatiladi.

Namatak (shevada hulul) – vitamin yetishmovchiligi, jigar o't yo'llari, qovuq kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Otquloq – ishtaha ochadi, jigar va yurakka quvvat beradi, qon ketishini davolaydi.

Oq kavrak (sassiq o't) – damlamasi yiringli jarohat, bachadon saratonida ishlatiladi.

Pista (yovvoyi holda ham uchraydi) – ichni qotiradi, kam qonlikda foyda qiladi.

Ro'yan – qabziyat va buyrak toshi kasalliklariga qarshi, temiratki va dog'larga qarshi ishlatiladi.

Sarsabil – qovuq yallig'lanishi, yurak o'ynashi va quyonchiq kasalliklariga davo qilingan.

Sigirquyruq – yarani tuzatadi, kuygan va jarohatlarni davolaydi.

Shuvoq – chorva hayvonlari uchun ozuqa, shifobaxshligi ovqatni hazm qiladi, bavoilga davo, ishtahani ochadi, gijjaga qarshi ishlatiladi.

Yantoq – o't va siydik haydovchi, me'da yarasi va angina, jigar kasalliklarini davolashda foyda beradi.

Qashqarbeda, sariqbeda – balg'am ko'chiradi, quyonchiq paytida tinchlantiradi, chipqonlardagi yiringni tozalaydi.

Qirqbo'g'im – qon ketishiga, ichak kasalliklariga, o'pka siliga davo, toshlarni (qovuq, o'tdagi) tushirishda yordam beradi.

Qora andiz – siydik haydaydi, balg‘am ko‘chiradi, terlatadi, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, qichima, qo‘tir, quyonchiq kasalliklarida tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Qoqio‘t – kamqonlik, qorin dami, sariq kasalligini davolaydi, chayon chaqqan joyiga malham sifatida ishlatiladi.

Qushqo‘nmas – saraton va sariq kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Qo‘ziquloq – jarohatlarni bitiradi, qon to‘xtatadi, isitmani tushiradi, o‘t haydaydi.

Bahorda qishloq ahli qir-adirlarga chiqishib, har xil giyohli o‘t-o‘lanlarni terishib, iste‘mol qilishadi. Ismaloq, takasoqol, to‘ppon, qoqi, saqqizo‘t, chukri, ipor kabi shifobaxsh o‘simliklarni terishadi. To‘ppon xuddi rediskaday bo‘ladi, qazib olingan ko‘ron ham shunga o‘xshash, lekin sutli bo‘ladi. Terilgan ismaloqdan esa ko‘k somsa, pishiriqlar pishirilib, iste‘mol qilinadi. Bu shifobaxsh o‘simliklar Xatak va Laylogon qishloqlarida va boshqa joylarda o‘sadigan o‘simliklar bo‘lib odamlar nutqida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov I., Rahmonov H., Xudoyberdiyev E. (2014) Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (Xatakilar urug‘i misolida). Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
2. Rahmonov, S. (2018). O‘zbekistondagi dorivor o‘simliklar va ularning terapiyaviy xususiyatlari. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti. .
3. Abdullayev, X. (2020). Xalq tabobati va o‘simlikshunoslik asoslari. Samarqand: “Sharq” nashriyoti.
4. Karimova, L. & Toshpulatov, B. (2019). Mahalliy giyohlar va ularning farmatsevtik qo‘llanilishi. Toshkent: “Tibbiyot nashriyoti” nashriyoti. .
5. Ergashev, D. (2017). O‘zbekistondagi o‘simliklar va ularning ekologik ahamiyati. Toshkent: “Ilmiy nashrlar” nashriyoti. .
6. Mamatqulov, N. (2021). Dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qo‘llanilishi. Toshkent: “Fan”. nashriyoti.

FILOLOGIYA**BO‘STON SHAHRI URBONIMLARINING TARIXIY-DAVRIY
TASNIFI (ISTIQLOL MAHALLASI KO‘CHALARI MISOLIDA)****UO‘K 95(575.171)**

**Shermamatova
Navbahor
Ajiniyoz nomidagi
NDPI Ellikqal’a
fakulteti O‘zbek tili
va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi
talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumanining ma’muriy markazi hisoblangan Bo‘ston shahrida urbonimlarning tarixiy-davriy tasnifiga to‘xtalib o‘tilgan. Maskur tasnif Istiqlol mahallasi ko‘chalari misolida yoritilib, nomlarning madaniy-estetik mazmuni hamda milliy xotira shakllanishidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается историко-периодическая классификация городских названий города Бостан, административного центра Элликкальского района Республики Каракалпакстан. Классификация иллюстрируется на примере улиц квартала Истиклол, а также проводится научный анализ культурно-эстетического содержания названий и их роли в формировании национальной памяти.

Annotation: This article deals with the historical and periodical classification of urban names in the city of Bostan, the administrative center of the Ellikkal'a district of the Republic of Karakalpakstan. The classification is illustrated using the example of the streets of the Istiklol neighborhood, and the cultural and aesthetic content of the names and their role in the formation of national memory are scientifically analyzed.

Kalit so‘zlar: tarixiy xotira, ma’naviyat, adabiy meros, klassik davr, mustaqillik, toponomiya, antroponim, qardosh xalq, milliy uyg‘onish.

Ключевые слова: историческая память, духовность, литературное наследие, классический период, независимость, топонимия, антропоним, братский народ, национальное возрождение.

Key words: historical memory, spirituality, literary heritage, classical period, independence, toponymy, anthroponym, fraternal people, national revival.

Joy nomlari bu oddiy hodisa emas, balki xalqning, millatning xotirasini, o'zligini, ma'naviy dunyosi, madaniy tajribasini avloddan avlodga o'tkazuvchi muhim vositadir. Ayniqsa, shahar va mahallalardagi urbonimlar jamiyatning muayyan davrdagi yo'nalishi estetik qarashlarini aks ettiradi. Shu jihatdan aytishimiz mumkinki, urbonimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix bilan ham uzviy bog'liq.

Istiqlol mahallasining urbonimlari g'oyaviy badiiy tushunchalar, adabiy shaxslar bilan bog'liq bo'lib, o'zbek xalqining ko'p yillik madaniy va adabiy qarashlarini o'ida aks ettiradi. Mazkur maqolada ushbu urbonimlar 4 davrni jamlagan holda tahlil qilinadi.

Urbanonim – toponim turi. Shahar ichidagi har qanday topografik obyektlar, jumladan, agoronim, godonim, alohida bino nomlari, shahar xoronimlarining atoqli oti. Termin urbanus – shahar so'zidan kelib chiqqan.[1] Ushbu termin E.Begmatov va N.Uluqovlarning “O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati”da ham shunday izohlangan.[2]

Taniqli olim E.Voroshilova “muayyan shahar taraqqiyoti tarixining turli davrlarida vujudga kelgan shahar ichidagi atoqli otlar, milliy til va madaniy-tarixiy makonning muhim tarkibiy qismidir”, deb ta'kidlaydi.[3]

Onomastika, xususan urbonimika masalalari o'zbek tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda tatqiq etila boshladi. Ilmiy manbalarda urbonimlar xalq tarixi, etnik tarkibi, madaniyati va dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlandi. Tilshunos olimlar urbonimikani leksik-semantik, tarixiy-etimologik hamda lingvo madaniy jihatdan tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Bo borada shuni ta'kidlash lozimki, birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarida ham joy nomlariga alohida to'xtalib: “ Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko'cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o'zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko'rib bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholangki, yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqa ko'rinishga ega edi”. Bu ko'rinish aslida xalqning bugungi kundagi holati, o'tmishdan faxrini ifoda etuvchi holatdir.



Urbonimlar mavzusining bugungi kunda dolzarbligi borasida yana shuni ta’kidlash mumkinki, adabiyotshunosliklarga oid tahlillarda adabiy shaxslar nomining ijtimoiy xotiradagi o’rni alohida yoritilganligi bu boradagi dolzarblikni ifodalaydi. Mumtoz Sharq adabiyoti namoyondalari, jadid adiblari, ma’rifatparvar shoirlar, mustaqillik davri ijodkorlarining joy nomlariga berilishi ularning millat ongidagi, tafakkuridagi va qalbidagi o’rni bilan izohlanadi. Bu borada tarixiy xotira nazariyasi, madaniy merosni saqlash konsepsiyasi va ma’naviy vorislik g’oyalari muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida joy nomlarini qayta ko’rib chiqish, milliy qadriyatga mos ravishda nomlash jarayoni katta muhokamali jarayonlardan biri bo’ldi. Sababi urbonimlar jamiyat hayotida ramziy vosita, tarix yodi, faxr ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu maqolada shu ilmiy qarashlarni Istiqlol mahallasi misolida ilmiy tahlil qilamiz.

Ushqu maqolaning asosiy maqsadi Ellilqal’a tumani Bo’ston shahridagi urbonimlarning tarixiy-davriy tasnifini ochishdan iborat.

Mustaqillikdan oldingi davrlar va mustaqillikdan keyingi vaqtlardagi nomlar tubdan varq qiladi. Boyisi, mustaqillikdan oldingi davrlardan Sovet tuzumiga tegishli bo’lgan nomlardan foydalanilgan. Bu nomlar millat tarixi, o’zligi, milliy ruhini hech bir jihatdan ifoda eta olmasdi.

Shu sababdan urbonimlarning qayta ko’rilishi muhim vazifalardan biri etib belgilangan edi. Barcha hududlarda bu masala bo’yicha qayta ko’rib chiqish ishlari ilgari surildi. Shu jumladan Bo’ston shahridagi urbonimlar ham O’zbek hamda Qoraqalpoq millatiga mansub urbonimlarni qo’llash amaliyotini o’tagan. So’zimizning isboti sifatida Istiqlol mahallasi misolida ko’rib chiqamiz.

Istiqlol mahallasi o’zida jami 15 ta ko’chani jamlagan. Bular Ogahiy, Zarafshon, Ajiniyoz, Istiqlol, Istiqbol, Furqat, Oybek, G’alaba, Abdurahmon Jomiy, Uvaysiy, Cho’lpon, Fitrat, Jaloliddin Rumiy, Muhammad Yusuf, Zulfiya kabi nomlar asosida birlashadi. Mahalla urbonimlarini tahlil qilishda urbonim nomlarini davrlashtirib o’rganish maqsadga muvofiq bo’ladi. Nomlardan ko’rinib turibdiki, ko’cha nomlarining katta qismi antroponimlarni tashkil qiladi. Bular klassik adabiyot davridan to mustaqillik davrlarigacha bo’lgan davrni ifoda etganiga guvoh bo’lishimiz mumkin.

Urbanimlar tahlilida dastlabki qadam sifatida antroponimlarning nomlari davrlanishiga qaraymiz. Dastlab ularni 4 davrga bo‘lib olishimiz mumkin.

1. Klassik Sharq adabiyoti davri namoyondalari.
2. XIX asr ma’rifatparlik davri.
3. Jadidchilik va milliy uyg‘onish davri.
4. XX asr adabiyoti namoyondalari.

Klassik Sharq adabiyoti davri namoyondalari hisoblanmish Abdurahmon Jomiy va Jaloliddin Rumiy nomlarining urbanimlarga ko‘chishi xalq hayotiga alohida ta’sirini o‘tkazadi. Sababi ularning asarlarida komil inson g‘oyasi, ruhiy poklanish va axloqiy kamolot masalalari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa Rumiy hikmatlarini xalq tilida kundalik maqol sifatida qo‘llanilib, ma’naviyat oshishiga yanada katta xissa qo‘shib kelmoqda. Shu bois bunday nomlarning urbanim sifatida qo‘llanishi mahalla muhitida ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi ramziy belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu urbanimlarning bir nom ostida birlashishiga sabab har ikkala ma’rifatparvar ham bir davrda yashab ijod etganidir.

Keyingi davr esa XIX asr ma’rifatparvarlik davri namoyondalari nomining urbanim sifatida qo‘llanilishi haqida aytadigan bo‘lsak, bu davr guruhiga nafaqat o‘zbek, balki Qoraqalpoq shoirlarini ham nomi berilganini alohida aytib o‘tishimiz lozim. Sababi qardosh xalqlar uyg‘unligi millat birligini ta’minlaydi. Bu guruh vakillari barchasi XIX asrda yashab ijod etgan Ajiniyoz, Ogahiy, Uvaysiyar shu davrning yetuk namoyondalari, xalqning asl farzandlari sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirganlar. Shu sababdan ham ularning nomlari abadiylashtirilib, urbanim qamroviga qo‘shilgan.

Urbanimlar xalq g‘oyallarini uyg‘otishga xizmat qilishi uchun XX asr buyuk namoyondalarining nomlarini abadiylashtirish harakati amalga oshirilgan. Buning yaqqol dalili sifatida Jadidchilik harakati a’zolari bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon va Abdurauf Fitratlarning nomlari qo‘yilganini keltirishimiz mumkin. Har ikkalasi milliy tafakkur yangilanishgi, zamonaviy ta’lim va erkin fikr g‘oyalarini ilgari surganlar. Ularning nomlari urbanimlarning orasida turishi nafaqat mahalla yoshlari, balki butun shahar kishilarining uyg‘onishi, yuksalishi

uchun xizmat qiladi. Uygʻonish tarixini eslatib turuvchi bu ikki nomni bir davr asosida birlashtiramiz, yaʼni Jadidchilik va milliy uygʻonish davri.

Mahalla urbonimlarining zamonaviy qatlami sifatida Oybek, Zulfiya, Muhammad Yusuf koʻchalarini misol qilib olsak boʻladi. Bir mahallada klassik davrdan to bugungi kungacha boʻlgan davr nomlarining jamlanishi shahar urbonimika tizimining puxta reja va mukammal yondashuv bilan tanlanganining misolidir. Ularning ijodida milliy gʻurur, vatanparvarlik va insoniylik gʻoyalari ulugʻlangan. Shu bois bu nomlar zamonaviy milliy tafakkurning urbonimik ifodasi sifatida qaraladi. Nega aynan shu guruhga bu uch vakil qoʻyilgan degan savol paydo boʻlishi mumkin. Sababi har uchasi XX asr mustaqillik davrida yashab ijod qilgan. Asarlarida milliy gʻurur, vatanparvarlik, insoniylik asosiy oʻrinda turadi. Ayniqsa Muhammad Yusuf ijodiga yuksak ehtirom qilish shahar hududida alohida eʼtiborga loyiq. Jadidlardan farqli oʻlaroq ular mustaqil adabiy tizimni shakllantirganlar. Bu guruh urbonimlari zamonaviy milliy identityetni ifodalaydi.

Bundan tashqari hududda antroponimlardan tashqari nomlar ham uchraydi. Ular Istiqlol, Gʻalaba, Zarafshon, Istiqbol kabi nomlar boʻlib, ular antroponimlar kabi davrlashtirish asosida tahlil etilmaydi, balki semantik guruh sifatida tahlil qilinadi. Ularning nomlari maxsus konsept sifatida ifodalanadi. Masalan:

Istiqlol- mustaqillik konsepti.

Istiqbol- kelajak konsepti.

Gʻalaba- yutuq konsepti.

Zarafshon- farovonlik konsepti.

sifatida namoyon boʻlgan nomlar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Istiqlol mahallasi urbonimlari tasodifiy shakllanmagan, balki ular chuqur tarixiy, adabiy va maʼnaviy asosga ega tizimli birliklar hisoblanadi. Mazkur tizim ikki asosiy qatlamdan iborat boʻlib, ular oʻzaro uygʻunlikda faoliyat koʻrsatadi.

Birinchi qatlam-antroponimik urbonimlar – oʻzbek va Sharq adabiyotining turli davrlariga mansub shaxslar nomi asosida shakllangan. Ular orqali jamiyatning tarixiy taraqqiyoti bosqichma-bosqich aks ettiriladi. Klassik tasavvuf davri ruhiy kamolot va ilohiy tafakkurni, XIX asr maʼrifatparvarlik davri esa

ijtmoiy ong uygʻonishi, jadidchilik davri, milliy ozodlik va islohot gʻoyalarini, XX asr mustaqillik davri esa milliylik va vatanparvarlikni ifodalaydi. Bu esa urbonimlar tizimining evalyutsion harakterga ega ekanini koʻrsatadi.

Ikkinchi qatlam – antroponimik boʻlmagan, yaʼni gʻoyaviy – semantik unbonimlar –jamiyatning mafkuraviy yoʻnalishini aks ettiradi. Istiqlol, Istiqbol, Gʻalaba, Zarafshon kabi nomlar bilan nafaqat tarixiy xotira maydoni, balki gʻoyaviy va ideologik makon sifatida ham namoyon boʻladi. Bu nomlar kelajak sari intilish, mustaqillikni qadrlash, farovonlikka ishonch kabi tushunchalarni mustahkamlaydi.

Shunday qilib, Istiqlol mahallasining urbonimlari tarixiy xotirani saqlaydi, adabiy merosni davom ettiradi, milliy ongni shakllantiradi va qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, urbonimlar shunchaki nom emas, balki jamiyat tafakkurining lingvistik modeli sifatida namoyon boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Наталья Владимировна Подольская. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. 187 с.
2. Begmatov E., Uluqov N. “Oʻzbek onomastikasi terminlarining izohli lugʻati. Namangan, 2006. -105 b
3. Е.В. Ворошиловой. Ономастикон города Канска как отражение истории и культуры народа:: дис. ... канд. филол. наук. Красноярск, 2007. 244 с.

FILOLOGIYA**ISTIQLOL DAVRI HIKOYALARI SYUJETIDA AN'ANA, YANGILIK
VA O'ZIGA XOSLIKLAR****(X. Do'stmuhammad ijodi misolida)**

**Sattorova Gulnoz,
O'zR FA O'zbek tili,
adabiyoti va folklori
institut katta ilmiy
xodimi,
filologiya fanlari
nomzodi**

UO'K 95(575.171)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammadning «Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi» hikoyasi misolida istiqlol davri o'zbek hikoyachiligida tarixiy haqiqatni badiiy aks ettirish tamoyillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xronikali syujet qurilishining qahramon xarakterini rivojlanishda ko'rsatish imkoniyatlari va asarning kompozitsion o'ziga xosliklari ilmiy asoslab berilgan.

Аннотация: В статье на примере рассказа Хуриида Дустмухаммада «Намаз Миркомилбая, оставшийся невосполненным» анализируются принципы художественного отражения исторической правды в узбекской новеллистике периода независимости. В исследовании научно обоснованы вопросы построения хронического сюжета, создания национального характера и концепции трагедии.

Annotation: The article analyzes the principles of artistic reflection of historical truth in Uzbek short stories of the independence period, focusing on Khurshid Dustmuhammad's story "Mirkonilbay's Missed Prayer". The research scientifically substantiates the issues of chronic plot structure, the creation of national character, and the concept of tragedy.

Kalit so'zlar: syujet, xronikali syujet, milliy xarakter, Mirkomilboy, istiqlol adabiyoti, Xurshid Do'stmuhammad, manqurtlik.

Ключевые слова: сюжет, хронический сюжет, национальный характер, Миркомилбай, литература периода независимости, Хуриид Дустмухаммад, манкуртизм.

Key words: plot, chronic plot, national character, Mirkomilbay, independence period literature, Khurshid Dustmuhammad, manqurtism.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda syujet turlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. D. Quronov ta'kidlashicha, syujetlar voqealarning o'zaro munosabatiga ko'ra xronikali (vaqt ketma-ketligi) va konsentrik (sabab-natija) turlarga bo'linadi. Xronikali syujet qahramon xarakterini rivojlanishda va davriy izchillikda ko'rsatish imkoniyati bilan ajralib turadi. Istiqlool davri hikoyalari syujetida ko'rinayotgan o'ziga xoslikdan biri shundaki, tarixiy voqelik, tarixiy shaxslar hayotini aks ettirish hikoyachilikning yetakchi tamoyillaridan biriga aylandi. Adabiyotshunos D.Quronovning ta'kidlashicha: "Syujetdagi voqealarning o'zaro munosabatiga ko'ra xronikali va konsentrik syujet turlari ajratiladi. Xronikali syujet voqealari orasida vaqt munosabati (A voqea yuz berganidan so'ng B voqea yuz berdi), konsentrik syujet voqealari orasida esa sabab-natija munosabati (A voqea yuz bergani uchun B voqea yuz berdi) yetakchilik qiladi. Kelib chiqishiga ko'ra xronikali syujetlar qadimiyroq sanaladi. Xronikali syujet qahramon taqdirini davriy izchillikda, uning xarakterini rivojlanishda ko'rsata olishi jihatidan ustunlik qiladi." [1.83]

X.Do'stmuhammadning «Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi» hikoyasi xronikali syujet asosiga qurilgan bo'lib o'tgan asrning 20 yillarida yashagan andijonlik tadbirkor hayoti aks ettirilgan.

Bu haqda yozuvchi sarlavha ostidan "tarixdan hikoyalar", degan izoh orqali ishora qiladi. Real tarixiy obrazlar, tarixiy voqealar, real tarixiy-milliy xarakterlar yaratilgan bu asarda adib mustamlaka millat va mustamlakachilarga mansub bir nechta obrazlarni yaratadi. Shu yo'l bilan u milliy xarakterning ko'plab qirralarini tasvirlaydi.

Xurshid Do'stmuhammadning «Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi» hikoyasi tarixiy voqelik va badiiy to'qima sintezi nuqtai nazaridan tadqiq etildi. Syujet unsurlari bo'lgan tugun, voqealar rivoji va kulminatsiyaning qahramon xarakterini ochishdagi roli tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil, tarixiylik va badiiy psixologizm metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hikoyada Mirkomilboy obrazi orqali murakkab milliy xarakter yaratilgan.

Syujet qurilishi: Asar xronikali syujet asosida qurilgan bo'lib, muallif uni «tarixdan hikoya» deb ishoralaydi. Xarakter qirralari: Qahramon tabiatidagi rostgo'ylik, adolatparvarlik va soddalik uning ham do'st, ham dushman o'rttirishiga sabab bo'ladi.

Ziddiyat: Mirkomilboyning ichki va tashqi ziddiyatlari uning millatparvarlik g'oyalari bilan to'qnashadi. U mustamlakachilar bilan munosabatda milliy manfaat yo'lida "quvlik" ishlatishga majbur bo'ladi.

Millatparvarlik: Qahramonning mardikorlikka olinayotgan yigitlarni qutqarib qolish uchun bor boyligini sarflashi uning asl qiyofasini namoyon etadi.

Mirkomilboy haqiqatda boyligi bilan nafaqat mahalliy aholi o'rtasida xorijda ham tanilgan. Boyligining ma'lum qismini o'z yurtdoshlari farovonligi uchun sarflaydi. U tabiatan o'ta rostgo'y odam. Shu bois ham «u jini suyganga ham, suymaganga ham dilidagini ayamay aytadi». Uning xarakteridagi rostgo'ylik bilan birga soddalik ham bor. Muallif Mirkomilboydagi bu xususiyatni shunday tasvirlaydi: «Surishtirib kelganda Mirkomilboy kimdan, nimani sir tutgan o'zi!.. Quv yoki makkor bo'lganida rahmatli otasining Makka va Madinada takya qurdirish niyatida o'ttiz ming tillo vasiyat qilib qoldirganini uezd hokimiga aytarmidi?! Soyasidan cho'chisa, hatto o'z pushti kamaridan bo'lgan o'g'il-qizlaridan hadik-xavotirda yashasa, yetti yot begona, buning ustiga g'ayridin Iskandarni (1901-1911 yil Orskdan kelib Mirkomilboyga go'mashtalik qilgan Aleksandr Timofeev - muallif izohi) o'ziga gumashta qilib olarmidi?!» Mirkomilboy xarakteridagi yana bir o'ziga xoslik uning adolatparvarligida ko'rinadi. U to'g'rilik, adolat yo'lida o'zining miskin millatdoshini ham ayamaydi. Ko'sak o'g'irlab kelayotgan ishchini ayamay tarsakilab yuboradi. Yaqin maslahatgo'yi Yoqubxo'janing e'tiroziga javoban: «Jo'jabirday jon bo'lsa oilasini o'g'irlik orqasidan boqqani ma'qulmi?!» deydi. Mirkomilboyning tavsiyasi bilan qozilik lavozimiga ega bo'lgan Temirhoji unga hadya sifatida zarbop to'n keltirganida, «Xushomadni bandaga emas, Xudoga qilinglar!» deya keskin gapiradi. Yoqubxo'ja aytmoqchi: «To'g'ri gapni gapiraman, deb dushman orttiradi». Badiiy asarda har doim tugun syujetning asosiy elimentlaridan sanaladi. Mazkur hikoyada ham asr konflekti Mirkomilboyning to'g'ri gapiraman, deb dushman orttirishidan boshlanadi. Asar voqealarining rivoji davomida bunday fe'l-atvoridan Mirkomilboyning o'zi ham ba'zan ruhiy, ba'zan zohiriy iztirob chekadi. Lekin uning xulosasi shunday: «Tabiatidagi kajbahslikdan qutulish fursati jon chiqar vaqtiga qoldi.»

Asardagi eng og'riqli nuqta — Mirkomilboyning fojiasi faqat tashqi dushman emas, balki ichki yemirilish bilan bog'liqligidir.

• G'iybat va hasad: Ubaydulla junfurushning uyidagi ziyofat tasviri orqali millatdoshlarning ichki fasodi va Mirkomilboyga bo'lgan yashirin adovati psixologik mahorat bilan chizilgan.

- Manqurtlik muammosi: Hikoyaning kulminatsion nuqtasi — Mirkomilboyning "manqurt" o'zbek askari bilan to'qnashuvidir. O'z otasining kimligini unutgan, ma'naviyatdan judo bo'lgan askarcha obrazi millat kelajagi uchun eng katta xavf sifatida talqin etiladi.

- Badiiy yechim: Qahramonning "tabiatidagi kajbahslikdan qutulish fursati jon chiqar vaqtiga qoldi" degan xulosasi asarning falsafiy yechimini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan voqealarning barchasi hikoyada boyning xotirasi tarzida beriladi. Shu yo'l bilan yana bir xarakterli xususiyat, aniqrog'i, millat fojiasining sababi ochiladi. Mirkomilboyning butun faoliyati millatdoshlarining manfaatiga qaratilgan. U o'z millatining boylariga qarz beradi, kambag'allari uchun zavod, hammom, kasalxona quradi. Chor hukumati tomonidan mardikorga olinayotgan o'zbek yigitlarini olib qolish uchun bor dunyosini to'kib soladi. Biroq, shuncha xizmatlari evaziga millatdoshlaridan faqat ta'nayu dashnomlar, g'iybatu yo'qotishlar oladi, xolos.

Mirkomilboy shaxsiyatidagi fojiaviy ulug'vorlik yaqqol namoyon bo'ladi. Mirkomilboy ziyofatga kirib kelgan dastlabki daqiqadayoq: "Derazaga yaqin o'tirgan Fofirjonning tusi o'zgaradi." Hoshimboy esa g'iybat eshigini baralla ochadi: "Zakot - farz! Zakotdan bo'yin tovlash benamozlikdan kam bo'lmagan gunohi kabir!" Bu gap zohiran jamoaga, botinan esa Mirkomilboyga qaratilgan.

Hikoyada syujet voqealari bosqichma-bosqich shu tariqa rivojlantirib boradi. Xuddi shu vaziyatda ham Mirkomilboyga o'z millatdoshlari pand beradi. Amaldor unga siyosat bilan o'ynashmaslikni, u haqda o'z yurtdoshlari bergan chaquvlar borligini ishora qiladi. Amaldor - Polkovnik Soshalskiyning ushbu so'zlari Mirkomilboyning atrofida qilargi, u ishongan, yaxshilik qilib jonini azobga qo'ygan millatdoshlariga nisbatan aybnoma bo'lib yangraydi: "E-e, janobi oliylari sartlarg'a-chi to'rt tanga bersangiz, Mirkomilboy ekanu, o'zining otasini sotadi!" Asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, undagi konflikt shu o'rinda yanada kuchayadi.

Mirkomilboy fojiasini keltirib chiqargan sabablardan yana biri millatning ayrim bolalari manqurtga aylangani deb talqin qilingan. Sho'rolar hokimiyati o'rnatilgach, Mirkomilboy inqilobiy tribunalga topshiriladi. Tribunal vakillaridan biri - rus, biri - o'zbek yigiti. Mirkomilboy g'amxo'rlik qilgan o'sha o'zbek yigitlaridan biri. Boy hadeb o'ziga inqilobiy tribunal chiqargan hukmni ro'kach qilayotgan bu o'zbek yigitidan otini so'raydi:

- Otangning otini bilasanmi?

- Otamning otini nima qilasiz surishtirib, baribir otilasiz!..” - javob beradi askar.

So‘ng Mirkomilboy undan tahorat uchun suv so‘raydi. O‘zbek askarining: “Nimalar deyapsiz, boy! Buyruq qiladigan davringiz o‘tdi. Endi po‘pisangiz ketmaydi. Tahoratni “ashyoqda” qilasiz” degan gaplaridan bir chetda tamaki chekib o‘tirgan g‘ayridin - o‘ris yigit tutoqib ketadi. Bu manqurt bolaga: “Odamni bolasimisan, mol?! O‘zingning sarting bo‘lsa, musulmon bo‘lsalaring, oxirgi iltimosini bajarsang o‘lib qolasanmi, enag‘ar,”-deb baqiradi. “Xo‘jasi” bergan bu dashnomdan “askarcha” qo‘rqib yerga o‘tirib qolayozdi. Mirkomilboy beixtiyor “Nahotki?” deya pichirladi. Bu bir kalimaning ostida boyning barcha alam va iztiroblari mujassam edi. Muallif bularning hammasini shu bir so‘zga yuklaydi. Hikoya oxirida ikki rakat namozini o‘qib ulgurmagan Mirkomilboyga qarata: “Bosar-tusarini yo‘qotgan o‘zbek askarcha ustma-ust tepki bosayotgan edi...” Mirkomilboyning “manqurt” askarcha bilan to‘qnashuvi hikoyaning eng kulminatsion nuqtasi sanaladi. Ayni shu nuqtada Mirkomilboy va askar, tarixiy voqelik va ijtimoiy muhit bilan ziddiyati o‘quvchini isyonga chorlaydi. “Kulminatsiya endi asar voqealarining yechimga tomon intilishini, bir tomonga hal bo‘lishini taqozo qiladi. Yechim syujet voqealari rivojining yakuni, ularning nihoyasida qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holatdir. Yechimda konfliktli holat, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar o‘zining badiiy yechimini topadi”[1.85].

“Tabiatidagi kajbahslikdan qutulish fursati jon chiqar vaqtiga qoldi.”

Hikoyada Mirkomilboy obrazi garchand tarixiy shaxs sifatida berilgan bo‘lsa ham, Chor istilosi va oktyabr to‘ntarishi sabab tanazzulga uchragan millat ramzi. Yozuvchi talqinida halol, adolatpesha, to‘g‘ri so‘z, ishbilarmon, millat ravnaqi uchun kurashuvchi, yurtparvar Mirkomilboy (ya‘ni millatni) fojiaga olib kelgan narsa zohiran mayda bo‘lib ko‘rinadigan hasad, g‘iybat, chaqimchilik, iymonsizlik, manqurtlik illatlarining ko‘payib ketishidir. Mustamlakaning boisi ham dushmanning zo‘rligi, ayyor yoki quvligi emas, millatni ichidan yemirgan ichki nizodir. Eng asosiysi, iymondan, sharqona axloqdan judo bo‘lish. “Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasida jamiyat fojiasi millat fojiasi sifatida talqin etiladi. Hikoyada o‘zbek millati kelajagi ona-otasining kimligini unutgan, ruhan, qalban mute, manqurtga aylangan “askarcha”ga qolganligi ko‘rsatib berilgan.

X. Do‘stmuhammad ushbu hikoyasida Mirkomilboy siymosida Chor istilosi davrida tanazzulga uchragan millat ramzini yaratgan. Adib syujet va

xarakter yaratishda tahliliy munosabatni birinchi planga chiqarib, kitobxonni millat taqdiri, iymon va axloq masalalari haqida mushohada yuritishga chorlaydi.

Ma'lumki, har bir ijodkor syujet yaratishda o'zi yaxshi biladigan, hayotda ko'rgan, kuzatgan, mukammal o'rgangan voqealarni asos qilib oladi. Qahramon tanlashda ham aynan shu yo'ldan boradi. Hikoyalarda voqealar tafsilotidan ko'ra unga nisbatan adibning tahliliy munosabati ustunlik qiladi. Yozuvchining ayrim hikoyalarida syujet voqealari keskin rivojlanadi, u kitobxonning qiziqishini oshiradi, unda syujet unsurlari aniq tasvirlanadi, ayniqsa yechim salmoqli ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.Quronov Adabiyot nazariyasi asoslari Toshkent. Universitet nashriyoti 2018-yil 85-bet
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sujet>
3. X.Do'stmuhammad hikoyalar www.ziyouz.uz

FILOLOGIYA**FRAZEOLOGIZMLARNING AMALIY KUCHI VA ULARNING
KOMUNIKATIV FUNKSIYALARI****UO‘K 95(575.171)**

Niyazmetova Dildora,
Urganch innovatsion
universiteti
dotsenti. PhD.



Atabayeva Shahnoza,
Urganch innovatsion
universiteti
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifat komponentli frazeologizmlarning amaliy kuchi va ularning turli kommunikativ funksiyalarni bajarishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy yondashuvda olib borilib, frazeologizmlarning semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlari ochib beriladi. Natijada, sifat komponentining frazeologik birliklarning emotsional, baholovchi va madaniy yuklamasini kuchaytiruvchi asosiy omil ekani asoslanadi.

Аннотация: В данной статье анализируется прагматическая сила фразеологических единиц с компонентом прилагательного и их роль в выполнении различных коммуникативных функций. Исследование проводится в сравнительном аспекте на материале английского и узбекского языков, раскрывая семантические, прагматические и культурные особенности фразеологизмов. В результате обосновывается, что компонент прилагательного существенно усиливает эмоциональную, оценочную и культурную нагрузку фразеологических единиц.

Annotation: This article analyzes the pragmatic force of adjective-based phraseological units and their role in performing various communicative functions. The study is conducted using a comparative approach based on English and Uzbek language materials, revealing semantic, pragmatic, and cultural features of phraseological expressions. The results show that the adjective component significantly enhances the emotional, evaluative, and cultural load of phraseological units.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, amaliy kuch, sifat komponenti, pragmatika, kommunikativ funksiya, madaniy konnotatsiya, qiyosiy tahlil, semantika, diskurs, til va madaniyat.

Ключевые слова: фразеологизм, прагматическая сила, компонент прилагательного,

прагматика, коммуникативная функция, культурная коннотация, сравнительный анализ, семантика, дискурс, язык и культура.

Key words: *phraseological unit, pragmatic force, adjective component, pragmatics, communicative function, cultural connotation, comparative analysis, semantics, discourse, language and culture.*

Frazeologizmlar tilning boyligi bo‘lib, nafaqat til birligi, balki madaniyat, tarix va jamiyat tafakkuri aksi va muloqotdagi eng asosiy vositalardan biridir. Ammo, ularning muhim jihati shundaki, ular ma’lum bir muloqot holatida faol va maqsadli kommunikativ vazifalarni bajarish xususiyatiga ega. Bu xususiyatni olimlar “amaliy kuch” deb atashadi. Sifat komponentli frazeologizmlarning amaliy kuchi tushunchasi til birligining faqat mazmunni ifodalash emas, balki ma’lum bir ijtimoiy kontekstda aniq maqsadli ta’sir o‘tkazish xususiyatini anglatadi, yani ma’lum bir kommunikativ vazifani bajarishidir. Buning nazariy asoslarini turli yo‘nalishdagi olimlarning tadqiqotlarida topish mumkin. Masalan, o‘zbek tilshunosi D. Ashurova o‘z tadqiqotlarida frazeologik birliklarning til tizimidagi o‘rni haqida fikr yuritarkan, ularni oddiy lug‘aviy boylikdan ko‘ra, undan ham muhimroq – xalqning ruhiy dunyosini, tarixiy xotirasini va ijtimoiy me’yorlarini aks ettiruvchi kuchli kommunikativ vosita sifatida ta’riflaydi¹. Uning ta’kidlashicha, sifat komponentli frazeologizmlar muloqot jarayonida nafaqat gapiruvchining tilagini ifodalaydi, balki bu iboraga singdirilgan madaniy kod – halollik, poklik, samimiylik kabi tushunchalar orqali o‘ziga xos ma’naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasini bajaradi. Shunday qilib, Ashurovaning qarashlariga ko‘ra, frazeologizmlarning amaliy kuchi ularning nutqda oddiy muloqot vositasi bo‘lishdan tashqari, jamiyat qadriyatlarini yashirin tarzda uzatish va ma’naviy ta’lim berishdagi roli bilan kommunikativ funksiyasi belgilanadi. Xalqaro miqyosda, Anna Wierzbickaning madaniyatlararo pragmatika sohasidagi ishlari frazeologizmlarning amaliy kuchini tushunishga yana bir muhim nuqtai nazarni taklif etadi. Uning “madaniy skriptlar” (cultural scripts) konsepsiyasiga ko‘ra, har bir an’anaviy madaniyat o‘ziga xos nutqiy va xulq-atvor me’yorlariga ega bo‘lib, frazeologik birliklar ana shu me’yorlarning lingvistik ifodasidir². Masalan, ingliz tilidagi “break a leg” iborasi teatr madaniyatida shakllangan o‘ziga xos “omad

¹ D. Ashurova. O‘zbek tilining frazeologik tizimi va uning lingvokulturologik xususiyatlari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2012. – B. 56

² Wierzbicka, Anna. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. 2nd ed. Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. – p 15

tilash” senariysining ajralmas qismidir. Wierzbicka fikricha, iboraning amaliy kuchi uning ma’lum bir madaniy kontekstda qanchalik o’z vazifasini aniq va samarali bajarishida, ya’ni ma’lum bir illokutiv maqsadga (bu holda omad tilashga) qanchalik mos kelishidadir. Demak, uning nuqtai nazaridan, amaliy kuch iboraning mazmuni emas, balki u orqali amalga oshiriladigan madaniy jihatdan kodlangan harakatdir. Yana bir olim, Mira Arielning pragmatika va grammatika o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganishdagi ishlari frazeologizmlarning amaliy kuchini yana uchinchi tomondan – uning ijtimoiy me’yorlar bilan uzviy aloqasi nuqtai nazaridan yoritadi. Arielning ta’kidlashicha, “white lie” kabi ibora yolg’onning ma’lum bir turini ijtimoiy jihatdan maqbul va hatto kerakli deb hisoblash normalarini aks ettiradi¹. Bunday frazeologizmlarni qo’llash orqali gapiruvchi nafaqat ma’lumot yetkazadi, balki nozik vaziyatlarda boshqalarning his-tuyg’ularini asrab-avaylash, ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish kabi murakkab pragmatik vazifalarni uddalaydi. Ya’ni, uncha ko’zga ko’rinmas ijtimoiy kelishuvlar tizimi (kinga, qachon, qanday yolg’on aytish mumkin) frazeologik ibora orqali o’z ifodasini topadi va shu orqali o’zining amaliy kuchiga ega bo’ladi. Ushbu olimlarning qarashlarini umumlashtirganda, frazeologizmlarning amaliy kuchi ularning bir nechta o’zaro bog’liq jihatlarida namoyon bo’lishi mumkinligini ko’rish mumkin. Ashurovaning yondashuvi bu kuchning madaniy-ma’naviy va o’qituvchi jihatini, Wierzbickaning kontseptsiyasi madaniy-harakat tomonini, Arielning tahlillari ijtimoiy-funksional aspektini ochib beradi. “Qora kun”, “red herring” yoki “crystal clear” kabi iboralar turli kontekstlarda qanday qilib bir vaqtning o’zida ma’lumot yetkazish, his-tuyg’uni ifodalash, tinglovchini yo’naltirish va madaniy koddan xabar berish kabi bir qator vazifalarni bajarishi – ularning shu jihatlardagi o’zaro bog’liq amaliy kuchidir. Bundan tashqari, iboralarning tarkibidagi sifat komponenti (“oq”, “qora”, “crystal”, “red”) ham ushbu kuchni kuchaytiradi, chunki bu sifatlar lug’aviy ma’noga nafaqat baho, balki chuqur madaniy va hissiy konnotatsiyalar qo’shib, iboraning umumiy kommunikativ salohiyatini oshiradi.

Ushbu tadqiqot frazeologizmlarning, xususan, sifat komponentlilarining, turli kommunikativ funksiyalarni bajarishdagi roli va ularning amaliy kuchini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy asosini G. Rundblad va D.B. Kronenfeld, M.K. Nurmonov, M. Ariel, S.C. Levinson kabi olimlarning pragmatika va madaniyatshunoslik sohasidagi ishlari tashkil etadi. Asosiy maqsad

¹ Ariel, Mira. *Pragmatics and Grammar*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – B. 146

– ingliz va o‘zbek tilidagi sifat komponentli frazeologizmlarning semantik tarkibi, madaniy konnotatsiyalari va turli diskurslardagi qo‘llanilishini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning amaliy kuchini va bu kuchning turli kommunikativ funksiyalar orqali qanday namoyon bo‘lishini ochib berishdan iborat.

Ushbu ilmiy maqolada quyidagi usullardan foydalanildi:

Qiyosiy-tahliliy usul: Ingliz va o‘zbek tillaridagi xos frazeologik birliklar (masalan, “red herring” va “qora kun”) o‘rtasidagi struktura, ma’no va funksional o‘xshashlik va farqlar tahlil qilindi.

Deskriptiv tavsiflash: Har bir iboraning lug‘aviy ma’nosi, tarkibidagi sifat komponentining rolini, uning kuchaytiruvchi va konnotativ qiymatini aniqlash.

Kontekstual tahlil: Frazeologizmlarning turli nutqiy vaziyatlarda (sud jarayoni, siyosiy nutq, badiiy matn, oilaviy suhbat, diniy xutba, ish muhiti) qanday qo‘llanilishi va qanday kommunikativ vazifa bajarishi o‘rganildi.

Manbalarni tahlil qilish: Nazariy asos sifatida ilmiy adabiyotlar (Vierzbicka, Rundblad & Kronenfeld, Nurmonov, Ashurova), frazeologik va izohli lug‘atlar, shuningdek, badiiy matnlar (masalan, Abdulla Qahhorning “Sinchalak” hikoyasidan parchalar) material sifatida o‘rganildi.

Frazeologizmlarning amaliy kuchi tushunchasi. Frazeologizmlarning amaliy kuchi deyilganda, ularning faqat ma’noni yetkazish emas, balki muayyan vaziyatlarda aniq maqsadli vazifalarni (ogohlantirish, tilak bildirish, his-tuyg‘uni ifodalash, manipulyatsiya qilish, madaniy kodni uzatish) bajarish xususiyati tushuniladi. Bu tushuncha A. Wierzbickaning “madaniy ssenariylar” g‘oyasiga mos keladi: har bir madaniyat o‘ziga xos muloqot qoidalariga ega bo‘lib, frazeologizmlar bu qoidalarni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biridir. Frazeologizmlar tarkibida sifat komponentining rolini o‘rganadigan bo‘lsak, o‘ragishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, frazeologizmdagi sifat komponenti uning kommunikativ kuchini keskin oshiradigan asosiy omillardan biridir. Sifat nafaqat tavsiflaydi, balki baholaydi, emotsional va madaniy yuklamani kuchaytiradi.

“Crystal clear”: Bu erda “crystal” (kristal) sifatining qo‘llanilishi nafaqat “juda aniq” ma’nosini, balki shaffoflik, poklik, qimmatlilik konnotatsiyalarini qo‘shadi. Shu sababli u sud yoki ilmiy muhitda fikrning ishonchliligini va gapiruvchining jiddiyligini oshirish uchun ishlatiladi.

“Red herring”: “Red” (qizil) diqqatni tortuvchi, signal rangidir. Bu ibora sudda, siyosiy bahsda diqqatni chalg‘itishning ataylab, xavfli va manipulyativ taktikasi ekanligini ta’kidlaydi.

“White lie”: “White” (oq) sifatining ramziy ma’nosi (poklik, zararsizlik) bu yolg‘onni ijtimoiy jihatdan maqbul, boshqalarning his-tuyg‘ularini himoya qilish uchun zarur deb ko‘rsatadi.

“Sour grapes”: “Sour” (nordon) sifatining qo‘llanilishi nafaqat ta’mini, balki ichki norozilik, rashk va o‘zini oqlashning psixologik “nordonligini” ifodalaydi.

“Qora kun” (M.K. Nurmonov): “Qora” sifatining ma’nosi kontekstga qarab o‘zgarib turadi: diniy nutqda – ma’naviy zulmat va gunoh; oilaviy suhbatda – qiyinchilik va sinov; she’riyatda – falsafiy qayg‘u va iztirob; ish muhitida – muvaffaqiyatsizlik va halollik bilan tan olish. Bu iboraning amaliy kuchi uning shu qadar moslashuvchan bo‘lishidadir.

“Oq yo‘l” bu iborada “oq” sifatining qo‘llanilishi uni oddiy “xayrli yo‘l” tilagidan ko‘ra chuqurroq ma’noga olib chiqadi. “Oq” – poklik, halollik, samimiylik, yaxshi niyat ramzidir. Shuning uchun bu ibora nafaqat safar tilagidir, balki axloqiy jihatdan yo‘l-yo‘riq, madaniy meros va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashdir. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" asaridagi "oq yo'l" iborasining qo‘llanilishi bu iboraning nafaqat tilak, balki murakkab kommunikativ vosita ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu kontekstda ibora: Rasmiy munosabatlarni ifodalaydi. Ijtimoiy masofani saqlaydi. Qahramonlar o‘rtasidagi psixologik holatni ochib beradi. Madaniy normalarning shakliy bajarilishini ko‘rsatadi. Adabiy matnning mazmunini boyitadi. Bu misol frazeologizmlarning kommunikativ kuchining ularning lug‘aviy ma’nosidan tashqarida ham namoyon bo‘lishini, kontekst, vaziyat va qahramonlar munosabatiga bog‘liq holda turli ma’nolarni ifodalashi mumkinligini ko‘rsatadi. “Yorqin misol”, “ochiq qo‘l”, “tiniq fikr” kabi iboralarda ham “yorqin” (namuna sifatida ko‘zga ko‘ringan), “ochiq” (saxovatli va samimiy), “tiniq” (mantiqiy va chalg‘itishsiz) sifatlari asosiy ma’noga ijobiy baho va madaniy me’yorlar qo‘shadi.

Sifat komponentli frazeologizmlarning kommunikativ funksiyalari borasida o‘rganishlarimizdan quyidagicha tahlillar qildik. Frazeologizmlarning amaliy kuchi ularning bajaradigan ko‘p qirrali kommunikativ funksiyalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu funksiyalar R. Jakobsonning aloqa modeliga mos ravishda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Referential (ma’lumot yetkazish) funksiya: “Clear evidence” (sud), “aniq ma’lumot” (ta’lim) – faktlarni aniq va ishonchli tarzda yetkazish.

Emotiv va ekspressiv (ifodalovchi) funksiya: “Bitter disappointment”, “achchiq haqiqat” – kuchli salbiy his-tuyg‘ularni (umidsizlik, og‘riq) ifodalash.

Konativ (ta'sir etuvchi) funksiya: “Break a leg” (omad tilash), “Qattiq soʻz bilan gapirma” (ogohlantirish), “Qatʼiy talab” (buyruq) – tinglovchining holatiga yoki xatti-harakatiga taʼsir oʻtkazish.

Fatika (aloqa oʻrnatuvchi) funksiya: “White lie” – munosabatlarni saqlab qolish, “Oq yoʻl” – mehribonlik va hurmat koʻrsatish orqali aloqa oʻrnatish.

Metalingvistik (til haqida gapirish) funksiya: “That’s just a red herring” – muloqot jarayonining oʻziga sharh berish, uning yoʻnalishini toʻgʻrilash.

Madaniy-kodlovchi funksiya: “True blue” (britancha sadoqat), “Oq yoʻl” (oʻzbekcha halollik), “Koʻk osmon” (erkinlik ramzi) – milliy madaniy qadriyatlarni, dunyoqarashni va identifikatsiyani uzatish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, frazeologizmlar – ayniqsa sifat komponenti bilan boyitilganlari – oddiy soʻz birikmalari emas, balki kuchli amaliy vositalardir. Ularning kuchi lugʻaviy maʼnoda emas, balki turli nutqiy diskurslarda qanday qoʻllanilishi, qanday psixologik taʼsir oʻtkazishi, qanday ijtimoiy yoki madaniy maqsadlarga xizmat qilishida va turli kommunikativ funksiyalarga egaligida va pragmatik xususiyatlarga egaligidadir.

“Qora kun” iborasining diniy va sheʼriy kontekstdagi farqli ishlatilishi, yoki “red herring” iborasining sud va siyosatdagi strategik roli shuni koʻrsatadiki, frazeologizmlarning haqiqiy qudrati ularning kontekstual moslashuvchanligi va funksional koʻp qirraliligi bilan belgilanadi. Sifat komponenti (qizil, oq, qora, tiniq, yorqin) bu qudratni yanada kuchaytiradi, chunki u maʼnoga yangi qatlamlar, emotsional va madaniy yuklamalar qoʻshadi.

Shunday qilib, frazeologizmlarni toʻliq oʻrganish va samarali qoʻllash (yoki tarjima qilish) uchun nafaqat ularning lugʻaviy maʼnosini, balki ularning amaliy kuchini, yaʼni turli vaziyatlarda bajaradigan aniq kommunikativ vazifalarini va madaniy-maʼnaviy mazmunini chuqur tushunish zarur va dolzarb vazifadir. Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat nazariy tilshunoslikda, balki amaliy sohalar – chet tilini oʻqitish, madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va hatto oʻzaro madaniy kommunikatsiyada qimmatli material sifatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Ariel. M. *Pragmatics and Grammar*. Cambridge: Cambridge University Press. 2008.
2. Ashurova. D. O'zbek tilining frazeologik tizimi va uning lingvokulturologik xususiyatlari. Toshkent: Fan nashriyoti. 2012.
3. Kronenfeld, David B. & Rundblad, Gabriella. "Folk-Etymology: Haphazard Perversion or Shrewd Analogy?". *Journal of Pragmatics*, 2000.
4. Levinson, Stephen C. (2000). *Presumptive Meanings: The Theory of Generalized Conversational Implicature*. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Nurmonov, M. K. (2015). "Frazeologizmlarning kommunikativ kuchi". O'zbek tili va adabiyoti, 2015-3:
6. Wierzbicka. A. *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction* (2nd ed.). Berlin: Mouton de Gruyter. 2003.
7. *American Heritage Dictionary of Idioms*. Boston: Houghton Mifflin Harcourt. 1997.
8. *Cambridge Idioms Dictionary*. Cambridge: Cambridge University Press. 2006.
9. *Collins Cobuild Idioms Dictionary*. London: Harper Collins. 2002.
10. *Longman Idioms Dictionary*. Harlow: Pearson Education. 2000.
11. *Oxford Dictionary of Idioms*. Oxford: Oxford University Press. 2004.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildlik). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006–2008.
13. Raxmatullayev, Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. 1978.
14. To'xtaboyev, U. O'zbek xalq maqollari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010.

FILOLOGIYA

META TAHLIL HAMDA SEO TADQIQOT USULLARINING VIZUAL MEDIAGA INTEGRATSIYASI

UO‘K 95(575.171)

Nurutdinova
Madinabonu
Filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
fanlari doktori,
dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jurnalistika va media tadqiqotlarida meta tahlil (meta-analysis) hamda SEO (Search Engine Optimization) usullarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, onlayn kontentning samaradorligini oshirishda SEO tahlil instrumentlari (istio, advego, text.ru va b.) va ularning semantik yadro, matn o‘ziga xosligi hamda zichligi kabi mezonlari o‘rganilgan.

Аннотация: В этой статье рассматривается роль и значение методов метаанализа (метаанализа) и SEO (поисковой оптимизации) в современной журналистике и медиа-исследованиях. А также инструменты SEO-анализа (istio, advego, text.ru и т.д.) и были изучены их критерии, такие как семантическое ядро, уникальность текста, а также его плотность.

Annotation: This article explores the role and significance of meta-analysis and SEO (Search Engine Optimization) methods in contemporary journalism and media studies. Additionally, it examines SEO analysis tools (such as istio, advego, and text.ru) and their criteria, including semantic core, textual identity, and density.

Kalit so‘zlar: meta tahlil, SEO, media landshaft, onlayn jurnalistika, semantik tahlil, kontent samaradorligi, raqamli media, statistik sintez.

Ключевые слова: мета-анализ, SEO-оптимизация, медиаландшафт, онлайн-журналистика, семантический анализ, эффективность контента, цифровые медиа, статистический синтез.

Key words: meta-analysis, SEO, media landscape, online journalism, semantic analysis, content effectiveness, digital media, statistical synthesis.

Bugungi kunda sohalar va fanlarda ma'lum bir mavzu yoki muammoni o'rganishga ixtisoslashtirilgan tadqiqotlar bir biriga juda o'xshashligini qayd etish lozim. Bunday tadqiqotlarning natijalari turli xil bo'lishi va yangi munozarali nazariyalarni ilgari surishi mumkin. Meta tahlilning ichki axborotlarni o'rganish strukturasi juda kichik va izchil. Aksariyat ilmiy tadqiqotlarning metodologiya qismi aynan meta tahlillarga ixtisoslashib amalga oshirilmoqda. Fanda meta tahlillarning bir qancha turlari va yangi o'ylab topilgan yo'nalishlari mavjud. Ammo mediani o'rganuvchi statistik meta analiz tarkibiy murakkab tur sifatida tahlillarning asosiy negizi hisoblanadi. Sababi barcha nazariy tadqiqotlardan keng qamrovli statistik ko'rsatgichni o'rganish shart.

Meta tahlil tushunchasi jurnalistika kontekstini o'rganishda V.M. Tereshenko, M.M. Lukina, O. Rebrova, A. D. Donskoy, O.B. Dudareva, S.A. Laryushkin singari tadqiqotchilar matbuot konteksti, til tipologiyasi va matn tahlili bilan shug'ullangan. Jumladan, Tim Dyuyerning SMM strategiyalar ishlab chiqish bo'yicha bir qator ilmiy adabiyotlari mavjud.

Meta analiz ingliz tilidagi "meta analysis" so'zidan olingan bo'lib, ilmiy metodologik tahlil usuli hisoblanadi¹. Odatda meta tadqiqotlarda bir necha tahlil natijalari, ularning monitoring ko'rsatkichlari bo'ladi. Meta analiz bu turli, ammo mavzusi yoki tarkibi o'xshash ma'lumotlarning statistik sintezi, ya'ni taqqoslanuvdir. Masalan, **tibbiyot fanlarida** metatahlil dalillarga asoslangan tibbiyot konsepsiyasiga muvofiq faqat klinik epidemiyalogiya tamoyillariga ko'ra olib boriladigan, tizimli va tasodifiy xatolarni (statistik tahlil yordamida) kamaytirishga qaratilgan klinik tadqiqotlar natijasi hisoblanadi. Geografik metaanaliz bu – turli hududiy joylashuvlar va obyektlarning ilmiy farazlari hamda asoslarini tekshirish uchun statistik tahlildir². Umumiy meta analizning tarkibiy qismi quyidagicha izohlanadi:

¹ <https://ru.wikibrief.org/wiki/Meta-analysis>

² <file:///C:/Users/User/Downloads/osobennosti-geograficheskogo-meta-analiza.pdf>



Yuqoridagi jadvalga ko‘ra meta analizlar umumiy tizimli tahlillarning tarkibiy qismi sifatida tadqiqotlarning birlamchi singulyar ma’lumotlaridan foydalanadi, yoki biror masala bo‘yicha chop etilgan ikkilamchi tadqiqotlar natijalariga prognoz berish uchun umumlashtiriladi. Ilmiy jurnalistikada meta tahlillar empirik tadqiqotlardagi tizimli ko‘rib chiqishning tarkibiy komponentidir. Aynan “meta analiz” atamasi 1976-yili iqtisodchi Jin Glass tomonidan o‘ylab topilgan va fanga yangi yo‘nalish sifatida kiritilgan¹.

Tadqiqotlar yoki ma’lum bir izlanishlar olib borishda metatahlil tizimli ko‘rib chiqish, dalillarni aniqlash va tanqidiy baholashni nazarda tutadi. Xolislik nuqtayi nazaridan barcha hisob-kitoblarda aniqlik mezoniga tayanish kerak. Masalan:

1. Tadqiqotdagi asosiy savollarni shakllantirish;
2. Adabiyotlarni tanlash va izlab topish;
3. Tadqiqot usulini tanlash (qaysi tadqiqot asosiga tayanilishi nazarda tutilmoqda);
4. Meta analiz turini belgilash; aniq bir xususiyatlarni o‘rganish yoki taxminiy prognoz va natijalarni baholash orqali xulosalar berish.

Mediani o‘rganishga ixtisoslashgan meta tahlillar ikki turdagi tadqiqotlarga tayanadi:

1. Tizimli sharhlar. Ushbu tadqiqot turi o‘zida statistik hamda didaktik tizimli tahlil orqali ma’lumotlarni qamrab olib, ko‘proq fanda mavjud gipotezalarni o‘rganish va xulosalar berishga qaratiladi.
2. Statistik tahlillar. Meta tahlilning ikkinchi statistik turida ko‘proq empirik, sotsial hamda deduktiv analizlarni qamrab olib, ko‘proq keyingi tadqiqotlar uchun

¹ Owen A. B. [«Karl Pearson’s meta-analysis revisited»](#). // *Annals of Statistics* (англ.)рус., 2009. 37 (6B). p. 3867—3892.

prognoz berishni nazarda tutadi. Medianing metatahlili bu mavjud jarayonni adabiyotlardan izlash orqali ko‘proq asos yaratishni ifodalaydi. Buni quyidagi tartibda ifodalash mumkin:

1-jadval



Yuqorida taqdim etilgan jadvalga ko‘ra mediani o‘rganish borasida amalga oshirilgan meta tadqiqotlarning xulosalari yuqori standart natijalar olish hamda aniq prognozlar taqdim etishda juda qo‘l keladi. Mediani o‘rganishga ixtisoslashtirilgan metaanalizlarda aniq strategiyalarni ishlab chiqish orqali xavf nuqtasi bartaraf qilinadi.

Mediani metatahlil qilishdagi asosiy tadqiqot turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. **Kumulyativ** tadqiqot turida medianing kontenti ma'lumotlar vaqtga qarab taqsimlanadi, ya'ni obyekt ma'lum bir vaqt mobaynida kuzatilib, undagi o'zgarishlar, qo'shimcha o'rganiladigan syujetlar ham umumiy xulosaga qo'shib boriladi. Misol uchun eng so'nggi tadqiqot sifatida "The New York times" tadqiqoti uchun so'nggi 2021–2024-yildagi faktik materiallar tanlab olingan¹.

2. **Ko'p omilli** tadqiqotga ko'ra, obyektidagi eng qiyin vaziyatlar yoki chuqur o'rganilishi kerak bo'lgan muammolar tahlilga tortiladi. Masalan, obyekt

¹ <https://mediascope.net/services/media/media-audience/internet/information/>

– biror bir sayt. Bunda obunachilarning kamligi yoki saytning yetarlicha ommabop emasligi muammo tariqasida olinadi.

Bugungi kunda kontentlarni tahlil qilish usullari ko‘proq marketing maqsadlarida qo‘llanilmoqda. SEO ingliz tilidagi “Search Engine Optimization” birikmasining qisqartmasi bo‘lib, media kontentning semantik tahlili ma’nosini beradi¹.

Odatda, auditoriya internetda biror ma’lumot yoki mavzuni izlayotgan bo‘lsa, odatda, qidiruv tizimi taqdim qilgan boshlang‘ich birinchi, ikkinchi yoki uchinchi manbani afzal ko‘radi². Demak, SEO tahlillar matnning sifatini baholash va auditoriya tomonidan o‘qilish darajasini baholashga xizmat qiladi.

Reklama berishda esa ko‘proq auditoriyani targetting qilish, o‘rganish, kuzatish nazarda tutiladi. Masalan, bugungi kunda mobil foydalanuvchilar o‘rtacha 8 soat kunlik vaqtini internet faol follover (Follower) sifatida o‘tkazmoqda. Mazkur faollikning 56% ijtimoiy tarmoqlar, 14% videoxostinglar, 5% turli kiber o‘yinlar, 1% xarid, 2% boshqa turdagi ko‘ngilochar kontentlarga sarflanadi³.

Talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma ko‘r⁴, tarmoq foydalanuvchilarining 47%ini erkak hamda 53%ini ayol (18-27 yosh oralig‘idagi) respondentlar tashkil qiladi. Respondentlarda o‘rtacha kunlik foydalanish 6-8 soatni, haftalik foydalanish davomiyligi esa 67-80 soatni tashkil qilgan. Auditoriyaning 71%i mobil formatdagi axborot qabul qiluvchilar bo‘lib, ular quyidagi axborot manlaridan foydalangan:

- Brauzerlar (Safari, Google chrome, Yandex, yahoo, Opera, edge, firefox, atom, brave, thorium, duckduchgo);
- Videoxostinglar (YouTube, vimeo, dtube, vevo, google drive, tik tok, instagram, dailymotion, yandeks dzen, rutube);

¹ <https://searchengineland.com/guide/what-is-seo>

² <https://workspace.ru/blog/seo-analiz-chto-eto-i-kak-provesti/>

³ <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/3101/>

⁴ муаллифнинг шахсий кузатув сўровномалари асосида

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, SEO tahlillardan foydalanish va mazkur asoslarga 100 foiz tayanish imkonsiz. Zero muallif aynan internet istayotgan matnlarni emas, aksincha ijodiy erkinlikni tanlaydi. Shu bois mazkur turdagi tahlillarni umumiy baholov qiymati sifatida qabul qilish to‘g‘riroq bo‘ladi. Aniq tahlillarga asoslangan matnni to‘laqonli formatlarga moslab yozish juda mushkul. Bunda muallifning qalami va o‘z pozitsiyasi bo‘lishi shart. Tahlillarni qo‘shimcha tavsiya sifatida qabul qilish maqsadaga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Nurutdinova M. Ch. Multimedaviy jurnalistikada kontent tahlil. Monografiya. –T.: “ILM-ZIYO-ZAKOVAT” nashriyoti, 2025.
2. Муминов Ф. Метод журналистики и методы деятельности журналистов. – Т.: Университет, 1998.
3. Винер Н. Кибернетика и общество. – М.: Наука, 1958. – 128 с.
4. Мельник Г. Общение в журналистике: секреты мастерства. 2-е изд., перераб. – СПб.: Питер, 2008. – 235 с.
5. Saidov H., To‘xliyeva N. Reportyorlik mahorati: O‘quv qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 120 b.
6. Gumerman, Lisa J. Standards of Online Journalism: If and how publications use transparency, interactivity and multimedia. – Ohio University / 2010. http://rave.ohiolink.edu/etdc/view?acc_num=ouhonors1275667944.
7. Ford H. Hutchinson Newsbots that mediate journalist and audience relationships Algorithms, Automation, and News, Routledge (2021), P. 52;

FILOLOGIYA**IJOBIY ISTAK BILDIRUVCHI BIRLIKLARNING STRUKTURAL
XUSUSIYATLARI HAQIDA****UO‘K 95(575.171)**

**Jumaboyeva Aziza,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
doktoranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili va uning Xorazm hududidagi shevalarida faol qo‘llanuvchi ijobiy istak bildiruvchi lisoniy birliklar (duo, olqish, tilak, nutqiy etiketlar)ning leksik-morfologik, sintaktik va frazeologik tuzilishi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Аннотация: В данной статье в научно-теоретическом аспекте исследована лексико-морфологическая, синтаксическая и фразеологическая структура активно используемых в узбекском языке и его хорезмских говорах языковых единиц, выражающих позитивные пожелания (благословения, благопожелания, напутствия, речевой этикет).

Annotation: This article provides a scientific and theoretical study of the lexical-morphological, syntactic, and phraseological structure of linguistic units expressing positive wishes (blessings, well-wishings, greetings, and speech etiquette) that are actively used in the Uzbek language and its Khorezm dialects.

Kalit so‘zlar: ijobiy istak, struktural tadqiq, sintaktik qolip, leksik-semantik tuzilish, pragmatika,

Ключевые слова: позитивное пожелание, структурное исследование, синтаксическая модель, лексико-семантическая структура, прагматика,

Key words: positive wish, structural study, syntactic pattern, lexical-semantic structure, pragmatics.

Jahon tilshunosligida inson omili va uning nutqiy faoliyatini tadqiq etish antropotsentrik paradigmaning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Olamning lisoniy manzarasida so‘zlovchining ichki kechinmalari, ezgu niyatlari va muloqot madaniyati ko‘proq ijobiy istak bildiruvchi birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida xohish-istak kategoriyasi konseptual va pragmalingvistik aspektda turli tadqiqotlar obyektiga aylangan bo‘lsa-da, ushbu

birliklarning sof struktural xususiyatlari, ya'ni ularning leksik, morfologik va sintaktik sathlarda qanday shakllanishi masalasi to'liq ochib berilmagan.

Ma'lumki, xohish-istak konseptlari tilning modallik tizimida markaziy o'rin tutadi hamda so'zlovchining voqelikka nisbatan sub'ektiv munosabatini ifodalashda muhim vazifani bajaradi¹. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va kundalik muloqotning eng xarakterli xususiyatlarini o'zida jamlagan ijobiy istak birliklari (duolar va olqishlar) asrlar davomida sayqallanib, o'ziga xos barqaror lisoniy strukturaga ega bo'lgan². Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Xorazmdagi o'zbek shevalari misolida ijobiy istak birliklarining struktural modellarini kompleks tadqiq etishdan iborat.

Ijobiy istak birliklarining morfologik strukturasi tahlil qilinganda, ular asosan fe'ning buyruq-istak mayli affikslari orqali shakllanishi ko'zga tashlanadi. Adabiy tilda bunday birliklar *-sin*, *-sinlar*, *-gay*, *-gaysan* kabi qo'shimchalar yordamida yasalsa, shevalarda ularning o'ziga xos fonetik-morfologik variantlari faol ishlatiladi.

Istak mazmunidagi lisoniy birliklarning leksik sathdagi tuzilishi tayanch so'z va ko'makchi yoki yasovchi morfemalarning birikuvi asosida hosil bo'ladi. Masalan, an'anaviy to'y va oilaviy marosimlarda ishlatiladigan iboralarda tayanch leksemaning semantikasi markaziy rol o'ynaydi. Bu borada turli hududlardagi dialektal xususiyatlarni kuzatish mumkin. Xorazm qipchoq shevalari leksik-grammatik sathda o'zining qadimiy turkiy qatlamini saqlab qolganligi sababli, istak birliklarining morfologik strukturasi ham o'ziga xoslik namoyon bo'ladi³. Masalan, dala yozuvlarida qayd etilgan quyidagi istak birligini olib qaraylik: *Tapqanin jaxshi guna, toylara buyurg'ay*⁴. Ushbu birlik strukturasi *topgan* (moddiy boylik), *yaxshi kun*, *to'y* leksik asos sifatida; kelasi zamon va istak mazmunini ifodalovchi qadimiy turkiy *-g'ay* affiksining saqlanishi (*buyurg'ay*). Bu yerda fe'ning struktural yasalishi [o'zak/negiz + buyruq-istak mayli shakli] morfologik modelida shakllangan. Shuningdek, hududiy nutqiy etiketlarda morfologik assimilyatsiya hodisasi istak birligining tashqi

¹ Umarov K. J. O'zbek tilida xohish-istak kategoriyasining ifodalanishi va uning lingvokulturologik aspekti: Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Andijon, 2023. –B. 78.

² Bazarova M. M. O'zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari (duolar va nutqiy etiketlar asosida): Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2007. –B. 3.

³ Alimova Sh. M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. Monografiya. –Urganch: Khwarezm publication, 2024. –B. 5.

⁴ Xorazm shevalari bo'yicha dala yozuvlari materiallari. –Urganch, 2025. –B. 4.

strukturasini qisman o'zgartiradi. Xonqa tumanidan yozib olingan duo matnida *Ot balasinnan suv balasinnan o'zi saqlag'aysan*¹ shakli uchraydi. Bu yerda chiqish kelishigi qo'shimchasining *-dan* o'rniga *-nan* shaklida assimilyatsiyaga uchrab qo'llanilishi (*balasinnan*) kuzatiladi. Fe'l qismi esa *-g'aysan* affiksi yordamida II shaxs birlikka yo'naltirilgan istak strukturasini hosil qilmoqda.

Yozib olingan dala materiallarida istak birliklari ko'pincha qisqargan morfologik shakllarda va tovush o'zgarishlari bilan namoyon bo'ladi: *Ko'plani mingajsan* (yangi ulov olgandagi tilak) yoki Ajaq izini jarashqay². Bu yerda [ko'p + larni] leksemasining *ko'plani* shaklida reduksiyaga uchrashi yoki [min + gay + san] strukturasining fonetik moslashuvi istak gaplarning tezkor kommunikativ tabiati bilan izohlanadi.

Sintaktik nuqtayi nazardan ijobiy istak bildiruvchi birliklar alohida gap tipini tashkil etadi. Istak gaplar so'zlovchining istak-xohishi, orzu-umidi va niyatini ifoda etuvchi mustaqil kommunikativ birlik bo'lib, ularning sintaktik qurilish modeli o'ziga xos xususiyatlarga egadir³.

Ijobiy istak birliklarining sintaktik tuzilishini quyidagi modellarga ajratish mumkin: 1. Sodda yig'iq va yoyiq gap strukturasini. Ushbu model eng keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha egasi yashiringan holatda keladi. Chin dildan chiqqan tilaklarda ba'zan *Xudo*, *Olloh* kabi egalar tushirib qoldiriladi va asosiy urg'u kesimga qaratiladi. Masalan: *Umringiz uzaq bo'sin*, *Yo'llaring bo'lavirsin*⁴. Ushbu sodda gaplarda [to'ldiruvchi/hol + kesim] sintaktik qolipi asosiy strukturaviy vazifani o'taydi.

2. Qo'shma gap strukturasini. Xalq og'zaki ijodida va an'anaviy marosimlarda ijobiy istaklar ritmik-sintaktik jihatdan mutanosib bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar shaklida voqelanadi. Bunday qurilish nutqning ta'sirchanligini va ekspressivligini oshiradi. Tadqiqotlarida qayd etilganidek, istak mazmunini ifodalovchi frazemalar va paremiyalar ko'pincha teng bog'lanishli yoki yonma-yon joylashgan gaplar tarzida tuziladi: *Qozon to'la osh bersin*, *yosti to'la bosh bersin*, *Omin*, *qadam yetdi*, *balo yetmasin*⁵. Ushbu misollarda [ega + hol/to'ldiruvchi + kesim], [ega + hol/to'ldiruvchi + kesim]

¹ O'sha manba. –B. 5.

² O'sha manba. –B. 10.

³ Dadajonova O. Istak gaplarning pragmatik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2017. №6. –B. 106.

⁴ Xorazm shevalari bo'yicha dala yozuvlari materiallari. –B. 14.

⁵ Asomutdinova M. O'zbek tilida ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning lisoniy xususiyatlari. Bitiruv malakaviy ishi. –Andijon, 2016. –B. 58.

tarzidagi parallel sintaktik konstruksiya aniq ko‘rinib turibdi. Qismlar o‘zaro bog‘lovchilarsiz, faqat ohang va mantiqiy ketma-ketlik orqali birikadi.

3. Undalmali sintaktik konstruksiyalar. Ijobiy istaklar tinglovchiga yoki ilohiy kuch (Alloh)ga yo‘naltirilganligi sababli, ularning strukturasida undalmalar faol ishtirok etadi. Diniy va sotsiologik xoslangan duo matnlarida murojaat obyekti sifatida Yaratganga nido qilish kuchlidir: *Yo Allohim, opam bilan akam hamisha sog‘-salomat yurgayla, Xudoyo, umridan baraka topsin*¹. Bu yerda sintaktik qurilish [undalma + ega + hol + kesim] ko‘rinishida shakllangan bo‘lib, undalma gapning pragmatik yo‘naltirilganligini ta‘minlaydi.

Ijobiy istak birliklari faqatgina grammatik elementlar yig‘indisi emas, balki teran etnomadaniy va frazeologik strukturaga ega bo‘lgan birliklardir. Xalq marosimlari, xususan to‘y, beshik to‘yi yoki yangi uyga ko‘chish bilan bog‘liq vaziyatlarda standartlashgan lingvomadaniy birliklar vujudga keladi. Tadqiqotchi M.Suvanovanning ta‘kidlashicha, etnografizmlar etnomadaniy mazmunni ifodalab, tarixiy-madaniy voqelikning tildagi in‘ikosi sifatida xizmat qiladi². Frazeologik struktura jihatdan ijobiy istak birliklari metaforik yoki metonimik ko‘chimlarga asoslanadi. Dala yozuvlarimizdan olingan misollarni tahlil qilsak: *Tejinnan shamal otib dursin* (Tagidan shamol o‘tib tursin)³ yangi mashina olganda aytiladigan ushbu zamonaviy tilakning ichki strukturasida shamol tezlik va to‘xtovsiz harakat metaforasi sifatida kelyapti. Iboraning tuzilishi [o‘rin holi + ega + fe‘l kesim] shaklida qotib qolgan. *Qoshqani bilan qosha qarriyaysan* nikoh to‘ylarida qo‘llanuvchi ushbu qadimiy istak frazeologizmining sintaktik strukturasida paremiologik xususiyatga ega bo‘lib, *qoshqani, qosha, qarri* so‘zlari orqali alliteratsiya hosil qilinib, ohangdorlikka erishilgan. Konseptual jihatdan olganda, bunday nutqiy aktlarning semantik va sintaktik tuzilishi muloqot maqsadi bilan bevosita bog‘liqdir. Olimlarning fikricha, muloqot maqsadi turli nutqiy aktlarni yuzaga chiqaruvchisi sifatida lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichlarida namoyon bo‘ladi⁴. Ijobiy istaklarda illokutiv kuch ezgulik tilash va qo‘llab-quvvatlash bo‘lsa, perlokutiv effekt tinglovchida psixologik taskin, quvonch va shukronalik hissini uyg‘otishdan iboratdir.

¹ Sulaymonova H. H. Tilak mazmunli birliklarning diniy va sotsiologik xoslanganligi // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Volume 2, Issue 10. –Toshkent, 2022. –B. 78.

² Suvanova M. X. O‘zbek xalq shevalari urf-odat, marosim leksikasining lingvoareal talqini: Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Qarshi, 2023. –B. 32.

³ Xorazm shevalari bo‘yicha dala yozuvlari materiallari. –Urganch, 2025. –B. 4

⁴ Xoliqulova Sh. Istak mazmunidagi lisoniy birliklarning konseptual xususiyatlari // *Conference on the role and importance of science in the modern world*. Volume 02, Issue 09. –Samarqand, 2025. –B. 85.

Struktural tadqiq faqatgina gap bo'laklari yoki so'z turkumlarini sanash bilan cheklanmaydi. Kommunikativ vaziyat talabiga ko'ra, istak birliklarining o'ziga xos pragmatik qoliplari mavjud. Istaklar aksariyat hollarda muayyan stereotip vaziyatlarga biriktirilgan bo'ladi:

Mehmon kuzatish vaziyatlarida: *Jaxshi, sag' bolin, jaxshi bariq, galib duriq...*¹. Qolip: [holat + buyruq fe'li]. Taskin berish vaziyatlarida: *Jaqshe bo'p ketasan hali, Xudo xohlasi, ko'rmaganday bo'p ketasiz*. Qolip: [umid / kelajak ko'rsatkichi + istak]. Bunday holatlarda istak *xudo xohlasi, ilohim* kabi modal so'zlar yoki kiritmalar bilan birga kelib, strukturani pragmatik jihatdan yumshatadi. Mehnat jarayonida: *Harman, Barbo'q*². Bu eng ixchamlashgan struktura bo'lib, birgina so'z yoki fe'l formasi orqali butun boshli istak-duo mazmunini ifodalash quvvatiga ega.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ijobiy istaklar ko'p hollarda diniy e'tiqod va qadriyatlar bilan qorishib ketgan bo'lib, ularning leksik strukturasiga arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan leksemalar singib ketgan. Jumladan, *duo, baxt, taqdir, baraka, ilohim, omin* kabi so'zlar istak birliklarining tayanch konseptlarini tashkil etadi. Olimlar ta'kidlaganidek, duo va tilaklar matnida *Omin, Allohu akbar* kabi diniy elementlarning ishtirok etishi musulmon Sharqi muloqot madaniyatining ajralmas xususiyatidir³.

Yuqorida olib borilgan lingvistik va dialektologik dalillar tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tili va uning Xorazm hududidagi shevalarida ijobiy istak bildiruvchi birliklar mukammal va o'ziga xos lisoniy strukturaga ega. Birinchidan, ular morfologik jihatdan qadimiy turkiy buyruq-istak mayli affikslarini (-g'ay, -sin) qat'iy saqlagan holda shakllanadi. Ikkinchidan, sintaktik strukturasiga ko'ra ular ko'pincha egasi yashiringan sodda gaplar yoki bog'lovchisiz birikkan parallel qo'shma gaplar tarzida voqelanadi. Uchinchidan, leksik-frazeologik va pragmatik sathda ushbu birliklar oddiy so'z birikmasidan ko'ra kengroq ma'no tashiydigan, metafora va metonimiya asosiga qurilgan yaxlit lingvomadaniy kodlar hisoblanadi. Ijobiy istak birliklarining struktural tadqiqi nafaqat tilning grammatik qurilishini, balki xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatini lingvistik aspektida tushunishga xizmat qiladi.

¹ Xorazm shevalari bo'yicha dala yozuvlari materiallari. –B. 2.

² O'sha manba. –B. 8.

³ Sulaymonova H. H. Tilak mazmunli birliklarning diniy va sotsiologik xoslanganligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2, Issue 10. –Toshkent, 2022. –B. 76.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Alimova Sh. M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. Monografiya. –Urganch: Khwarezm publication, 2024. –132 b.
2. Asomutdinova M. O‘zbek tilida ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning lisoniy xususiyatlari. Bitiruv malakaviy ishi. –Andijon: ADU, 2016. –62 b.
3. Bazarova M. M. O‘zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari (duolar va nutqiy etiketlar asosida): Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: TDPU, 2007. –129 b.
4. Dadajonova O. Istak gaplarning pragmatik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent: Fan, 2017. №6. –B. 106-109.
5. Sulaymonova H. H. Tilak mazmunli birliklarning diniy va sotsiologik xoslanganligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2, Issue 10. –Toshkent, 2022. –B. 76-81.
6. Suvanova M. X. O‘zbek xalq shevalari urf-odat, marosim leksikasining lingvoareal talqini: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Qarshi: QarDU, 2023. –134 b.
7. Umarov K. J. O‘zbek tilida xohish-istak kategoriyasining ifodalanishi va uning lingvokulturologik aspekti: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Andijon: ADU, 2023. –131 b.
8. Xoliqulova Sh. Istak mazmunidagi lisoniy birliklarning konseptual xususiyatlari // Conference on the role and importance of science in the modern world. Volume 02, Issue 09. –Samarqand, 2025. –B. 85-88.
9. Xorazm shevalari bo‘yicha dala yozuvlari materiallari. (Dialektologik ilmiy ekspeditsiya manbalari). – Urganch, 2025. – 260 b.

FILOLOGIYA**OLTIN O‘RTALIQ: “MUVOZANAT” ROMANIDAGI
OBRAZLAR TAHLILI****UO‘K 95(575.171)**

**Nazarova Feruza,
Nizomiy nomidagi
O‘ZMPU filologiya
fakulteti O‘zbek tili
va adabiyoti ta’lim
yo‘nalishi talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqola Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidagi bosh qahramon Yusufning foniy va boqiy dunyo o‘rtasidagi ziddiyatli kurashini tasvirlaydi. Yozuvchi bu asarida “hayot tarozisi” muvozanat tushunchasiga badiiy nuqtayi nazardan yondashadi va jamiyat hayotining ko‘plab jabhalarida buzilish holatlarini bir necha obrazlar orqali ko‘rsatib beradi.

Аннотация: В данной статье анализируется противоречивая борьба главного героя романа Улугбека Хамдама “Мувозанат” – Юсуфа – между бренным и вечным мирами. Автор произведения с художественной точки зрения осмысляет понятие “жизненные весы” как символ равновесия и через систему образов раскрывает проявления его нарушения в различных сферах общественной жизни.

Annotation: This article examines the inner conflict of the protagonist Yusuf in Ulugbek Khamdam’s novel “Muvozanat”, focusing on the struggle between the transient material world and the eternal spiritual realm. The author interprets the concept of “life balance” from a literary and philosophical perspective and highlights various manifestations of imbalance in different aspects of social life through a range of characters.

Kalit so‘zlar: oila muvozanati, dunyo muvozanati, din muvozanati, ruh pokligi, vijdon azobi, ziyolining fojiasi, Yusuf, obraz, xarakter, obrazlarning qiyosiy tahlili.

Ключевые слова: семейное равновесие, мировое равновесие, религиозное равновесие, чистота души, муки совести, трагедия интеллигента, Юсуф, характер образа, сравнительный анализ образов.

Key words: family balance, worldly balance, religious balance, spiritual purity, pangs of conscience,

the tragedy of the intellectual, Yusuf, character, literary image, characters comparative analysis.

Ba'zi bir asarlar shunchaki o'qish uchun yozilmaydi, balki insonning ruhini poklashi, o'zligini anglatish va hayotga boshqa ko'z bilan boqishga undaydi. Shunday asarlardan biri bu – Ulug'bek Hamdam qalamiga mansub "Muvozanat" romanidir. Roman nashr etilgan kundan boshlab ko'plab adabiyotshunoslar va kitobxonlar o'rtasida muhokamaga sabab bo'lib kelmoqda. Sa'dullo Quronov talqiniga ko'ra, romandagi muvozanat tushunchasi – bu shaxsning moddiy ehtiyojlari (bozor munosabatlari) bilan ma'naviy qadriyatlari o'rtasidagi oltin o'rtaliqni topishga bo'lgan intilishidir¹. Professor Abdug'afur Rasulov esa "Muvozanat" romani orqali o'zbek romanchiligida insonning "mangu xususiyatlari" bilan birga tarixan shakllangan milliy xususiyatlari ham yangicha talqin topganiga e'tibor qaratganini aytib o'tgan².

Albatta, muvozanat tushunchasi barcha sohalarga oid keng tushuncha bo'lib, hayotimizning har bir jabhasini qamrab olgan. Biz maqolada romanda aks etgan muvozanatning barcha jabhalari haqida emas, balki bitta qirrasi, ya'ni inson tug'ilib voyaga yetadigan maskan – oiladagi muvozanatga oid kuzatishlarimizni bayon etmoqchimiz.

Dunyo va din o'rtasidagi muvozanat shaxsni kamolotga yetaklagani kabi, ayni shu uyg'unlik oilaviy hayotga ham ko'chadi. Shaxs ichki tinchlikni saqlagani sayin oilasida ham mehr-muhabbat va o'zaro hurmat bo'ladi, ammo bu muvozanat buzilganda, oilada nizolar, tushunmovchilik va adovat paydo bo'ladi. Dono xalqimiz aytgandek: "Bir kun urush bo'lgan uydin qirq kun baraka ketadi". "Muvozanat" romanida Said va Manzura, Mirazim va Zahro, Yusuf va Oygul, Amir va Gulshoda, Odil aka va Halima aya juftliklari bilan bog'liq voqealarda oilaviy muvozanat buzilishining fojiaiy oqibatlari bilan tanishamiz. Dengiz tomchida aks etganidek, oila ham jamiyatning bir zarrasi, uning aks-sadosidir. Yozuvchi romanda yuqorida ko'rsatilgan oilalar qismati orqali muvozanat turmushning har bir jabhasi uchun naqadar ahamiyatli ekanini obrazli tarzda kitobxonga havola etadi.

Asarda tasvirlangan qahramonlardan biri Mirazim o'z davrining boy, o'ziga to'q savdogarlaridan biridir. Uning ayoli Zahroning hech nimadan kamchiligi

¹ Quronov S. Ulug'bek Hamdamning muvozanat konsepsiyasi //Scientific Bulletin jurnali, Gumanitar tadqiqotlar. –Andijon: 2023 N3(71), 97-107-bet.

² Rasulov A. Yangilanayotgan roman // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003-yil. 16-bet.

yo‘q, istagani muhayyo. Go‘yo “oltin qafas ichidagi qushdek” yashaydi. U zerikishdan ham zerikkan, chunki Zahro diplomini zang bostirib qo‘yish uchun o‘qimagandi. Unga mol-mulk, mashina, pul kerak emas, balki dilkash odamlar kerak. Axir insonlarga moddiyat bilan birgalikda ma’naviyat ham birdek lozim-ku?!. Zahro ham jamiyatga qo‘shilishni, insonlar bilan muloqotda bo‘lishni va hayotda o‘z o‘rnini topishni juda xohlaydi, ammo bu istaklarga Mirazimning birgina gapi nuqta qo‘yardi: “...hamma narsa yetarli, nima qilasan ishlab, ayolning joyi uyda”. Romanda Zahro timsolida shunday turmushga mahkum ayollarning ruhiy holatlari ochib berilgan. Tashqi tarafdin qanchalik qulay sharoit yaratilmasin, buzilgan muvozanat sababli ruhiyati tobora halokatga qarab ketishi mumkinligi qalamga olingan. Qolaversa, xizmatchisi Alimqul, o‘z manfaati yo‘lida hamma narsaga tayyor bo‘lgan inson, u bilan bitta uyda yashashning o‘zi bo‘lmaydi. Nahot, hamma narsaga aqli yetgan Mirazim ayoliga xizmatchi sifatida erkak kishini tanlaganda shunga aqli yetmagan bo‘lsa? Mirazim va Zahroning oilasida ma’naviyat ustidan moddiyat g‘alaba qozonganini ko‘ramiz.

Oilani bir mamlakat desak, har bir oila a‘zosini o‘z roli bor, agar bu rollar o‘zgarsa, oila parokanda bo‘lishi muqarrar. Jumladan, Amirning butun boshli ro‘zg‘or mas‘uliyatini xotiniga yuklashi Gulshodaning o‘limi bilan yakunladi. Amir tamomila dinga berilgan shaxs: xayolida faqat namoz o‘qish, ro‘za tutish, chillaga o‘tirish va Yaratganni rozi qilish tuyg‘usi bilan yashaydi. Ba‘zan namoz vaqti bo‘lganda maktabdagi darslariga bormasdan, buni ham Gulshodaga yuklab qo‘yadi. Butkul dunyoga qo‘l siltagan: bolalariga qaramaydi, ayoliga vaqt ajratmaydi, ro‘zg‘or qilmaydi va kun-u tun joynamoz ustidan turmasdan kasalmand ayoliga butun boshli ro‘zg‘orni yuklab qo‘ygan. Na otalik, na erlik, na o‘g‘illik vazifasini bajardi. Axir bu qilganini Allohning omonatiga xiyonat, demay bo‘ladimi?

Asar davomida Amir obrazi orqali ilmsiz taqvodor insonni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Yusuf akasi Amirni ko‘rgani jinnixonaga borganida Amir musichani tutib, patlarini yulib qiynayotganini ko‘radi. Yusuf uning nega bunday qilganini so‘raganida, Amirning javobi kitobxonni hayratlantiradi: “ – Bori – shu. Alloh mening boshimga solgan musibatni endi men barchaga, hatto shu beozor musichaga ham tilashdan o‘zimni tiya olmayapman”¹.

Aslida mo‘min inson o‘ziga ravo ko‘rmagan narsasini boshqaga ham ravo ko‘rmasligi kerak-ku?! Amirni cho‘pon ota va o‘g‘illari qo‘ylarni o‘g‘irlashda ayblab ustunga kiyimsiz holda bog‘lab qo‘yganida nega Allohdan yordam so‘rash o‘rniga cho‘pon otani haqoratlab qarg‘aydi. Axir Amirning boshiga tushgan

¹ Hamdam U. “Muvozanat”. Oltin qalam nashriyoti. – Toshkent, 2025. 206-bet

kulfatga faqatgina Alloh yordam bera oladi. Mantiqan asarni tahlil qilsak, Amirning ustunga bog‘lanishi, bir qultum suvga zor bo‘lishi unga yuborilgan jazo edi, chunki u o‘z farzandlarining rizqini kesib, gadoyga sadaqa qiladi, vaholanki uyda bolalari och-nahor edi. Zero, amalsiz ilmning foydasi bo‘lmaganidek, ilmsiz amaldan ham manfaat yo‘qdir.

Odil aka buning tamomila teskarisi edi: oilasi uchun yashardi, oilasi uchun kurashardi va zarurat tug‘ilsa hamma narsadan kechishga ham tayyor inson edi. Odil akaning ta’biricha: “Halol mehnat qilib, halol yashashning nimasi yomon?” Namoz o‘qiganlarning hammasi iymonli, shu bilan birgalikda namoz o‘qimaganlarning hammasi iymonsiz, degan hukm ham yo‘q islomda. Asar davomida Amirning har kuni kelib ota-onasini namoz o‘qimaslikda ayblovlari va do‘q urishlarini birgina Halima ayaning “Qaysi qiyomatdan kam joyi bor?” – degan so‘zidan bilishimiz mumkinki, bu gaplar Amirning din mohiyatini anglashdan ko‘ra, uni hukm va bosim quroliga aylantirganini yaqqol namoyon etadi. Halima ayaning oddiygina, ammo hayotiy haqiqatni ifodalagan: “Qaysi qiyomatdan kam joyi bor?” – degan so‘zi esa balandparvoz tahdidlardan ko‘ra kitobxonga ko‘proq ta’sir etadi, chunki chin e’tiqod qo‘rqitish bilan emas, qalbga yo‘l topish bilan yashaydi. Aynan shu jihatdan Halima aya arosatda qolib qalbi ozor chekayotgan ona timsolida namoyon bo‘ladi. Bir tarafda turmush o‘rtog‘i Odil aka, boshqa tarafdin jondan aziz o‘g‘li Amirning qiliqlari... Yozuvchi bu oila tasviri orqali e’tiqod borasidagi muvozanatsizlikning oqibatlaridan ogoh etadi.

Er va xotinning bir-birini tinglashi oiladagi o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. Biroq urning o‘z fikri va qat’iy pozitsiyasi bo‘lmasa, bu muvozanat buzilib, oilada bir tomonlama qarorlar ustun bo‘lib qolishi mumkin. Jumladan, asardagi Said va Manzuralar oilasida esa er-xotinning o‘rnini almashganini ko‘rishimiz mumkin. Manzura o‘ziga ishongan, o‘z dunyoqarashi va fikrlariga ega obraz. Saidga Manzuraning fikrlari va o‘ylagan qarorlari yoqardi. U er sifatida uning fikrlarni qadrlab, har doim Manzuraga tayanadi. Said oddiy oilaviy masalalarni ham o‘zi hal qilmay, mustaqil qarorlar qabul qila olmas edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan bu qaramlik uni cheklab, oila boshlig‘i sifatida o‘z rolini yo‘qotishiga olib keldi. Yozuvchi bu holatni ularning Parijga qilgan sayohati vaqtidagi vaziyat orqali ko‘rsatadi. Saidning uyga qaytamiz degan gapiga Manzura ko‘nmay, sayohatni yana davom ettirib, xarajatlarni o‘z zimmasiga olishini aytdi. Said ishidan ketgach, Manzura mol-mulkni bolalarining nomiga o‘tkazib, erining qarorlariga qaramay, mustaqil harakat qila boshladi. Bu

holat oila ichidagi rollarning qanday o'zgarishini va er-xotin munosabatlaridagi muvozanatsizlikdan kelib chiqadigan tafovutlarni yaqqol namoyish etadi.

Asarning bosh qahramoni Yusufning ham oilasi havas qilgulik emas, Yusuf va Oygul ikki olam. Yusuf maktabni bitirgandan buyon shaharda yashadi, Oygul esa yigirma yoshida turmushga chiqqandan keyingina katta shaharni ko'radi. Yusufning hayotda oila va bola-chaqa tashvishidan ham boshqa maqsadlari bor bo'lib, umri va kuchining katta qismini o'sha yo'lga bag'ishlamoqchi bo'ldi. Oygul eri va bolalari bilan oilaviy baxtli bo'lishdan boshqa saodatni bilmas va bilishni istamas edi. Yusuf anglay boshlagandiki, Oygul qishloqda o'sib, o'sha muhitda tarbiya ko'rgan soddadil, mehnatkash qiz. Unga uylanib adashgandi. U o'zi va Oygul oilasidagi moddiy jihatdan tenglikni nazarda tutib: "Shu meni tengim", – deb ishongandi. Lekin boshqa bir tenglikni hisobga olmagandi, buni Oygul bilan yashab ko'rgandan keyingina angladi. Bu – er-u xotin o'rtasidagi dunyoqarash-u tarbiya, ehtiyoj-u maqsadlar farqliligi bo'lib chiqdi. Birga yashaganlari sayin o'rtadagi tafovut chuqurlashgandan chuqurlashdi. Hayot mashaqqatlari orasida kurashib yashayotgan Yusuf orzu-maqsadlarini tanlasa oilasidan, oilasini tanlasa o'z orzu-maqsadlaridan voz kechishga majbur. Ammo Yusuf o'zi xohlagan kasbda ishlashiga qaramay 35 yoshida ham hech narsa orttira olmagan: na uy, na mashina, hattoki, qishloqdan shaharga ketishiga yo'l kiraga puli ham yo'q. Bechora Odil aka ro'g'orning tayanichi bo'lgan sog'in sigirni sotib pulini berishga majbur bo'ladi. Ijara uyidan quvilgan, o'g'lining o'limi va xotini Oygulning ota uyiga ketib qolishi o'z davrining ziyolisi bo'lgan Yusuf uchun juda achinarli holat. Zero, Yusuf qancha harakat qilmasin, topgan puli xarajatlariga yetmaydi yoki u ham kursdoshlari singari biznesmenlik yoki siyosatchilikni tanlasinmi? Axir, shu kasbda ishlashni qancha yillar davomida orzu qilmadimi? Yakka-yu yagona farzandi nobud bo'lgach, dilida nimaiki tilagi bor, hammasiga o'zi harakat qilishi zarurligini, chunki uning orzu-maqsadlari boshqa bironiki, hatto o'z jigarbandiniki ham bo'lolmasligini, o'ziniki, faqat o'ziniki ekanligini angladi. Yusuf ancha o'zini tiklab oldi, oilasini ham tikladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, haqiqiy badiiyat anglangan va anglatilgan go'zallik kitobxonning ma'naviyatigagina emas, tafakkuriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning shaxs sifatida shakllanishiga to'g'ri yo'nalish beradi. Asar bizga insonning ichki muvozanatini ham davr munosabatlari orqali yoritib bera oldi. Hayotimizning har bir jabhasida muvozanatning o'rni nihoyatda muhim, xoh oilada, xoh dinda, xoh ishda bo'lsin, muvozanatsizlikning paydo bo'lishi inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga, tanazzulga olib keladi. Payg'ambarimiz (s.a.v) aytgandek: "Eng yaxshi ummat sizlar orasidagi o'rta yo'lni tutadiganlar". Binobarin, har bir ishda me'yor va chegara bo'lishi lozim.

Asar obrazlari va xarakterlari o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mol-mulkdan baxt topolmagan Zahrodan tortib, hayotning mohiyatini anglagan Yusufgacha o'zga bir olam. Inson dunyo bilan, oila bilan, va o'z qalbi bilan uyg'unlikda yashaganda hayot mazmunli bo'ladi. Shu uyg'unlik – hayotning eng katta siri, muvozanatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdam U. "Muvozanat". – Toshkent: Oltin qalam nashriyoti, 2025.
2. Sarimsoqov B. "Badiiylik asoslari va mezonlari" – Toshkent, 2004.
3. Quronov S. Ulug'bek Hamdamning muvozanat konsepsiyasi // Scientific Bulletin jurnali, Gumanitar tadqiqotlar. – Andijon, 2023.
5. Rasulov A. Yangilanayotgan roman //O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003.

FILOLOGIYA**ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTIDA “AYOL” OBRAZI TASVIRI****UO‘K 95(575.171)**

**Nilufar
Ne‘matullayeva,
Sharof Rashidov
nomidagi Samarqand
davlat universiteti,
Markaziy Osiyo
xalqlari tillari va
madaniyati instituti
magistranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada istiqlol davri o‘zbek adabiyotida “ayol” obrazi talqini tahlil qilinadi. Xususan, Javlon Jovliyevning “Ayol” hamda Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” hikoyalari misolida zamonaviy adabiyotda ayol siymosining badiiy ifodasi, uning ichki kechinmalari, ijtimoiy o‘rni va ruhiy olami yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется интерпретация образа «женщины» в узбекской литературе периода независимости. В частности, на примере рассказов «Женщина» Джавлона Джовлиева и «Женщина» Зулфики Курольбой кызы освещается художественное выражение женской фигуры в современной литературе, её внутренние переживания, социальная роль и духовный мир.

Annotation: This article analyzes the interpretation of the image of "woman" in Uzbek literature of the independence period. In particular, the artistic expression of the female figure in modern literature, her inner experiences, social role and spiritual world are highlighted using the stories "Woman" by Javlon Jovliyev and "Woman" by Zulfiya Kurolboy kizi.

Kalit so‘zlar: Javlon Jovliyev, Zulfiya Qurolboy qizi, “ayol” obrazi, istiqlol davri adabiyoti, badiiy tahlil, ijtimoiy muammo, syujet, kompozitsiya, adabiyotshunoslik.

Ключевые слова: Джавлон Джовлиев, Зулфия Курольбой кызы, образ «женщины», литература периода независимости, художественный анализ, социальная проблема, сюжет, композиция, литературная критика.

Key words: Javlon Jovliyev, Zulfiya Kurolboy qizi, the image of "woman", literature of the independence period, artistic analysis, social problem, plot, composition, literary criticism.

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida istiqlol davri o‘zbek adabiyotida yaratilgan badiiy asarlar, jumladan, hikoyalar jamiyat hayotida murakkab

ijtimoiy, ma'naviy axloqiy muammolarni aks ettirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda yozuvchilarimiz boshqa janrlarga nisbatan hikoya janrida ko'proq ijod qila boshladi. Ayniqsa, Ulug'bek Hamdam, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Zulfiya Qurolboy qizi, Javlon Jovliyev singari iste'dodli yozuvchilar shular jumlasidandir.

Yosh yozuvchi Javlon Jovliyev dastlab o'zining “Qo'rqma” romani bilan o'zbek zamonaviy adabiyotida kitobxonlar qalbidan munosib joy egalladi. Ushbu roman haqida bir qancha taqrizlar yozildi. Jumladan, adabiyotshunos olim Bahodir Karim shunday fikr bildiradi: *“Qo'rqma” – his-hayajon romani. Undagi badiiy g'oya keng miqyosli, unda millat va Vatan dardi bor. Bu muammo bugun va bir asr oldingi yoshlar hayoti misolida tush va xush oralig'ida, tajohili orifona yo'sinda ba'zan piching va kesatliq qamrovida badiiy ifoda etiladi. Muallif mudroq ko'ngillarni uyg'otishni istaydi; odamlar o'z yaratilish tiynatiga chuqur nazar solishini xohlaydi*”¹.

Bu davr adabiyotida ayollarga bo'lgan munosabat mustaqillik davri voqealari, shuningdek, o'tgan asr muammolari, jamiyat hayoti va turmush tarzi haqida keskin munosabatlar bildiriladi. Hikoyalarda yozuvchi o'zining hajman kichik, mazmunan yirik hikoyalari orqali kitobxon psixologiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ular orasida aynan ayollarning turmush tarzi va ruhiyati aks ettirilgan “Ayol” hikoyasi zamonaviy o'zbek adabiyotida ayol ruhiyati, jamiyatdagi o'rni va ichki kechinmalarini yorituvchi hikoya sifatida baholandi.

Javlon Jovliyev o'zining “Ikki qalb uchrashuvi” nomli hikoyalar to'plamidan joy egallagan “Buxoro, Buxoro, Buxoro”, “Ayol”, “Qizlar bilan uchrashuv”, “Ozodlik”, “Ikki qalb uchrashuvi” nomli hikoyalarda ayol ruhiyati tasviri alohida o'rin egallagan. Masalan, o'tgan asrning eng katta muammolaridan biri bo'lgan ziyolilarning qatag'on qilinishi yoki nohaq qamoqqa tashlanishi yoritilgan “Ozodlik” hikoyasida ham sodda o'zbek ayoli tasviri mukammal tarzda ochib berilgan. Hikoyaning bosh qahramoni ayol qamoqda yotgan turmush o'rtog'ini ozod qilish uchun qishloq idorasida ishlovchi tog'asining yoniga boradi va undan yordam so'raydi. Hikoyaning kirish qismida, ularning suhbatida, aybdorning aybi uning ilmi ekanligidagi aniq bo'ladi. Ayni damda kichik farzandi bilan qiynalib qolgan ayol qanday qilib bo'lmasin turmush o'rtog'ini qutqarishni xohlaydi. Bu holat yillar davomida shakllangan o'zbek ayoliga xos xususiyat emasmi? Uning oldida bitta chora, yechim bitta, ya'ni “kattalarga”

¹ Bahodir Karim. “Lirotragik roman - “Qo'rqma” asari haqida”. <https://www.facebook.com/share/p/1H55tVRQoT/?mibextid=wwXIfr>

ariza bilan murojaat qilish. Ariza yozish jarayonida Javlon Jovliyev sodda ayol portretini shunchalar ishonarli jonlantirganki, hikoya ichida yashagandek bo'lasiz. *“– Tog'a...! Yordam bering, tog'a, bolalarim haqqi...Ayol ortiq gapirolmadi. Oppoq yuzlaridan dona-dona yosh tomchilari dumalab tushardi. Ko'zlaridanmas, lablaridan yosh quyulib kelayotgandan, kafti bilan og'zini yopib oldi. Qishloq idorasining pastqam derazasidan yong'oqning shapaloqday yam-yashil barglari ko'rinib turar, barglar orasida esa quyoshning parchalangan nurlari aks etardi”¹.*

O'zbekning sodda ayoli chorasiz, madorsiz madad izlab, turmush o'rtog'ini qutqarish ilinjida tunlarni bedor o'tkazib, uzundan uzun maktub yozadi. Yozuvchi hikoya tuzilishini turli boblarga bo'ladi. Hikoya tasviri turlicha bo'lsada, ayol, ona tasviri mahorat bilan yoritilgan. Hikoyada e'tiborga molik yana bir jihat ona va bola o'rtasidagi munosabat. Mahbus alahsirar ekan ko'z oldida gavdalangan onasi unga bir gap aytdi xolos: *“harom yema! harom yema, harom yegan odam gadoydir... Pora olgan odamning, ko'chada qo'l ochib turgan tilanchidan farqi yo'q. Ikki dunyoying kuyib ketadi, polvonim...”²*

Yozuvchi ona obrazi orqali kuch, tarbiya, halollik singari beqiyos xislatlarning ham katta ahamiyatga egaligini yoritib bergan. Ushbu hikoyada ham ona-ayol timsoli farzand uchun ishonch, mehr, poklik qo'rg'oni sifatida ko'rsatib berilgan. Hikoya yakuni fojeali yakun topgan bo'lsa ham, so'nggida ayolning: *“Kuyovingiz chiqadi-ya”[1,179]* degan savoli kitobxon uchun eng ta'sirli qism bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Javlon Jovliyev o'z hikoyalarida o'tgan asrning og'ir kunlarida paxta dalalarida mashaqqat bilan ter to'kkan ayollar obrazini kitobxonga rangli bo'yoqlarda yetkazib beradi. Ayniqsa, hikoya qahramonini mehnatkash, o'z oilasi uchun har narsaga tayyor, bu borada tinimsiz mehnat evaziga holdan toygan, o'zligini unutgan o'zbek ayoli sifatida tasvirlagan. Bugungi kun kitobxon yoshlari uchun bu bir muncha bo'rttirishdek ko'rinishi mumkin, ammo yozuvchi bir ayol timsolida ko'plab millat ayollari taqdirini yoritishga harakat qilgan.

Zamonasining yana bir iste'dodli yozuvchisi hisoblangan Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” nomli hikoyalar to'plamida “Ayol”, “Tafakkur”, “Ajal chorlovi”, “O, hayot”, “Qadimiy qo'shiq”, “Muhabbat va nafrat”, “Ko'lanka”, “Momo Havo”, “Kelin”, “To'xtab qolgan vaqt suvratlari”, “Rashk”, “Kuygan shahar” nomli hikoyalar joy egallagan bo'lib, aksariyat hikoyalarida asosiy

¹Javlon Jovliyev. “Ikki qalb uchrashuvi”. – T.: Navro'z nashriyoti. 151-bet

²Javlon Jovliyev. “Ikki qalb uchrashuvi”. – T.: Navro'z nashriyoti. 163-bet

mavzu ayol ruhiyati, uning ichki kechinmalari, tuyg'ular iztirobi alohida o'rin egallaydi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ham ayolning qadr-qimmati, aynan o'zini qadrlagandagina boshlanishini uqtirganday bo'ladi. Shuningdek, Javlon Jovliyevdan farqli ravishda "ayol" obrazini yaratishda nazokat, go'zallik, ayolga xos bo'lgan xislatlardan ko'proq foydalangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ikki hikoya ham ayni "Ayol" nomi bilan nomlangan bo'lsada, bir-biriga umuman yaqin bo'lmagan ikki ayol, ikki rafiq, ikki ona tasviri bayon etilgan.

Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasida esa bedavo dardga chalingan, umri o'z yakuniga yetib borayotgan ayol - Nazokat obrazi tasvirlangan. E'tibor beradigan bo'lsak, yozuvchi o'z qahramoniga mos va xos Nazokat ismini beradi. Hikoyada ayollarga xos bo'lgan sabr, matonat go'zal tarzda ko'rsatib berilgan. O'z og'riqlariga qarshi kurashayotgan ayol ayni damda turmush o'rtog'i farzandlarini undan xavotir olmasligini istaydi. Yana bir insonni titratadigan holat, u shu holatda ham o'z ayollik jozibasini yo'qotishni xohlamasligidir. Aynan quyidagi o'rinda biz ushbu holatni ko'rishimiz mumkin:

“— *Bilaman, oz qolganini bilaman. Lekin bunday xunuk alfozda o'lishni istamayman. Istamayman!..*”¹ Ayol hattoki o'lim oldi ham – ayol! O'z turmush o'rtog'i, farzandlari, yaqinlari oldida bu holatda ko'rinishni xohlamaydi.

Ikki ayol, ikki taqdir, ikki xil oilaviy munosabat tasviri. Javlon Jovliyev o'zining ayol obrazini ifodalashda sodda, ammo ma'nosi chuqur bo'lgan holatda ifodalagan. Oddiy ishchi ayolning tun-u kun mehnati, tinimsiz mehnatdan charchagan, hatto o'ziga e'tibor va oro bera olmaydigan darajada madorsiz. U oila yukini yolg'iz o'zi gardaniga olgan. Oila a'zolari farzandlar va er ishsiz, qolaversa e'tiborsiz. Hikoyani o'qigan kitobxon buni his qila oladi, dod deyishga tayyor turadi, qaysidir ma'noda bunga ayolni ayblaydi. Lekin ayolning hayotda yashab qolishiga, yoki o'zgarishiga umid borini yozuvchi mahorat bilan qistirib o'tadi. Ayol yolg'iz o'rtancha o'g'lidan umid kutadi. Birgina shu o'g'il onasiga yordam beradi. Bugungi kun uchun ham begona bo'lmagan ushbu mavzu uchun yozuvchi yechim izlagan. Hikoyaning ta'sirli va davr muammosi yoritilgan qismi oilasi uchun jon kuydirayotgan onaning u oilada o'rni yo'qligi. Ikkinchi hikoyamizda esa buning ayni teskarisi. Ayolning og'ir ahvolidagi har doim unga yelkadosh bo'luvchi, sabrli va turmush o'rtog'ini qadrllovchi, sevuvchi obraz. Ikkala yozuvchi ham hikoyaning bosh qahramoni hisoblangan ayol obrazini ifodalashda o'z yondashuvlari orqali zamon va shaxs muammosini yetarlicha ochib bergan.

¹ Zulfiya Qurolboy qizi. "Ayol". – T.: 2019. B.8

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, istiqlol davri o'zbek adabiyotida ayol obrazini ifodalash, ayollar ya'ni o'zbek onalarining o'rnak bo'lishga loyiq bo'lgan xislatlarini bugungi kun yoshlari ongiga singdirish, qadriyatlarni saqlash va davom ettirishni ko'zda tutadi. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda badiiy asar orqali o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash bizning asosiy burchimiz bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Javlon Jovliyev. Ikki qalb uchrashuvi (hikoyalar). "Ayol". – Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2019. 192 b.
2. Zulfiya Qurolboy qizi. Ayol hikoyasi. – Toshkent: Sharq, 2016. 320 b.
3. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
5. Ibrohim Haqqul. Badiiy tafakkur va ruhiyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
6. Umarali Normatov. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
7. Dilmurod Quronov. Adabiy jarayon va tanqid. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
8. Hotam Umurov. Badiiy obraz nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2004.
9. Baxtiyor Karimov. Hozirgi o'zbek nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2016.
10. Qozoqboy Yo'ldoshev. Badiiy asarni tahlil qilish usullari. – Toshkent: O'qituvchi, 2011.
11. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
12. Hozirgi o'zbek nasrida ayol obrazi talqini // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020.

FILOLOGIYA

O‘ZBEK, INGLIZ VA KOREYS TILLARIDAGI O‘YIN NOMLARIDA TRANSONIMIZATSIYA HODISASI

UO‘K 81’373.2:796.1



**Xusanova Gulasal,
Farg‘ona davlat
universiteti, Ingliz
tilini o‘qitish
metodikasi kafedrası
katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek, ingliz va koreys tillaridagi o‘yin nomlarining (geymonimlarning) shakllanishida transonimizatsiya hodisasi qiyosiy-tipologik asosda keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida turli onomastik birliklarning – antroponimlar, toponimlar, teonimlar va mifonimlarning – geymonimlarga ko‘chish jarayoni, ularning struktur-semantik xususiyatlari va lingvokulturologik motivatsiyasi aniqlanadi.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ явления трансонимизации в формировании названий игр (геймонимов) в узбекском, английском и корейском языках. В ходе исследования выявлен переход различных ономастических единиц (антропонимов, топонимов, теонимов, мифонимов) в названия игр и их лингвистические особенности.

Annotation: This article provides a comprehensive comparative-typological analysis of the phenomenon of transonymization in the formation of game names (geymonyms) in Uzbek, English, and Korean languages. The study examines the transformation of onomastic units—anthroponyms, toponyms, theonyms, and mythonyms into game names and analyzes their structural and semantic characteristics. Particular attention is given to cognitive mechanisms, associative thinking, and linguocultural factors influencing the nomination process.

Kalit so‘zlar: onomastika, geymonim, transonimizatsiya, nominatsiya, lingvokulturologiya, antroponim, toponim, mifonim.

Ключевые слова: ономастика, геймоним, трансонимизация, узбекский язык, английский язык, корейский язык, антропоним, топоним, языковая картина мира.

Key words: *onomastics, geymonym, transonymization, Uzbek language, English language, Korean language, anthroponym, toponym, linguistic world picture.*

Zamonaviy tilshunoslikda nominatsiya jarayoni faqatgina yangi birliklar yaratish bilan chegaralanmay, balki inson tafakkuri, madaniy tajribasi va ijtimoiy borlig'ining lingvistik ifodasi sifatida talqin etiladi. Til– bu nafaqat kommunikativ vosita, balki insoniyatning tarixiy xotirasini, madaniy qadriyatlarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizimdir. Shu nuqtai nazardan, onomastika – atoqli otlar tizimini o'rganuvchi fan – tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Onomastikaning nisbatan kam o'rganilgan, biroq istiqbolli tarmoqlaridan biri bu geymonimika, ya'ni o'yin nomlarini o'rganishdir. O'yin nomlari (geymonimlar) nafaqat lingvistik birlik, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ham qaraladi [1]. Ular xalqning mentaliteti, tarixiy tajribasi va madaniy kodini o'zida mujassam etadi.

Transonimizatsiya–bu bir turdagi atoqli otning boshqa onomastik maydonga ko'chishi jarayonidir. Masalan, shaxs nomining o'yin nomiga aylanishi yoki joy nomining sport turi nomiga ko'chishi ushbu hodisaning yaqqol namunasidir.

Ushbu hodisa ayniqsa uch xil tipologik tizimga mansub tillarda – o'zbek (turkiy), ingliz (hind-yevropa) va koreys (izolyativ/agglyutativ) tillarida o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Shu bois, ularni qiyosiy o'rganish lingvistik, kognitiv va madaniy farqlarni aniqlash imkonini beradi [12].

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-tipologik, etimologik, lingvokulturologik hamda kognitiv yondashuvlar majmui tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida o'zbek, ingliz va koreys tillaridagi geymonimlar tizimi o'zaro solishtirma tahlil asosida o'rganilib, ularning umumiy va differensial xususiyatlari aniqlashtirildi. Qiyosiy-tipologik yondashuv turli til oilalariga mansub ushbu tillarda transonimizatsiya hodisasining qanday shakllanishini aniqlash imkonini berdi, etimologik rekonstruksiya esa o'yin nomlarining dastlabki onomastik manbalarini ochib berishga xizmat qildi. Shu bilan birga, lingvokulturologik tahlil orqali har bir til tizimida geymonimlarning milliy-madaniy asoslari va semantik motivatsiyasi izohlandi, kognitiv yondashuv esa nominatsiya jarayonida inson tafakkurining, xususan, assotsiativ fikrlash va konseptual modellashuvning rolini aniqlashga yordam berdi. Ushbu birliklar

semantik manbalari, onomastik kelib chiqishi va funksional xususiyatlariga ko'ra tizimlashtirildi. Tahlil jarayonida o'yin nomlarining qaysi turdagi atoqli otlardan hosil bo'lganligi, ularning til tizimidagi funksiyasi hamda madaniy yuklamasi chuqur o'rganildi.

Transonimizatsiya til tizimining ichki rivojlanish mexanizmlaridan biri bo'lib, u nominatsiya jarayonining muhim va samarali usullaridan hisoblanadi. Ushbu hodisa orqali bir onomastik maydonga mansub bo'lgan atoqli ot boshqa semantik va funksional maydonga ko'chadi hamda yangi nominativ birlik sifatida faoliyat yurita boshlaydi. Mazkur jarayonning asosida til iqtisodiyligi tamoyili, semantik zichlashuv hamda assotsiativ tafakkur yotadi. Transonimizatsiya, avvalo, inson tafakkurining analogiya va o'xshatish asosida ishlash xususiyati bilan bog'liq. Nutq egasi mavjud nomni yangi kontekstga ko'chirgan holda uni qayta semantizatsiya qiladi va shu orqali yangi ma'no qatlamini hosil qiladi. Bu jarayonda metafora va metonimiya kabi semantik mexanizmlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, shaxs nomining o'yin nomiga aylanishi faqatgina nominativ akt emas, balki ijtimoiy va madaniy tajribaning lingvistik ifodasidir.

Shu bois, transonimizatsiya hodisasini faqat morfologik yoki leksik jarayon sifatida emas, balki kognitiv-semantik transformatsiya sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Antroponimik transonimizatsiya

Antroponimlar asosida shakllangan geymonimlar uchala til tizimida ham keng tarqalgan bo'lib, ular o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarga ega. Biroq bu hodisaning motivatsiyasi har bir til va madaniyatda turlicha namoyon bo'ladi.

O'zbek tilida antroponimik transonimizatsiya ko'pincha ijtimoiy rollar, status va jamiyatdagi ierarxik munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Masalan, "Podshoh-vazir" yoki "Xon o'yini" kabi geymonimlar nafaqat shaxs nomlarini, balki ijtimoiy tuzilmani ifodalaydi. Bu yerda o'yin nomi orqali jamiyatdagi hokimiyat va bo'ysunish munosabatlari modellashiriladi, ya'ni o'yin ijtimoiy hayotning kichik modeli sifatida namoyon bo'ladi [8].

Ingliz tilida esa antroponimik transonimizatsiya individualizm va shaxs markaziyligini aks ettiradi. "Simon Says" kabi o'yin nomlarida shaxs nomi buyruq beruvchi markaz sifatida talqin qilinadi. Bu esa ingliz til madaniyatida shaxsiy tashabbus va individual rolning ustuvorligini ko'rsatadi [2].

Koreys tilida esa antroponimik geymonimlar ko‘pincha tarixiy shaxslar yoki milliy qahramonlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “Gwanghae-nori” nomi orqali tarixiy shaxsning nomi o‘yin kontekstiga ko‘chirilgan. Bu esa koreys xalqining tarixiy xotira va ajdodlarga hurmat kabi madaniy qadriyatlarini aks ettiradi [5, 15].

Toponimik transonimizatsiya o‘yin nomlari tizimida muhim o‘rin egallaydi va ayniqsa ingliz tilida keng rivojlangan. Ingliz tilida ko‘plab sport o‘yinlari va faoliyat turlari o‘z nomini muayyan geografik hududlardan olgan. Masalan, “Rugby” o‘yini Angliyadagi Rugby shahri nomi bilan bog‘liq bo‘lib, bu nom keyinchalik global sport terminiga aylangan [9]. Xuddi shuningdek, “Badminton” ham muayyan hudud nomidan kelib chiqqan bo‘lib, u sport terminologiyasida mustahkam o‘rin egallagan.

Bu holat ingliz tilida joy va makon tushunchalarining nominatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Bunda toponim nafaqat joy nomi sifatida, balki madaniy brend sifatida ham faoliyat yuritadi.

O‘zbek tilida toponimik transonimizatsiya nisbatan kamroq uchraydi va asosan hududiy identifikatsiyani ifodalash bilan cheklanadi. Masalan, “Buxoro kurashi” nomida joy nomi o‘yinning kelib chiqish hududini bildiradi, biroq u global termin darajasiga ko‘tarilmagan.

Koreys tilida esa toponimik geymonimlar ko‘pincha marosimiy va an’anaviy o‘yinlar bilan bog‘liq bo‘ladi. “Ganggangsullae” kabi o‘yin nomlari ma’lum hudud va madaniy an’analar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ular xalqning kollektiv xotirasini ifodalaydi [11].

Mifonimik va teonimik transonimizatsiya.

Mifonimik va teonimik transonimizatsiya ayniqsa koreys tilida keng rivojlangan bo‘lib, bu xalqning mifologik tafakkuri va diniy qarashlari bilan chambarchas bog‘liq. “Dokkaebi-nori” kabi geymonimlarda mifologik mavjudot nomi o‘yin nomiga ko‘chirilgan bo‘lib, bu jarayon orqali o‘yin madaniy ramz sifatida talqin qilinadi [20].

Ingliz tilida esa mifonimik qatlam ko‘proq zamonaviy, ayniqsa raqamli o‘yinlar nomlarida namoyon bo‘ladi. “Warhammer” kabi nomlar mifologik va fantaziya elementlariga asoslangan bo‘lib, ular global madaniyatda mifologiyaning yangi shaklda qayta talqin qilinayotganini ko‘rsatadi [16].

Mazkur hodisa shuni anglatadiki, mifologik obrazlar zamonaviy nominatsiya jarayonida ham faol semantik resurs sifatida xizmat qilmoqda.

Transonimizatsiya jarayoni inson tafakkurining murakkab kognitiv mexanizmlariga asoslanadi. Bu jarayonda assotsiativ fikrlash, metaforik transfer va konseptual xaritalash muhim rol o'ynaydi. Inson mavjud bilim va tajribasini yangi obyektlarga tatbiq etish orqali yangi nomlarni yaratadi. Har bir til o'ziga xos lisoniy manzarani shakllantiradi. O'zbek tilida geymonimlar ko'proq ijtimoiy va maishiy tajribaga asoslangan bo'lsa, ingliz tilida individuallik va aniq geografik bog'liqlik ustuvorlik qiladi. Koreys tilida esa mifologik va marosimiy tafakkur ustunlik qiladi. Bu farqlar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqani yana bir bor tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari transonimizatsiya hodisasi barcha tillarda universal xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Biroq uning konkret namoyon bo'lish shakllari har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlariga bog'liq holda farqlanadi. O'zbek tilida transonimizatsiya ko'proq ijtimoiy hayot va an'anaviy munosabatlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilida u individual shaxs va geografik lokatsiya bilan chambarchas aloqador. Koreys tilida esa ushbu jarayon mifologik va marosimiy qatlam bilan bevosita bog'langan.

Shu asosda geymonimlar tizimi nafaqat lingvistik birliklar majmui, balki jamiyatning qadriyatlar tizimi, tarixiy xotirasi va madaniy identitetini aks ettiruvchi murakkab tizim ekanligi aniqlandi.

Transonimizatsiya hodisasi o'yin nomlarini shakllantirishda muhim va universal lingvistik mexanizm hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, atoqli otlarning bir onomastik maydondan boshqasiga ko'chishi nafaqat tilning leksik tizimini boyitadi, balki xalqning madaniy xotirasi va kognitiv modelini ham aks ettiradi. Mazkur tadqiqot qiyosiy tilshunoslik, onomastika va lingvokulturologiya sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni kengaytirish, xususan, boshqa tillar va raqamli o'yinlar tizimini qamrab olish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduvalieva, A. O'zbek onomastikasining nazariy masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 120 b.

1. Anderson, S. English Games: History and Names. – London: Oxford University Press, 2005. – 210 p.

2. Baker, L. Onomastics in Sports: How Names Change. – Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2012. – 185 p.

3. Benson, M. Commercial Onomastics: From Brands to Games. – New York: Routledge, 2016. – 240 p.
4. Cho, M. Korean Traditional Games: A Linguistic Study. – Seoul: Kyobo Books, 2008. – 312 p.
5. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: CUP, 2018. – 500 p.
6. Houghton, D. Mythology in Modern Gaming Names // Journal of Onomastics. – 2019. – Vol. 14. – P. 45-58.
7. Iminov, J. O‘zbek milliy o‘yinlari terminologiyasi. – Farg‘ona: Fardu nashriyoti, 2021. – 95 b.
8. Johnson, K. Place Names in Sports History. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2010. – 156 p.
9. Kang, S. Cultural Semantics of Korean Play Words. – Busan: PNU Press, 2015. – 275 p.
10. Kim, J. Onomastic Layers in Korean Culture. – Incheon: Inha University Press, 2013. – 220 p.
11. Lass, R. Historical Linguistics and Language Change. – Cambridge: CUP, 2000. – 340 p.
12. Madvaliev, A. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. – 256 b.
13. Means, B. The Effectiveness of Online and Blended Learning: A Meta-Analysis of the Empirical Literature / B. Means [et al.] // Teachers College Record. – 2013. – Vol. 3. – P. 1-47.
14. Park, Y. Evolution of Korean Folk Game Names // Journal of Korean Linguistics. – 2017. – Vol. 9. – P. 102-115.
15. Richard, J. The Language of Video Games. – London: Palgrave Macmillan, 2021. – 320 p.
16. Saparov, M. O‘zbek tili onomastikasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2009. – 178 b.
17. Smith, G. Transonymization in Modern English // Onoma Journal. – 2014. – Vol. 49. – P. 89-104.
18. Tursunov, U. O‘zbek tili leksikologiyasi va onomastikasi. – Toshkent: Universitet, 2002. – 190 b.
19. Yoon, H. Symbolic Meaning of Game Names in Korea. – Seoul: SNU Press, 2019. – 198 p.

FILOLOGIYA

O‘ZBEK TOPONIMLARINI LEKSIKOGRAFIK TASVIRLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

UO‘K 95(575.171)

**Kurbanbayeva
Barno,
Urganch innovatsion
universiteti
magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek toponimlarini leksikografik tasvirlashning nazariy va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida toponimik leksikografiyaning asosiy tamoyillari, toponimlarni lug‘atlarda ifodalash usullari hamda ularning etimologik, semantik va grammatik xususiyatlarini aks ettirish muammolari ko‘rib chiqilgan.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические и методологические основы лексикографического описания узбекских топонимов. В рамках исследования рассмотрены основные принципы топонимической лексикографии, способы представления топонимов в словарях, а также проблемы отражения их этимологических, семантических и грамматических особенностей.

Annotation: This article explores the theoretical and methodological foundations of the lexicographic description of Uzbek toponyms. Within the framework of the study, the main principles of toponymic lexicography, methods of representing toponyms in dictionaries, and the issues related to reflecting their etymological, semantic, and grammatical features are examined.

Kalit so‘zlar: toponimika, leksikografiya, toponimik lug‘at, o‘zbek tili, etimologiya, semantika, onomastika, joy nomlari, lug‘at maqolasi, metodologiya.

Ключевые слова: топонимика, лексикография, топонимический словарь, узбекский язык, этимология, семантика, ономастика, географические названия, словарная статья, методология.

Key words: toponymy, lexicography, toponymic dictionary, Uzbek language, etymology, semantics,

onomastics, place names, dictionary entry, methodology.

Har bir xalqning madaniy merosi va tarixiy xotirasi uning tilida, xususan, joy nomlarida o'z aksini topadi. Toponimlar nafaqat geografik Obyektlarni nomlash vositasi, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasini, dunyoqarashini va etnik o'ziga xosligini aks ettiruvchi bebaho lingvistik manba hisoblanadi. O'zbekiston hududidagi minglab toponimlar ko'p asrlik tarixiy jarayonlarning, etnik aloqalarning va madaniy ta'sirlarning tirik guvohlari sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Aynan shu sababli toponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish, tizimlashtirish va leksikografik tasvirlash masalasi zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan [1]. Toponimik leksikografiya onomastika va leksikografiyaning tutashgan sohasi sifatida joy nomlarini lug'atlarda ilmiy asosda tasvirlash tamoyillari va usullarini ishlab chiqadi. Biroq o'zbek tilshunosligida toponimik leksikografiyaning nazariy-metodologik asoslari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan bo'lib, mavjud toponimik lug'atlar ko'pincha bir xil standartga ega emas va turli metodologik yondashuvlarga asoslanadi [2]. Bu holat toponimlarni lug'atlarda tasvirlashning yagona ilmiy tizimini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy toponimik meros yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hozirgi davrda toponimlarni leksikografik jihatdan to'liq va ilmiy asosda qayd etish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi o'zbek toponimlarini leksikografik tasvirlashning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, mavjud ilmiy yondashuvlarni tanqidiy tahlil qilish hamda toponimik lug'at maqolasining optimal tuzilmasini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda birinchi marta o'zbek toponimik leksikografiyasining nazariy asoslari kompleks ravishda tahlil qilinib, toponimlarni lug'atlarda tasvirlashning zamonaviy talablarga javob beradigan modeli taklif etilgan. Tadqiqot natijalari o'zbek toponimik lug'atlarini tuzishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda asosan tahliliy, tarixiy-qiyosiy va tizimli-tarkibiy metodlar qo'llanilgan. Tahliliy metod yordamida mavjud ilmiy adabiyotlar va leksikografik

manbalar o'rganilgan, tarixiy-qiyosiy metod orqali toponimik leksikografiyaning rivojlanish bosqichlari kuzatilgan, tizimli-tarkibiy metod esa toponimlarni lug'atlarda tasvirlash tizimining elementlarini aniqlashga xizmat qilgan. Tadqiqotning empirik bazasini o'zbek tilshunosligida toponimika va leksikografiya bo'yicha nashr etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar tashkil etadi. O'zbek toponimikasining ilmiy-nazariy asoslari S. Qorayevning fundamental tadqiqotlarida chuqur yoritilgan bo'lib, olim toponimikaning predmeti, vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasini batafsil tahlil qilgan [3]. Uning fikricha, toponimika nafaqat tilshunoslikning, balki tarix, geografiya, etnografiya va arxeologiyaning ham muhim ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Qorayev toponimlarni tasniflashning turli mezonlarini ishlab chiqib, ularni kelib chiqishi, tuzilishi va semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlashtirgan. Biroq olimning tadqiqotlarida toponimlarni leksikografik tasvirlash masalalariga yetarli e'tibor qaratilmagan bo'lib, bu yo'nalish keyingi tadqiqotlar uchun ochiq qolgan.

O'zbekiston toponimlarining o'rganilish tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda mamlakatimiz hududidagi joy nomlarini ilmiy jihatdan o'rganishning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari aniqlangan [4]. Tadqiqotchilar o'zbek toponimikasining mustaqil fan sifatida shakllanishida rus va sovet maktabi ta'sirini ta'kidlagan holda, milliy toponimik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlarini ham belgilab berganlar. Xususan, o'zbek toponimlarining ko'p qatlamlilik, ya'ni ularning turk, fors-tojik, arab va rus tillari elementlarini o'z ichiga olishi muhim metodologik muammo sifatida ko'rsatilgan. B. Yuldosheva va Sh. Latipovanning hamkorlikdagi tadqiqotida O'zbekistonning tarixiy-geografik nomlari va ularning etimologiyasi masalalari o'rganilgan [5]. Olimlar qadimiy toponimlarning kelib chiqishini tarixiy manbalar asosida aniqlashga harakat qilganlar. Ularning tadqiqoti toponimik leksikografiya uchun muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki har bir toponimning etimologiyasini to'g'ri aniqlash lug'at maqolasining eng muhim qismlaridan birini tashkil etadi.

M.B. Safarovaning tadqiqotida etnotoponimlarning yasash xususiyatlari o'rganilgan [6]. Olima etnik nomlardan hosil bo'lgan toponimlarning tuzilishini tahlil qilib, ularning asosiy yasash modellarini aniqlagan. Bu tadqiqot toponimlarni semantik jihatdan tasniflash va lug'atlarda ularning kelib chiqishini ko'rsatish metodikasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. D. Sativoldiyevaning tadqiqotlarida o'zbek tili toponimik tizimida konversiya hodisasi chuqur o'rganilgan [2, 7]. Olima toponimlarning so'z turkumlari o'rtasidagi o'tishini, xususan, ot-sifat, ot-fe'l konversiyasini tahlil qilib, toponim yasashining muhim usullaridan birini yoritgan. Uning fikricha, konversiya o'zbek toponimikasida keng tarqalgan hodisa bo'lib, uni leksikografik tasvirlashda hisobga olish zarur [7]. Masalan, "Oq" toponimi dastlab sifat bo'lib, keyinchalik joy nomi sifatida mustaqil ma'no kasb etgan.

Toponimlarning leksik tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotda joy nomlarining lug'aviy xususiyatlari, sinonimiya, antonimiya va polisemiya hodisalari o'rganilgan [8]. Tadqiqotchilar toponimlar tizimida ham umumlug'aviy hodisalarning kuzatilishini ko'rsatganlar. Bu nazariy xulosalar toponimik leksikografiya uchun muhim, chunki lug'at maqolasida toponimning sinonim va antonim munosabatlarini ham aks ettirish mumkin. Turkiy tilshunoslikda oikonimlar va toponimiya masalalari bo'yicha olib borilgan metodologik tadqiqotda toponimlarni o'rganishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan [9]. B. Mengliyevning o'zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolariga bag'ishlangan fundamental asarida onomastika va leksikografik masalalar ham yoritilgan [10]. Olim tilshunoslikdagi turli yo'nalishlarning o'zaro aloqasini tahlil qilib, leksikografiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda onomastik materialning ahamiyatini ko'rsatgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek toponimlarini leksikografik tasvirlashning nazariy-metodologik asoslari hali to'liq ishlab chiqilmagan bo'lib, bu sohada bir qator muhim muammolar mavjud. Birinchidan, toponimik lug'at maqolasining yagona standart tuzilmasi yaratilmagan. Mavjud lug'atlarda toponimlar turli hajmda va turli tarkibiy qismlar bilan tasvirlangan bo'lib, bu

ulardan foydalanishda qiyinchilik tugʻdiradi. Ikkinchidan, toponimlarning etimologiyasini aniqlash va lugʻatlarda aks ettirish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Koʻplab toponimlarning kelib chiqishi haqida turli versiyalar mavjud boʻlib, leksikograf qaysi versiyani tanlashi yoki barcha versiyalarni keltirishni hal qilishi kerak. Uchinchidan, toponimlarning grammatik xususiyatlarini, xususan, ularning kelishik qoʻshimchalari bilan qoʻllanishini tasvirlash masalasi ham yetarli eʼtibor talab qiladi.

Toponimik lugʻat maqolasining optimal tuzilmasini aniqlash uchun biz mavjud tajribalarni umumlashtirib, quyidagi modelni taklif etamiz. Birinchi navbatda, toponimning sarlavha soʻz sifatida yozilishi va talaffuzi berilishi kerak. Oʻzbek tilida koʻplab toponimlar ikki xil yozuv shaklida mavjud boʻlib, masalan, lotin va kirill alifbolarida, shuningdek, baʼzi toponimlarning tarixiy yozuv shakllari ham farqlanadi. Lugʻat maqolasida asosiy zamonaviy shakl bilan birga tarixiy va variantli shakllar ham koʻrsatilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, toponimning grammatik xususiyatlari, xususan, qaysi kelishik qoʻshimchalari bilan qoʻllanishi, koʻplik shaklining mavjudligi yoki yoʻqligi, shuningdek, boshqa soʻzlar bilan birikish xususiyatlari berilishi lozim. Uchinchidan, toponimning etimologiyasi, yaʼni kelib chiqishi haqida maʼlumot beriladi. Bu qismda toponimning qaysi tildan olinganligi, uning asl maʼnosi va vaqt oʻtishi bilan sodir boʻlgan oʻzgarishlar yoritiladi. Toʻrtinchidan, toponimning maʼnosi, yaʼni u qanday geografik Obyektni (shahar, qishloq, daryo, togʻ va h.k.) ifodalashi koʻrsatiladi. Beshinchidan, toponimning qoʻllanish misollari, xususan, adabiy asarlar, tarixiy hujjatlar yoki ogʻzaki nutqdan olingan namunalar keltiriladi. Oltinchidan, toponimning lingvokulturologik va etnografik maʼlumotlari, yaʼni u bilan bogʻliq rivoyatlar, tarixiy voqealar yoki madaniy maʼlumotlar berilishi mumkin.

Toponimlarni semantik jihatdan tasniflash leksikografik tasvirlashda muhim ahamiyatga ega. Oʻzbek toponimlarini kelib chiqishiga koʻra bir necha guruhga boʻlish mumkin: tabiat hodisalari bilan bogʻliq toponimlar (Oqdaryo, Qoratepa),

o'simlik va hayvon nomlari bilan bog'liq toponimlar (Olmazor, Burgutli), etnik va qabila nomlari bilan bog'liq toponimlar (Qo'ng'iroq, Nayman), shaxs nomlari bilan bog'liq toponimlar (Navoiy, Alisher), kasb-hunar nomlari bilan bog'liq toponimlar (Temirchilik, Kulollik) va boshqalar. Lug'at maqolasida toponimning qaysi semantik guruhga mansubligi ko'rsatilishi uning ma'nosini to'liq anglashga yordam beradi. Konversiya hodisasi toponimik leksikografiya alohida e'tiborni talab qiladi. D. Sativoldiyeva ta'kidlaganidek, o'zbek tilida ko'plab toponimlar boshqa so'z turkumlaridan, xususan, sifat va otlardan konversiya yo'li bilan hosil bo'lgan [2, 7]. Masalan, "Sariq" dastlab rang bildiruvchi sifat bo'lib, keyinchalik joy nomi sifatida mustaqil ma'no kasb etgan. Bunday holatlarni lug'atlarda tasvirlashda toponimning yasash usuli va asl so'z turkumi ko'rsatilishi ilmiy jihatdan muhim. Bu ma'lumot toponimning etimologiyasini to'g'ri aniqlash va uning semantik rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

Toponimik leksikografiyaning muhim muammolaridan biri variantli shakllar masalasidir. O'zbek toponimlarining ko'pchiligi ikki yoki undan ortiq shakllarda qo'llanadi. Masalan, ba'zi toponimlar rasmiy va norasmiy shakllarda farqlanadi, ba'zilari esa turli tarixiy davrlarda turlicha yozilgan. Lug'at maqolasida bu variantlar qay tarzda aks ettirilishi kerakligi muhim metodologik savoldir. Bizning fikrimizcha, asosiy zamonaviy shakl sarlavha so'z sifatida berilishi, variantlar esa qavsda yoki alohida ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Toponimlarning etimologiyasini lug'atlarda aks ettirish eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Ko'plab toponimlarning kelib chiqishi haqida turli ilmiy versiyalar mavjud bo'lib, ba'zilari hali aniqlanmagan. Leksikograf bu muammoni ikki usulda hal qilishi mumkin: birinchidan, eng ishonchli va keng qabul qilingan versiyani asosiy deb ko'rsatish, ikkinchidan, mavjud barcha versiyalarni keltirish va ularning ishonchlilik darajasini baholash [3, 5]. Ikkinchi yondashuv ilmiy jihatdan to'g'riroq bo'lsada, lug'at maqolasining hajmini oshiradi. Shuning uchun universal yechim yo'q va leksikograf har bir holatda alohida qaror qabul qilishi kerak. Zamonaviy toponimik leksikografiya faqat an'anaviy bosma lug'atlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Elektron va onlayn

lugʻatlar toponimik maʼlumotlarni yanada toʻliq va qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida oʻzbek toponimlarini leksikografik tasvirlashning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinib, bir qator muhim xulosalarga kelingan. Birinchidan, oʻzbek toponimik leksikografiyasi hali shakllanish bosqichida boʻlib, toponimlarni lugʻatlarda tasvirlashning yagona standart tizimi yaratilishi zarur. Ikkinchidan, toponimik lugʻat maqolasining optimal tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga olishi kerak: toponimning yozilishi va talaffuzi, grammatik xususiyatlari, etimologiyasi, maʼnosi, qoʻllanish misollari va lingvokulturologik maʼlumotlari. Uchinchidan, toponimlarning konversiya yoʻli bilan yasalishi, variantli shakllar muammosi va etimologik versiyalarning koʻpligi leksikografik tasvirlashda hisobga olinishi lozim boʻlgan muhim omillar hisoblanadi. Toʻrtinchidan, zamonaviy elektron va onlayn lugʻatlar toponimik leksikografiyaning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochadi. Tadqiqot natijalari oʻzbek toponimik lugʻatlarini tuzishda amaliy qoʻllanma sifatida foydalanilishi va bu sohada yangi ilmiy ishlanmalar uchun nazariy asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mukimova, A.K. Expression of Toponyms in Uzbek Dictionaries / A.K. Mukimova // Ustozlar uchun. – 2025. – Vol. 84, No. 1. – P. 309–314. – URL: <https://journalss.org/index.php/ust/article/view/6230>
2. Sativoldiyeva, D. Conversion in the Toponymic System of the Uzbek Language / D. Sativoldiyeva // Oriental Journal of Philology. – 2025. – P. 101–107. – URL: <https://supportscience.uz/index.php/ojp/article/view/2853>
3. Qorayev, S. Toponimika: ilmiy-nazariy asoslari / S. Qorayev. – Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 318 b. – URL: <https://yangi.cspu.uz/toponimika>
4. Oʻzbekiston toponimlarining oʻrganilish tarixi // Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari. – 2023. – Vol. 1, No. 5. – B. 34–42. – URL: <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/931>

5. Yuldosheva, B. O‘zbekistonning tarixiy-geografik nomlari va ularning etimologiyasi / B. Yuldosheva, Sh. Latipova // Pedagogik Tadqiqotlar Jurnal. – 2024. – URL: <https://www.wosjournals.com/index.php/ptj/article/view/382>
6. Safarova, M.B. Ba’zi etnotoponimlarining yasalishi xususida / M.B. Safarova // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – B. 76. – URL: <https://erus.uz/index.php/er/article/view/2061>
7. Sativoldiyeva, D. Conversion in Toponymy of the Uzbek Language / D. Sativoldiyeva // Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – Vol. 3, Iss. 06. – P. 57–64. – URL: <https://frontlinejournals.org/journals/index.php/fsshj/article/view/386>
8. Toponimlarning leksik tahlili // Nauchniy Impuls. – 2023. – No. 13(100). – URL: <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/11776/7884/7572>
9. Oikonyms and Toponymy in Turkic Linguistics // O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim. – 2025. – URL: <https://qarshidu.uz/source/Ilmiy%20jurnal/2025/QarDu%20xabarlari%20Ijtimoiy-gumanitar%202025.%20tayyor.pdf>
10. Mengliyev, B. O‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari / B. Mengliyev. – 2019. – 534 b. – URL: <https://lib.bimm.uz/items/4685>

FILOLOGIYA

ONLAYN KOLLABORATIV HAMKORLIK: INTEGRATIV LOYIHALAR TAHLILI

**Oydin Berdieva,
O‘zJOKU stajer
tadqiqotchisi**

UO‘K 95(575.171)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy media makonida onlayn kollaboratsiya va integrativ loyihalarning roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif kollaboratsiyani raqobatni hamkorlikka aylantirish san’ati sifatida talqin qilib, uning asosiy ko‘rinishlarini (Obyekt+Obyekt, brend+brand va h.k.) ko‘rsatib o‘tadi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение онлайн-коллаборации и интегративных проектов в современном медиaprостранстве. Автор интерпретирует коллаборацию как искусство превращения конкуренции в сотрудничество, выделяя её основные формы (объект+объект, бренд+бренд и др.).

Annotation: This article analyzes the role and significance of online collaboration and integrative projects in the modern media landscape. The author interprets collaboration as the art of turning competition into cooperation, highlighting its primary forms (object+object, brand+brand, etc.).

Kalit so‘zlar: media kollaboratsiya, integratsiya, sinergiya nazariyasi, surishtiruv jurnalistikasi, raqamli platformalar, kontent strategiyasi, ICIJ, VR texnologiyalar.

Ключевые слова: медиаколлаборация, интеграция, теория синергии, исследовательская журналистика, цифровые платформы, контент-стратегия, ICIJ, VR-технологии.

Key words: media collaboration, integration, synergy theory, investigative journalism, digital platforms, content strategy, ICIJ, VR technologies.

Kolloboratsiya bu raqobatni hamkorlikka aylantirish san’atidir. Agar siz tez yurmoqchi bo‘lsangiz, yolg‘iz yuring ammo uzoqqa bormoqchi bzo‘lsangiz birga

yuring¹. Kollobarativ harakatlar turli yo‘nalishlarda jarayon sifatida davom etib rivoj topib kelmoqda. Kollobaratsiya bu ikki yoki undan ortiq Obyekt (brend, tashkilot, vosita, jarayon, OAV)ning birlashish orqali umumiy kontent yaratish jarayonidir. Ushbu o‘zaro birlashish jarayonida ijodiy resurslar va tajribani birlashtirish orqali auditoriya bilan o‘rtoqlashish, qamrovni kengaytirish va e’tiborni tortish imkonini beradi. Oddiy reklaman farqli o‘laroq, hamkorlik umumiy maqsadga erishish uchun chunqun hamkorlik va o‘zaro hamoxanglikda ishlashni taqazzo etadi. Media hamkorlikning asosiy jihatlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Obyekt + Obyekt hamkorlikdagi strimming video kontentlarini tashkil qilish.
- Obyekt + brand hamkorligi blogger ma’lum bir brand ambassadori sifatida aniq bir tashkillashtirilgan kolleksion ishlarda ishtirok etadi.
- Brand + brand hamkorlikdagi biror maxsus tovar mahsulotini yaratish.

Yuqoridagi hamkorlik turlarida qo‘shimcha auditoriya turlarini qamrab olish hamda ikkala Obyekt uchun qo‘shimcha imkoniyatlar ochadi. Jahon amaliyotida media kollaboratsiya bu nafaqat ikki brendning birlashishi, balki auditoriyani kengayishi, yangi formatlarni sinab ko‘rish va moliyaviy barqarorlikka erishish usuli hamda strategiyasidir. Quyidagi dunyoning yirik media kompaniyalari va turl sohalalr o‘rtasidagi muvaffaqiyatli kollaboratsiyalarga doir aniq misollar va ularning tahlilini keltiriramiz:

1.VR media va texnologiyalarning hamkorlik loyihalari *The New York Times, The Sun, The Daily News* singari nashrlarda. Bu media va ommaviy axborot tarixidagi eng innovatsion hamkorliklardan biri hisoblanadi. *NYT VR*. Google kompaniyasi NYT obunachilariga 1 milliondan ortiq "Google Cardboard" (virtual borliq ko‘zoynaklari) tarqatgan. Ushbu loyihada an’anaviy jurnalistika matnini virutal borliqa VR bilan faoliyatini ko‘rsatishdan iborat edi. Natijada auditoriya urush hududlari yoki turli tabiat hodisalari haqidagi

¹ <https://kokoc.com/blog/kollaboraciya-chto-eto/>

reportajlarni ichidan turib his qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu NYT ilovasini yuklab olinishi rekord darajagacha ko'tarildi.

2.Netflix va "Stranger Things" brendlar bilan kollaborativ hamkorlikda o'z seriallarini targ'ib qilish hamda media loyihalarning "cross-promotion" usulidan mahorat bilan foydalanadi. Masalan, *Stranger Things* serialining 3-fasli chiqishi oldidan Netflix **Coca-Cola**, **Burger King** va **Nike** bilan birlashdi. Coca-Cola 1985 yildagi (serial voqealari sodir bo'lgan davr) muvaffaqiyatsiz "New Coke" ichimligini cheklangan miqdorda qayta ishlab chiqardi. Natijada bu nafaqat serialning ko'rilish sonini oshirdi, balki brendlar uchun ham kuchli "nostalgik marketing" vazifasini o'tadi.

3.Spotify va Hulu paketli obunasi iqtisodiy media kollobaratsiyaning en yaxshi namunasidir. Loyihada ikki xil yo'nalishdagi (musiqa va video) gigantlar bitta obuna paketini taklif qilindi. Foydalanuvchi bitta narx evaziga ham Spotify Premium, ham Hulu xizmatidan foydalanish imkoniga ega bo'ldi. Bu "churn rate" (obunachilarning chiqib ketishi) ko'rsatkichini keskin kamaytirishga yordam berdi.

4.ICIJ panama hujjatlari jurnalistik kollaboratsiya professional media hamkorlikning eng yuqori nuqtasi bo'lib, tijoriy emas, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. *The Panama Papers*. Dunyoning 80 ta davlatidan 100 dan ortiq media tashkilotlar (shu jumladan *The Guardian*, *Le Monde*, *BBC*) birlashib, maxfiy hujjatlarni tahlil qilishdi. YOlg'iz bir tahririyat qila olmaydigan ulkan hajmdagi ma'lumotlar (11.5 million hujjat) qayta ishlandi va global korrupsiya fosh etildi.

5.Vogue va Snapchat an'anaviy jurnal hamda yoshlar ijtimoiy tarmog'i o'rtasidagi hamkorlik loyihasida AR (kengaytirilgan borliq) texnologiyasi orqali Vogue ko'rgazmalaridagi liboslarni foydalanuvchilar o'zlarida "kiyib ko'rishlari" uchun filtrlar yaratdi. Natijada *Vogue* brendi "eski avlod jurnali" tamg'asidan xalos bo'lib, Gen Z (Z-avlodi) auditoriyasiga kirib bordi.

Media kollaboratsiyaning muvaffaqiyat omillari

Omil	Tavsifi
Audience Overlap	Ikkala tomonning auditoriyasi bir-birini to'ldirishi kerak.
Shared Values	Brendlarning qadriyatlari to'g'ri kelishi (masalan, ekologik media + ekobrend).
Tech Integration	Yangi texnologiyalarni (AI, AR, VR) media mahsulotga singdirish.
Mutual Benefit	Bir tomon qamrov (reach) olsa, ikkinchi tomon kontent sifatini oladi.

Jahon amaliyotida amaliyotida media kollobarativ ishlar ko'proq platformalar va texnologik kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik jarayonlarida ko'proq kuzatilmoqda. Bular jurnalistlar, nashrlar, platformalar va hatto texnologiya kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik bo'lib, maqsad — chuqurroq materiallar tayyorlash, auditoriyani kengaytirish, resurslarni tejash va global muammolarni yoritishda foydalanilmoqda. Bularning aksariyati ICIJ, Covering Climate Now va boshqa global tarmoqlar orqali amalga oshirilgan. 2024–2026 yillardagi eng muhim va ta'sirli loyihalar asosan investigative journalism, cross-platform va content partnerships doirasida ekanligini guvohi bo'lamiz. Center for Cooperative Media (Montclair State University) 2025 yilning eng yaxshi 10 ta kollaboratsiyasini e'lon qildi. Bular global ta'sirga ega. Jumladan¹:

- The 89 Percent Project (Covering Climate Now) 2025 yil aprelda boshlangan yillik global loyiha. Iqlim o'zgarishi bo'yicha dunyo aholisining 80–89% hukumatlardan kuchliroq chora ko'rishni talab qilishi haqida. Ko'plab mamlakatlar OAVlari ishtirok etgan.
- Damascus Dossier (ICIJ) Suriyaning sobiq prezidenti Bashar Asad rejimidagi qamoqxonalar, qiynoqlar va o'limlar haqida. 20 mamlakatdan 24 ta media hamkorlik qilgan, 134 000+ hujjat va 70 000+ foto tahlil qilingan.
- China Targets va The Coin Laundry (ICIJ) China Targets: Xitoyning transmilliy repressiyalari (Chekmas). The Coin Laundry: Kriptoalyuta

¹<https://www.dg-yug.ru/article/20207549.html><https://www.dg-yug.ru/article/20207549.html>

platformalari orqali jinoyat pullari yuvilishi (37 mamlakatdan 100+ jurnalist, 35 ta nashr). Bularning hammasi ICIJ (International Consortium of Investigative Journalists) orqali amalga oshirilgan — bu jahondagi eng yirik investigative kollaboratsiya tarmog‘i hisoblanadi.

Yana bir qator muhim media kollaborativ loyihalarga 2024- 2026 yillardagi ishlarni misol qilish mumkin¹:

–Disney+, Hulu va Max (Warner Bros. Discovery + Disney) 2024–2025 yillarda AQSHda bandl (birga obuna) paketi chiqarilgan: \$16.99 (reklama bilan) yoki \$29.99 (ads-free). Bu striming bozoridagi eng yirik hamkorliklardan biri — obuna narxini pasaytirib, auditoriyani kengaytirgan. Netflix va Carrefour (Fransiya), Dia va Disney+ (Ispaniya), Instacart va Peacock (AQSH)

–2024–2025 yillarda striming platformalari riteyl kompaniyalar bilan hamkorlik qilib, obunani arzonlashtirgan yoki bandl qilgan“ beyond entertainment” hamkorliklarning yangi trendi.

–Apple va Google Gemini (2026) Apple o‘zining Siri'sini Google'ning Gemini AI bilan integratsiya qilmoqda. Bu raqiblar o‘rtasidagi hamkorlik — AI media va qidiruvdagi eng katta o‘zgarishlardan biri.

–Local media collaboratives (AQSH misollari) Colorado News Collaborative (CoLab) — 100+ nashr birga ishlaydi (jurnalistika + biznes modellar).

Chicago Independent Media Alliance — 60+ nashr, umumiy fundraising va reklama sotish. Bular lokal jurnalistikani saqlash uchun biznes tomondan ham hamkorlik qilishning yaxshi namunasi. Nazariy jihatdan kollaboratsiya zamirida **sinergiya nazariyasi** yotadi. Bunda hamkorlar bir-birining kuchli tomonlarini to‘ldiradi. Bir tomonning nufuzi va ishonchliligi (authority), ikkinchi tomonning tezkorligi va vizual mahorati bilan birlashganda, bozorda raqobatbardosh mahsulot paydo bo‘ladi.

¹ <https://www.amazon.com/Radical-Collaboration-Defensiveness-Successful-Relationships/dp/0060742518>

Resurslar tejamkorligi: Tadqiqot va kontent yaratish xarajatlari ikkiga bo'linadi.

- **Yangi auditoriyaga chiqish:** Hamkor brendning sodiq o'quvchilari sizning kontentingiz bilan tanishadi.
- **Imij transferi:** Nufuzli brend bilan ishlash kichik media loyihaning obro'sini keskin oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, media kollaboratsiya – bu raqobatdan ko'ra hamkorlikni ustun qo'yish san'atidir. Kelajak mediiasi faqatgina ma'lumot tarqatuvchi emas, balki boshqa sohalar bilan integratsiyalasha olgan egiluvchan tizimlardan iborat bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Radical Collaboration: Five Essential Skills to Overcome Defensiveness and Build Successful Relationships. Paperback – Illustrated, December 13, 2005.
2. Crucial Conversations: Tools for Talking When Stakes are High, Third Edition Paperback – September 30, 2021
3. Co-Opetition Hardcover – May 1, 1996 by [Adam M. Brandenburger](#) (Author), [Barry J. Nalebuff](#). <https://www.amazon.com/Co-Opetition-Adam-M-Brandenburger/dp/0385479492>
4. Exploring Cross-Industry Collaborations: Case Studies of Unlikely Partnerships Driving Innovation. Cotter Joe. USE-2025. <https://www.socialtargeter.com/blogs/exploring-cross-industry-collaborations-case-studies-of-unlikely-partnerships-driving-innovation>
5. Chad McKenzie. Multi-platform creator partnerships: Monetization strategies that drive ROI across social channels. <https://impact.com/influencer/multi-platform-creator-partnerships/>

FILOLOGIYA

XOKKU AN'ANALARINING BADIY TALQINI



**Mushtariybegim
Ismoilova,
Sharof Rashidov
nomidagi Samarqand
davlat universiteti
talabasi**

UO‘K 95(575.171)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rauf Parfi she'riyatida yapon xokku poetikasiga xos bo'lgan badiiy xususiyatlar tahlil qilinadi. Xususan, ixchamlilik, lahzalik, tabiat obrazlari, ramziylik va sukut poetikasi kabi jihatlar shoir she'rlari misolida ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются художественные особенности японского хокку в творчестве Rauf Parfi. Особое внимание уделяется таким аспектам, как краткость, мгновенность, образы природы, символизм и поэтика молчания, которые раскрываются на примере стихотворений поэта.

Annotation: This article analyzes the poetic features characteristic of Japanese hokku in the works of Rauf Parfi. In particular, aspects such as brevity, momentariness, nature imagery, symbolism, and the poetics of silence are explored through the poet's works.

Kalit so‘zlar: Rauf Parfi, xokku, poetika, ixchamlilik, ramziylik, tabiat obrazi, lahzalik, sukut poetikasi, o‘zbek she'riyati, qiyosiy tahlil.

Ключевые слова: Рауф Парфи, хокку, поэтика, краткость, символизм, образ природы, мгновенность, поэтика молчания, узбекская поэзия, сравнительный анализ.

Key words: Rauf Parfi, hokku, poetics, brevity, symbolism, nature imagery, moment, poetics of silence, Uzbek poetry, comparative analysis.

Xokku — yapon she'riyatining eng qadimiy va muhim shakllaridan biri bo'lib, uning tarixi renga va renku kabi bog'langan she'r an'alariga borib taqaladi. Renga va renku an'alarida hokku dastlab **renga** (bog'langan she'r) va keyinchalik **renkuning ochilish bandi** sifatida yaratilgan. Uni odatda **eng hurmatli mehmon** yozgan va unda: **faslga oid ishoralar** (kigo) bo'lishi shart. Bunda mehmonning kamtarligi yoki mezbonning e'tirofi ifodalanadi. Xokkuda **kireji** (kesuvchi so'z) ishlatilib, ohangdor pauza yoki ta'sir kuchaytiriladi. Xokku odatda **17 mora** (yapon tilidagi bo'g'inga o'xshash fonetik birlik)dan iborat

bo'lgan. Uning qisqaligi **aniq tasvirlar** va **chuqur hissiyotlarni** ifodalashni talab qilgan. Shu bois, xokku uzun she'rlardan ham ajralib turgan.

XIX asr oxirida yapon shoiri **Masaoka Shiki** xokkuni mustaqil she'r sifatida qayta ta'riflab, unga **xaiku** nomini bergan.⁽¹⁾ Shundan so'ng xokku endi renga yoki renkuga bog'liq bo'lmay, **mustaqil she'r** sifatida yashay boshlagan. Bugun "xaiku" atamasi ko'pincha avvalgi mustaqil xokkularda ham qo'llanadi. Xokku — **bir lahzani tutib qolish** san'ati: qushning chinqirishi, bargning tushishi yoki shamolning esishi. Uning fasllarga e'tibor va hissiy nozikligi uni butun dunyo bo'ylab mashhur qildi. Hozir ham xokku **bog'langan she'rning kirish bandi** sifatida ishlatiladi. Xaiku esa mustaqil shaklda rivojlanmoqda. Xokku dastlab renga uchun kirish bandi bo'lib yaratilgan, Shiki uni mustaqil shaklga — xaikuga aylantirgan va bugungi kunda u qisqaligi, tabiatga e'tibori va hissiy kuchi bilan seviladi. "Eski yapon she'riyati qofiyaga emas, bo'g'in (hijo)ga asoslangan she'rdir. Masalan, xayku 17 bo'g'inli, shaklan 5-7-5; tanka esa 31 bo'g'inli, shaklan 5-7-5-7-7 ko'rinishga ega. Shuningdek, qadimgi yapon she'riyatida "she'r" bilan "misra" yoki "satr" bir xil ma'noni anglatmagan. O'sha davr shoirlari she'rni so'z yoki satrga bo'lmasdan ustun (sutun) shaklida yozishgan. Qolaversa, hamma shoirlar ham xayku va tankaning shakliy talablariga rioya qilmaganlar. Masalan, Basyo ijodida bu hol yorqin ko'rinadi. Yapon she'ri (tanka, xokku (xayku)) tom ma'noda shoir kayfiyatini belgilaydi. Kitobxon mana shu kayfiyatni anglamay turib, she'r sehrini sezmasligi mumkin. Tanka, xokku mutolaasi ichki ovoz madaniyati saviyasiga bog'liq. Uch yoki besh satrda shoir juda ko'p taassurotlarni aks ettiradi. Yapon shoiri hodisani tahlil qilib o'tirmaydi, uning sababini ochmaydi, balki tahlil haqiqat oldida ojizdir, degan nuqtai nazardan kelib chiqib, uni boshqa — hali ko'rsatilmagan tomonidan tasvirlaydi. Xayku (xokku)ga berilgan ta'riflar juda ko'p. Bu ta'riflar rang-barang bo'lsa-da, mazmunan bir fikrni namoyon etadi. Ulug' yapon shoirlari xokku uchun eng muhimi – taassurot va taassurotni aks ettirishning tabiiyligi, deb tushunganlar. Xokkuni Basyo buni "fueki ryuko" deb atagan. Tarjimasi "mangu va o'tadigan o'tkinchi" yoki "o'zgarmas va oniy" degan ma'noni bildirgan ijodiy tamoyil asosida yaratiladi. Basyoning fikricha, "haqiqiy xokku o'zida ikki unsumni mujassam etmog'i shart: birinchidan, taassurotning oniy va doimiylikka doxil bo'lishi; ikkinchidan, taassurot faqatgina o'z manbai bo'lmish lahza yoki hodisaga xos bo'lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytsak, xokku oddiy bir manzara (o'tlayotgan ot, suvga sakragan qurbaqa, shamol qayirgan bambuk, olcha gulining to'kilishi, qush qichqirig'i) taassuroti sabab ko'ngildan kechgan doimiy

(mangu) his-tuyg‘u mevasi bo‘lmog‘i kerak. Bu ikki unurning qarama-qarshi kelishi, amerikalik yaponshunos Donald Kinning e‘tirof etishicha, “ikki qutb o‘rtasidagi elektr quvvatiga ega maydonni tashkil etadi”. Bu ikki qutb bir-biridan qancha yiroq bo‘lsa, she‘rxon ikki qutb o‘rtasidagi maydonda qancha uzoq qolib ketsa, she‘r shunchalik barkamol hisoblangan. Uch yuz yil mobaynida yaratilgan xaykularni bir muqova ostida jamlab nashr etgan yapon shoiri Yudzuru Miura ta‘rificha: “*Xayku – o‘n yetti bo‘g‘indan iborat olami sag‘ir, ya‘ni mikrokosmosdir.*”(2)

“Yapon poeziyasida xokku deb ataluvchi she‘rning bir turi bo‘lib, qisqaligi va go‘zalligi bilan o‘ziga xosdir. Xokkuda tabiat va tabiat orqali inson kayfiyati aks ettiriladi. Xokku uch misradan tashkil topgan qofiyasiz she‘rdir. Birinchi misra besh bo‘g‘in, ikkinchi misra yetti bo‘g‘in, uchinchi misra besh bo‘g‘in – hammasi o‘n yetti bo‘g‘in bo‘lib, bu shakl qat‘iy emas. Xokku yozish katta mazmunni oz so‘z bilan ifoda etish san‘atidir. Xokku tasviriy san‘atga yaqindir. Rassomlar Xokkuda tasvirlangan ifodani rasmda aks ettirishi yoki shoir rassom chizgan suratga qarab xokku yozishi mumkin. Shamol, bulbul navosi, kakku ovozi, umuman, har bir tovushning o‘z ma‘nosi bor va bu har xil kayfiyat va hissiyot uyg‘otadi. E‘tiborsiz o‘qilgan uchlik o‘zining asl ma‘nosidan mahrumdir.” (6)

Xokku yozish an‘anasi o‘zbek adabiyotida Rauf Parfi ijodida uchraydi. Rauf Parfi 1961-yilda yapon xokkularini tarjima qiladi. Shuningdek, o‘z ijodida ham xokku namunalari namoyon bo‘ladi. Shoir she‘riyatida xokku janri qat‘iy klassik qoida bilan cheklanmagan. U xokku uchliklarini (3 qatorli ixcham she‘rlarni) ma‘no, ritm va falsafiy chuqurlik jihatdan ustun qo‘yadi, an‘anaviy 5-7-5 qadamlar yoki tabiiy hodisa tasviri bilan chegaralamaydi. Shuningdek, u uchliklarda ichki ruhiy kechinmalar, insonning vaqt va taqdir bilan munosabati, falsafiy savollarni aks ettirishga katta e‘tibor beradi. Shuning uchun Parfi xokku uslubida qattiq formalizm emas, balki mazmuniy va falsafiy erkinlikni afzal ko‘radi. U uchliklarda tabiat yoki fasl tasvirini ishlatishi mumkin, lekin bu majburiy emas; asosiy vazifa – ruhiy lahza, ichki savol va ramziy obrazlar orqali o‘quvchida chuqur izlanish uyg‘otishdir. Masalan, ushbu uchlikni olaylik:

Ming yil kimni izladingiz

Ming yil sizni izladimmi men?

Bir zumda yo‘qotmak uchunmi?

She’rda “ming yil” ramzi vaqtning uzoqligi va inson izlanishlarining abadiyligini bildiradi. “Sizni izladimmi men?” jumlasini insonning o‘z-o‘zini anglashini va taqdir bilan ichki suhbatini ifodalaydi. “Bir zumda yo‘qotmak uchunmi?” esa vaqtning tez o‘tishi va hayotning mo‘rtligini aks ettiradi. Shu uchlik orqali shoir inson ruhining abadiy savollarini va vaqt bilan bo‘lgan murakkab munosabatini ifodalaydi. Ritmik ixchamlilik, pauzalar va savol shaklidagi ohang she’rni zamonaviy xokku sifatida o‘qishga imkon beradi. U uchliklarda ichki monolog va falsafiy refleksiya orqali o‘quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi. Shu tariqa, Rauf Parfi xokku janrida ruhiy va falsafiy obrazlarni yaratib, klassik qoidalardan erkin, lekin mazmunan boy uslubni rivojlantiradi.

Rauf Parfi she’riyatida insoniy hayot va taqdirning murakkabligi, ezgu va yomon, adolat va yolg‘on, nur va zulm kabi qarama-qarshi kuchlar doimiy kurashda bo‘lishi tasvirlangan. Uning she’rlari faqat tabiiy hodisalarni yoki tashqi dunyoni kuzatish bilan cheklanmaydi; ular inson ruhining chuqur ichki kechinmalarini, axloqiy tanlovlarni va jamiyatdagi murakkab ijtimoiy jarayonlarni ham ochib beradi. Parfi shoir sifatida ezgu va yomonlik, adolat va nohaqlik, yorug‘lik va zulmat o‘rtasidagi abadiy mojaroning inson hayotidagi ta’sirini jonli va yorqin tasvirlaydi. Uning ijodida insoniy ruhiy tajriba va tabiat hodisalari bir-biri bilan uyg‘unlikda ifodalanadi. Shuningdek, u shoir sifatida o‘z zamonasining ijtimoiy-axloqiy muammolarini ham aks ettiradi. Shu tariqa, Rauf Parfi she’riyati inson ruhining murakkabligini, uning ichki kurashlari va dunyoqarashidagi chuqur falsafiy qatlamlarni o‘quvchiga sezdiradi.

“Qismat – bu she’riyat. She’riyatda shoirning birovdan yashiradigan maxfiy narsasi yo‘q. Faqat, she’rning sir-asrori bo‘ladi. Bu – badiiyatga aylangan qismat. Taqdirning olov ko‘zlarini ko‘ngliga joylagan she’r. Rauf Parfi ilk sherlaridanoq dunyoqarashi, ruhoniyligi, ma’naviy e’tiqodi shakllangan ijodkor sifatida o‘zligini namoyon qildi.” (5.94. Rahimjon No‘mon fikri)

Siz qachon keldingiz dunyoga,

Dunyo qachon sizni yaratdi.

Hech narsa yo‘q. Siz bor va men bor. (3, 352)

Shoir mavjudlikning mohiyati va insonning dunyodagi o‘rnini chuqur savol ohangida kitobxonga yetkazadi. U uchlik orqali vaqtning abadiyligi va insonning ichki kechinmalari haqida fikr yuritadi. Birinchi ikki qatorda inson va dunyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, hayot va mavjudlikning boshlanishi falsafiy tarzda

ifodalanadi. Uchinchisida esa hayotning soddaligi va mavjudlikning bevosita hissi ta’kidlanadi, bu esa kitobxonda ruhiy tafakkur va ichki izlanishni uyg‘otadi. Uchlikning ixcham va ritmik strukturasida har bir so‘z, pauza va ohang mazmunni kuchaytiradi. Shu bilan Rauf Parfi formal qoidalarga qattiq bog‘lanmasdan, falsafiy mazmun va lirik ruhiyatni ustun qo‘yadi. Natijada, bu uchlik zamonaviy hokku ruhiyatida lirik va falsafiy jihatdan kuchli she’riy obraz yaratadi. U insonning mavjudligi, vaqt va hayot haqidagi his tuyg‘u va tafakkur tarzini ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi she’riyatida uchliklar zamonaviy xokku ruhiyatining asosiy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. U formal xokku qoidalarga qattiq bog‘lanmasdan, mazmuniy va falsafiy mushohadaga e’tibor beradi. Har bir uchlik insonning mavjudligi, vaqt va dunyo bilan munosabati, shaxsiy ruhiy tajriba va kontemplativ tafakkurini shakllantiradi. Shoirning ixcham va ritmik so‘z ishlatishi, ramziy obrazlar va qarama-qarshi tushunchalarni uyg‘unlashtirishi she’rni lirik va falsafiy jihatdan boy qiladi.

Xokku ruhiyatiga xos ixchamlik, lahzalik va tabiat yoki inson ruhiy tajribasining ramziy ifodasi Rauf Parfi uchliklarida ham seziladi. U inson va dunyo, abadiylik va lahzalik, mavjudlik va yo‘qotish kabi qarama-qarshi tushunchalarni uyg‘unlashtiradi. Har bir uchlik – insonning dunyoda o‘z o‘rnini anglash, hayotning abadiyligi va lahzalik orasidagi noaniqlikni idrok etish va shu orqali falsafiy tafakkurga chorlovchi kuchli vosita. Rauf Parfi uchliklari nafaqat zamonaviy xokku ruhiyatini, balki falsafiy lirizm va estetikani uyg‘unlashtiradi. Rauf Parfi she’riyatidagi uchliklar shu jihatdan xokku ruhiyatining zamonaviy va falsafiy boy namunasini tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [the history of hokku - Search](#)
2. [Kobayashi Issa. Xaykular va tankalar \(Uchlik va beshliklar\) | Xurshid Davron kutubxonasi](#)
3. Rauf Parfi. Saylanma. I jild. – Toshkent: “Muharrir nashriyoti”, 2022. – 416b.
4. Rauf Parfi. Saylanma. II jild. – Toshkent: “Muharrir nashriyoti”, 2022. – 280b.
5. Rahimjonov No‘mon. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2007. – 260b.
6. [Rauf Parfi. Uchliklar & Rauf Parfi. Ko‘zlar | Xurshid Davron kutubxonasi](#)

FILOLOGIYA**O'ZBEK VA RUS LIRIKASIDA SHE'RIY MAKTUB VA UNING
KO'RINISHLARI****UO'K 95(575.171)**

**Abdurayimova
Irodaxon,
O'zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti
tayanch doktoranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek lirikasidagi she'riy maktublarning genezisi o'rganildi. Rus lirikasidagi she'riy maktub namunalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Binobarin, S.Yesenin, U.Nosir, M.Yu.Lermontov, M.Yusuflarning she'riy maktublari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil etilib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi.

Аннотация: В статье рассматриваются происхождение и развитие поэтических писем в узбекской лирике. Осуществлен сравнительный анализ с образцами поэтических писем русской лирики. Поэтические письма С.Есенина, У.Насира, М.Ю.Лермонтова и М.Юсуфа исследованы в сравнительно-типологическом плане, на основе чего сформулированы научно-теоретические выводы.

Annotation: The article explores the origin and development of poetic letters in Uzbek lyric poetry. It presents a comparative analysis with poetic letters found in Russian lyric poetry. The poetic letters of S.Yesenin, U.Nasir, M.Yu.Lermontov, and M.Yusuf are comparatively and typologically analyzed, leading to several theoretical and scholarly conclusions.

Kalit so'zlar: epistolary janr, she'riy maktub, genezis, adresatlilik, sentimentallik.

Ключевые слова: эпистолярный жанр, поэтическое письмо, генезис, адресность, сентиментальность.

Key words: epistolary genre, poetic letter, genesis, addressivity, sentimentality.

Epistolary adabiyot maktub shakliga qurilgan janr bo'lib, boshqa janrlar ichida o'z o'rniga ega. Estetik jihatdan ta'siri kuchli ekanligi bilan ajralib turadi. Epistolary janr adabiy turlarning har birida o'ziga xoslik kasb etadi. Nasriy asarlarda keltirilgan maktublarda asosan ma'lum axborotni yetkazish ma'nosi yetakchilik qilsa, lirikada, janr xususiyatidan kelib chiqib birlamchi o'rinni his-tuyg'u egallaydi.

“Adabiyotshunoslik lug’at”larida epistolyar janrga deyarli bir xil ta’riflar beriladi. Jumladan, rus adabiyotshunosi L.I.Timofeyev, S.V.Turayevlarning “Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati”da shunday deyiladi: “Epistolyar shakl (yunoncha epistola – noma, maktub) – maktub va nomalar ko’rinishida yozilgan badiiy asarlardir. Umuman epistolyar adabiyotdan farqli ravishda, unga turli jamoat arboblarning publitsistik, siyosiy va shaxsiy maktublari kiradi, epistolyar shakl esa badiiy adabiyotning muayyan bir janri hisoblanadi.” [5-469] Demak, nazariy lug’atda maktub badiiy asarlar uchun shakl sifatida ko’rinish berishi hamda uning mazmuniy jihatdan publitsistik, siyosiy, shaxsiy xatlar turi mavjudligi e’tirof etiladi. Shuningdek, epistolyar shakl badiiy adabiyotning muayyan bir janri ekanligi yuqorida ko’rsatilgan lug’at va boshqa nazariy manbalarda yoritilgan. Hammualliflar D.Quronov va boshqalar tayyorlagan “Adabiyotshunoslik lug’ati”da ham epistolyar adabiyot birovga maktub shaklida yozilgan adabiy yoki publitsistik asarlar ekani, ijodkor maktublari avvaldan (badiiy niyatda) ko’pchilikning o’qishiga mo’ljallangan badiiy yoki publitsistik asar sifatida qabul qilinishi alohida ta’kidlab ko’rsatilgan. [8-362] Rus adabiyotshunosi B.V.Tomashevskiy “Adabiyot nazariyasi” kitobida roman janrining ko’rinishlari haqida yozar ekan, epistolyar shakl Yevropa adabiyotida XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo’lganligini adabiy dalillar bilan ko’rsatadi: “Agar hikoyachilik tizimini muhim xususiyat sifatida e’tiborga olsak, uni quyidagicha tasniflash mumkin bo’ladi: 1) mavhum hikoyachilik; 2) roman-kundalik; 3) roman – topilgan qo’lyozma (masalan, Rayder Haggard romanlari); 4) roman – qahramon hikoyasi (“Manon Lesko”, muallifi abbat Prevo (Antoine François Prévost); 5) epistolyar roman (qahramonlarning maktublari shaklida yozilgan asar – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida keng tarqalgan shakl sanaladi. Russo, Richardson romanlari va Dostoyevskiyning “Kambag’allar”ini shular qatoriga qo’shish mumkin). Mazkur shakllar ichida, ehtimol, faqat epistolyar janrgina bunday romanlarni alohida sinf sifatida ajratishga asos bo’la oladi. Chunki epistolyar shakl xususiyatlari syujet rivoji va mavzuni badiiy jihatdan qayta ishlashda mutlaqo o’ziga xos usullarni yuzaga keltiradi (fabula (voqea) rivoji uchun ma’lum darajada cheklangan shakl, sababi yozishmalar birga yashamaydigan yoki favqulodda g’ayritabiiy sharoitlarda yashab, yozish imkoniga ega bo’lgan kishilar o’rtasida kechadi). Shuningdek, bu adabiy bo’lmagan materiallarni kiritish uchun erkin shakl hamdir. Chunki maktub shakli roman tarkibiga, hatto butun boshli risolalarni ham olib kirishga imkon beradi.” [6-166] Olim epistolyar shaklning tug’ma erkinligini, bu esa roman qahramonlari o’rtasida ochiq va samimiy munosabat o’rnatishga imkon berishini, maktublar yirik nasriy roman janrida motirovka vazifasini o’tashini qayd etib o’tadi.

Badiiy adabiyotda epistolyar roman shakli bilan birgalikda she'riy maktublar ham mavjud. She'riy maktublar ham G'arb va Sharq adabiyotida o'ziga xos shakllanish yo'liga ega. Sharq adabiyotida she'riy maktublarning genezisi nomalarga borib taqaladi. "Noma o'zbek va fors mumtoz adabiyotida yaratilgan, real yoki xayoliy to'qima shaxsga, asosan, she'riy maktub tarzida yozilgan badiiy asar turi. Faxriddin Gurgoniy (XI asr), Avhadiy (1274-1338), Xoja Imod Kirmoniy (XIV asr)lar fors adabiyotida noma janriga asos solib, uni rivojlantirganlar. O'zbek mumtoz adabiyotida noma janrining paydo bo'lishi Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Uning "Muhabbatnoma" asari (1353-54) oshiqning ma'shuqaga yo'llagan masnaviy shaklidagi 11 ta ishqiy maktubidan iborat. Keyinchalik Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si ta'sirida yaratilgan Xo'jandiyning "Latofatnoma", Said Ahmadning "Taashshuqnoma", Yusuf Amiriynig "Dahnoma", Sayyid Qosimiynig "Sadoqatnoma" hamda "Haqiqatnoma" asarlarida ham noma janri an'alariga rioya qilingan: ularning barchasi bir xil vaznda, masnaviy shaklida yozilgan; barchasi ham 10 nomadan iborat." [2-12] Noma janrini o'zbek adabiyotida M.Jamolova monografik tarzda tadqiq qilgan. [Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Тошкент: Фан, 1992. – 64 б.]

XV asrning buyuk mutafakkiri A.Navoiyning "Xamsa" tarkibiga kirgan dostonlarida ham qahramonlarning bir-biriga yozgan maktublari ham she'riy uslubda yozilgan. Jumladan, Farhodning Shiringa, Shirinning Farhodga ("Farhod va Shirin"); Iskandarning onasiga yozgan maktub ("Saddi Iskandariy") larini misol keltirish mumkin. Bundan tashqari, shoirning holotlari hamda "Munshaot" asarida she'riy maktublar uchraydi.

XVIII-XIX asrlarga kelib she'riy maktublar Sharq adabiyotida o'zining haddi a'losiga yetdi. Chunki, ushbu davrda Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod qilgan Muqimiy, Furqat, Zavqiylar epistolyar janrning eng go'zal namunalarini yaratdi. Ularning bir-birlariga yozgan she'riy maktublari badiiyatning betakror namunalari hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyotiga xos shakl bo'lgan lirikada ushbu janr o'zining bor imkoniyatlarini mukammal namoyon qildi. Bu ijodkorlar adabiy merosining bir qismini aynan maktublar tashkil etadi. Ularning xatlari "Mukammal asarlar to'plami"da alohida maktublar sahifasi ostida berilgan.

Mazkur maqolada zamonaviy rus va o'zbek she'riyatida yaratilgan she'riy maktublar tahliliga to'xtalamiz. XX asr rus adabiyotida A.S.Pushkin ("Anonimga javob", "Ya.N.Tolstoyga yozilgan xatdan"), M.Yu.Lermontov ("Maktub"), S.Yesenin ("Onamdan maktub", "Singlimga xat", "Ayolga maktub"), V.V.Mayakovskiy ("Proletar shoirlariga maktub", "Tatyana

Yakovlevaga xat”, “Lilyajon”) kabi ijodkorlar she’riy maktubning go’zal namunalarini yaratishdi. Ularning she’riy maktublarini shu davrning alohida adabiy hodisasi sifatida e’tirof etish mumkin. Yuqorida sanab o’tilgan maktub asosiga qurilgan she’rlar ushbu janrning nazariy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari she’riyatda “Maktub”, “Xat” sarlavhali bir qancha she’rlar ham uchraydiki, ularning mazmunida maktubga xos xususiyatlar mavjud emas. Maktub yoki xat bunday she’rlar uchun mavzu vazifasining o’taydi xolos.

S.Yeseninning “Onamdan maktub” she’ri onasidan kelgan maktubi va unga lirik qahramonning javob maktubidan iborat. Ona-bolaning bir-biriga yozgan maktublari yuksak darajadagi badiiy-estetik ta’sirchanlikka sabab bo’lgan. Masalan, onaning maktubi quyidagicha boshlanadi:

“Ko‘zimiz to‘rt bo‘ldi,
Bolam, kelaqol.
Yaxshiydi bayramga
Kelsang, har qalay.
Otangga ishtonlik,
Menga jun ro‘mol
Olakel, bizlarda
Kamchilik talay.” [1-65]
O‘g‘ilning javob xati esa quyidagicha boshlanadi:
“Aziz onaginam,
Bo‘lgin salomat.
Mehr-u shafqatingni
Sezib turibman.
Sen zarra tasavvur
Qilmassan faqat,
Nima deb dunyoda
Yashab yuribman.” [1-69]

Maktub janriga xos nazariy xususiyatlardan biri adresatlilikdir. S.Yeseninning “Onamdan maktub” she’rida adresatlar ona va farzand hisoblanadi. Har ikkisi ham o‘z adresatiga nisbatan qalbida his qilgan bor tuyg‘ularini qog‘ozga tushiradi. Maktub yozayotgan paytda adresat har doim maktub yozuvchining ko‘z o‘ngida bo‘ladi va xuddi uni eshitayotgandek, maktubini o‘qiganida qanday holatda bo‘lishini his qilib turgan ahvolda xat yozadi.

Adresatlar turlicha bo'lishi mumkin: yakka shaxs: ona, ota, ayol, opa, singil, farzand, nabira, do'st, ijodkor, yor, anonim (noma'lum shaxs) va boshqalar; ko'pchilik: kelajak avlod, zamondoshlar va xokazo.

O'zbek lirikasida ham she'riy maktub janrida talaygina iste'dodli ijodkorlar she'riy maktublar yaratishdi. Masalan, U.Nosir ("Birinch xat"), E.Vohidov ("Do'stlarga maktub", "Kelajakka maktub"), A.Oripov ("Beruniyga maktub"), U.Azim ("Onamga maktub", "Yirtilgan xat parchasi", "Ayol maktubi", "Boychechak" (Opasiga maktub), "Alpomish xususida shoir do'stinga maxfiy xat"), H.Xudoyberdiyeva ("Yolg'iz ayol xati"), M.Yusuf ("Maktub", "Singlimga maktub") va boshqalar. G'.G'ulomning o'ndan ortiq turli shaxslarga yo'llangan she'riy maktublari "Asarlar"i tarkibida alohida bo'limni tashkil etgan "Maktublar"i qatoriga kiritilgan.

O'zbek she'riyatida S.Yeseninning izdoshi deb nom chiqargan U.Nosir "Birinch xat" she'rida o'zining qora qismatini bilgandek xayolan tug'ilmagan bolasiga maktub yo'llab shunday yozadi:

"Havaslarim bir ushalsin, deb,

Senga xat yozgali o'tirdim –

Yuragimdan dur-gavhar to'kdim,

Havaslarim bir ushalsin, deb." [4-53]

Lirik qahramon xayolan kelajakni ko'radi, ochiqrog'i, tug'ilmagan o'g'lining kelajagini tasavvur etadi. Shoirning tasavvurida o'g'li farovon va dorilomon zamonda yashaydi. Shunday zamonda yashayotgan o'g'liga u qiyin, ochlik, vabo kasalligi tarqagan bir zamonda yashagan otaning hayoti va yozayotgan xati farzandi uchun bir ertak bo'lib tuyuladi. U.Nosirning "Birinch xat" she'rida shoirning tug'ilmagan farzandiga yozgan maktubi uning o'ziga xos ijodiy yangiligi, badiiy topilmasi sifatida ko'rinish beradi.

She'riy maktublarga xos nazariy xususiyatlardan yana biri sentimentallikdir. Lirik janr uchun muhim bo'lgan his-tuyg'ularning kitobxonga ta'sir kuchi maktub shaklidagi she'rlarda yanada kuchliroq bo'ladi. Rus adabiyotining taniqli vakillaridan biri M.Yu.Lermontovning "Maktub" she'rida ham muallifning o'limi oldidan qalbidan kechayotgan his-tuyg'ulari, boshqa bir insonga tegishli bo'lgan sevgan ayoliga iltijolari bor bo'yicha tasvirlangan. Bu maktubning adresati bo'lgan ayolning maktubni olganida qanday ahvolga tushishi haqidagi farazlari ham yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan.

“Kelgin bir yonimga, kelgin so’nggi bor,

Jon chiqar nafasda biroz bo’l malham,

Ko’zlarimning o’ti so’nsin beozor.

Sovuq qo’llarimni kelib tut bir zum...” [3-21]

O’limi yaqinligini sezgan muallifning so’nggi vasiyatlari va yetisha olmagan suyukli insonini tanasi vafot etsada, ruhi tashlab ketmasligini hayajonli, ro’yi rost ifodalashida maktub eng munosib vosita vazifasini bajargan. She’rning muvaffaqiyati va o’quvchi qalbiga to’g’ridan-to’g’ri teran singib ketishida uning maktub shaklida yozilganligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, maktub janri kitobxonda sentimental kayfiyatni chuqur yetkazib beruvchi xususiyatiga ega.

Xuddi shuningdek, qalb izhorlari, sevgi armonlariga to’lib-toshgan maktub shaklida yaratilgan she’r o’zbek she’riyatining yorqin namoyandalaridan biri bo’lgan M.Yusuf ijodida ham uchraydi. Muallif visoli armon bo’lib qolgan sevgilisiga qalb kechinmalari va tilaklarini yetkazish uchun aynan maktub shaklini tanlaydi. Shu orqali o’ta ta’sirchan va jo’shqin kayfiyat bag’ishlovchi she’r paydo bo’lishiga erishadi:

“Bilmayman,

Bilishni istamayman ham,

Bilganim – menga baxt nasib etmadi.

Yillar o’taverdi, ko’zim o’ngidan,

Sizning oydek ruxsoringiz ketmadi...” [7-88].

Maktub janrining sentimentallik funksiyasi bilan M.Yusufning ravon, xalqona, kishi qalbiga oqib kiruvchi uslubi uyg’unlashib badiiy jihatdan mukammal lirik asar namunasi paydo bo’lgan.

Xulosa shuki, adabiyotshunoslikka doir lug’atlarda epistoliar janr xususida muayyan nazariy ma’lumotlar berilgan bo’lsada, she’riy maktublar haqida alohida to’xtanilmagan. Maktublar G’arb va Sharq adabiyotida ham nasriy, ham she’riy shaklda rivojlandi. Sharq adabiyotida she’riy maktublarning tarixiy taraqqiyotida noma janri katta ahamiyat kasb etdi. Sharqda she’riy maktub janri XIX asrlarga kelib yuksak taraqqiy etib, Qo’qon adabiy muhitida ularning betakror namunalari Muqimiy, Furqat, Zavqiylar ijodida uchraydi. XX asr rus adabiyotida ko’plab yetuk shoirlar tomonidan she’riy maktublar yozilib, ular turli ijtimoiy-siyosiy, maishiy, ishqiy mavzularni qamrab oldi. Zamonaviy o’zbek she’riyatida ham ko’plab iste’dodli ijodkorlar o’z she’rlarida his-tuyg’ularini

chuqurroq ifodalash maqsadida maktub janriga murojaat qildilar. She'riy maktub janrining eng asosiy xususiyatlaridan bo'lgan adresatlilik, sentimentallik, chuqur psixologizm kabilar rus va o'zbek adabiyotida yaratilgan she'riy maktublarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Есенин С. Безорининг кўнгил изҳори. – Тошкент: Адиб, 2013. – 256 б.
2. Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Тошкент: Фан, 1992. – 64 б.
3. Лермонтов М.Ю. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1978. – 255 б.
4. Носир У. Унутмас мени боғим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1988. – 304 б.
5. Тимофеев Л. И., Тураев С. В. Словарь литературоведческих терминов. – Москва: Просвещение, 1974. – 513 с.
6. Томашевский Б.В. Теория литературы поэтика. – Москва: Аспент пресс, 1999. – 203 с.
7. Юсуф М. Шоир севгиси. – Тошкент: Noshir, 2013. – 196 б.
8. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 406 б.

FILOLOGIYA

“TEMURNOMA”LAR SYUJETNING QIYOSIY TAHLILI

UO‘K 95(575.171)

Zura Sayfullayeva,
Chirchiq davlat
pedagogika
universiteti O‘zbek
tili va adabiyoti
mutaxassisligi
magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Temurnoma”larda sayyor syujetning aks etishi o‘rganilgan. Unga Abdurahmon Sirot, Muhammadxoja ibn Ja‘farxoja hamda Salohiddin Toshkandiyning bir syujet va bir mavzuda bitilgan asarlari tadqiqot obyekti sifatida olingan.

Аннотация: В данной статье исследуется отражение «странствующего сюжета» в произведениях «Темурнаме». В качестве объекта исследования выбраны произведения Абдурахмона Сирата, Мухаммадходжи ибн Джафарходжи и Салахиддина Тошканди, созданные на основе единого сюжета и посвященные одной тематике.

Annotation: This article studies the reflection of the traveling plot in the “Temurnoma”. The objects of research were the works of Abdurakhmon Sirat, Muhammadkhoja ibn Ja‘farkhoja, and Salahiddin Toshkandi, all of which were written on the same plot and theme.

Kalit so‘zlar: an‘anaviylik, intertekstual bog‘liqlik, badiiy transformatsiya, obraz, sayyor syujet, tarjima, tahlil.

Ключевые слова: Традиционность, интертекстуальная взаимосвязь, художественная трансформация, образ, странствующий сюжет, перевод, анализ.

Key words: Traditionalism, intertextual interconnectedness, artistic transformation, image, wandering plot, translation, analysis

Sharq adabiyotida mazmunan mushtarak bo‘lgan juda ko‘p asarlar mavjud. Albatta, har qanday ijod mahsuli o‘zidan avval yozilgan asarlardan oziqlangan holda dunyoga keladi. Bu qadimdan davom etib kelayotgan an‘anadir. Ushbu an‘analarning eng go‘zal namunasi sifatida xamsachilikni olsak, XVIII asrga kelib “Temurnoma”larda ham ayni shu holatni ko‘rish mumkin.

Buyuk tarixiy siymo, ko‘plab tadqiqotlar manbayi, tarixiy va badiiy asarlar bosh qahramoni sohibqiron Amir Temurning hayot yo‘li haqida hikoya qiluvchi manbalarni o‘rganish nafaqat adabiyot, balki tarix, san‘at, siyosat, huquq kabi ko‘plab soha vakillarini qiziqtirishi shubhasiz. Temurshunoslikka oid badiiy asarlar tarixdan xabar berishi bilan birga estetik zavq beradi hamda o‘tmishda yashab o‘tgan buyuklar hayotidan ibrat olishga chorlaydi. Bu esa kitobxonning ma‘naviy kamolotiga hissa qo‘shmay qolmaydi. Shunday asarlardan biri Muhammadxoja ibn Ja‘farxojaning “Sohibqiron Amir Temur” asaridir¹. Asarning g‘oyaviy-badiiy saviyasiga baho berishda, avvalo, uning syujet va kompozitsiyasini o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi.

“Syujet – asardagi bir-biriga bog‘liq voqealar tizimi yoki konkret holat, bitta voqeaning ichki rivojidir”². Shuni aytish joizki, “Sohibqiron Amir Temur” qissasining o‘zidan oldin va keyin bitilgan ayrim “Temurnoma”lar bilan syujet chiziqlari yaqin. Buni quyidagi asarlar misolida ko‘rib chiqamiz:

R.Xoliqova **Abdurahmon Sirotning (Mirzo Rumuz nomi bilan mashhur) – “Temurnoma”** asarini tadqiq etar ekan, ushbu asar 1712-14-yillarda Abulfayzxon hukmronligi davrida yozilganligi, jahonning turli kitob xazinalarida “Dostoni Amir Temur”, “Tarixi Sohibqiron Amir Temur Kuragon”, “Tarixi Amir Temur Ko‘ragon” va boshqa 20 dan ortiq nomlarda keltirilganini ta‘kidlaydi³. Ja‘farxojaning turkiyda yozilgan “Dostoni Amir Temur” (1706-1713) asari qo‘lyozma nusxalari ham ayni shu nomlarda berilgan. Ular yaqin zamon va makonda (turkiy “Temurnoma” Xorazmda, forsiy “Temurnoma” Buxoroda) yozilgan. Bizningcha, Ja‘farxoja ham asarni forsiyda nomlashni ma‘qul ko‘rgan. Abdurahmon Sirot “Temurnoma”si juda ko‘p yig‘ilgan og‘zaki va yozma manbalar asosida bitilgan bo‘lib, “...muallif manbalarni o‘rganar ekan, ulardan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirmagan yoki so‘zma-so‘z keltirmagan, balki har bir muallifning hikoyatini bir-biri bilan taqqoslagan va bu ulardagi g‘oya va mazmunni taqqoslash yakuni sifatida o‘z g‘oyalarini asarida berishga harakat qilgan”⁴. Aynan ushbu jarayon an‘anaviy ravishda Ja‘farxoja tomonidan turkiyda

¹ Muhammadxoja ibn Ja‘farxoja. داستان امیر تیمور صاحب قران (“Sohibqiron Amir Temur”). Qo‘lyozma. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. № 546/VI. (Asardan keltiriladigan parchalar qavs ichida beriladi)

² Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 287

³ Xoliqova R. Temur va Temuriylar davri manbalaridan “Temurnoma” asari haqida // Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi. (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). – Toshkent: Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi, 2023. – B. 80–82

⁴ Ko‘rsatilgan asar: B.82

yozilgan qissaga ham xos. A.Arslonov o‘zining “Temurnoma”larning qiyosiy tekstologik tadqiqiga bag‘ishlangan ishida turkiy va forsiy “Temurnoma”lar qo‘lyozmalarini solishtirib ularning syujeti mazmunan bir-biriga yaqin, biroq ayrim farqlar uchraydi, degan xulosaga keladi¹. Ulardagi o‘xshashlik turli boblarda namoyon bo‘ladi: Amir Temurning o‘zidan ancha avval yashab o‘tgan Nosir Xisrav bilan munosabati va ularning kurashida Tag‘oy Bahodur hamda Sohibi “Hidoya”ning yordami, jang tafsilotlari mavjud afsonalar, Yavqun xonim Yakina bегinning o‘g‘il farzandi kelajakda jahongir bo‘lishini tush ko‘rib, ularni o‘ldirishga urinishi shular jumlasidan. Biroq bu bilan asar ayni tarjima ekan, degan xulosaga kelish noto‘g‘ri. 546/VI raqamli qo‘lyozmada hamd, na‘tlardan keyin asarning yozilish sababi keltiriladi. Shundan so‘ng “*Emdi sohibqiron Amir Temurning paydo bo‘lg‘onidin shamayi so‘z aytalim*” [118b–120a] bobida Bayonqulixon hamda Amir Temurning ota-onasi haqida bayon qilinadi. Ushbu ma‘lumotlar forsiy “Temurnoma”lar syujetida uchramaydi². Chunonchi forsiy “Temurnoma” Qoraxon Malikshohning taxtga kelishi bilan boshlanadi.

“Yozuvchilar o‘zlarigacha yozma adabiyotda ma‘lum bo‘lgan syujetlarga asoslanadilar, ularni qayta ishlaydilar, o‘z salohiyatlari va mahoratlariga asoslanib, ularni yangicha talqin qiladilar. Bu “sayyor” yoki “o‘zlashtirilgan” syujetdir”³. Ja‘farxoja asarida sayyor syujet yaratish yo‘lidan borilganini ko‘rish mumkin.

Adib o‘zidan oldin yozilgan asarlardan tarjima qilib, uni ijodiy qayta ishlash an‘anasini davom ettiradi. Muallif o‘zi aytib o‘tganidek, “*...jami ilmi qol va ilmi hol birla paydo qilg‘on kitoblardin tarjima qilib, masali shoh rohiq‘a kirguzmakkim, o‘g‘uvchilarning zehni malol bo‘lmag‘ay*” [118b]. Demak, maqsad ham ma‘lum: mutolaa qiluvchini zeriktirmaslik uchun yengil, tushunarli va sodda tarzda tartib bermoqdan iborat ekan. Faqat yangilik sifatida uni turkiyda yozadi. Asar forsiy “Temurnoma”larga xos syujetga asoslangan bo‘lib, ular o‘rtasida mushtaraklik sezilib turadi.

Ja‘farxoja mavjud syujetni o‘z badiiy mahoratiga ko‘ra qayta ishlaydi. Har ikki “Temurnoma” syujetida asosiy obrazlar bilan kechuvchi voqealar o‘zagi bir. Biroq ifoda yo‘sinida farqlar talaygina. Masalan, Yavqun xonimning Yakina

¹ Bu haqda qarang: Arslonov A. “Temurnoma”larning qo‘lyozma manbalari va qiyosiy-tekstologik tadqiqi: Filol.fan.bo‘yicha falsafa dok. ... (PhD) diss. – Termiz, 2021. – B.52

² Ko‘rsatilgan asar: – B.59

³ To‘rayeva B., Ko‘chimov U. Adabiyotshunoslik. – Toshkent: Malik print co, 2022. – B.64

begim bilan birga qo‘shib yuborgan quli xonimni o‘ldirishga chog‘langanda o‘zini chohga tashlab, o‘limdan qutulib qoladi va duosi bilan yashin chaqna b g‘ulomga tegadi. Ja’farxojaning turkiy “Temurnoma”sida bu voqea biroz boshqacha: Yakina begim o‘zini quduqqa tashlagach, Allohga munojat qiladi va bir oh tortganda o‘t chiqib, Qaydunni yer bilan yakson qiladi. Yoki har ikki asarda ham Amir Temurning Nosir Xisrav bilan jang sahnalari aks etgan bo‘lib, ularda voqealar ham afsonaviy tarzda yoritiladi. Shu o‘rinda Ja’farxoja *karomat* va *istidroj* atamalarini voqealar mazmuniga singdiradi: Nosir Xisrav obrazi sehr va ko‘zbo‘yamachilik orqasidan ko‘plab sodda insonlarni tarafdoriga aylantiradi. Sodda xalq uning bu ishini karomatga yo‘yadi. Hatto Tag‘oy Bahodur Nosir Xisravning ko‘z oldida qilayotgan g‘ayrioddiy ishlarini ko‘rib, hayron qoladi. Ammo adib bir necha mullalar tilidan Tag‘oy Bahodur va xalqqa qarata qat‘iy tushuntirish berib: *“Amirim, kofirlarda mundog‘ ishlar bir bo‘lur. Bularni mo‘jiza va karomat demaslar, istidroj derlar. Chunonchi necha mundog‘ ishlar birla kufri ortar”*[129a], – deya javob qaytaradi. Adib bir tomondan istidrojning nima ekanini vaziyat jarayonida tushuntirsa, boshqa tomondan sehrgarlik, aldamchilik bilan insonlar o‘rtasida buzg‘unchilik qiluvchi kimsalar xalqning tarafma-taraf bo‘lishini, bu orqali ko‘plab nizolar kelib chiqishini ko‘rsatadi.

Demak, muallif asar syujetida o‘zi yashagan muhitni muayyan darajada ifodalash, umuminsoniy g‘oyalarni aks ettirish nuqtayi nazaridan yondashadi. Shuning uchun o‘z g‘oyalarini qiziqarli sarguzashtlar, xayoliy-fantastik epizodlar va turli to‘qnashuvlar fonida tasvirlaydi. Xalq ertaklariga yaqin xususiyatlari, voqealarning tez rivojlanishi, uslubdagi soddalik, uni xalq kitoblariga yaqinlashtiradi. Yuqorida keltirilgan muqoyasalar Muhammadxoja ibn Ja’farxojaning “Temurnoma”sini rivoyatlar ko‘rinishidagi erkin tarjima asar sifatida baholash mumkinligini ko‘rsatadi.

Sayyor syujetga asoslangan navbatdagi asar Toshkent adabiy muhiti vakillaridan biri **Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma”**sidir. Adabiyotshunos Poyon Ravshanov ushbu asarni “Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi” nomi bilan nashr qildirgan bo‘lib, kitobga yozgan so‘zboshisida: “Temurnoma”ning aynan bir asardan tarjima qilingan degan fikrni sira yoqlay olmaymiz. Garchand, muallifining o‘zi uni forsiy tildan tarjima qilganligini aytayotgan bo‘lsa-da, bunda u o‘ziga qadar Amir Temur haqida forsiy tilda yozilgan asarlardan bahramand bo‘lganligini, ba’zi tarixiy voqealarni, she’riy parchalarni ulardan olganligini

koʻzda tutayotgan boʻlsa, ajab emas. Asar shu holida tarjima emas, asliyatdir”¹, degan xulosaga keladi. Salohiddin Toshkandiy forsiy va turkiy “Temurnoma”lar anʼanasini davom ettirar ekan, oʻzigacha yaratilgan “Temurnoma”larda yoritilmagan voqealarni qoʻshib, mavjud syujetlar tizimini kengaytirib, jangnoma tipidagi asarni yozadi. Masalan, Jaʼfarxoja “Temurnoma”sidan farqli oʻlaroq undagi ayrim obrazlar bilan bogʻliq voqealar bayoniga keng eʼtibor qaratadi. “Emdi Shohruh toʻradan soʻz eshiting”, “Emdi soʻzni Mirzo Shohruh toʻradan eshitmoq kerak”, “Bu dostonda Mirzo Sulton Muhammad toʻra ibn Mirzo Jahongir...” va boshqa boblar shular jumlasidan.

Jaʼfarxoja asarida Amir Temurning farzandlari faqat jang tasvirlarida tilga olinadi:

“...Hazrat Amir Temur Sohibqiron Mironshoh birlan Feruzshohni tamomi Iroqiston, Eron, Isfaxongʻa masnadrinishin shoh qilib, Hindustonni ham aning mahkuminda qilib qoʻyub ketib erdilar” [157a].

“Amir Temur Sohibqiron Mirzo Shohruhni ikki yuz kishi chigʻatoydin, ikki yuz kishi oltoydin – (toʻrt) yuz kishi qarovul qoʻyub erdi” [151b].

Bizningcha, Muhammadxoja ibn Jaʼfarxoja Temur shaxsiga urgʻu berish orqali uning jasorati va adolatini madh etishni, eposlarga xos yakka qahramonlik jihatini yoritishni koʻzda tutgan.

Salohiddin Toshkandiy oʻzidan avval yozilgan “Temurnoma”larni oʻrganar ekan, voqealar tizimi va obrazlar xarakteristikasini yirik planda tasvirlaydi. Voqealar bayonini berishda tarixiy sanalarni koʻp oʻrinlarda keltirib oʻtadi. Uning Jaʼfarxoja “Temurnoma”sidan ijodiy foydalanganini quyidagi maʼlumotlar ham koʻrsatib turadi: Xususan, har ikki asarda ham Odam ota qabrini ziyorat qilishi haqidagi lavhalarga oʻrin berilgan. Shuningdek, Amir Temurning Shayx Shams Kulol bilan ilk uchrashuvi haqidagi hikoya oldidan Saʼdiyning ushbu misralari keltiriladi:

*“Bargi daraxtoni sabz dar nazari hushyor,
Har varaqe daftarast maʼrifati kirdikor”² [125a].*

¹ Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. (Nashrga tayyorlovchi, soʻzboshi va lugʻat muallifi P.Ravshanov). – Toshkent: Choʻlpon, 1990. – B.19

² Hushyor, fikrli kishining nazarida daraxtlarning har bir yashil bargi – Yaratganning maʼrifati yozilgan bir daftarning varagʻidek. (Saʼdiy)

Sa'diyga murojaat Salohiddin Toshkandiy "Temurnoma"¹sida ham ayni voqealar tartibida mavjud. Demak, Abdurahmon Sirot boshlab bergan an'ana Ja'farxoja ijodiga ko'chgan bo'lsa, undan ikki asr keyin mazkur an'anani Salohiddin Toshkandiy davom ettirgan.

Qiyosiy-tahliliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, XVIII–XIX asrlarga xos ushbu uch asar o'rtasidagi mushtaraklik adabiy vorislik hamda ijodiy o'zlashtirish tamoyillari bilan izohlanadi. "Temurnoma"lar taraqqiyotida yagona syujet yadrosi turli davr va muallif talqinida yangicha mazmun kasb etgani kuzatiladi. Shunga ko'ra, ular Sharq adabiyotiga xos an'anaviylik, intertekstual bog'liqlik hamda badiiy transformatsiya jarayonining mahsuli sifatida baholanishi lozim. Har bir "Temurnoma" o'z davrining adabiy-estetik va ijtimoiy-siyosiy talablari asosida yaratilgan mustaqil badiiy hodisa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Arslonov A. "Temurnoma"larning qo'lyozma manbalari va qiyosiy-tekstologik tadqiqi: Filol.fan.bo'yicha falsafa dok. ... (PhD) diss. – Termiz, 2021. – 133 b.
2. Hayitov Sh. Sayyor syujetli dostonlar – adabiy manba. – Buxoro: Durdona, 2024. – 204 b.
3. Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati. – Toshkent: Qomuslar, 1994. – 159 b.
4. Muhammadxoja ibn Ja'farxoja. داستان امیر تیمور صاحب قران ("Sohibqiron Amir Temur"). Qo'lyozma. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. № 546/VI.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.
6. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. (Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at muallifi P.Ravshanov). – Toshkent: Cho'lpon, 1990. – 351 b.
7. To'rayeva B., Ko'chimov U. Adabiyotshunoslik. – Toshkent: Malik print co, 2022. – 192 b.
8. Xoliqova R. Temur va Temuriylar davri manbalaridan "Temurnoma" asari haqida // Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi. (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). – Toshkent: Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi, 2023. – B.80–84

¹ Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. (Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at muallifi P.Ravshanov). – Toshkent: Cho'lpon, 1990. – B.56

FILOLOGIYA

TABOBATGA OID TERMINLARNING TADQIQI VA DOLZARB VAZIFALARI

**Tuliyeva Sevara,
Urganch innovatsion
universiteti Filologiya
(o'zbek tili) yo'nalishi
magistranti**

UO'K 95(575.171)

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabobatga oid terminlarning shakllanish manbalari, tarixiy-lingvistik taraqqiyoti hamda ularni tadqiq etishning dolzarb vazifalari yoritilgan. Terminologik tizim tilning eng harakatchan qatlami sifatida jamiyat taraqqiyoti, ilmfan rivoji va tibbiyot yutuqlari bilan chambarchas bog'liqligi asoslab berilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются источники формирования, историко-лингвистическое развитие и актуальные задачи исследования терминов народной и научной медицины. Медицинская терминология анализируется как наиболее динамичный пласт лексической системы языка, тесно связанный с развитием науки, общества и культуры.

Annotation: This article examines the sources of formation, historical-linguistic development, and current research challenges of medical and traditional healing terminology. Medical terminology is analyzed as one of the most dynamic layers of the lexical system, closely connected with scientific progress and socio-cultural development.

Kalit so'zlar: tabobat terminologiyasi, tibbiy leksika, termin, sinonimiya, tarixiy-lingvistik taraqqiyot.

Ключевые слова: медицинская терминология, табобат, термин, лексика, историческое развитие.

Key words: medical terminology, tabobat, term, lexicon, historical development.

Ma'lumki, leksik qatlam tilning eng o'zgaruvchan qismi hisoblanib, u muntazam tarixiy ta'sirlarni boshdan kechiradi. Natijada, zamonaviy til leksik sistemasida turli xil terminlar muomalaga kirib keladi. Ularni tadqiq qilish lingvistlar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. G'arb tibbiyoti va

tabobatining asoschisi Gippokrat shunday yozadi: “Hayotning o‘zi odamlarni tibbiyot sirlarini qidirish va ularni yechishga majbur qiladi”¹. Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, odamlarning yashashga bo‘lgan intilishi mazkur sohaning kashf qilinishiga omil bo‘lgan hamda hozirgacha uning taraqqiy etishiga undamoqda.

Ma’lumki, har qanday tildagi tabobat terminlari va ularning shakllanish manbalari va davrlari, kasalliklarga ilmiy nom tanlashdagi farqlar, o‘ziga xos xususiyatlar kasalliklarning yanada to‘liq tavsifini beradi, ularni ma’lum hududlarda ham tibbiy, ham onomastik ko‘lamda o‘rganishga yaqindan yordam beradi.

Jahon tilshunosligida tabobat terminlarining o‘rganilishi yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan. Xususan, ingliz tilshunosligida ham ushbu mavzuga doir izlanishlar talaygina. O‘rta asr inglizcha dori vositalari va o‘simlik nomlarining keng qamrovli tadqiqi tilshunos M.Silvanovichning “Tibbiy preparatlarning o‘rta asr inglizcha nomlari: tibbiy terminologiya standartiga binoan»² kitobida yoritilgan. Bu asarda IV-XV asrlarda yozib qoldirilgan, dorishunoslikka bag‘ishlangan jami 1600 ta dori vositalari va o‘simlik nomlari tahlil qilingan. Muallif ularni quyidagicha tasniflab, tadqiq qilgan:

1. Tibbiy preparatlarni anglatuvchi umumiy terminlar;
2. O‘simlik nomlarini ifodalovchi terminlar;
3. Sohaga oid boshqa terminlar.

O‘rta asr oxirlaridagi tabobatga oid matnlarning lingvistik xususiyatlari M.K.Djons tadqiqotida ochib berilgan³. Tadqiqotchi singan suyaklar, ko‘z va

¹ Rustamova X.E., Stojarova N.K., Nurmatova Q.Ch., Abdurashidova Sh.A. Tibbiyot tarixi. – Toshkent, 2014. – 206 bet

² Taylor R. The amazing language of medicine: understanding medical terms and their backstories. – Springer International Publishing AG, 2017. –P. 132

³ Henrick R. Wulff. The language of medicine// Journal of the royal society of medicine, 2004; 97. – P.187

boshqa kasalliklar borasidagi tabobat matnlarini o‘rganib, ularda qo‘llanilgan so‘z va iboralarni diskurs tahlil usuli yordamida tadqiq qilgan.

Bir qator olimlar tibbiy va tabobat terminlarini maxsus tadqiqot obyekti sifatida olib o‘rgangan. Mazkur sohani tadqiq qilgan olimlardan biri M.V.Tokarevadir. Uning ilmiy ishi ¹ tabobatning nevrologiya va urologiya sohasidagi terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Olim soha terminlarining XII asrdan keyingi lingvistik taraqqiyot tendensiyalarini ochib bergan va struktural-semantik jihatdan tahlil qilgan. Ayniqsa, tibbiy va tabobat terminlarining sinonimiya hamda polisemiya xususiyatlariga katta e‘tibor bergan. Shuningdek, tadqiqotchi mazkur soha terminlarini etimologik jihatdan tadqiq qilib, zamonaviy ingliz tibbiy leksikasida kelib chiqishi yunon-lotin tili bilan aloqador bo‘lgan terminlar etakchi ekanligini isbotlab bergan.

Tabobat sohasi jadal suratlar bilan rivojlanar ekan, bu soha terminlariga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib boradi. Shu o‘rinda o‘zbek tilshunosligidagi tabobat va tibbiyot leksikalari tadqiqiga nazar solamiz.

Tibbiyot va tabobat sohasiga bo‘lgan e‘tibor qadimdan juda kuchli bo‘lgan. O‘zbekiston hududida qadim zamonlarda yashagan xalqlarning tibbiyoti va tabobati haqida birinchi yozma ma'lumotlarni biz zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”dan topamiz. Uning birinchi kitobi “Vendidat” ning 8 ta bobida salomatlikni saqlash to‘g‘risida muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Shuningdek, sharq tib olimlardan Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Roziy, Abu Mansur Hasan ibn Nuh Qamariy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Iloqiy, Abu Ibrohim Ismoil ibn Hasan Jurjoniyy, Abdurahmon Marvaziy, Hakim Azraqiy, Muhammad ibn

¹ Dunglison R. A dictionary of medical science (21-edition). – Lea Brothers and Company, 1893; Thomas J. A. Complete Pronouncing Medical Dictionary. – J.B.Lippincott, 1889; Dorland Newman W.A. The American Illustrated Medical Dictionary. - W. B. Saunders, 1900; Stedman T.L. Stedman’s medical dictionary. - Williams and Wilkins, 1982; MerriamWebster’s medical dictionary. - Merriam-Webster, 1995.

Bahrom Qalonasiy Samarqandiy, Abu Homid Muhammad ibn Ali ibn Umar Samarqandiy¹ va boshqalarning qoldirgan yozma meroslarida ham tibbiyot va tabobatga oid ko‘p ma'lumotlarni topish mumkin. Tariximizda ko‘plab tabib va hakimlarning ismlari zikr etilganidan xulosa qilishimiz mumkinki, sharqda tibbiyotga, aniqrog‘i, xalq tabobatiga qiziqish kuchli bo‘lgan. Bunga so‘z ilmining sultoni Alisher Navoiy bunyod ettirgan “Dorush-shifo” tabobat maskanini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.² Ular o‘zlari yashagan davr taqozosi bilan minglab terminlarni mavjud til ta'sirida yaratishgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan sharq hakim va tabiblarning ilmiy asarlarida qo‘llangan terminlar ma'lum ma'noda o‘zbek xalq tabobati atamalarining, zamonaviy tibbiyot terminologiyasining shakllanishiga asos bo‘lgan deyishimiz mumkin.³ Misol uchun, butun dunyoda “Avitsenna” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan sharq tabobatining asoschisi Abu Ali Ibn Sino X asrdayoq ko‘plab tabobat terminlarini o‘zining “Tib qonunlari” asarida kashf qilgan. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin: shaqiqa (migreni), ibrida (impotensiya), sarsom (meningit), xilfa (diareya), sakta (apopleksiya), sharo(eshakemi) va boshqalar.

Terminlarni tarix ko‘zgusi deyishimiz mumkin. Zero, insoniyat tarixida bo‘lgan barcha voqea-hodisalar ular orqali ilm-fanda muhrlanadi. Darhaqiqat, jamiyat, davr, tabobat va tibbiyot sohasining taraqqiylashuvi bilan mazkur o‘zgarishlarni o‘zida ifoda etuvchi terminlarga ehtiyoj sezildi. Hozirgi kunda ham, bu jarayon davom etmoqda. Yangidan yangi kasalliklar kashf qilinishi bilan ularga qarshi da'vo choralari izlanmoqda. Mazkur o‘zgarishlar nafaqat tibbiyotda, balki tilshunoslikning onomasiologiya hamda leksikografiya sohalarida ham o‘z aksini topib, ularni ham boyitib bormoqda

O‘zbek tilshunosligida aynan tabobat terminologiyasi masalalari bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar 1960-yillardan boshlangan. Shu davrdan boshlab, ilk tibbiy

¹ Madvaliev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 379 bet

² Madiyev J., Hakimov I. Tabobat va ma'naviyat Navoiy talqinida. – T.: Tafakkur, 2018. – 38 bet

³ 3. Madvaliev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 379 bet

va tabobat terminlari lugʻatlari nashr qilindi. Xususan, birinchilardan boʻlib, mazkur soha lugʻatini tuzgan olim Yolqin Toʻraqulovdir. Uning ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha meditsina lugʻati” tibbiyotning barcha boʻlimlarida qoʻllaniladigan koʻplab terminlarni qamrab olgan¹. Qayd etish lozimki, shu soha boʻyicha yana koʻplab leksikografik ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, “Ruscha-lotinch-a-oʻzbekcha medisina lugʻati” (S.Yakubova, F.Toʻlaganov. – T., 1978), “Moʻjaz tibbiy lugʻat: tibbiy atamalar ruscha-oʻzbekcha lugʻati” (Usmonxoʻjaev A., Najmiddinov O., Murodova M. – T., 1992) va boshqalar.

Ammo oʻzbek tilshunosligida tibbiy terminlarni tadqiqot obyekti sifatida olib oʻrganilgan dissertatsiya ishlari ozchilikni tashkil qiladi. Xususan, A.Xusanovning — «Название болезней и их симптомов в узбекском языке»², A.Qosimovning — «Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке» (Zamonaviy oʻzbek tilida farmasevtik terminologiya)” hamda D.A.Haydarovanning “Oʻzbek va ingliz tillarida tibbiyot atamalarining qiyosiy tadqiqi” mavzularidagi dissertasiya ishlarini sanab oʻtishimiz mumkin, xolos. A.Xusanov hamda A.Qosimov oʻzlarining tadqiqot ishlarida tibbiyotning maʼlum bir doirasidagi terminlar ustida anʼanaviy tilshunoslik doirasida tadqiqot olib borishgan. Misol uchun, A.Xusanov kasalliklar va simptomlar nomi, A.Qosimov dori-darmonlar nomlarini tahlil qilgan. D.A.Haydarovanning dissertatsiya ishi esa chogʻishtirma tilshunoslik doirasida bajarilgan tibbiy terminologiyaga oid dastlabki ilmiy ish deyishimiz mumkin. Zero, unda turli tizimdagi tillar, shu jumladan oʻzbek va ingliz tillaridagi tibbiyot atamalari oʻzaro qiyoslangan hamda ularning oʻxshash va farqli jihatlari aniqlangan. Ammo, mazkur ishda tibbiy terminlarning lingvo kulturologik hamda kommunikativ-pragmatik xususiyatlari etarli darajada ochib berilmagan. Mustaqillik yillaridan keyin mamlakatimizda tasdiqlanayotgan buyruq va farmonlar ushbu sohaga katta eʼtibor qaratish lozimligini koʻrsatmoqda.

¹ Toʻraqulov Yo. Ruscha-oʻzbekcha medisina lugʻati. 1-jild. Toshkent, 1962.- 366 bet; 2- jild. – T., 1970. – 456 bet

² A. Xusanov — «Название болезней и их симптомов в узбекском языке»: Дис.канд.филол.наук. – T., 1982

O'zbek tilshunosligi tarixida tabobat terminologiyasi bo'yicha, ayniqsa, tibbiy va tabobat terminlari lug'atlarini yaratish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgani tahsinga sazovor. Ammo tibbiyot va tabobat taraqqiy etar ekan, undagi o'zgarishlarni o'zida namoyon qiluvchi terminlarga talab ortib boraveradi. Natijada, tabobat terminologiyasi ham tibbiyot bilan hamqadam bo'lmog'i lozim. Kelgusida tibbiy va tabobat terminlarini chuqurroq tadqiq etish, ilmiy asoslash, o'zbek tibbiy va tabobat terminologik tizimini shakllantirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madiev J., Hakimov I. Tabobat va ma'naviyat Navoiy talqinida. – T.: Tafakkur, 2018.
2. Boliev M.N. Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi. – Toshkent, 2013.
3. Doniyorov R. O'zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1973
4. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent2017.
5. To'raqulov Yo. Ruscha-o'zbekcha meditsina lug'ati. 1-jild. Toshkent, 1962: 2- jild. – T., 1970.
6. Haydarova D.A. O'zbek va ingliz tillarida tibbiyot atamalarining qiyosiy tadqiqi: Filol.Fan.nomz.dis.-T.,2007

Internet ma'lumotlari:

1. www.pedagog.uz.
2. www.ZIYONET.uz
3. www.eduportal.uz
4. [http:// www.rusnauka.com](http://www.rusnauka.com)
5. <http://dic.academic.ru>
6. <http://dissercat.com/content>

FILOLOGIYA

TASAVVUFİY QARASHLARDA AYOL FENOMENI TALQINI

UO‘K 95(575.171)

**Jabborova Matluba,
Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent
davlat
o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti,
O‘zbek adabiyoti va
uni o‘qitish
metodikasi
kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)**

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf falsafasida ayol fenomenining ramziy va ma’naviy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumi va Fariduddin Attor merosi asosida olib borilib, ayol timsolining ilohiy tajalliy tizimidagi o‘rni hamda komillik konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются символические и духовные интерпретации феномена женщины в суфийской философии. Исследование основано на наследии Ибн Араби, Джалаладдина Руми и Фаридууддина Аттар, в рамках которого раскрывается место женского образа в системе божественного проявления (таджалли) и его органическая связь с концепцией совершенства (камиль инсан).

Annotation: This article analyzes the symbolic and spiritual interpretations of the phenomenon of woman in Sufi philosophy. The research is based on the works of Ibn Arabi, Jalal al-Din Rumi, and Farid al-Din Attar, revealing the place of the female image within the system of divine manifestation (tajalli) and its intrinsic connection with the concept of spiritual perfection (al-insan al-kamil).

Kalit so‘zlar: tasavvuf, ayol fenomeni, vahdat ul-vujud, tajalliy, ishq haqiqiy, komil inson, Ibn Arabiy, Rumi, Attor, Robiya Adaviya.

Ключевые слова: суфизм, феномен женщины, вахдат ал-вуджуд, таджалли, истинная любовь, совершенный человек, Ибн Араби, Руми, Аттар, Рабия Адавия.

Key words: Sufism, woman phenomenon, wahdat al-wujud, tajalli, divine love, Perfect Human, Ibn Arabi, Rumi, Attar, Rabi‘a al-‘Adawiyya.

Tasavvuf tafakkuri islom falsafasining eng nozik va murakkab qatlamlaridan biri bo‘lib, unda inson, borliq va Ilohiy haqiqat o‘rtasidagi

munosabat masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Bu tizimda “komil inson”, “vahdat ul-vujud”, “tajalliy”, “ishqi haqiqiy” kabi tushunchalar orqali insonning yaralish maqsadi va ma’naviy kamolot yo‘li izohlanadi. Mazkur konsepsiyalar doirasida ayol fenomeni ham alohida ramziy ahamiyat kasb etadi. Biroq ko‘plab tadqiqotlarda tasavvufda ayol mavzusi asosan ijtimoiy yoki axloqiy kontekstda ko‘rib chiqilib, uning to‘la mohiyati yetarli darajada ochilmagan. Ma’lumki, Sharq tasavvuf tafakkurida ayol timsoli oddiy jinsiy tafovut ifodasi emas, balki ilohiy jamolning tajallisi, majoziy ishq orqali haqiqiy ishqqa eltuvchi ko‘prik, ruhiy kamolot jarayonidagi sinov va idrok vositasi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, tasavvufning yirik namoyandalari – Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy va Fariduddin Attor qarashlarida ayol borliqning ontologik tuzilmasi bilan uzviy bog‘liq holda sharhlanadi.

Ibn Arabiy (1165–1240) islom tasavvuf falsafasining eng yirik nazariyotchilaridan biri bo‘lib, uning “Fusus al-Xikam” asari “vahdat ul-vujud” ta’limotining mukammal ifodasi sifatida e’tirof etiladi. Mutafakkir borliqni ilohiy tajalliy jarayoni sifatida tushuntirar ekan, ayolni jamol sifatining ko‘zgusi hamda erkak bilan birlikda yaxlitlik hosil qiluvchi qism sifatida talqin qiladi. Uning qarashlarida ayol nafaqat muhabbat obyekti, balki ilohiy haqiqatni idrok etish vositasidir.

Jaloliddin Rumiy merosi esa insoniyatning ma’naviy kamoloti, ishq va ilohiy haqiqatni anglash yo‘lidagi tajribalarini chuqur badiiy-falsafiy talqin etishi bilan ahamiyatlidir. “Masnaviyi ma’naviy”da ayol timsoli ba’zan nafs ramzi, ba’zan esa ilohiy nur va yaratuvchanlik manbayi sifatida tasvirlanadi. Rumiy talqinida ayol insonni majoziy ishq orqali Haqqa yetaklovchi ruhiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Bu yondashuv ayol obrazining tasavvufiy-falsafiy mohiyatini ochishda muhim ahamiyatga ega.

Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida esa ayol timsoli ma’naviy jasorat va ilohiy ishq yo‘lida komillikka erishgan zot sifatida ko‘rsatiladi. Xususan, Robiya Adaviya obrazi tasavvufda jinsiy tafovutdan yuqori turuvchi ma’rifiy darajani ifodalaydi. Bu esa tasavvuf tafakkurida ayolning ruhiy maqomi erkak bilan teng, ba’zan undan ham yuksak darajada talqin etilganini ko‘rsatadi.

Tasavvuf falsafasida ayol fenomeni masalasi bevosita alohida mavzu sifatida kam o‘rganilgan bo‘lsa-da, tasavvufning asosiy konsepsiyalari doirasida muhim o‘rin tutadi. Xususan, Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy va Fariduddin Attor merosida ayol timsoli ilohiy tajalliy, komillik va ishq falsafasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi.

Ibn Arabiy ta'limoti Sharq va G'arb olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. Uning "vahdat ul-vujud" nazariyasi tasavvuf ontologiyasining markaziy tushunchasi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar asosan Ibn Arabiy metafizikasini borliqning ilohiy zuhur jarayoni sifatida sharhlab, "tajalliy", "komil inson", "haqiqat al-haqoyiq" kabi tushunchalarning nazariy asoslarini ochib berganlar. Biroq mazkur tadqiqotlarda ayol fenomeni tahlil qilinmagan. Shu jihatdan ayolning jamol tajallisi sifatidagi talqini maxsus ilmiy e'tiborni talab qiladi.

Jaloliddin Rumiy merosi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda, asosan, ishq falsafasi, ma'naviy kamolot, ramziy hikoyatlarning didaktik mohiyati tahlil etilgan. "Masnaviyi ma'naviy"ni sharhlovchi tadqiqotchilar Rumiyning inson tabiatiga doir qarashlarini keng yoritgan bo'lsalar-da, ayol timsolining ikki qirrali – nafs va nur timsoli sifatidagi talqini yetarlicha o'rganilmagan. Holbuki, Rumiy asarlarida ayol obrazi inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, ishqiy tajriba va ilohiy jamolni anglash jarayonining muhim ramziy unsuri sifatida namoyon bo'ladi.

Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asari tasavvuf tarixidagi avliyolar hayotini yorituvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda Robiya Adaviya timsoli orqali ayolning ma'naviy kamolotdagi o'rni, ilohiy ishq yo'lidagi sobitqadamligi va ruhiy qudrati ochib beriladi. Tadqiqotchilar Attor merosini tasavvufiy axloq va zuhd konsepsiyasi asosida sharhlab kelgan bo'lsalar-da, ayolning jinsiy chegaralardan yuqori turuvchi komillik modeli sifatidagi talqini maxsus nazariy yondashuvni talab etadi.

Mazkur tadqiqot tasavvuf falsafasida ayol fenomenining talqiniga qaratilgan bo'lib, unda bir qator ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, tarixiy-qiyosiy metod asosida Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy va Fariduddin Attor qarashlari o'zaro solishtirildi hamda ularning ayol fenomeniga munosabati tarixiy taraqqiyot jarayonida tahlil qilindi. Ushbu metod tasavvuf tafakkurida ayol talqinining evolyutsion jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Ikkinchidan, germeneytik (talqin) metodi qo'llanildi. Tasavvufiy matnlar ramziy va botiniy ma'noga ega bo'lgani sababli, "Fusus al-Xikam", "Masnaviyi ma'naviy" hamda "Tazkirat ul-avliyo" asarlaridagi ayol obrazlari matn ichki konteksti va tasavvuf terminologiyasi asosida sharhlanib, ularning yashirin ma'no qatlamlari ochib berildi. Uchinchidan, fenomenologik yondashuv asosida ayol timsoli tasavvufiy ongda qanday ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'lishi o'rganildi. Bu yondashuv ayolni ijtimoiy rol emas, balki ruhiy-tajribaviy fenomen

sifatida tahlil qilish imkonini berdi. To'rtinchidan, ontologik tahlil metodi qo'llanilib, Ibn Arabiy ta'limotidagi "vahdat ul-vujud", "tajalliy", "qism-butun" kabi tushunchalar orqali ayol fenomenining borliq tizimidagi o'rni asoslandi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida mantiqiy-tahliliy, sistemali yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada ayol fenomeni tasavvuf falsafasida ko'p qatlamli – ontologik, ishqiy, axloqiy va ma'rifiy kategoriya sifatida talqin qilindi.

Ayol haqidagi tasavvufiy qarashlar diniy manbalarga asoslanadi. Ibn Arabiyning fikriga ko'ra, ayol erkakdan jinsi bilan farqlanuvchi oddiy ijtimoiy shaxs emas, u bir timsol zuhuridagi haqiqiy jamol tajalliysi sifatida namoyon bo'ladi. "Erkakning o'xshashi (aksi) ayoldir... Erkak nega aynan ayol bilan sinaladi. Bu uning kuchli tomoni emas, aksincha ojiz tomoni bo'lgani uchun." [1.17-18.] Demak ayol ichki sinov vositasi va birlikni tushunish kalitidir. Muallif o'z qarashlarini Qur'oni Karimdan olingan "Ey insonlar! Sizlarni bir jondan yaratgan, undan juftini yaratgan va ikkisidan ko'plab erkaklar va ayollar tarqatgan Rabbingizdan qo'rqingiz" xitobi orqali erkak va ayol jinsiy tafovut emas, balki yagona jonning ikki xil ko'rinishi deb talqin qiladi va bu orqali ayol mavqeyini yuqori darajaga ko'taradi. O'sha davr uchun bu o'ta muhim xulosa bo'lgan deyish mumkin.

Ibn Arabiyning "Fusus al-Xikam" asarining yana bir o'rnida Maryamning mo'jizaviy homilador bo'lishi va undan Iso allayhissalomning tug'ulishi, natijada otasiz dunyoga kelgan o'g'ildagi ko'p sifatlar onasidan o'tgani haqida so'z yuritiladi. Iso payg'ambardagi kamtarinlik, janjalga qarshilik qilmaslik va qasos talab etmaslik xislatlari onasidan o'tgan deyiladi. [1.70.] Chunki ayol kishi tabiatan shunday kuch-qudratini namoyon etuvchi tarzida yaratilmagan. Biroq Isodagi "o'liklarga nafasi orqali jon berishi" ham onasi orqali ko'chgan. Zero Jabroyil a.s. Maryamga "bir puf" deb ruh beradi va undan Iso a.s. yaraladi. Demak Isodagi "tiriltirish nafasi" Jabroyil a.s.ning nafasidir va u Maryam orqali Isoga o'tgan. [1.70.] Shuningdek, Ibn Arabiy Muhammad s.a.v.ning "Men bu dunyoda ayollar va xushbo'y iforlarni yaxshi ko'rardim, ibodat ulardan ham suyukli bo'ldi" degan gaplari orqali Ayol erkakning yarmi ekanligini va shu tufayli erkak hamisha o'z yarmiga intilishini aytadi. [1.114.] Umuman olgan-da, muallif qarashlariga ko'ra, ayolning yaralish manbasi erkakning bir qismi(qovurg'asi)dir. Ular bir butunlikda yaxlitlik va birlikka erisha oladi. Bu go'yo insonning hamisha yaralish manbasi(u Zot)ga talpinishi, qaytishi va birlashishi kabi. Shuningdek, ayolning sevimliligi faqat shaklan insonga o'xshashligida emas, balki insonning bir qismidan yaralganidadir. Demak ilohiy muhabbat birlikda, butunlikda. Muallif

fikricha, ilohiy muhabbat faqat Allohga muhabbat bilan chegaralanmay, u Zot yaratgan barcha yaratqilarga muhabbat qo'yish orqali mukammallashadi. Bunda ayol vosita, qism, zuhur vazifalarini bajaradi.

Ibn Arabiyning “Tanlangan asarlar” to‘plamining 2-jildida “eng katta vasvasaga soluvchi – ayol, boylik, farzand va ta’sirga berilishdir” [2.378.] degan qayd mavjud. Ayol erkakning bir qismi; demak uning talpinishi – qismning butunga intilishi yoki qismni o‘zida jo etib butunlashish bilan belgilanadi. Erkakning yaralish manbasi yaratgandan, undan chalg‘ituvchi omillar – fitnalar, deb qayd etiladi. Mazkur tasavvufiy qarashlar keyinchalik badiiy asarlardagi ayollar obraziga xos xususiyatlarni paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan, deya olamiz. Masalan, Sharq adabiyotida Layli va Shirin kabi Allohning tajalliysi sifatidagi, yoki fitnakor ayollar obrazi ana shu diniy manbalardagi qaydlar asosida rivojlangan.

Jaloliddin Rumiyl dunyo tamaddunida o‘zining ilg‘or fikrlari, tasavvufiy-falsafiy qarashlari, ilmiy-nazariy xulosalari bilan mashhur. Uning “Masnaviyi ma’naviy”si insoniyatni har jihatdan kamolotga yetkazishda mayoq vazifasini o‘taydi. Asarda ko‘pgina masalalar qamrab olingan. Chunonchi, Rumiyning ayol haqidagi qarashlari nafaqat o‘z davri uchun inqilobiy bo‘lgan, keyingi davrlarda yaratilgan asarlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. U ayolni dunyoviy ehtirosalar manbayi sifatida emas, balki insonni Haqqa yetaklovchi “ko‘prik” (majoz) sifatida ta’riflaydi. “Masnaviy”dagi hikoyatlarda ayol obrazi orqali sabr, vafo va ilohiy hikmatlar ochib beriladi. Masalan, ayolning yaratuvchanlik tabiati uni Tangrining jamol sifatiga yaqinlashtiradi, bu esa tasavvufdagi “Vahdat ul-vujud” falsafasining go‘zal ifodasidir.

“Masnaviyi ma’naviy”ning birinchi kitobida Jaloliddin Rumiyl ruhiyatning asosiy ziddiyatlari – aql va nafs, ishq va vahm, nur va zulmat qarama-qarshiligini hikoyalar orqali ochadi. Ayol obrazi muallif talqinida ruhiy-axloqiy kotegoriya sifatida tasvirlanadi. Rumiyl hikoyatlarida ayol qahramonlar kanizak, xotin, suyakli yor qiyofalarida namoyon bo‘ladi. Va har bir obraz maqsadli yaratilgan deyish mumkin. Mavlono qarashlari bo‘yicha er-aql, xotin-nafs ramzi sifatida keladi. [4.125.]

Shuningdek, uning “shariat – sham, tariqat – yo‘l, haqiqat – manzil” formulasida ayolning o‘rni ochib beriladi. Ayol timsoli ko‘pincha oshiqni haqiqatga yetaklovchi “majoziy ishq” manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Rumiyl qarashlarida ayolga bo‘lgan hurmat – Yaratuvchiga bo‘lgan hurmatning bir qismidir. Uning “Qalb ko‘zingni och” asarida aytilganidek, inson o‘z ichidagi

“ma’naviy ayol”ni (latofat va mehribonlikni) tarbiya qilishi lozim. Demak Rumiylar falsafasida ayol – bu faqat uy bekasi emas, balki ruhning ko‘zgusi. Mavlono qarashlaridagi ayol talqini sharq mumtoz adabiyoti orqali badiiy jihatdan rivojlanib borganini ko‘rish mumkin. Birinchidan, “Masnaviy”ning birinchi kitobida (va boshqa jildlaridagi mushohadalarda) Rumiylar ayolga nisbatan juda yuksak ta’rif beradi. U ayolni shunchaki nafs timsoli emas, balki Ilohiy sifatlarning ko‘zgusi deb biladi: “Ayol – Haq nuridir, mahbuba emas, go‘yo u yaratuvchidir, yaralgan emas”. Bu yerda Mavlono ayolning dunyoga hayot berish, mehr va shafqat ko‘rsatish xususiyatlarini Allohning “Xoliq” (Yaratuvchi) va “Rahmon” (Rahmli) sifatlariga qiyoslaydi. Uning fikricha, ayol go‘zalligida ilohiy jamolning aksi, go‘yo yaratganning mehri bor. Ikkinchidan, Rumiylar inson tabiatidagi qiziq bir jihatga to‘xtaladi: garchi erkak zoti zohiran kuchli va ayoldan ustun ko‘rinsa-da, aslida muhabbat va mehr oldida u mag‘lubdir. G‘oliblik va mag‘lublik tushunchasi Rumiylar qarashlarida quyidagicha aks etadi: johil va qo‘pol kishilar ayolni pastga urib, unga zulm qiladilar, chunki ularda mehr va insoniylik kam. Ammo oqil va ko‘ngli yumshoq kishilar ayolga mag‘lub bo‘ladilar. Bu mag‘lublik – zaiflik emas, balki yuksak ma’naviyat va muhabbat belgisidir. Uchinchidan, Rumiylar asarlaridagi ramziy hikoyalarda ayol ba’zan “nafs”ni, ba’zan esa “ruh”ni ifodalaydi. “Masnaviy”dagi er va xotin haqidagi bahslarda (masalan, A’robiy va uning xotini hikoyasi) ayol – insonning bu dunyodagi ehtiyojlari, tirikchilik va nafs talablarini ifodalovchi obraz sifatida keladi. Er esa aql va ruhni ifodalaydi. Biroq bu bahslarning yakunida ayol (nafs)ning tinchlanishi va aqlga bo‘ysunishi orqali oilada tinchlikka erishiladi. To‘rtinchidan, Jaloliddin Rumiylarning “Qalb ko‘zingni och” kitobidagi hikmatlarda ayol vafo va fidoiylilik ramzi sifatida tasvirlanadi. Rumiylarning nazdida, ayolning mehri onalik sifatida namoyon bo‘lganda, u eng yuksak darajaga ko‘tariladi. Onaning farzandiga bo‘lgan muhabbati – Allohning bandasiga bo‘lgan muhabbatining yerdagi eng yorqin namunasidir.

Fariduddin Attor, buyuk mutasavvif shoir va mutafakkir sifatida, ayol timsolini faqat jismoniy yoki ijtimoiy mavjudot emas, balki ma’naviy yuksalishning cho‘qqisi va ilohiy ishqning ko‘zgusi sifatida talqin etgan. Uning asarlarida ayol obrazi boshqa ko‘plab asarlardan farqli o‘laroq, erkak bilan teng ko‘riladi, hatto ayrim o‘rinlarda ma’naviy jasoratda ustun qo‘yiladi. Attorning ayol haqidagi qarashlarini quyidagi asosiy nuqtalarda tahlil qilish mumkin:

1. Attor uchun tasavvuf yo‘lida jinsiy ayrimachilik mavjud emas. Muallifning ta’kidlashicha, agar ayol kishi Alloh yo‘lida sobitqadam bo‘lsa, uni “erkak” deb atash joiz, chunki haqiqat yo‘lida tashqi surat emas, balki qalb va

amal muhim hisoblanadi. “Tazkirat ul-avliyo”da insoniyatning asl “erlari” deb faqat jismoniy erkaklar emas, balki foniylilik va baqo yo‘lida yuksak maqomga erishgan zotlar nazarda tutiladi. Attor “ayol” va “erkak” tushunchalariga tavhid (birlik) nuqtayi nazaridan yondashadi; uning nazdida ilohiy ishq va ma’rifatda jinsning ahamiyati yo‘q.

2. “Tazkirat ul-avliyo”da ayol zotining ma’naviy qudratini ko‘rsatuvchi eng yorqin siymo Robiya Adaviyadir. Attor uni boshqa yirik avliyolar bilan bir qatorda tilga oladi. *Ibrat namunasi*: Robiya obrazi orqali ayol kishining nafaqat erkaklar bilan tenglasha olishi, balki taqvo va ishqda ulardan o‘zib ketishi mumkinligi ko‘rsatiladi. *Ma’naviy martaba*: Uning hayoti va karomatlari asardagi boshqa mashoyixlarniki kabi batafsil va ehtirom bilan yoritilgan.

3. “Tazkirat ul-avliyo”ning umumiy mazmunida ayol kishi quyidagi sifatlar egasi tarzida talqin etiladi: *Zuhd va Tavakkul*: Attor ayol avliyolar misolida dunyo matohlaridan voz kechish va faqat Allohga suyanish (tavakkul) g‘oyasini ilgari suradi. *Ilohiy muhabbat*: Ayol qalbi ilohiy ishqning eng nozik va sof ko‘zgusi sifatida tasvirlanadi. Bu muhabbat insonni nafs zulmatidan qutqarib, haqiqat nuriga olib chiquvchi kuchdir.

4. Attor ayollar haqidagi naqlarni shunchaki hikoya emas, balki tirik, ta’sirchan va badiiy yuksak lavhalar tarzida taqdim etadi. Bu tasvirlar kitobxonda ayol zotiga nisbatan yuksak hurmat va ularning ma’naviy salohiyatiga ishonch uyg‘otadi. [6.79-96.]

Tasavvufiy qarashlarda ayol fenomeni oddiy ijtimoiy shaxs yoki jinsiy tafovut ifodasi sifatida emas, balki borliqning muhim yaratig‘i sifatida talqin qilinadi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, tasavvuf namoyandalari qarashlarida ayol – ilohiy tajalliy jarayonining muhim unsuri hamda insonning komillikka intilishida vositachi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ibn Arabiy ta’limotida ayol “qism-butun” tushunchasi asosida sharhlanib, erkak bilan birlikda yaxlitlikni hosil qiluvchi mavjudot sifatida talqin etiladi. Uning nazarida ayol – ilohiy zuhurning markazi bo‘lib, muhabbat orqali birlikni anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, ayol inson uchun sinov va imtihon vositasi hamdir. Bu ikki qirrali talqin tasavvufdagi zohir-botin, jamol-jalol nazariyasini aslatadi. Jaloliddin Rumi qarashlarida ayol fenomeni yanada murakkab va ko‘p qatlamli talqin etiladi. U ayolni ba’zan nafs ramzi, ba’zan esa ilohiy nur va yaratuvchanlik manbayi sifatida tasvirlaydi. Rumi tafakkurida ayol – majoziy ishq orqali haqiqiy ishqqa eltuvchi ko‘prikdir. Demak, ayol obrazida inson ruhiyatining ziddiyatlari, ishqiy va ma’naviy yuksalish jarayoni mujassamdir. Fariduddin Attor

ijodida, xususan, Robiya Adaviya timsolida ayolning ma'naviy qudrati va komillik darajasi yorqin namoyon bo'ladi. Tasavvufda jinsiy tafovut ruhiy maqomni belgilamasligi, ilohiy ishq yo'lida erkak va ayol tengligi g'oyasi ilgari suriladi. Bu esa tasavvuf tafakkurining ma'rifiy va insonparvarlik mohiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, tasavvufiy qarashlar Sharq mumtoz adabiyotidagi ayollar obrazining shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Layli, Shirin, Zulayho kabi obrazlar majoziy muhabbat timsoli sifatida tasvirlanar ekan, aslida ular ilohiy ishqning ramziy ifodasiga aylanadi. Shunday qilib, ayol timsoli badiiy matnlarda ham tasavvufiy mohiyatini saqlab qolgan. Albatta buni chuqur tekshirish lozim.

Umuman olganda, tasavvuf falsafasida ayol fenomeni borliqning ajralmas qismi, ilohiy tajalliy, ishq va komillikka eltuvchi vosita, ruhiy sinov va ma'naviy yuksalish omili kabi qirralarda namoyon bo'ladi. Demak, tasavvufda ayol zaiflik yoki ikkinchi darajali shaxs sifatida emas, balki ilohiy haqiqatni anglash jarayonida muhim vosita deb talqin qilinadi. Mazkur yondashuv ayol fenomenini ijtimoiy stereotiplardan holi holda, ruhiy-ma'rifiy darajada tushunish imkonini beradi hamda tasavvuf tafakkurining insonparvarlik va komillik g'oyalarini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ибн Араби. Геммы мудрости (Фусус ал-Хикам). (пер. с араб. А.В.Смирнов). – Москва: Наука, 1993. – 120 с.
2. Ибн Араби. Избранное том 2. (пер. с араб. А.В.Смирнов). – Москва: САДРА, 2014. – 400 с.
3. Ибн ал-Араби. Маккенские откровения (ал-Футухат ал-маккийя). (пер. с араб. А.Д.Кныша). – Санкт-Петербург: Петербургское Востоковедение, 1995. – 288 с.
4. Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. 1-китоб. (Форсийдан Жамол Камол таржимаси). – Тошкент: Ҳидоят, 2005. – 392 б.
5. Жалолиддин Румий. Қалб кўзингни оч. – Тошкент: Сано-тандарт, 2011. – 160 б.
6. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 464 б.

FILOLOGIYA

XORXE LUIS BORXES IJODIGA JAHON FALSAFIY MADANIYATINING TA’SIRI

UO‘K 95(575.171)

**Tolib
NAJMIDDINOV,
O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori
instituti tadqiqotchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada argentinalik yozuvchi Borxes asarlarining jahon adabiyotshunosligida tutgan o‘rni yoritilgan. Muallif Borxes asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari, yangi adabiy janrlar hamda yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi haqida mulohaza yuritadi.

Аннотация: В данной статье освещается роль произведений аргентинского писателя Борхеса в мировом литературоведении. Автор размышляет об особенностях творчества Борхеса, о возникновении новых литературных жанров и направлений.

Annotation: This article highlights the role of the works of the Argentine writer Borges in world literary criticism. The author reflects on the peculiarities of Borges' work, on the emergence of new literary genres and trends.

Kalit so‘zlar: jahon adabiyotshunosligi, asar, oqim, avangard, mifologiya, afsona, janr, badiiy tafakkur.

Ключевые слова: мировое литературоведение, творчество, течение, авангард, мифология, миф, жанр, художественное мышление.

Key words: world literary criticism, creativity, current, avant-garde, mythology, myth, genre, artistic thinking.

Kuzatishlarga ko‘ra ijodining asosini G‘arb va Sharq falsafasi, aniqrog‘i faylasuf-allomalarining qarashlari tashkil qiladi. Uning mifologik va falsafiy tizimi nafaqat bitta mamlakat, balki umuminsoniy g‘oyalarga taqaladi. Yozuvchi ijodi o‘z davriga xos politsentrizm¹ga asoslangan postmodern tendensiyaning aks

¹ Politsentrizm (polidan... va Lat. centrum-markaz, markaz), dunyoning bir necha sohalarida zamonaviy inson turlarining (neoantrop) kelib chiqishi tushunchasi. Borxes bu tushuncha orqali ziyoli, yangi tafakkurli insonlarni nazarda tutadi.

ettiradi, Yevropa Sharqni, lotin Amerikasi esa Yevropani kashf etadi: o'zgacha ko'rinishdagi turli madaniyatlar, urf – odatlar, tasavvurlar tasviri to'qnashadi va aralashadi, biz hozir yashayotgan muhitni – XXI asr avlodlarini yaratadi va shakllantiradi. Borxes nafaqat ushbu rivojlanayotgan tendensiyaning o'zining ijodi bilan aks ettirdi, balki jahon madaniyatiga o'ziga xos dunyoqarashini olib kiradi: “Bu haqda hech narsa qila olmaysiz, hatto chindan ham xohlasangiz ham, o'z davringizdan sakrab chiqolmaysiz. Vaqt belgisi har birimizning zimmamizda va avlodlar buni ayniqsa og'riq bilan his qilishadi” deb ta'kidlaydi Borxes kelajak haqidagi suhbatlardan birida.¹ Darhaqiqat, Borxes ham o'z davrining mahsuli, ham yaratuvchisi, ko'p jihatdan butun insoniyat sivilizatsiyasi uchun burilish nuqtasidir.

Aytish mumkinki, eng avval Yevropa madaniyati Borxes shakllanishida o'ziga xos otaliq vazifasini bajaradi, uning tafakkurini boy tarixiy, adabiy va diniy-falsafiy an'analar bilan boyitadi va bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri uning asarlarida namoyon bo'ladi.

Maqolada adabiyotshunoslikda qo'llaniladigan bir qancha metodlardan foydalanilgan. Jumladan, adabiyotshunoslikda faol qo'llanib kelinayotgan tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik va analitik metodlar asosida ijodkor shaxsiyatining jahon adabiyotshunosligidagi o'rni, uning dunyo adabiyotshunosligiga qo'shgan xissasi ijodining o'ziga xos xususiyatlari, asarlarining tahliliy qiyosi orqali ko'rsatilgan. Shuningdek, Lotin Amerikasi adabiyoti va Borxes ijodi tarixiy-madaniy metod orqali solishtiriladi hamda tahlillar asnosida ijodkor shaxsiyati gavydalanitiriladi.

Borxesning yozuvchi va mutafakkir sifatida shakllanishida yoshligidagi Shveysariya va Ispaniyadagi hayoti ham kuchli ta'sir ko'rsatdi; bu erda u juda ko'p falsafiy asarlar va tushunchalar bilan tanishdi. Jorj Berkli, Artur Shopengauer va Devid Xumning asarlari adibni idealizm falsafasi bilan tanishtirdi va umrining oxirigacha bu falsafaning tarafdori bo'lib qoldi.

¹ Борхес Х.Л. Собрание сочинений: в 4 т.-2-е изд., стер. / Хорхе Луис Борхес. –СПб.: Амфора. ТИД Амфора, 2011. С.-407.

Borxes qisqa va ixcham til yordamida faylasuflar va ilohiyotchilar o'rtasidagi cheksiz tortishuvlar va fobiyalarni istehzo bilan tasvirlashga muvaffaq bo'ladi.

Jan De Miere bilan suhbatda Borxes o'z matnlarida izchil falsafiy tizim mavjudligini hech qachon yashirmaganligini ta'kidlaydi. "Birinchidan, mening fikrimcha, bu idealizm falsafasi; "idealizm" deganda men Aflotunning abadiy arxetiplarini emas, balki Berkli, Yum va Shopengauerni nazarda tutyapman"¹. X.L.Borxesning "Ajoyib haqiqat metafizikasi" asarida real va noreal o'rtasidagi chegara o'chiriladi. Ushbu uslub Borxesga yaqin idealistik ta'limotlarni adabiyotga o'tkazish shakliga aylanadi va olam tafakkurining yaratilishi hisoblanadi.² Bu yondashuvda idealistik tamoyil ustunlik qiladi. "³ Falsafiy ma'noda Borxes o'zini idealist deb e'lon qildi", deb yozadi Teitelboim⁴.

"Boshida so'z bor edi. Fikr yaratuvchining ilohiy tabiati, umuminsoniy, koinotning faol qonuniyati bo'lgan ruhning murakkab ijodi mutafakkirga olamlardan oldin haqiqat mavjudligini inkor etishga imkon beradi"⁵. Seamus Heaney va Richard Kirni bilan suhbatlarida Borxes o'zining falsafiy qarashlarini batafsil bayon qiladi. Yozuvchining qayd etishicha, Platon va Suqratgacha bo'lganlar falsafiy mantiq va poetik mifologiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi. Platondan so'ng G'arb dunyosi bu harakatlarga – "biz tush ko'ramiz yoki fikr yuritamiz, argumentlar yoki metaforalardan foydalanamiz" deb e'tiroz bildiradi.

¹ Борхес Х.Л. Собрание сочинений: в 4 т.-2-е изд., стер. / Хорхе Луис Борхес. –СПб.: Амфора. ТИД Амфора, 2011. С.-403.

² Беликова Е.В., Метафизика «Чудесной реальности» Х. Л. Борхеса / Е.В. Беликова // Наука о человеке: гуманитарные исследования. –2015. –С. 60.

³ Volodia Teitelboim. Los dos Borges: vida, sueños, enigmas. – México, D.F. : Editorial Hermes. 1996. P 356 – 28

⁴ Volodia Teitelboim – huquqshunos, siyosatchi va yozuvchi. Adabiy faoliyati xotiralari, tarjimalar va esselari bilan ajralib turadi. Borxes ijodi bo'yicha bir qancha tadqiqot va xotiralarni nashr qilgan.

⁵ Тейтельбойм, В. Два Борхеса: жизнь, сновидения, загадки : пер. с исп. / Володя Тейтельбойм. –СПб.: Азбука, 2003. С.-108.

Yozuvchi otasining “Haqiqat bizning idrokimiz mahsuli – hamma narsa mumkin, hatto olamning Uchbirligi ham”¹ degan gapini uzoq vaqt eslab yurdi. U dinga nafosat sifatida qaraydi. Italiyalik yozuvchi Leonardo Shasha Borxesni “ateist ilohiyotchi” deb atagan, u ilohiyotni estetika bilan birlashtirgan. Bu holat – bolakayga Injilni badiiy kitob sifatida o‘qib bergan buvisining ta’siri. Ajablanarlisi shundaki, erta bolalik davrida shakllangan bu tasavvur yozuvchining butun umri davomida saqlanib qoladi. Bu motivni “Bobil kutubxonasi”da ham, “Qum kitobi”da ham kuzatish mumkin, lekin bu, ayniqsa, “Tlyon, Ukbar, Orbis Tertiyl” qissasida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Barcha kitoblar ULKAN KITOBga olib boradi - yagona, mutlaq yo‘l. Bu yo‘lda kitoblar, go‘yo ular qo‘shilib ketadigan va Kitobga aylanadigan “substantia sive deus” (modda yoki xudo) va qo‘shilish, sintez sodir bo‘lgunga qadar, har bir kitob turli davrlarda, o‘quvchilarning turli avlodlarida, har bir alohida o‘quvchi, shuningdek, bir o‘quvchi tomonidan har bir yangi o‘qish bilan o‘zgarishlar, turlicha qabul qilinishiga imkon beradi. “Kitob” kitobga qarashlar, talqinlar yig‘indisidan boshqa narsa emas, oxir-oqibat yangi kitob shakllanadi”².

Faylasufni yana bir o‘ziga tortgan qadimiy mavzu – VAQT masalasi. Adabiyot va tarix bilimdoni Borxes yaxlit ketma-ketlik, yashagan lahzalar majmui sifatida tarix yo‘q, “faqat har bir yashagan lahza bor” degan xulosaga keladi. Yozuvchi o‘lim bir marotaba yuz beradi, hayot esa har kun beriladi, takror va tokror deb hisoblaydi. Vaqt mavzusi yozuvchini butun umri davomida band qilgani bejiz emas, mashhur argentinalik ijodining katta qismi ayni mavzuga bag‘ishlangan.

Mifologik vaqt modeli Lotin Amerikasi adabiyotida 20-asrning o‘rtalariga kelib – hindu qahramonlari va oq tanlilar Lotin Amerikasi yozuvchilarining

¹ Seamus Heaney, Richard Kearney and Jorge Luis Borges –Borges and the World of Fiction: An Interview with Jorge Luis Borges /Seamus Heaney, Richard Kearney // The Crane Bag, Vol. 6, No. 2, Latin-American Issue. –1982. –pp. 71-78.

² Паша Л. Несуществующий Борхес / Леонардо Паша // Иностранная литература. –1995. –No 1. –С. 219-220.

ongida Obyektiv tarixiy vaqtning bir xil, vaqtinchalik oqimida bo‘lishni to‘xtatgan paytda paydo bo‘la boshladi.

Borxesning vaqt (sikl¹)ni mifologik, to‘xtab qolgan (yo‘q qilingan) va integratsiya sifatida tushunishi ham “Yangi dunyo” tafakkuriga xosdir, garchi Borxes o‘z qarashlarining asosini atsteklar e’tiqodidan olgan bo‘lsada. Atsteklar e’tiqodiga ko‘ra iptido bo‘lsa, albatta intiho ham bo‘ladi, shu bilan birga voqealar siklik takrorga ega, “abadiy qaytish” vaqt mavjudligining siklik o‘zgarishiga tegishli.

Borxes o‘zining “Vaqtning yangi raddiyasi” essesinde tafakkur olamini shunday tavsiflaydi: “O‘tkinchi taassurotlar dunyosi, ruh va tanadan tashqari, Obyektiv ham, subektiv ham bo‘lmagan dunyo, beg‘araz qurilgan makonsiz dunyo, zamondan to‘qilgan dunyo, kelib chiqishining mutlaq va birlashgan vaqti, bitmas-tuganmas labirint, tartibsizlik, uyqu”².

“Vaqtning yangi raddiyasi” asarida yozuvchi bundan ham uzoqroqqa boradi va idealistik dalillarga asoslanib, vaqtni cheksiz to‘g‘ri chiziq sifatida tushunishni, vaqtning ketma-ketligi va bir vaqtdaligini inkor etadi: “Yum mutlaq makonni inkor etdi, bunda har bir Obyekt o‘z makoniga ega, shaxsiy joy bor; Men barcha voqealarni bir zanjirda bog‘laydigan yagona vaqtman. Ammo vorislikni inkor etib, bir vaqtdalikni himoya qilish qiyin”³.

Adabiyot va tarix bilimdoni Borxes yaxlit ketma-ketlik, yashagan lahzalar majmui sifatida tarix yo‘q, “faqat har bir yashagan lahza bor” degan xulosaga keladi.

Borxes VAQTga mifologik tus beradi. Mifologik vaqt – birinchidan, asl davrni, birlamchi Obyektlar, birlamchi harakatlar va birlamchi yaratilishlarni

¹ Sikl (lotin “siklusi” — doira) - burchakning o‘lchov birligi, tebranishlar fazasi. Shuningdek, voqealar, jarayonlar yoki hodisalarning vaqtni takrorlaydigan ketma-ketligini ifodalaydi.

² Борхес Х.Л. Собрание сочинений: в 4 т.-2-е изд., стер. / Хорхе Луис Борхес. –СПб.: Амфора. ТИД Амфора, 2011. С.-483.

³ Борхес Х.Л. Собрание сочинений: в 4 т.-2-е изд., стер. / Хорхе Луис Борхес. –СПб.: Амфора. ТИД Амфора, 2011. С. – 485.

bildirsa, ikkinchidan, u siklik bo‘lib, "odamni abadiy qaytaradigan harakatlar va marosimlarning arxetipik takrorlanishi orqali “birlamchi yaratilish”ning afsonaviy davriga qaytish orqali yuzaga keladi.¹ Borxes “Vaqtning yangi raddiyasi” va “Siklik vaqt” esselarida vaqtни xuddi shunday tushunadi. Mifologik vaqt modeli Lotin Amerikasi adabiyotida 20-asrning o‘rtalariga kelib – hindu qahramonlari va oq tanlilar Lotin Amerikasi yozuvchilarining ongida Obyektiv tarixiy vaqtning bir xil, vaqtinchalik oqimida bo‘lishni to‘xtatgan paytda paydo bo‘la boshladi.

Borxesning tan olishicha, yuqoridagi hikoyada u muborak Avgustin tomonidan “Xudo shahri to‘g‘risida” asarida rad etilgan vaqt haqidagi “butparastlik sikli”² idrokni qayta tiklashga intiladi. Abadiy qaytish g‘oyasi stoiklarning³ eski g‘oyasi bo‘lib, unga Avgustin "Xudo shahri" - Quddusda bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaqtни chiziqli idrok etish bilan taqqoslay.

Lotin Amerikasi adabiyoti o‘ziga xos an‘ana va ramziy, o‘ziga xos “mifologiyasi” va birlashmalarning chuqur tizimini shakllantirdi. Bu esa o‘za navbatida Borxes ijodiga ko‘chib o‘tdi. Borxes haqiqatan ham jahon adabiy va falsafiy an‘analarini - birinchi navbatda, Yevropa va Lotin Amerikasi, balki ozgina bo‘lsa-da, Sharqiy an‘analarni o‘ziga singdirdi va aks ettirdi, bu esa unga shuhrat keltirdi. Biroq, Borxes ko‘pchilik tomonidan ilgari surilgan argentinalik an‘analardan ajralganiga qaramay, uning ijodi dunyo haqidagi sof Lotin Amerikasi qarashlari bilan singib ketgan.

Borxesning yozuvchi va shaxs sifatida ijodi shakllanishining boshidayoq aniq, namoyon bo‘lgan umuminsoniylik kelib chiqishiga harakat qiladi. “Borxes o‘z faoliyati bilan germeneytika⁴ va semiotika⁵ kabi madaniyatshunoslik

¹ Кофман А. Ф. Латиноамериканский художественный образ мира / Андрей Кофман. – М.: Наследие, 1997. С. – 87.

² Bu o‘rinda Borxesning Buddizmdagi 3 lik holati (tiriklik, o‘lim va kamolot) bo‘yicha yaratgan esselari hamda xulosalari nazarda tutilmoqda.

³ Stoitsizm – Afinada miloddan avvalgi 300 yillarda ellinizm davrida paydo bo‘lgan va qadimgi dunyoning oxirigacha o‘z ta‘sirini saqlab qolgan falsafiy maktab. Majoziy ma‘noda stoitsizm hayot sinovlarida qat‘iyat va jasoratdir.

⁴ Talqin qilish (har qanday matn yoki (tizim) tushunchalarni talqin qilish) tamoyillari.

⁵ Belgi va belgilar tizimlarining xususiyatlarini o‘rganadigan fan.

sohalarining jadal rivojlanishini o'sha yillarda tor mutaxassislar doiralarida endigina paydo bo'lgan va umuman kutmagan bugungi rezonansni yuzaga keltirdi"¹ ta'kidlaydi O.P. Chistyuxina.

Borxes asarlari ajralmas idrokida biron bir mavhum tizimni emas, balki manbalari osongina ko'rinadigan metafizikani emas, balki bir xil izchil falsafiy tizimni aks ettiradi. Bu, avvalambor, idealizm falsafasi: "Men idealizm kabi falsafiy tizimning adabiy imkoniyatlarini sinab ko'rdim", deydi Borxes Jan de Miere bilan suhbatda². Avvaliga Borxesni qiziqish, g'ayrat tufayli o'ziga jalb qilgan Kabala va Muqaddas Kitoblar, keyinchalik u bu ilohiy g'oya va ma'lumotlardan adabiy va falsafiy maqsadlarda ishlatadi.

Borxes ijodida ham diniy tafakkur – ongli imon va cheksiz tuyg'u masalasi bo'lib, estetik xodisaning yuksak namunasi sifatida ko'riladi.

Agar din tarafdorlar uchun turli diniy va e'tiqodiy ta'limotlarda yagona haqiqatni izlash bo'lsa, Borxes uchun bu birinchi navbatda ma'lum bir e'tiqodning qiziqarli o'ziga xosligi va paradoksalligi, lekin asosiysi go'zallikdir. Borxesning so'zlariga ko'ra, u estetik jihatga ega va mo'jiza bilan sug'orilgan, "haqiqatlar"ning ko'plab qirrasini ochib beradigan oyna vazifasini bajaradi va dindan "badiiy mohiyatni namoyish etish" uchun foydalanadi.

Borxes ilohiyotni estetika bilan birlashtirdi va u o'zini qiziqtirgan barcha diniy muammolarni estetik muammolar sifatida hal qildi. U "Xudo bilan suhbat"ni "adabiyot haqidagi suhbat"ga aylantirdi.

Borxes Jan de Mierga bergan intervyusida shunday dedi: "men uchun ilohiyot falsafiy tizim sifatida o'ziga xos fantastik adabiyotdir... chunki qudratli va hamma narsani biluvchi mavjudot g'oyasi har qanday hayoliy ixtirolarga qaraganda ancha ajoyib va to'laqonli"³.

¹ Чистюхина О.П. Борхес / О.П. Чистюхина. –М.: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2005. С. – 4.

² Борхес Х.Л. Сочинения в трех томах. - Рига: Полярис, 1997. с. 421-608.

³ Борхес Сочинения в трех томах. - М.: Полярис, 1997. - С. 424.

“Nataniel Xotorn” essesda uning qahramoni “yozuvchining kasbi beparvolik va yomon, gunoh narsa ekanligini his qildim (chunki yozuvchi voqelikni kuzatadi, tasvirlaydi, lekan aslo aralashmaydi)”. Ushbu fikrlarda Borxes “... agar xohlasangiz, ilohiyot va estetika o’rtasidagi qadimiy nizoni topasiz. Ushbu bahsning birinchi ko‘rinishlaridan birini biz muqaddas yozuvlarda topamiz, unda odamlar butlarga sajda qilish taqiqlangan...Shuningdek, tirik mavjudotning har biri Qiyomat kuni Rabbiy oldida paydo bo‘lishini Muhammad e’lon qilgan”¹.

Borxes yoshligidan ilohiy ta’limotlar, mistik muammolar va Sharqqa katta qiziqish bilan qaragan. Masalan, buddizm uni shunchalik qiziqtiradiki, Alisiya Jurado² bilan birgalikda ular buddizm to‘g‘risida kitob yozishga qaror qilishadi. Ammo tez orada Borxesga Alisiyaning maqsadi ayon bo‘ladi, u buddizmda yangi mazhab yaratib, odamlarni buddaviylikka chorlaydi. Intervyuda Borxes shunday deydi: “Buddizmda u qandaydir chiroyli va g‘ayrioddiy mohiyatni topdi. Va u “men uning ilohiy olamni namoyish qilmoqchi edim”, dedi”³. Borxes Sharq madaniyatida buddaviy e’tiqodga o‘tishni emas, balki uni ilhomlantiradigan ilohiy g‘oya va ma’nolarni topishni istadi. Uni o‘z o‘quvchisi uchun qiziqarli narsalar o‘ziga jalb qiladi. Buddizmda ham shunday narsalar mavjud: Budda afsonasi, olam va koinot.

Ko‘plab dinlar qatori Buddizm dinidan u hech qanday dogma va e’tiqodni izlamaydi, undan go‘zal va g‘ayrioddiy tafsilotlarni topadi, uni beqiyos tasvirlar o‘ziga jalb qiladi. Masalan, “Buddaning afsonasi” asari. Esseda Buddizمنى boshqa madaniyatlar bilan taqqoslashga, afsonada uchraydigan ramzlarni talqin qilishga harakat qiladi. Qirolicha Mayya orzu qilgan tush haqida gapirganda, unda oltita tishli fil paydo bo‘ladi va Borxes uni quyidagi izohlaydi: “oltinchi raqam, biz uchun ma’lum darajada g‘ayrioddiy son emas (g‘ayrioddiylik uchun uch yoki ettini afzal ko‘ramiz), bu Hindistonda boshqacha qabul qilinadi, u erda

¹ O’sha asar, 58 bet.

² Argentinalik yozuvchi va akademik. Viktoriya Okampo va Borxesning hamkori, do’sti. U bilan birga “Buddizm nima” asarini yozgan.

³ Борхес Х.Л. Сочинения в трех томах. - Рига: Полярис, 1997. с. 422-608.

kosmosning oltita o'lchami borligiga ishondi: yuqori, pastki, old, orqa, o'ng, chap. Olti tishli oq fil ular uchun g'alati tuyulmaydi"¹.

Buddizmda Borxesni matematik ketma-ketlikka ega bo'lgan Karma qonunidan kelib chiqadigan cheksizlik g'oyasi jalb qiladi. Borxes bu cheksizlikni harflar yordamida tushuntirib, "bu alifboning oxiri bor, lekin boshlanishi yo'q" deydi. Borxesning fikricha, buddizmni anglash, uni chuqur his qilish, uni ruh va tana bilan his qilish uzoq vaqtni talab qiladi (Borxes va Buddizm masalasi bo'yicha keyingi fasllarda batafsil to'xtalamiz).

Borxes Iudizm diniga ham katta qiziqish bilan qaragan. Uning "Kabbala"ga yondashuvi ilm-fan, ruh yoki tasavvuf bilan bog'liq bo'lmagan, katta ishtiyoq bilan adabiy yoki intellektual asosga ega bo'lgan munosabat edi. Borxes uchun Kabbala falsafa va ilohiyot kabi "fantastik adabiyot maydoni" edi, deb ta'kidlaydi adabiyotshunos Nagenson.

Yahudiylik mavzusidagi ko'pgina esselarni misol qilib keltirish mumkin: "Eski Ahdda keltirilgan "metafora" (1936), "Yahudo xiyonatining uch talqini" (1944), "Feniks mazhabi" (1944), "Deutsches Requiem" (1949), "Birovdan hech kimga" (1952), "Bir ismning aks-sadosi" (1952), "Apokrifik Xushxabarning parchalari" (1969), "Ibodot" (1969), "Ilohiyotchilar" (1949).

Borxesni Islom dini hamda madaniyati o'ziga butun umr jalb qilib kelgan, doim katta qiziqish bilan qaragan.

¹ O'sha asar, 424 bet.

Buyuk sharqshunos olim Edward Said¹ o'zining "Orientalizm"² asarida eng yirik sharqshunos olimlardan biri Lui Massinyon³ haqida fikr bildirib jumladan shunday deydi: "u butun islom adabiyotiga bemalol murojaat qiladi, uning fantastik bilimdonligi va taniqli shaxsi uni ba'zan Xorxe Luis Borxes tafakkur olami bilan yaratilgan buyuk olimga o'xshatardi"⁴.

Edward Said singari ko'pgina sharqshunos olimlar Borxesning islom dini va madaniyati borasidagi bilimlarini juda yuqori baholashgan.

Borxes insoniyat madaniyatiga Islom dini xalqlari madaniyati eng katta hissa qo'shganini, "Ming bir kecha" esa qo'plab madaniyatlarning beshigi deb fikrni bildiradi. Qur'on va "Ming bir kecha" o'rtasidagi o'xshashliklarni tasvirlay turib, Borxes birinchi navbatda SHahrizoda tasvirini alohida ta'kidlaydi, uni tasavvur va beqiyos Ilhom bilan ajratib ko'rsatadi.

"Argentinalik yozuvchi va adabiy an'analar" asarida "Ming bir kecha", Qur'on va boshqa Islomiy manbalar hayratni, xayoliy va sevimli fantaziyani uyg'otishini ta'kidlaydi. Bu inshosida Borxesning Qur'on haqida birinchi murojaati paydo bo'ladi (keyinchalik 100 dan ortiq Qur'on oyatlaridan sitata, epigraf sifatida foydalanadi).

"Ikki uyqudagilar tarixi" (1935) hikoyasida tushida boylik izlayotgan va uni boshqa odamning tushida, uyining bog'idan topgan odamlarning taqdiri

¹ Edward Said (1935 –2003) – Falastinlik sharqshunos olim, siyosiy faol va adabiy tanqidchi bo'lib, adabiyotni ijtimoiy va madaniy siyosat asosida o'rgangan.

² "Orientalizm" asari. Bu asar 1978-yilda yozilgan y bo'lib, uzoq yillik kuzatuvlari orqali shakllangan. Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy, siyosiy va ilmiy aloqalarni tahlil qiluvchi mukammal asardir. "Orientalizm" kitobi Sharq va G'arb o'rtasidagi farqlarni o'rgatgan holda, G'arbning Sharqqa nisbatan qanday noto'g'ri tasavvurlar yaratgani va bu tasavvurlarni siyosiy qudratning bir qismi sifatida qanday ishlatayotganini ko'rsagan hamda sharqshunoslik tamoyili, xususan, G'arbning Sharq xalqlari madaniyatini tushunishiga asos bo'lgan qarash va metodlar tanqid qilinadi. Massinyonning Mansur Halloj haqidagi to'rt jildli asari Edvard Said tomonidan asosli tanqid qilingan.

³ Lui Massinyon – frantsuz алломаси, sharqshunos, islomshunos олим. У асарлари ислом дини, falsafa, musulmon dunyosining siyosiy va madaniy tarixi, uning boshqa tsivilizatsiyalar bilan munosabatlariga bag'ishlangan. Farbda so'fiylikni o'rganishga qo'shgan hissasi katta.

⁴ Эдвард Саид. Ориентализм / науч. ред. А. Р. Ихсанов. — М.: Музей современного искусства Гараж, 2021. — 405 с.

tasvirlanadi. Bularning barchasi “Ming bir kecha”da va boshqa Sharq afsonalarida mavjudligini ta’kidlaydi.

“Ming bir kecha tarjimonlari” essesinde Borxes o‘xshashlik va dalillarga, mashhur tarjimonlarning tarjimalaridagi o‘ziga xoslikka ishora qiladi, ularni birma-bir sanaydi – ular orasida fransuz sharqshunosi, Qur’on tarjimoni Jozef Charlz Mardus, nemis sharqshunosi Enno Littman, nemis Arabisti Gustav Vayl, ispan yozuvchisi Rafael Kankinos-Assens, ingliz sharqshunosi Uilyam Xey Maknagten, ingliz tarjimoni- sharqshunosi Jon Peyn, fransuz Arabisti Jan Antuan Galland va boshqalar (Borxes va Islom masalasi bo‘yicha keyingi fasllarda batafsil to‘xtalamiz).

Umuman olganda, Borxes ijodida uslubiy rang-baranglik va o‘ziga xosliklardan eng muhimi bu – ensiklopedik usuldan mohirona foydalanishidir.

Demak, Xorxe Luis Borxes - jahon miqyosidagi mutafakkir, chuqur o‘ziga xos va noyob madaniy shaxs. Uning hayot yo‘li, aql-idrokining o‘ziga xosligi, hech qachon akademik faylasuf bo‘lmagan argentinalik mutafakkirning falsafiy dunyoqarashi bahslarga, tadqiqotlarga sabab bo‘lmoqda.

Lotin Amerikasi madaniyati va o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan falsafaning vakili sifatida, Borxes bizga nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosdagi hodisa bo‘lib tuyuladi.

Abadiy falsafiy muammolarni hal qilish, turli xil dunyo falsafiy tizimlar va dinlar to‘g‘risida keng ma’lumotga ega, yuqori intellektual aql sohibi bo‘lish Borxesning XX asr jahon adabiyoti va falsafasining mutafakkirlaridan biriga aylantirdi. U o‘z asarlari mavzularini falsafa va din, fizika va matematik mantiq, adabiyot va siyosat tarixiga bag‘ishladi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi-faylasufning ijodi o‘zining noyob individualligiga qaramay, har doim ma’lum bir yo‘nalish yoki oqimga, ma’lum bir davrning badiiy va falsafiy tafakkuriga mansub maktabning ma’lum bir an’analarini o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan Xorxe Luis Borxes, birinchi navbatda, Lotin Amerikasi madaniyatining ulkan hodisasi, shu bilan birga, Borxes,

shubhasiz, xalqaro miqyosdagi, mohiyatan butun insoniyatga tegishli shaxsdir. Shuning uchun uning hayoti va faoliyatiga XX asrning eng muhim jahon voqealari va intellektual yutuqlari prizmasidan qarash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Борхес Х.Л. Собрание сочинений: в 4 т.-2-е изд., стер. / Хорхе Луис Борхес. –СПб.: Амфора. ТИД Амфора, 2011. С.-407.
2. Беликова Е.В., Метафизика «Чудесной реальности» Х. Л. Борхеса / Е.В. Беликова // Наука о человеке: гуманитарные исследования. –2015. –С. 60.
3. Volodia Teitelboim. Los dos Borges: vida, sueños, enigmas. – México, D.F. : Editorial Hermes. 1996. P 356 – 28
4. Тейтельбойм, В. Два Борхеса: жизнь, сновидения, загадки : пер. с исп. / Володя Тейтельбойм. –СПб.: Азбука, 2003. С.-108.
5. Seamus Heaney, Richard Kearney and Jorge Luis Borges –Borges and the World of Fiction: An Interview with Jorge Luis Borges /Seamus Heaney, Richard Kearney // The Crane Bag, Vol. 6, No. 2, Latin-American Issue. –1982. –pp. 71-78.
6. Шаша Л. Несуществующий Борхес / Леонардо Шаша // Иностранная литература. –1995. –No 1. –С. 219-220.
7. Кофман А. Ф. Латиноамериканский художественный образ мира / Андрей Кофман. –М.: Наследие, 1997. С. – 87.
8. Stoitsizm – Afinada miloddan avvalgi 300 yillarda ellinizm davrida paydo bo'lgan va qadimgi dunyoning oxirigacha o'z ta'sirini saqlab qolgan falsafiy maktab. Majoziy ma'noda stoitsizm hayot sinovlarida qat'iyat va jasoratdir.
9. Чистюхина О.П. Борхес / О.П. Чистюхина. –М.: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2005. С. – 4.
10. Борхес Х.Л. Сочинения в трех томах. - Рига: Полярис, 1997. с. 421-608.

FILOLOGIYA

ULUG‘BEK HAMDAM OLIM VA MUNAQQID

UO‘K 95(575.171)

Abdullayeva Aziza,
Nizomiy nomidagi
TDPU
O‘zbek tili va
adabiyoti fakulteti
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada filologiya fanlari doktori, taniqli adib Ulug‘bek Hamdamning adabiyotshunos olim va munaqqid sifatidagi serqirra faoliyati tahlil qilinadi. Maqolada olimning zamonaviy nasr va she‘riyatga oid tanqidiy qarashlari hamda adabiy jarayondagi o‘rni ilmiy asoslab berilgan. Maqola obyekt sifatida muallifning ilmiy maqolalari va nazariy qarashlari olingan.

Аннотация: В данной статье анализируется обширный труд известного писателя Улугбека Хамдама, доктора филологических наук, как литературоведа и критика. Статья научно обосновывает критические взгляды ученого на современную прозу и поэзию, а также его роль в литературном процессе. Объектом статьи являются научные работы и теоретические взгляды автора

Annotation: This article analyzes the extensive work of the famous writer Ulugbek Hamdam, Doctor of Philology, as a literary scholar and critic. The article scientifically substantiates the critical views of the scholar on modern prose and poetry, as well as his role in the literary process. The author's scientific articles and theoretical views are taken as the object of the article.

Kalit so‘zlar: Adabiy tanqid, badiiy tafakkur, metodologiya, estetik ideal, modernizm, evrilish, munaqqid mahorati, tahlil tamoyillari, milliy g‘oya, qiyosiy adabiyotshunoslik

Ключевые слова: Литературная критика, художественная мысль, методология, эстетический идеал, модернизм, эволюция, критическое мастерство, принципы анализа, национальная идея, сравнительное литературоведение

Key words: Literary criticism, artistic thought, methodology, aesthetic ideal, modernism, evolution,

critical skill, principles of analysis, national idea, comparative literature

Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqida gap ketganda, Ulug'bek Hamdam ismi nafaqat badiiy asarlari, balki teran ilmiy tadqiqotlari va o'tkir tanqidiy maqolalari bilan ham birinchilardan bo'lib tilga olinadi. Uning adabiyotshunos olim va munaqqid sifatidagi faoliyati bugungi o'zbek tanqidchiligini yangi bosqichga olib chiqishda munosib o'ringa ega bo'ldi. Ulug'bek Hamdamning olimlik qiyofasi uning badiiy ijodi bilan chambarchas bog'liq. U yozuvchi sifatida nimalarni his qilgan bo'lsa, olim sifatida ushbu tuyg'ularning ilmiy asoslarini ochishga harakat qildi. U olim sifatida o'z oldiga o'zbek adabiyotini jahon adabiy jarayonlari qatorida o'rganishdek ulkan maqsad qo'ydi.

Adabiyot – jamiyatning ma'naviy ko'zgusi bo'lsa, adabiy tanqid ana shu ko'zguning tiniqligini ta'minlovchi sohadir. Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligi ham mazmun, ham shakl jihatidan yangilanish davrini boshidan kechirdi. Bu jarayonning markazida turgan olimlardan biri – Ulug'bek Hamdamdir. U adabiyotga nafaqat ijodkor, balki asarning ichki qatlamlarini zargarlik aniqligida ochib beruvchi munaqqid sifatida kirib keldi. Uning olimlik va munaqqidlik qiyofasi bir-birini to'ldiradi: yozuvchi sifatida asarni his qilsa, olim sifatida uning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qiladi.

U munaqqid sifatida shunchaki asarni tahlil qilish emas, balki shu asosda millatning badiiy tafakkur darajasini aniqlashni maqsad qiladi. Ko'plab munaqqid-olimlarlar “falonchi yozuvchi bilan munosabatim buzilmasin” deb asarning kamchiliklarini aytishdan qochishsa, Ulug'bek Hamdam adabiy haqiqatni birinchi o'ringa qo'ydi.

Ulug'bek Hamdam ilmiy qarashlarida metodologik yangilik shundaki, u asarni faqat tashqi voqealar tizimi sifatida emas, balki “ichki kechinma” va “ruh holati” sifatida tahlil qiladi. Bu esa o'zbek tanqidchiligini yuzaki “syujet bayoni”dan chuqur “falsafiy tahlil”ga o'tkazdi. Ulug'bek Hamdam badiiy tafakkurning o'zgarishini shunchaki nazariya sifatida aytmaydi, balki uni konkret asarlar misolida isbotlaydi.

U “Badiiy tafakkur tadriji” asarida Cho'lponning “Binafsha”¹ she'rini tahlil qilar ekan, undagi binafsha obrazini shunchaki tabiat tasviri emas, balki erksevar ruhning ramzi ekanligini ilmiy asoslab beradi. “Cho'lpon tabiatni tasvirlash orqali insonning ichki isyonini ko'rsatib berdi. Bu o'zbek she'riyatida realizmdan ramziylikka o'tishning ilk qadamlari edi,” — deb yozadi olim.

Munaqqid sifatida Ulug'bek Hamdamni boshqalardan ajratib turadigan asosiy jihat – uning xolisligi va jasoratidir. Bugungi adabiy muhitda munaqqidlar

¹ Ulug'bek Hamdam. “Badiiy tafakkur tadriji” doktorlik dissertatsiyasi asosidagi monografiya. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2003-yil.

ko‘pincha tanish-bilishchilik yoki yubileybozlik asiriga aylanib qolgan. Ulug‘bek Hamdam esa matnga faqat professional ko‘z bilan qaraydi.

Uning tahlillarida quyidagi tamoyillar ustuvor:

Munaqqid muallifning shaxsiy hayoti yoki siyosiy qarashlarini chetga surib, faqat qo‘lidagi matn nima deyotganiga e‘tibor beradi. Olimning zamonaviy nasr haqidagi maqolalarida u hatto ustoz darajasidagi yozuvchilarning asarlarida ham mantiqiy uzilishlar yoki qahramon xarakteridagi soxtalikni ayovsiz tanqid qiladi. Uning yozishicha: “Yozuvchining nomi asarni qutqarib qolmasligi kerak. Agar syujetda mantiq oqsayotgan bo‘lsa, bu matnning o‘limidir.”¹ Ushbu qat’iyat uning tanqidchilikda shaxsiyat emas, matn ustuvorligi prinsipiga amal qilishini amalda isbotlaydi. Uning uchun asar faqat chiroyli yozilishi yetarli emas, u hayotiy va ruhiy haqiqatga ega bo‘lishi shart.

Olim o‘zbek yozuvchisi asarini jahon klassiklari asarlari bilan qiyoslaydi. Bu orqali u milliy adabiyotimizning jahon miqyosidagi o‘rnini belgilaydi. U Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasini tahlil qilganda, uni shunchaki hikoya emas, balki Frans Kafkaning “Evrilish” asari bilan bo‘ylashadigan absurd adabiyot namunasi ekanligini ko‘rsatib beradi. Olimning xulosasi shunday: “Eshonqul qahramonlari – bu o‘zligini yo‘qotishdan qo‘rqqan, borliqning bema‘noligiga qarshi isyon qilayotgan zamonaviy inson obrazidir.”²

Uning zamonaviy she‘riyat haqidagi maqolalarida (masalan, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Usmon Azim ijodi tahlili) “so‘zning qudrati” va “shoir mas‘uliyati” masalasi qizil chiziq bo‘lib o‘tadi.

Matnga yo‘naltirilgan tahlil: U asarni muallifning obro‘sidan ayri holda o‘rganadi. Agar asar badiiy jihatdan zaif bo‘lsa, muallif kimligidan qat’iy nazar, buni ochiq yozadi.

Janrlar tahlili: Uning zamonaviy o‘zbek she‘riyati haqidagi maqolalarida “so‘z o‘yini” emas, “dard in‘ikosi” talab qilinadi. Olimning fikricha, she‘r – bu shunchaki qofiya emas, balki portlash darajasiga kelgan ruhiy holatdir. Uning “Yangi o‘zbek she‘riyati” maqolasidagi mana bu fikrlariga e‘tibor bering: “She‘riyat — shunchaki chiroyli so‘zlar tizimi emas. Haqiqiy she‘r o‘quvchining ongida portlash hosil qilishi, uning dunyoqarashini o‘zgartirishi shart. Agar she‘r bizni hayratga solmayotgan bo‘lsa, u badiiy matn emas, shunchaki qofiyalangan axborotdir”.³ Bu o‘rinda munaqqid asarning jamiyatga foydasi haqida emas,

¹ Ulug‘bek Hamdam. “Nasr va haqiqat” (adabiy-tanqidiy maqolalar), Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2010-yil.

² Ulug‘bek Hamdam. “Ijod – ruhiy imkoniyat”, Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2015-yil.

³ Ulug‘bek Hamdam. “Yangi o‘zbek she‘riyati. Toshkent, “Adib” nashriyoti 2012-yil.

uning badiiy ta'sir kuchi haqida gapirmoqda. Bu tanqidchilikda mazmun emas, mohiyat birlamchi ekanligini isbotlovchi yangicha yondashuvdir.

Ulug'bek Hamdamning olimlik qiyofasi uning bir qancha maqolalarida yaqqol namoyon bo'ladi. U bu yerda ijod psixologiyasini tadqiq etadi. Yozuvchi asar yozayotgan paytda qanday holatda bo'ladi? Ilhom nima? Adabiy asar jamiyatni o'zgartira oladimi? Olim bu savollarga nafaqat nazariyotchi, balki amaliyotchi (yozuvchi) sifatida ham javob izlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdam — o'zbek ilmiy tafakkurini xalqaro mezonlar asosida boyitgan, adabiyotshunoslikka yangi metodologik ruh olib kirgan yirik olimdir. Ulug'bek Hamdam – o'zida ham olimning vazminligini, ham munaqqidning o'tkir nigohini jamlagan shaxs. Uning faoliyati o'zbek filologiyasini zamonaviy jahon fani darajasiga ko'tardi. Agar adabiyotni bir butun imorat deb tasavvur qilsak, Ulug'bek Hamdam bu imoratning ham poydevorini (olim sifatida), ham uning tashqi ko'rinishi va muvozanatini (munaqqid sifatida) tahlil qilayotgan me'morlardan biridir. Uning asarlari va ilmiy xulosalari kelajakda ham o'zbek ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ulug'bek Hamdam “Badiiy tafakkur tadriji”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2003. (Olimning asosiy doktorlik dissertatsiyasi va fundamental ilmiy ishi).
2. Ulug'bek Hamdam “Yangi o'zbek she'riyati”. – Toshkent: “Adabiyot”, 2012. (Munaqqidning zamonaviy she'riyat tahliliga bag'ishlangan maqolalar to'plami).
3. Qur'onov D. “Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari”. – Toshkent: “Akademnashr”, 2018.
4. Yo'ldoshev Q. “Yoniq so'z”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2006. (Ulug'bek Hamdam va boshqa zamonaviy ijodkorlar haqidagi tanqidiy qarashlar).
5. Karimov B. “XX asr o'zbek adabiyotshunosligi talqinlari”. – Toshkent, 2012.
6. Rasulov A. “Tanqidchilik madaniyati”. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2004.
7. Sharafiddinov O. “Ijodning o'tli nafasi”. – Toshkent, 2005.
8. Ziyouz.com portali – Ulug'bek Hamdamning elektron kutubxonasi va maqolalar bazasi.

FILOLOGIYA

MARKAZIY OSIYODA TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISHI VA UNING IJTIMOIIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRI (X–XIV ASRLAR)



**Yulduz
Baxtiyarovna,
Farmasevtika ta'lim
va tadqiqot instituti
Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrası katta
o'qituvchisi.**

UO'K 94(575)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limotining shakllanish jarayoni, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda X–XIV asrlarda jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining g'oyaviy asoslari, ularning inson tarbiyasi va axloqiy kamolotga qo'shgan hisslari ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс формирования суфийского учения в Центральной Азии, его исторические этапы развития, а также влияние на социальную и духовную жизнь общества в X–XIV веках. Освещаются идеологические основы тариқатов Ясавия и Нақшбанди, их вклад в воспитание человека и духовное совершенствование.

Annotation: This article analyzes the formation of Sufi teachings in Central Asia, their historical development stages, and their impact on the social and spiritual life of society during the 10th–14th centuries. The ideological foundations of the Yasaviya and Naqshbandiya tariqahs, as well as their contribution to human education and moral and spiritual perfection, are revealed.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, Markaziy Osiyo, Yassaviya, Naqshbandiya, ma'naviyat, axloq, islom falsafasi, tariqat.

Ключевые слова: Суфизм, Центральная Азия, Ясавия, Нақшбанди, духовность, мораль, исламская философия, тариқат.

Key words: Sufism, Central Asia, Yasaviya, Naqshbandiya, spirituality, ethics, Islamic philosophy, tarikat.

Tasavvuf islom sivilizatsiyasi doirasida shakllangan muhim ma'naviy-falsafiy ta'limotlardan biri hisoblanadi. U dastlab islomning ilk asrlarida, xususan, VIII–IX asrlarda musulmon jamiyatida paydo bo'lgan ruhiy-axloqiy izlanishlar natijasida vujudga kelgan. Tasavvufning shakllanishida Qur'on va hadisga tayangan holda zuhdu taqvo, sabr, ixlos, kamtarlik va Allohga muhabbat kabi g'oyalar markaziy o'rin egallagan. Ushbu ta'limot islom aqidasi va shariat qoidalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib, diniy hayotning ichki, ma'naviy-ruhiy jihatlarini chuqurlashtirishga xizmat qilgan.

Tasavvuf insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tarbiyalash, axloqiy kamolotga erishish va jamiyat bilan uyg'unlikda yashash g'oyalarini ilgari suradi. U faqatgina shaxsiy ruhiy tajribani emas, balki insonning ijtimoiy mas'uliyati, mehnatga munosabati va jamiyatdagi axloqiy muvozanatni ta'minlashni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan tasavvuf ta'limoti musulmon jamiyatlarida axloqiy me'yorlar, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lgan.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-falsafiy, manbashunoslik, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. X–XIV asrlarga oid tasavvufiy asarlar, tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosiy manba sifatida o'rganildi.

Markaziy Osiyo hududi tasavvuf tarixida alohida o'rin tutadi. Bu mintaqa islom madaniyati va ilm-fanining yirik markazlaridan biri bo'lib, tasavvufiy g'oyalar aynan shu hududda chuqur ildiz otgan va xalqning kundalik hayoti, madaniyati hamda ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan.

Aslida VII asrda vujudga kelib Osiyo, Afrika va Evropaning ko'plab o'lkalariga kirib borgan islom dini ushbu mintaqalar hayotida yangicha ijtimoiy va insoniy munosabatlar bilan birga o'ziga axloqiy qadriyatlarni, insoniylik me'yor hamda mezonlarini ham taqdim etdi. Islom ta'limoti asosida shakllangan, insoniylik tamoyillariga tayangan tasavvuf ta'limoti insonning o'zligini dunyoning har qanday moddiy ne'matlari, hoyu-havas, lazzatlaridan ustun qo'yish, ikkinchidan odamlar bilan o'zaro munosabatlarda murosa madaniyatiga amal qilishdek fazilatlarni targ'ib qildi. Arab olimi Abdul qodir Iso islomning ilk asrlarida tasavvufga hech qanday ehtiyoj bo'lmaganligi, chunki, bu davrda shundoq ham xudojo'y va taqvodor kishilar o'zini butunlay Allohga bag'ishlagan insonlar zamon bo'lganligini ta'kidlaydi. [6.2.]

Ma'lumki, IX asrda tasavvufda malomatiyya mazhabi yuzaga kelgan. Bu mazhabning markazi Nishopur bo'lgan, E.Bertels malomatiyya mazhabiga mansub kishilar uchun o'z-o'zini komillashtirish, yurakni poklash bosh vazifa hisoblanganligini yozgan. ... Malomatiyya – bu, insonning o'z-o'zini tahlildan o'tkazish, tahlil etgan sayin qusuri nuqsonlar uchun o'zini ayamalik va ularni malomat tilida fosh qilmoq yo'lidir. Bu yo'lda odam barcha yomon xislatlarini sira yashirmasdan oshkor qilavergan. Malomatiyyachilar matonat uchun kurashganlar. [1.18.]

X–XIV asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvufiy tariqatlar diniy hayot doirasidan chiqib, jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojida muhim omilga aylandi. Tasavvuf bu davrda shaxsiy ruhiy kamolot yo'li sifatida

shakllanish bilan birga, axloqiy me'yorlarni mustahkamlovchi, ijtimoiy adolat, mehnatsevarlik va jamoaviy hamjihatlik g'oyalarini targ'ib etuvchi ta'limot sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur davrda tasavvufda muhim tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi: avvalgi zohidlikka asoslangan individual ruhiy tajribalar tizimli tariqatlar shakliga keldi, murshid–murid munosabatlari aniq qoidalar asosida yo'lga qo'yildi, zikr va riyozat amaliyotlari tartibga solindi. Shuningdek, tasavvuf xalqona ruh kasb etib, madrasalar, xonaqohlar va ribotlar orqali keng ijtimoiy qatlamlar hayotiga singib bordi.

Natijada tasavvuf nafaqat diniy tafakkurni boyitdi, balki adabiyot, san'at, axloqiy tarbiya va ijtimoiy ong shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib, Markaziy Osiyo madaniy muhitining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

“Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, strukturasi, boshqa tarixiy ta'limotlar bilan qiyosiy tahlili, uning inqiroziga oid muammolarga ingliz olimlari A.J.Arberry, A.M.Shimmel, Dj.S.Trimingem, yapon, hind, eronlik sharqshunoslar T.Izutsu, Idris Shoh, H.Korbin ishlarida alohida e'tibor qaratilgan, tasavvuf tarixi, tasavvuf ilmi allomalari dunyoqarashi, falsafiy-irfoniy ta'limoti U.Chittik, D.Knishning izlanishlarida chuqur tadqiq etilgan, mutasavvif allomalar asarlari tarjima qilinganligini alohida qayd etib” ularning asarlaridagi tasavvuf to'g'risidagi tub falsafiy mohiyatni tushunishga harakat qiladi. [2.8.]

Tasavvufning Markaziy Osiyoda shakllanishi islom dinining ushbu hududga kirib kelishi va asta-sekin mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit bilan uyg'unlashuvi jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Dastlabki davrlarda tasavvuf asosan zuhdu taqvo, dunyoviy ne'matlardan voz kechish, nafsni tiyish va ruhiy poklanish g'oyalariga tayangan holda rivojlangan. Bu bosqichda tasavvuf shariat ahkomlarini chuqurroq anglash va amalda tatbiq etishga qaratilgan ichki ma'naviy yo'l sifatida namoyon bo'lgan.

Tasavvuf tarixida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ko'plab buyuk allomalar muhim o'rin egallaydi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy (1093–1166-yillar, ba'zi manbalarda tug'ilgan yili 1103 deb ham ko'rsatiladi, ammo 1093–1166 eng keng tarqalgan sanaladi) tasavvufni xalqchil ruhda talqin qilib, uni turkiy xalqlar orasida keng yoygan bo'lsa, Bahouddin Naqshband (1318–1389-yillar Buxoro atrofida faoliyat yuritgan) Naqshbandiya tariqatiga asos solib, tasavvufni faol ijtimoiy hayot va mehnat bilan uyg'unlashtirdi. Shuningdek, Hakim Termiziy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali at-Termiziy, **taxm. 820-yil**, ba'zi manbalarda 830-yil ham uchraydi), Najmiddin Kubro (1145-1221-yillar Xorazmda yashab ijod qilgan, mog'ullar istilosi davrida vafot etgan) va Abduxoliq G'ijduvoni (taxm. **1103-yil** Naqshbandiya silsilasining ilk namoyandalaridan biri) kabi mutasavviflar tasavvufiy tafakkur rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Ularning ta'limotlari Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

Shu bois tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyoti va Markaziy Osiyodagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat diniy-falsafiy merosni anglash, balki bugungi jamiyatning ma'naviy taraqqiyot masalalarini chuqurroq tushunish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Har bir jamiyatning ma'naviyati inson kamolotining u yoki bu bosqichiga xos bo'lgan iymon va e'tiqodi, axloq-odobi, tajriba va malakasini o'z ichiga oladi va kishilarning faoliyati, iste'dodi, qobiliyati, yurish-turishida namoyon bo'ladi. Kishilarning ma'naviy fazilatlarini, dunyoqarashi, mafkuraviy e'tiqodi bilan bog'lanib muayyan tartibga tushadi va ularning bevosita ta'siri natijasida jamiyat oldidagi vazifalarini anglashga yordam beradi. [3.6.]

Ilk o'rta asrlardan boshlab Hakim Termiziy tasavvufning nazariy masalalarini o'rganib, tasavvufni ta'limot darajasida ko'tarilishga ta'sir ko'rsatadi. Abu Bakr Kalobodiy, Mustamliy Buxoriylar esa, Movarounnahr tasavvuf maktablarining shakllanishiga, ta'limotni tizimlashtirilishiga ta'sir qiladi. Abu Bakr Kalobodiyning "At-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf", "Bahrul-favoid", Mustamliy Buxoriy "Sharh at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf", Hujviriyning "Kashf ul-mahjub" asarlari tasavvuf tarixi, tasavvufning nazariy jihatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Markaziy Osiyoda tasavvufning xalq orasida keng yoyilishida Xoja Ahmad Yassaviyning o'rni beqiyosdir. Uning ta'limoti tasavvufni murakkab falsafiy tushunchalardan xoli, sodda va tushunarli shaklda xalq ongiga singdirishga xizmat qilgan. Ahmad Yassaviy o'zining "Hikmatlar"ida insonning axloqiy poklanishi, halollik, sabr-toqat va Allohga muhabbat g'oyalarini ilgari surib, tasavvufni xalq ma'naviyatining ajralmas qismiga aylantirdi. Yassaviylik tariqati orqali tasavvufiy g'oyalar turkiy xalqlar orasida keng tarqalib, ularning diniy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

XIII asrda Markaziy Osiyoda tasavvuf taraqqiyotida yangi bosqichni Najmiddin Kubro faoliyati boshlab berdi. U asos solgan Kubraviya tariqati tasavvufda ruhiy kamolot bilan bir qatorda ilmiy tafakkur va ma'rifatga katta ahamiyat berdi. Najmiddin Kubro tasavvufni faqatgina shaxsiy ibodat va zohidlik bilan cheklamasdan, inson tafakkuri, idrok va ruhiy holatlarini chuqur tahlil qilishga intildi. Uning qarashlarida tasavvuf ilmiy-falsafiy asoslar bilan boyitilib, murid tarbiyasiga tizimli yondashuv shakllandi.

XIV asrga kelib, Bahouddin Naqshband tomonidan asos solingan Naqshbandiya tariqati tasavvufni faol ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashtirgan ta'limot sifatida shakllandi. Naqshbandiya tariqatining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan "dil ba yoru, dast ba kor" (ko'ngil Xudo bilan, qo'l mehnatda) g'oyasi tasavvufning jamiyatdan uzilgan holda emas, balki kundalik mehnat va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un ravishda amalga oshirilishini ifodalaydi. Bahouddin Naqshband tasavvufni jamiyat axloqini mustahkamlovchi, halol mehnat va ijtimoiy adolatni targ'ib etuvchi ma'naviy kuch sifatida talqin qilgan.

O'zbek olimi Najmiddin Komilov o'z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tasavvufini xalq ma'naviy tafakkurining yuksak namunasi sifatida baholab, uni islom madaniyatining muhim tarkibiy qismi deb hisoblaydi. U tasavvufni shariat, tariqat va haqiqat bosqichlari orqali inson kamolotini ta'minlovchi mukammal

tizim sifatida talqin etib, Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. N.Komilovning fikricha, tasavvuf Markaziy Osiyo xalqlarining axloqiy qadriyatlari va madaniy o'zligini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. U so'fiylar haqida shunday deb yozadi: “Ana shunday, davrlarning almashinishi, shohlarning o'zgarishi, siyosat riyosat darvesh so'fiyning e'tiqodiga, xulqiga ta'sir qilmasligi kerak, so'fiy mayda manfaatlar, odamlarning kundalik tashvishlarigina emas, umuman foniylar dunyoning g'am-u muammolaridan ustun turadigan, tafakkurining sathi falaklar qadar qamrovli, qalbida ma'nolar bulog'i qaynab turgan komil inson hisoblangan.”[4.13.] Tarixiy nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu tasavvur Sharq tasavvuf tafakkurida shakllangan komil inson idealining ifodasidir. O'rta asrlarda siyosiy hokimiyat tez-tez almashib turgan, sulolalar o'zgarib, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik kuchaygan davrlarda darvesh va so'fiylar jamiyatning ma'naviy tayanchi sifatida maydonga chiqqanlar. Ular dunyoviy hokimiyat va siyosiy manfaatlardan nisbatan mustaqil turib, ruhiy-axloqiy qadriyatlarni ustuvor qo'yganlar.

Tasavvuf ta'limotida so'fiy shaxs tarixiy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo'lsa-da, ichki e'tiqodi va axloqiy pozitsiyasi jihatidan zamon va siyosat ta'siridan yuksak turuvchi komil inson sifatida talqin etilgan. Bu g'oya, ayniqsa, ijtimoiy tanglik va ma'naviy inqiroz davrlarida xalq ongida barqarorlik va umid ramziga aylangan. So'fiylarning falak qadar keng tafakkuri va ma'noga boy qalbi haqidagi tasvirlar ularning nafaqat diniy arbob, balki ma'naviy-ma'rifiy yetakchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi tarixiy shaxs sifatidagi mavqeini ifodalaydi. Shu bois, bunday qarashlar tarixan siyosiy hokimiyatdan mustaqil ma'naviy institut sifatida tasavvufning shakllanishi va uning jamiyat hayotidagi o'rnini anglash uchun muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

“Bunday karomatli insonlarni xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar sifatida alohida e'zozlagan. Bu zotlar atrofdagilar ongi va shu'uriga qattiq ta'sir o'tkazganlar va ma'naviyat sultonlari bo'lib maydonga chiqqanlar. Ularning so'zi va harakati, xislat va axloqi hammaga ibrat qilib ko'rsatilgan. Jahonning butunligi, obodonlik va osoyishtalik Parvardigor fayzini yetkazuvchi shu tabarruk zotlarning duosi, xayrli ishlariga vobasta deb qaralgan.” [4.13-14] Darhaqiqat, ushbu fikrda Sharq diniy-mazhabiy va tasavvufiy an'analardagi avliyo-shaxslar mavqeini yoritiladi. O'rta asrlar va keyingi davrlarda musulmon jamiyatlarida “avliyo”lar faqat diniy ulamolar emas, balki **ijtimoiy va ma'naviy institut** sifatida faoliyat yuritganlar. Ular xalq ongida ruhiy hokimiyat ramzi sifatida qabul qilingan, shuning uchun matnda ularni “xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar” deb e'zozlashadi.

Bu shaxslar **ma'naviyat sultonlari** sifatida nafaqat diniy bilim va ibodat bilan, balki atrofdagilar ruhiyatiga, ijtimoiy ongiga ta'sir ko'rsatish orqali jamiyatni tartibga soluvchi va ahloqiy namuna sifatida tanilgan. Ularning so'zi, harakati va xislatlari hammaga ibrat bo'lib, tarixiy manbalarda ko'pincha ma'naviy va siyosiy etalon sifatida tilga olingan. [5.288-292.]

Shuningdek, matnda ta'kidlanganidek, ularning duolari va xayrli ishlari **ijtimoiy barqarorlik va obodonlik bilan bog'langan**. Bu tarixiy jihatdan o'sha davr jamiyatlarida diniy yetakchilarning xalq hayoti, tinchlik va farovonlikdagi o'rnini ko'rsatadi. Avliyo va tasavvuf arboblari nafaqat shaxsiy ibodat bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning ma'naviy salomatligi va butunligiga bevosita ta'sir qilgan. Shunday qilib, tasavvuf Markaziy Osiyoda nafaqat diniy-ruhiy ta'limot, balki jamiyatning ma'naviy hayoti, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida shakllangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tasavvuf ta'limoti Markaziy Osiyoda axloqiy me'yorlar, ijtimoiy birdamlik va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lgan. Tasavvufni faqat individual ruhiy tajriba sifatida talqin qilish uning jamiyat hayotidagi real ta'sirini to'liq ochib bera olmaydi. Mazkur tadqiqot tasavvufning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini kengroq talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda X–XIV asrlarda tasavvuf ta'limoti jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan. Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi nafaqat diniy-ma'rifiy jihatdan, balki inson tarbiyasi va axloqiy kamolotni rivojlantirish borasida ham chuqur iz qoldirgan. Ushbu tariqatlar orqali insonning ruhiy salohiyati, sabr-toqat, mehr-oqibat va adolat kabi axloqiy fazilatlarini tizimli ravishda shakllantirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limoti jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida mustahkam zamin yaratgan, shuningdek, bugungi kunda ham insonparvarlik, axloqiy poklik va ruhiy kamolotga oid qadriyatlarni o'rganish va tatbiq etish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яссавий Аҳмад. Ҳикматлар. – Тошкент. Адабиёт ва санъат. 1991. – 256 б.
2. Tursunkulova Sh. Tasavvuf falsafasida go'zallik paradigmasining konseptual mohiyati. Monografiya. – Toshkent: Alfraganus universiteti, 2025. – 257 b.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent. Universitet, 1998. – 183 b.
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent. - "Movarounnahr"- O'zbekiston, 2009. – 447 b.
5. Tursunkulova Sh. Tasavvuf falsafasining ko'pma'noli mohiyati. "FALSAFA VA INSONIYAT: O'TMISH, HOZIRGI ZAMON, KELAJAK" ILMIY-NAZARIY ANJUMAN "ALFRAGANUS UNIVERSITY". 4(26), Nov., 2024. – 288 b.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/ix-xiv-asrlardaovarounnahrda-tasavvuf-va-uning-rivoji>

FILOLOGIYA

BIR SHE’R TARIXI

(Botuning “Kichkina armug‘onim” she’ri haqida)

UO‘K 95(575.171)

**Marxabo
Qo‘chqorova,
Filologiya fanlari
doktori, professor**

Annotatsiya: Bu maqolada Botuning Germaniyada tibbiyot fakultetida o‘qib kelib, qatag‘onga uchragan Xayriniso Majidxonovaga bag‘ishlangan “Kichkina armug‘onim” she’ri, uning ijodiy biografiyasi ochib berildi.

Аннотация: В этой статье представлено стихотворение Бату «Мои маленькие Армугоним», посвященное Хайринисо Маджидхоновой, которая училась на медицинском факультете в Германии и подверглась репрессиям, а также ее творческая биография.

Annotation: This article reveals Batu's poem "My Little Armugonim", dedicated to Khayriniso Majidkhanova, who studied at the medical faculty in Germany and was repressed, and her creative biography.

Kalit so‘zlar: Botu, Kichkina armug‘onim, she’r, Xayriniso Majidxonova, ijodiy biografiya, qatag‘on qurboni.

Ключевые слова: Бату, Мои маленькие Армугоним, стихотворение, Хайринисо Маджидханова, творческая биография, жертва репрессий.

Key words: Batu, My Little Armugonim, poem, Khairiniso Majidkhanova, creative biography, victim of repression.

Botu taxallusi bilan ijod qilgan Mahmud Hodievning “Kichkina armug‘onim” she’rining nima sababdan yozilgani, kimga bag‘ishlab yozilgani haqida yozamiz. She’r sarlavhasidan keyin epigraf sifatida “Xayriniso Majidxon qiziga” degan bag‘ishlov keltirilgan. Bu she’r 1922 yilda Moskvada yozilgan. She’rdan bir parchani o‘qiymiz:

Qora turmush changalidan qutilib,
Erk chechagin taqa olgan kuchli qiz.
Eski odat sanamlarni parchalab,

Erk-tangriga sajda qilgan ruhli qiz.

Yo'ling to'g'ri, ortga boqma, keta ber,

Ilgarilash qo'shiqini aytaber!¹

Bu she'r to'rt misralik 4 band hamda ikki misrali 4 qatordan iborat. Xayriniso Majidxonova kim edi? Shu o'rinda shu savolga javob beramiz. Adabiyotshunos Sh.Turdiyev "Ular Germaniyada o'qigan edilar" kitobida keltirilishicha, Turkistonlik yoshlar jadidlarning tashabbusi bilan xorijga turli nufuzli universitetlarga ta'lim olish uchun jo'natiladi. Ana shu yoshlar orasida Xayriniso Majidxonova ham bor edi. Shu o'rinda Xayriniso Majidxonovanning biografiyasiga doir ma'lumotlarga yuzlanamiz.

Xayriniso Majidxonova 1905 yilda Toshkent shahrida ziyoli oilasida dunyoga keladi. Xayrinisoning otasi Majidxon aka nihoyatda ma'rifatli, ongi ochiq odam bo'lgan. U ish yuzasidan Rossiyaning bir nechta shaharlarida bo'lib keladi. Yevropa ayollarining jamiyatdagi faolligi, o'qimishliligi uni hayratga soladi. Shu bois ilmparvar, taraqqiyparvar inson Majidxon aka ikkita qizini o'qitishni, ayniqsa, xorijiy tillarni o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Qizlari parangi kiymasdan yurgani, umuman taraqqiyparvar, yangiliksevar odam bo'lgani uchun Majidxon akaga mahalladoshlari "Majid kofir", "Majid o'ris" deb laqab qo'yishadi. Uning Oyposhsha hamda Xayriniso ismli qizlari Birinchi O'zbek xotin-qizlar bilim yurtida o'qiydi. Ular rus va nemis tillarini o'rganishadi. Ayniqsa, katta opa Oyposhsha singlisi Xayrinisoga ko'p narsalarni o'rgatadi.

1922-yilning oxiri 1923-yilning boshlarida bir guruh o'zbek yigit-qizlari qatorida Xayriniso Majidxonova ham Germaniyaga o'qishga ketadi. Yoshlar Germaniyada bir oz muddat nemis tilini o'rgangach, 1924-1926-yillarda Maryam Sultonmurodova bilan birga Germaniyaning Darmshtat shahridagi o'iqtuvchilar seminariyasida va ayni paytda tibbiyot kurslarida o'qiydi. Qizlar juda katta ishtiyoq bilan nemis tili va adabiyotini qattiq o'rganishadi.

1927 yilning yoz kunlarida, Xayrinisa Maryam Sultonmurodova bilan birga Parijga sayohatga boradi. Bu haqda Mustafo Cho'qayning "Istiqlol jallodlari" kitobida ham yozilgan. Bu haqda adabiyotshunos Sh.Turdiyev Xayriniso Majidxonova haqida yozilgan adabiy portretida ham yozgan: *"O'z davrida insoniyat madaniyatining poytaxtlaridan biri bo'lgan bu shaharda yashab turgan yurtdoshlari - buxorolik Ahmad Naim va Turkiston Muvaqqat hukumatining sobiq bosh vaziri, muhojir Mustafo Cho'qaevlar bilan uchrashadi. Yurtdoshlari ularni*

¹ Боту. Кичкина Армуғоним / Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 39.

*Parijning kino, teatr singari madaniyat o'choqlari bilan tanishtiradilar. Berlinga qaytgach, Xayrinisa bir necha muddat Avstriyaning Vena shahrida ham bo'ladi. Xorijga borib ta'lim olayotgan o'zbek qizlarining jasorati ma'rifat muxlislarining olqishiga sazovor bo'ldi. Xayrinisa Majidxonovanning ismi Turkistonning taraqqiyparvar shoirlari – Cho'lpon, Botu, otasi Majidxon Dumaning maqola va she'rlarida faxr bilan tilga olindi. Jumladan, Botu 1922 yil noyabr oyi boshlarida bir guruh turkistonlik talabalar qatori o'zbek qizi Xayrinisa Majidxonovanning Berlinga o'qishga borishi munosabati bilan yozgan "Kichkina armug'onim" she'rida unga quvonch bilan oq yo'l tilab ...yozgan edi"*¹.

Biz maqolaning boshlanmasida tilga olgan bu she'rlardan biri Botu qalamiga mansubligini aytgan edik. Botu Xayrinisoning ilm-ma'rifat yo'lida to'g'ri yo'lga chiqqanligini, uning salohiyatiga, miyasining kuchliligiga, bilimiga ishonch bildiradi. Shoir nazdida Xayriniso tor qafasdan qochib, ko'kka uchgan qush edi. Shoir Xayrinisoning taqdiriga bashorat qilganidek, bu go'zal qush ovchilar tomonidan pastga tortilib, uni yakson qilishga intilishlarini yozg'iradi:

To'g'ri yo'ling nurli, uzun, ulug'dir,
 Ulug' yo'lning tarmoqlari cheksizdir.
 Tarmoqli yo'l tajribasiz, sof sado,
 Ko'zlar uzun xatar bilan to'liqdir.
 Ishonaman: sening ko'zing o'tkir ko'z,
 Miyang kuchli... kerak emas boshqa so'z.
 Tor qafasdan qochib ko'kda o'ynagan,
 Erkinlikning quchog'ida dam olgan
 Go'zal qushning ovchilari ko'p bo'lgay,
 Payt kelsa, qush tubanlariga tortilgay².

Botuning 1922 yili, Moskvada yozilgan bu bashoratomuz she'ri Xayrinisoning taqdiriga aylandi. Xayriniso Majidxonova 1937 yil 13 sentabrda to'satdan qamoqqa olinadi. Germaniyaga ketib, vataniga yaxshi mutaxassis bo'lib qaytgan yoshlar qatorida Xayriniso ham hibs etilib, tergov ishlari boshlanib ketadi. Adabiyotshunos Sh.Turdiyev ma'lumotlariga ko'ra "Unga 1922-1928 yillarda Germaniyada Ozod Turkiston nomli aksilingqilobiy-millatchilik

¹ Турдыев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Тошкент: Академ-хизмат босмахонаси, 2006. – Б. 116.

² Боту. Кичкина Армуғоним / Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 39.

tashkilotining a'zosi bo'lgan, 1928 yilda shu tashkilotning topshiriqlari bilan SSSRga josus bo'lib kelgan, SSSRdagi o'sha tashkilot a'zolari bilan muloqotda bo'lgan, degan ayblar qo'yilgan. O'sha kuni NKVD davlat xavfsizligi leytenanti G'aynitdinov uning otasi yashaydigan Katta Mirobod ko'chasidagi 43-uy 1-xonadonda tintuv o'tkazib, Xayrinisa bilan birga uning pasporti, Germaniyaning yuz markali tangasi, o'sha yerdan kelgan 112 ta maktub, nemis tilidagi 4 ta yozishma, 5 ta yon daftar, 8 ta kitobini ham olib ketadi. So'roqda undan Berlindagi turkistonlik talabalarning Mustaf Cho'qae, Ahmad Zaki Validiy va Ahmad Naim ishtirokidagi yig'ilishlarida nimalar bo'lganligi, majlislar qachon o'tkazilganligi kimlar ishtirok qilganliklari so'raladi. O'z xalqiga xalol xizmat qilishni diliga tukkan Xayrinisa Majidxonova tergovchining barcha savollariga to'g'ri va aniq javob beradi. Mustaf Cho'qae, Zaki Validiy, Ahmad Naimlar bilan uchrashuvlari, talabalarning o'zaro to'planib, uchrashib, suqbatlashib turishlari, yurtdoshlar o'rtasidagi tabiiy munosabat turmush ehtiyoji ekanini, Turkistondagi aqvol va uning istiqboli talabalarni qiziqtirishi va bu haqda o'zaro fikr almashishlari ham odatdagi hol ekanini tushuntiradi. Hech narsadan gumonsiramay uchrashuvlarda ishtirok etgan talabalar Majidiy, Vali Qayum, To'lagan Mo'min, Sulton Matqul, Sattor Jabbor, Temir Kazbekovlarning nomlarini tilga oladi. Hatto sovet hokimiyatidan norozilik ruhida gaplar bo'lganligini xam yashirib o'tirmaydi"¹.

Endi 32 yoshga kirgan Xayriniso Majidova Stalinizm qatag'onining qurboniga aylandi. Vaholanki, u xalqi uchun yaxshi shifokor bo'lish, xalqiga sidqidildan xizmat qilish niyatida edi. Afsuski, totalitar tuzumning qurboniga aylandi. Qizi hibs etilib, qamoqqa olingach, uning ota-onasi ham xor bo'lishadi. Xayrinisoning jiyani Xolida Qodirova (*Xayrinisoning opasi Oyposhshaning qizi-Izoh bizniki. – M.Q.*) keyinchalik xolasining hibs etilishi haqida shunday xotiralarini bayon etadi: “— Xayrinisa xolam ishxonalarida ish bilan bo'lib, uyga kelolmay qolgan kunlaridan birida, tong saharda uyimizga ikki kishi nazorati ostida kirib keldilar. Bu formasiz kishilar uyimizni tintuv qilishib, uning Germaniyadan olib kelgan kitoblari, xatlari va boshqa hujjatlarini talab qila boshladilar. Xolam hamma narsa Miroboddagi hovlimizdaligini aytgach, ular Xayrinisa xolamni o'sha yoqqa olib ketdilar. Men maktabga borolmay, qo'rqib, alahlab qisqa yo'l bilan bobomning oldilariga chopdim. Bobomga ikkita odam xolamni ishxonasidan olib kelib, uyimizni tintuv qilishayotganini aytdim. Bobom

¹ Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Тошкент: Академ-Хизмат босмахонаси, 2006. – Б. 117-118.

buvimga qarab: “Onasi, qizingdan ayrilibsan”, - dedilar. Bir pastdan keyin NKVD xodimlari ham yetib kelishib, xolamni bobomning uyiga kiritishdi-da, hammayoqni titib tashlashdi. Germaniyadan keltirgan kitoblari, xatlari va o‘qish yillarida tuzgan albomlarini hovliga olib chiqib yoqishdi. Majidxon bobom va onamni ham 3-4 oy tergovga chaqirishib, qizingning Germaniya bilan aloqasi, josuslik ishlari haqida ma’lumot berasan, deb so‘roq qilishdi, ba’zi vaqtlar ularni hatto qamab qam qo‘yishdi”¹. Xotirada tilga olingan Majid otaning “Onasi, qizingdan ayrilibsan” – degan bir jumla so‘zi yuraklarimizni ezib yubordi. Ha, ota-ona ne umidlar bilan tug‘ib-katta qilgan, xoriyda o‘qib, ta’lim olib kelishiga sharoit yaratgan Otaning yuragidan chiqqan og‘ir dardli nido edi bu! Vaholanki, ular qizini el koriga yaraydigan yaxshi mutaxassis bo‘lishini istashgan, shu yo‘lda qizlarining Germaniyada o‘qib kelishiga ruxsat berishgandi.

Xayrinisoning taqdiri qanday bo‘ldi, uning qarindosh-urug‘lariga noma’lum edi. Nihoyat Istiqloldan so‘ng, ular Xayriniso Majidovanning 1938 yilda otuv qaroriga berilib, qatl etilganidan xabardor bo‘lishadi.

Botuning Xayrinisoga bag‘ishlab yozilgan “Kichkina armug‘onim” she’ri uni kelajakda katta xavf kutayotganini savqi tabiiy sezib, bashorat qilgan ekan. Afsuski, bunday qora qismat Xayriniso uchungina bo‘lib qolmadi. Shoirning o‘zi ham qatag‘on qurboniga aylanib, 34 yoshida otib tashlangan.

Botu bu she’rida Xayrinisoni ilgarilashga, ilm-ma’rifat kengliklarini egallashga da’vat etadi. U o‘z tengdoshini yo‘lning oxirida yorug‘lik borliga ishontiradi.

Senga qarshi bugun ko‘kka yuksalgan
La’nat, qarg‘ish “hech”dan ko‘ra “kech”gina.
Kelgusida yo‘llaringa to‘shalgan
Rahmat, olqish qarshisida kichkina.
Ilgarila! Yo‘l so‘ngida yorug‘lik,
Yugurishga zarar etmas orug‘lik².

Xulosa shuki, Botuning Xayriniso Majidxonovaga bag‘ishlab yozgan bag‘ishlov she’ridagi “ovchi” va “qush” ramziy poetik obrazlari kun kelib, “qizil imperiyaning qatag‘on mashinasi”ga ramziy ishora bo‘lib qoldi.

¹ Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Тошкент: Академ-Хизмат босмахонаси, 2006. – Б. 120-121.

² Боту. Кичкина Армуғоним / Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 40.

FILOLOGIYA**OGAHİY LIRIKASIDA VAQT FALSAFASINING RAQAMLARDAGI
IFODASI****UO‘K 95(575.171)**

**Raximova Gulnoza,
Adabiyotshunoslik
(o‘zbek adabiyoti)
yo‘nalishi
magistranti Urganch
davlat universiteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiyning “Taviz ul-oshiqin” devonidagi g‘azallarda uchraydigan vaqt bilan bog‘liq raqamlar tahlil qilinadi va mumtoz adabiyotda vaqt falsafasining raqamlar orqali qay yo‘sinda ifodalanishi baytlar misolida yoritiladi. Shuningdek, ushbu raqamlarning bayt mazmunini ochishdagi va poetik shakllanishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Аннотация: В статье анализируются числа, связанные со временем, в газелях Огахи из сборника «Тавиз уль-Ошикин» и освещается, как понятие времени выражается через числа в классической литературе на примере стихов. Также показана роль этих чисел в раскрытии содержания стиха и в поэтическом формировании.

Annotation: The article analyzes numerical expressions related to time found in the ghazals of Ogahiy’s divan “Taviz ul-oshiqin” and examines how the concept of time is represented through numbers in classical literature, illustrated with examples from poetic couplets. In addition, the role of these numerical elements in revealing the meaning of the couplets and in the formation of poetic structure is demonstrated.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, g‘azallar, lahza, fursat, dam, vaqt, tasavvuf, komil shaxs, mumtoz adabiyot, oshiq, hasad, yor.

Ключевые слова: Огахи, газели, момент, возможность, отдых, время, мистицизм, совершенный человек, классическая литература, влюблённый, зависть, возлюбленная.

Key words: Ogahi, ghazals, moment, opportunity, time, sufism, complete individual, classical literature, lover, envy, beloved.

She’riyatning asosiy tasvir obykti insonning qalbi, kechinmalari, his-tuyg‘ularidir. Ammo inson boshidan o‘tkazuvchi tuyg‘ular vaqtinchalik - oniy. Shunday ekan, adabiyotda lahza, fursat, damning ham ahamiyati katta. “Darhaqiqat,

bir dam, bir on, bir lahza va fursatlarni qadrlash, ularning zoye ketmasligini his qilish uygʻoqlikdan dalolat beradi. Inson ayni damda hozir yashab turgan, nafas olayotgan fursatlarini qadrlay olsagina, nurli oʻtmish va yorqin kelajakka xolis nazar tashlay oladi” [1, 217-bet]. Demak, vaqt bu bizning oʻtmishimiz, hozirimiz va kelajagimizdir, deb bermalol ayta olamiz.

Taʼkidlash joizki, shoir Ogahiy ijodida vaqtni bildiruvchi soʻzlar bilan kelgan sonlar 56 ta oʻrinda koʻzga tashlanadi. Navoiyda esa bu koʻrsatkich 63 tani tashkil qiladi.

Mumtoz adabiyotimizning yirik vakillaridan biri boʻlmish Ogahiy ijodida ham vaqtning kichik birliklari - lahza, on, damning qiymati baland holatda tasvirlanadi. Shoir ijodida qoʻllanilgan, raqamlar bilan birga kelgan vaqtga oid tushunchalarni talsafiy jihatdan tadqiq qilish mumkin.

“Vaqt keskir qilichdir. Agar keskir boʻlmaganda edi, holdan holga oʻtguningga qadar seni kutgan boʻlardi. Holbuki, zamon oʻtkir qilichdek harakatlanadi va oʻz hukmini ijro etadi” [2, 157-bet]. Najmiddin Kubro tomonidan qayd erilgan ushbu fikrlar nafaqat tasavvuf yoʻliga kirib, komillik sari borayotgan murid uchun, balki oʻzini tanigan har qanday inson uchun dasturul amal boʻlishga loyiq.

Ogahiy ham oʻzining “Yo Rab” radifli gʻazalida Allohdan bir dam bòlsa ham nafsga magʻlub qilib qoʻymasligini soʻraydi:

Ishq zavqini yetkur jongʻa har nafas, yo Rab,
Nafs komini bir dam qilma dastras, yo Rab.

[4, 60-bet]

Nafs tasavvuf adabiyotida keng qoʻllaniluvchi istilohlardan biri boʻlib, tasavvufdagilarni maqsaddan ogʻdiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Unga bir nafasga ham qoʻl bermaslik lozim.

Boshqa bir gʻazalida esa Ogahiy dunyo va undagi barcha narsalardan inson umridan bir kunni afzal biladi, uni mavjud borliqdan ustun qoʻyadi. Baytda qoʻllanilgan “Dunyovu mo fiyho” dunyo va undagi barcha narsalarni anglatadi:

Voqif o‘l, o‘tkarmagik behuda umringkim, oning
Bir kuniga bo‘lmog‘ay “dunyovu mo fiyho” evaz.

[4, 176-bet]

Ogahiyning devonidan olingan boshqa bir parchaga diqqat qilsak:
Tong ermas, bo‘lmasam bir lahza hosid makridin emin,
Ki shaytondin adovat to abad Odamg‘ua maqrundur.

[4, 111-bet]

Baytning umumiy mazmunini ochiqlashdan oldin undagi ayrim tushunchalarga izoh bersak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. 1-misrada qo‘llanilgan “hosid” so‘zi hasad ma‘nosini, “emin” omonda, xavfsiz, tinch ma‘nolarini, 2-misradagi “maqrun” so‘zi esa yaqinlashgan, yaqin, yondoshgan ma‘nolarini anglatadi.

Bilamizki, hasad shaytoniy illatlardan biri. Parcha orqali ham Ogahiy qiyomatga qadar inson uchun dushman deya bitilgan, ammo u bilan har lahza yondosh bo‘luvchi shayton bor ekan, har bir kimsa hasaddek yomonlikdan yiroq emasligini uqtirmoqda. Shoirning “Ey ko‘ngul” radifli g‘azalida ham hasad, mol-dunyoga ruju qo‘yish, boylikka kòngil berish qoralanadi, boriga qanoat qilishga, dahrga qo‘l silkib, fano tomon azim etmoqlikka chaqiradi. Ushbu g‘azalda ham yuqoridagi parcha mazmuniga monand bayt mavjud. Unda aytiladiki, hasad o‘ti kishiga bir lahza fursat bermadi, u jahonni yoqishga qodir:

Kima hasad o‘ti jahonni yoqg‘usi,
Bermayin bir lahza fursat, ey ko‘ngil.

[4, 229-bet]

Bir lahza, bir nafas, bir damda shunday katta kuch-qudrat yashiringanki, haqiqiy oshiq uchun bu vaqtning qiymati baland. U kichik fursatga bo‘lsa-da yor xotirasidan ko‘tarilishiga rozi emas:

Qilma ko‘nglung bir nafas xoli xayoli yordin,
Har qachonkim durdin ayrilsa bo‘lur rasvo sadaf.

[4, 192-bet]

Ushbu baytni ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda tushunish mumkin. Sadaf bu marvarid qobig‘i, bu qobiqqa rang solib, davot o‘rnida ishlatganlar, shunday idishni sadaf deb ataganlar. Tasavvufda keng qo‘llaniluvchi durd esa mayning quyqasi. Bir qarashda muallif “Yorning xayolini bir nafas ko‘ngildan chiqarmaslik lozim, zero durdidan ayrilgan sadaf ishlatish uchun yaroqsiz bo‘ladi” deyotgandek bo‘ladi. Ammo baytning ikkinchi - zohiriy ma’nosi ham mavjud. Yor deyilganda Alloh tushunilsa, parcha orqali bir zum bo‘lsa ham Allohdan ko‘ngil uzmaslik lozimligi, aks holatda inson asl maqsadini yo‘qotgan sadafga, ya’ni foydasiz bir buyumga aylanib qolishi ta’kidlanayotganini ko‘rish mumkin. Ogahiy o‘zining bu ijod mahsuli orqali ahli kitobxonga Qur’oni Karimning Baqara surasi 156-oyatini eslatayotgandek bo‘ladi. Oyatning mazmuni quyidagicha: “Biz Allohnikimiz va unga qaytuvchimiz” [5, 85-bet]. Ogahiy ham o‘z ijod mahsuli orqali shu narsani ta’kidlamoqchi desak, noto‘g‘ri bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mumtoz adabiyotimizda, xususan Ogahiy ijodida vaqt falsafasining raqamlarda ifodalanishi qator o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi va har bir birlik o‘ziga xos ma’no kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Жумаева С. Алишер Навоий шеърлятида рамзий рақамлар талқини // Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 15-жилд. - Т.: “Тамаддун” нашриёти. 2022.
2. Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. - Т.: 2004.
3. Порсо Шамсиев. Алишер Навоий асарлари лугати. - Т. “Гафур Гулом” нашриёти. 1972.
4. Rafiddinov S. Ogahiy // Turkiy adabiyot durdonalari. 9-jild. - Т.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2022.
5. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири хилол. - Т.: “Nilol nashr” нашриёти. 2024.

FILOLOGIYA**AHMAD YASSAVIY IJODIDA TIL, POETIKA VA
MATNSHUNOSLIK MASALALARI**

Sadikova Dildora,
Farmasevtika ta'lim
va tadqiqot instituti
Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrasi katta
o'qituvchisi.

UO'K 81(342)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy ijodi filologik nuqtayi nazardan keng va tizimli ravishda tahlil qilinadi. Xususan, “hikmat” janrining shakllanishi, poetik tizimi, leksik-semantik qatlamlari, morfologik va sintaktik xususiyatlari, tasavvufiy terminologiya, aruz va xalqona vazn unsurlari, shuningdek, matnshunoslik muammolari o'rganiladi.

Аннотация: В данной статье творчество Ахмад Яссави анализируется с филологической точки зрения в широком и системном аспекте. В частности, рассматриваются формирование жанра «хикмат», его поэтическая система, лексико-семантические пласты, морфологические и синтаксические особенности, суфийская терминология, элементы аруза и народного стихосложения, а также текстологические проблемы.

Annotation: This article examines the works of Ahmad Yassavi from a comprehensive philological perspective. In particular, it analyzes the formation of the “hikmat” genre, its poetic system, lexical-semantic layers, morphological and syntactic features, Sufi terminology, elements of aruz and folk versification, as well as textual and manuscript issues.

Kalit so'zlar: hikmat, tasavvuf she'riyati, turkiy adabiy til, poetika, semantika, matnshunoslik, irfoniy adabiyot.

Ключевые слова: хикмат, суфийская поэзия, тюркский литературный язык, поэтика, семантика, текстология, ирфаническая литература.

Key words: hikmat, Sufi poetry, Turkic literary language, poetics, semantics, textology, irfan literature.

XII asr Markaziy Osiyo ijtimoiy-madaniy hayotida tasavvufiy tafakkur alohida mavqe kasb etgan davr sifatida xarakterlanadi. Bu davrda islom sivilizatsiyasi doirasida shakllangan irfoniy ta'limotlar nafaqat diniy hayot, balki

adabiyot, til va madaniyat taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, tasavvufning ma'naviy-axloqiy tamoyillari xalq ongiga chuqur singib, adabiy jarayonda yangi ifoda shakllari va janrlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ana shunday murakkab va serqirra tarixiy-madaniy muhitda Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'liq adabiy hodisa maydonga chiqdi.

Ahmad Yassaviy ijodi turkiy xalqlar ma'naviy hayotida tub burilish yasagan muhim bosqich hisoblanadi. U tasavvufiy g'oyalarni asosan arab va fors tillarida bayon etish an'anasi hukmron bo'lgan bir davrda, ularni turkiy tilda ifodalashga jur'at etdi. Bu esa irfoniy ta'limotni keng xalq ommasiga yaqinlashtirdi, tasavvufni elitar doiradan chiqarib, ommaviy ma'naviy hodisaga aylantirdi. Shu jihatdan Yassaviy faoliyati nafaqat diniy-ma'rifiy, balki ijtimoiy-madaniy va filologik ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy jarayon sifatida baholanadi.

Yassaviy merosining ahamiyati, avvalo, uning til siyosatida namoyon bo'ladi. Turkiy tilni irfoniy-falsafiy mazmunni ifodalash vositasiga aylantirish orqali u adabiy til taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu jarayon turkiy adabiy tafakkurning shakllanishi va mustahkamlanishiga kuchli turtki bo'ldi. Yassaviy hikmatlarida xalqona so'zlashuv unsurlari, sodda sintaktik qurilmalar va chuqur ramziy mazmun uyg'unlashib, o'ziga xos poetik tizimni yuzaga keltirdi.

Shuningdek, Yassaviy ijodi og'zaki va yozma adabiyot o'rtasida o'ziga xos ko'priq vazifasini bajardi. Uning hikmatlari xalq og'zaki ijodiga xos ohang, takror va ritmik tuzilishga ega bo'lsa-da, mazmun jihatidan yuksak irfoniy-falsafiy qatlamni o'zida mujassam etadi. Bu xususiyat Yassaviy merosini turkiy adabiy til tarixida alohida bosqich sifatida ko'rsatadi. Hikmatlar nafaqat tasavvufiy g'oyalarni targ'ib qiluvchi matn, balki lingvistik va poetik tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida ham qimmatlidir.

Ahmad Yassaviyning *“Devoni hikmat”* (1991) asari asosiy manba bo'lib, unda hikmatlarning til xususiyatlari, tasavvufiy terminologiya va poetik vositalarni bevosita tahlil qilish imkoniyati mavjud. Sulaymon Boqirg'oniyning *“Boqirg'on kitobi”* (1998) Yassaviy an'anasining davomiyligini ko'rsatadi hamda hikmat janrining keyingi taraqqiyotini qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ibrohim Haqqul (*“Tasavvuf va she'riyat”*, 2004) va Najmiddin Komilov (*“Tasavvuf”*, 2009) asarlarida tasavvufiy poetika va irfoniy tushunchalarning nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, ular Yassaviy hikmatlaridagi ramz va terminlarni talqin etishda metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

“O‘zbek adabiyoti tarixi” (2000) Yassaviy ijodining tarixiy-adabiy kontekstdagi o‘rnini belgilaydi. Bertels Evgeniy Eduardovichning *“Sufizm i sufiyskaya literatura”* (1965) tadqiqoti esa tasavvuf adabiyotining umumiy nazariy asoslarini ochib berib, Yassaviy merosini kengroq adabiy jarayon doirasida baholash imkonini yaratadi.

Devoni hikmat turkiy tasavvuf adabiyotining ilk yirik yodgorliklaridan biridir. “Hikmat” so‘zi arabcha “hikma” — donolik, ilohiy haqiqat ma’nosini anglatadi. Yassaviy ushbu atamani janr nomi sifatida mustahkamladi. Hikmatlarning asosiy xususiyatlari: didaktik mazmun, nasihat va pandning ustuvorligi, irfoniyl tajribaning she’riy ifodasi, xalq og‘zaki ijodiga yaqinlik.

Janr sifatida hikmat masnaviy, ruboiy yoki g‘azal kabi qat’iy shakliyl qoidalarga bo‘ysunmaydi. Unda erkin tuzilma ustun. Hikmatlar ko‘pincha Allohga hamd bilan boshlanadi, nafs tanqidi va dunyo foniyligi bayoni bilan davom etadi, komillikka da’vat bilan yakunlanadi. Bu kompozitsiya Qur’oni karim uslubiga hamohang bo‘lib, diniy-matn an’anasiga yaqinlikni ko‘rsatadi.

Shuningdek, Yassaviy hikmatlarida quyidagi asosiy semantik maydonlar mavjud: “Nafs – insonning past mayllari”, “Ishq – ilohiy muhabbat”, “Ma’rifat – haqiqatni anglash”, “Tariqat – ruhiy yo‘l”, “Haqiqat – ilohiy mohiyat”. Bu terminlar arabcha-forscha kelib chiqishga ega bo‘lsa-da, turkiy sintaktik muhitda faol ishlatilgan. [1;41.]

Matnda turkiy so‘z boyligi asosiy qatlamni tashkil qiladi. Oddiy fe’llar, xalqona iboralar, maqolga yaqin ifodalar hikmatlarni xalq tiliga yaqinlashtiradi. [5.]

Masalan:

- “yo‘lga tushmoq”
- “ko‘ngilni pok tutmoq”
- “dunyo moliga aldanmoq”

Bu birliklar diniy g‘oyalarni sodda va tushunarli shaklda ifodalaydi.

Yassaviy tilida ramzlar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, “Yo‘l” – tariqat, “Nur” – ilohiy haqiqat, “Dengiz” – ilohiy ishq cheksizligi, “Ko‘ngil” – qalb ma’nolarini anglatadi. Ramzlar semantik jihatdan ko‘p qatlamli bo‘lib, tasavvufiy talqin talab qiladi.

Morfologik va sintaktik xususiyatlarida fe’l tizimi ham hikmatlarda faol qo‘llanadi. Buyruq mayli shakllari keng uchraydi, ya’ni “Tavba qil!”, “Nafsingni tiy!”, “Haq yo‘lida yur!” kabilar, bu shakllar didaktik ohangni kuchaytiradi.

Sintaktik sodda qurilish Yassaviy matnlarida quyidagi holatlarda uchraydi: qisqa gaplar, takroriy parallel tuzilmalar, undov gaplar ko‘p. Bu hol og‘zaki nutq ta‘sirini kuchaytiradi.

Vazn masalasi ham hikmatlarda aruz unsurlari seziladi, biroq xalqona barmoq tizimiga yaqinlik ham mavjud. Bu ikki tizimning sintezi o‘ziga xos poetik hodisadir. Yassaviy hikmatlarida lirik qahramon — tavba qiluvchi, izlovchi, komillikka intiluvchi shaxsdir. Bu obraz tasavvufdagi “solik” tipiga mos keladi.

“Devoni hikmat” bizgacha turli qo‘lyozma nusxalarda yetib kelgan. Matnlar orasida, leksik farqlar, ayrim interpolatsiyalar, fonetik tafovutlar mavjud. Shu bois qiyosiy-matnshunoslik tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ba’zi hikmatlarning muallifligi masalasi ham ilmiy bahsli hisoblanadi. Keyingi davr shogirdlari tomonidan qo‘shilgan qismlar ehtimoli mavjud.

Yassaviy ta‘limoti keyingi asrlarda tasavvufiy adabiyot rivojiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Jumladan, Sulaymon Boqirg‘oniy (xalq orasida Hakim ota laqabi bilan mashhur bo‘lgan) ijodida Yassaviy an‘analari davom etdi. [2;80] Yassaviy merosi turkiy tasavvuf she‘riyatiga asos soldi, xalqona irfoniy uslubni mustahkamladi, diniy-falsafiy tafakkurni turkiy tilga olib kirdi. Ibrohim Haqqulning ta‘kidlashicha, Yassaviy asarlariga qarash shunchaki nostandart talqin emas, balki **“chuqur ilmiy, falsafiy xulosalar va teran mushohadalarga asoslangan”** yondashuvni talab qiladi. [3.] Shuningdek, turkiy tilning diniy-irfoniy imkoniyatlarini kengaytirdi, tasavvuf terminologiyasini tizimlashtirdi, yozma adabiyot va og‘zaki ijod o‘rtasida sintez yaratdi.

Bu jihatlar keyinchalik chig‘atoy adabiy tilining shakllanishiga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Filologik nuqtayi nazardan Yassaviy ijodi leksik qatlamlarning tarixiy evolyutsiyasini o‘rganishda, turkiy sintaksis taraqqiyotini aniqlashda, tasavvufiy poetika tizimini tadqiq etishda, diniy-matn semantikasini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Umuman olganda, “Tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma‘naviy hayotiga chuqur kirib bordi; fan, madaniyat va adabiyot rivojlanishga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g‘oyalaridan ruhlanganlar. [4;4.]Shuni nazarda tutib, atoqli olim E.E. Bertels o‘tgan asrning boshidayoq qayd etgan edi: “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin”. [6;45.]

Ahmad Yassaviy ijodi turkiy adabiy tafakkur tarixida alohida bosqichni tashkil etadi. U tasavvufiy g'oyalarni xalq tilida, sodda va ta'sirchan shaklda ifoda etib, hikmat janrini shakllantirdi. Filologik tahlil shuni ko'rsatadiki birinchidan, uning tilida turkiy qatlam ustuvor, ikkinchidan, poetik tizim sodda, ammo chuqur ramziy ma'noga ega, uchinchidan, sintaktik qurilish og'zaki nutqqa yaqin, to'rtinchidan, matnshunoslik jihatidan qo'lyozma tafovutlari mavjud.

Yassaviy merosi nafaqat diniy-irfoniy, balki tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ham bebaho ilmiy manbadir. Uning ijodi turkiy adabiy til taraqqiyotida mustahkam poydevor vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy. *Devoni hikmat*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 226 b.
2. Sulaymon Boqirg'oniy. *Boqirg'on kitobi*. – Toshkent: Fan, 1998. – 80 b.
3. Ibrohim Haqqul. *Tasavvuf va she'riyat*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 184 b.
4. Najmiddin K. *Tasavvuf*. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – 447 b.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
6. Бертелс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М: Наука, 1965. – 528 с.

FILOLOGIYA

“Elning dard-u g‘amlariga bir malham bo‘lib...”



**Baxriddinova
Dildora,
Filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent.**

UO‘K 81(342)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sayyora Samandarning *Turkon xotun* haqidagi dostoni tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется эпическая поэма Сайёры Самандара о Тюрконе Хотуне.

Annotation: This article analyzes Sayyora Samandar's epic poem about *Turkon Khotun*.

Kalit so‘zlar: *Xorazmshoxlar, Chingizxon bosqini, davlat tanazzuli, malika, taxt, hukumdor*

Ключевые слова: *Хорезмшахи, вторжение Чингисхана, упадок государства, царица, трон, правитель*

Key words: *Khorezmshahs, Genghis Khan's invasion, state decline, queen, throne, ruler.*

Buyuk fransuz adibi Viktor Gyugo “Tarixning chiqindi qutisi bo‘lmaydi” degan edi. Biz ajdodlarimizning bitmas jasorati-yu, shonli o‘tmishimiz bilan faxrlanishga o‘rganganmiz. Ammo ko‘hna tarix xarobalari orasida ko‘milib yotgan, rad etib bo‘lmas shunday haqiqatlar borki, ularni eslaganda Gyugo qanchalar haq ekaniga amin bo‘lamiz. *Turkon xotun* tarixi huddi shunday o‘ksik tarixdir. Iste’dodli shoira, Xorazm farzandi Sayyora Samandarning “*Turkon xotun bilan uch bahs*” nomli dostonida ana o‘sha “tariximizning eng qora, kirlik kunlaridan” biri bo‘lgan Xorazmshohlar saltanatining patorat topishi, malika *Turkon xotun*ning fojey qismati mavzusi qalamga olinadi.

“*Turkon xotun bilan uch bahs*” kuchli dramatizmga asoslangan epik xarakterdagi doston bo‘lib, zamonaviy o‘zbek dostonchiligida tarixiy mavzuni yoritishda o‘ziga xos yangicha uslubi bilan ajralib turadi. Doston qahramonlari *Turkon xotun*, Nasaviy kabi tarixiy shaxslar, ona Jayhun, osmon kabi ramziy obrazlar va dostonda roviy vazifasini o‘tagan Men obrazlaridan iborat. Dostonda Men nomi bilan so‘zlovchi avlod o‘z ajdodlari ruhidan hisob so‘raydi. Muallif bugunning avlodlari ovozi bo‘lib *Turkon xotun*ni so‘roqqa tutadi. Nasaviy - tarixning tirik timsoli. Dostonda u xalq vijdoni vazifasini o‘taydi. Ona Jayhun timsolida esa ajdodlar xotirasining o‘ziga xos arxetipi namoyon bo‘ladi. Osmon

obrazi azal qonuniyatlarning o'zgarmas ramzidek go'yo. Bu obrazlar galeriyasi dostonda o'ziga xos polifoniya yaratadi. Doston boshlanmasida ruhi bedor Men ko'kka tikilib, yulduzlarni savolga tutadi:

*Nogahonda tilga kirdi ul ikki shu'la.
Mening otim Turkon xotun, dedi ul biri,
O'z davrida xudovandi jahon atalgan,
Ikki dunyo xotinlarin xoni sanalgan,
Vale bag'ridagi yashil chinorlarining
Barglarini o'zi yulib, tutdayin to'kkan,
Lochin kabi o'g'illarga bosh bo'lolmagan,
Hasratlari, afsus ila nadomatlari
Hech tugamas, baxtiqaro, mungli onaman...
Siz kim, deya o'zgasiga tashlasam nigoh,
Nasaviyman, bolam, dedi, dili poraman.
G'alaba-yu qironlarga, qon bo'lib oqqan
Daryolarga hamda charxning o'yinlariga,
Butun boshli saltanatning ichdan darz ketib,
Har yon qulab tushganiga o'zimman guvoh...*

Nasaviy dostonida ro'y bergan tarixiy xodisalar ortidagi shafqatsiz hakam sifatida ko'rinadi. O'z davrida "Xudovandi jahon" deya ulug'langan, Xorazmshohlar saltanatida ulkan ta'sir doirasiga ega bo'lgan Turkon xotun esa onalik tuyg'usi va saltanat oldidagi mas'uliyati orasida sarson kezgan, ruhan parchalangan qahramondir. U tarixda mavjud saltanatlardagi yomon malikalar singari davlatni boshqarishda ra'iyatning emas o'z manfaatlarini ustun qo'ydi, adolatsizlik tizginidan tutdi. Hokimiyatdagi ta'sirini kuchaytirgach, atrofiga qipchoq urug'idan bo'lgan amaldorlarni yig'di. Kelini, Jaloliddin Manguberding onasi Oychechak xotunni turkman (o'g'uz) naslidan bo'lgani uchun yoqtirmasdi. Jaloidinni voris sifatida qo'llab-quvvatlamagani sabablardan biri mana shu edi. Shu kabi mahalliychilik bilan olib borgan siyosati saltanaatni ichdan zaiflashuviga sabab bo'ldi. Eng dahshatlisi, Chingizxon Xorazm zaminiga ko'z tikkan chog'da Turkon xotunga bir maktub yuborib "O'g'lingning sening tabiatingga nisbatan qilgan nojo'ya hatti-harakati senga yaxshi ma'lum. Mana endi, uning amirlaridan ba'zilari bilan kelishgan holda, men unga qarshi chiqmoqchiman, ammo men sen egalik qilayotgan joyga bostirib bormayman. Agar sen taklifimni qabul qilsang, mening ishonchli ekanligim haqida senga guvohlik beruvchilardan birini mening oldimga yubor. So'ngra esa Xorazm, Xuroson hamda Jayxunning narigi tomonidan u bilan yonma-yon bo'lgan yerlar senga beriladi", -deydi. Turkon xotun kuchlarni birlashtirish, yog'iyga qarshi kurashish o'rniga qo'rquv ichida shaharni taqdir hukmiga tashlab, Xorazmdan

chiqib ketadi. Muallif Turkon xotun obrazida hukmron shaxsning axloqiy inqirozi va vatan va e'tiqod dialektikasini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Muallif nazdida Turkonning qochishi yechim emasdi. Bu iymon-e'tiqodning yemirilishi edi. Bu "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" deya so'nggi tomchi qoni qolguncha mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Najmiddin Kubrolarning a'moliga zid bir harakat edi. Bugunning ovozi bo'lmish Men obrazini ana shu haqiqatlar azoblaydi. Turkon xotin shaxsiyatida hukmronlikka intilish, g'azab va ayni chog'da tuzatib bo'lmas xatolari tufayli nadomat, o'zini oqlash tug'ulari qorishiq tarzda namoyon bo'ladi. Bu uning obraz sifatidagi imkoniyatlarini oshirgan, hayotiyligini ta'minlagan.

Men onamen, tosh emas-ku mendagi yurak,
Garchi oni toshdan qattiq demish nokaslar.
O'g'lin tor-mor aylamoqqa qasd etsa yog'iy,
Qaysi ona unga axir esh bo'lur, qizim?!

degan iqrorlari uni ayol, ona sifatidagi nozik tuyularini ham ko'rsatadi. Lekin roviy - Menga bu o'zini oqlashdek ojizlik bo'lib tuyuladi:

Ha, sen ona eding!
Ammo sen yolg'iz
Sulton Aloviddin Muhammadningmas,-
Sen shu elning, sen shu yurtning Onasi eding!...
Yo'qmi edi dilginangda isyon atalmish
Olovning yilt etgan zarra uchquni?
Nahot?!

Nasaviy ham "axir Urganch himoyasiga jonu tanni nisor etmoq mumkin edi-ku. Bunga mard va jasur odamlarimizning qudrati yetardi", deya taassuf bilan yozg'iradi. Dostonda asosiy konflikt qo'rqqulik va g'urur, ona va o'g'il, hokimiyat va vijdon, tashqi dushman va ichki parokandalik tevaragida kechadi. Muqaddimadan boshlangan ruhlarning suhbatlari keyingi bahslarda voqelarning shiddatli rivoji bilan keskinlashadi. Urganchni tark etar chog'ida Turkon xotun shaharda asir saqlanayotgan va undan panoh istab kelgan sultonlarni, hokimlarni va ularning o'g'illarini o'ldirishni buyurdi. Ularnin hammasini Amudaryoga cho'ktirdilar. Bu sharmandali qiliqdan so'ng Urganch ahlining ko'pchiligi Turkon xotundan yuz o'giradi. Malikaning yovuzligi, yetti o'lchab bir kesmasligi mamlakatni oxir parokanda qildi. Muallif lostonda Ilol qal'asida Turkon xotun asir tushgan chog'da "Ilol qal'asi o'zining bir jihati bilan o'zga qal'alardan ajralib turardi. Qal'a tepalikda joylashganligi bois bu yerlarda muntazam ravishda yog'uvchi yomg'ir, sellar uning hayoti, rizqi edi. Turkon xotun o'z karvoni bilan Iloldan panoh topgan ondan boshlab, bu hududga bir

tomchi ham suv tushmaydi...” degan tarixiy faktlarni keltirib, Turkon obrazini to‘laqonli ochishda shu kabi parallelizmlardan mahorat bilan foydalanadi. Ilol qal’asini suvsizlik taslim qiladi. Qizig‘i, qal’a darvozalari yog‘iyga taslim bo‘lib ochilgan vaqtda ko‘kdan yomg‘ir yog‘ib hamma yoq suvga to‘ladi. Bu tabiatning yovuzlik qarshisidagi hisob-kitobi bo‘lsa ne ajab?

Dostonning Uchinchi bahsida Turkon xotunning nabirasi Jaloliddin sha’niga aytgan nafratli so‘zlari bu ayolning tabiatini rostmana ochib beradi. Men Turkon xotunga ko‘zgu tutib aytadi:

*Yolg‘on bo‘lsa, momojonim, so‘zla, ne uchun
O‘z nevarang, Jaloliddin Manguberdining –
Tomirida sening qoning ham oqib turgan
Yuragingning bir parchasi – jigargo‘shangning
Huzuriga borishdan ham ko‘ra sen axir
Afzal ko‘rding Chingizxonga asiralikni?
Yovning dasturxonidagi non ushoqlarin
Termoq va itning yalog‘idan ovqat yemoq
Sen uchun osonmidi?*

Ichki nizo, boshboshdoqliklar tashqi dushmandan ham yomon xatar ekani ochiq ko‘rinadi. To‘marisdek botir malikalar yurtida Turkon xotundek ayollarning tadbirsizligi yurti yog‘iyga oyoq osti qildirdi, taraqqiyotini bir necha asrlar orqaga qaytardi. Guruhbozlik, mahalliychilik kabi illatlar tarqqiyotning oyog‘iga tushov bo‘lishi asarning har bir satriga singib ketgan. Dostonda shoira tarixiy voqelikni tasvirlash bilan birganlikda unga faol ravishda munosabatini bilirib boradi. Bu doston janri spesifikasiga xosdir. Ona Jayhun va Osmonning tashhislangan xolda harakat qilishi ham asar badiiyatini oshirgan. Doston tarixiy haqiqatga asoslangan. Turkon xotun, Aloviddin Xorazmshoh, Jaloliddin, Badriddin Hilol kabi tarixiy shaxslar va voqealar – Ziyo Bunyodovning “Anushteginlar sulolasi” hamda Shahobiddin an-Nasaviyning “Siyoratnoma”sida kelgan dalillar asosida ifoda etilgan. Sharhlar orqali dostonda badiiylik va tarixiylik o‘rtasidagi muvozanat ta’minlangan. Doston erkin vaznda yozilgan. Asar tili fasohatli, xalq og‘zaki ijodi va mumtoz poetika an’analari asosida boyitilgan. Takrorlar va parallelizmlar asar ritmini ushlab turadi, ma’noni kuchaytiradi. Dramatik bahslar esa o‘quvchi qalbini iztirobga soladi. Tarixning noma’lum bo‘lgan sahifalarini mozaika yanglig‘ bitta-bitta butlab ko‘rsatadi. Turkon xotun timsolida qudrat va zaiflik uyg‘un tasvirlangan. Uning nutqi, qiyofasi, harakatlari orqali muallif uni bir paytning o‘zida ham siyosiy yetakchi, ham ojiz inson sifatida ko‘rsatadi. Qahramonning dialoglari keskin, lekin ayrim ichki monologlarda ayollik hislari, shubha va iztiroblari yaqqol ko‘rinadi.

Dostondagi asosiy konsepsiya — vatanparvarlik, xalq oldidagi tarixiy mas’uliyat, vatanga xiyonat oqibatida yurtning halokatini ko’rsatishdir. Turkon xotun va Aloviddin Xorazmshoh kabi rahbarlar o’z manfaatini ko’zlab, vatanga xiyonat qilgan, natijada saltanat qulagan. Lekin “Turon arsloni” nomi bilan shuhrat tutgan Jaloliddin esa Vatan himoyasiga otlanadi. Bu kontras orqali muallif Vatanning muqaddasligini, Uni himoya qilish iymondan ekanini, Munofiqlik va qo’rqqoqlikning halokatli oqibatini ko’ratib beradi:

Ey, mening ona tuprog‘im, qadim Xorazm!
Ey, mening Vatanim, Ona O‘zbekistonim!
Tingla, yurak amrim mening farmon bo‘ladi,
Ko‘kka yetib, o‘ylarim ham osmon bo‘ladi.
Ko‘zin tiksa kimki agar bu azim yurtga,
Unga faqat yetgani g‘am, armon bo‘ladi.
Ogoh bo‘lsak agar bizlar har lahza, har on,
El-u yurtning bor mushkuli oson bo‘ladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

**3-son (38)
2026-yil, Mart.**

Bosh muharrir v.v.b.:	Sh.Ismoilov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	M.Jumaniyozov
Navbatchi:	U.Bekmuhammad

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnomaga berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 14,125 b.t. Buyurtma №1/26.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22